

G.A. ASILOVA



O‘ZBEK

TILI

DARSLIK

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

G.A. ASILOVA

O‘ZBEK TILI

DARSLIK

**Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashi
qarori bilan oliy ta‘lim bakalavriat yo‘nalishlari rus guruhlari
uchun darslik sifatida tavsiya qilingan**

“Yosh kuch”

Toshkent – 2018

UO‘K: 811.512.133(075.8)

KBK: 81.2 O‘zb-923

A-83

Asilova G.A. O‘zbek tili. Darslik. – T.: “Yosh kuch”, 2018. – 436 b.

Taqrizchilar:

X.S. Muhiddinova – O‘zDJTU “Umumiy tilshunoslik” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

M.R. Abdurahmonova – O‘zMU “O‘zbek tili va nutq madaniyati” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur darslik oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishlarida ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlar talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan joriy etilgan “O‘zbek tili” fani dasturi asosida yaratilgan. Unda rus guruhleri talabalarining umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘zbek tilidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun fan bo‘yicha egallangan bilim hamda ko‘nikmalarini muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

ISBN 978-9943-5472-5-4

© “Yosh kuch”, 2018

© G.A. ASILOVA, 2018

SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Respublikamizda yashaydigan turli millat vakillarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishida ularning davlat tilida samarali muloqot yuritishi, shaxsiy hamda rasmiy hujjatlar bilan ishlash talablarini bilishi, ularni sifatli bajara olishi muhim o‘rin tutadi.

Qo‘lingizdagi darslik bakalavriat yo‘nalishlarining rus guruhlarida tahsil oladigan talabalar uchun mo‘ljallangan. Uning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni o‘zbek tilida muloqot yuritish, turli sohalarga xos bo‘lgan terminlarni nutqda samarali va to‘g‘ri qo‘llash, monologik va dialogik matn tuzish, nutq uslublari bilan ishlash, ish hujjatlarini tayyorlash hamda rasmiylashtirishga o‘rgatishdan iborat. Darslikda qo‘llangan pedagogik texnologiyalar talabaning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkuri hamda nutqini o‘stirishga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilida turli mavzularda erkin fikr yuritishga undaydi.

Darslik 2 bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda mavzu doirasida talabaning so‘z boyligini oshirishdan matn yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarda qo‘llanadigan topshiriqlar tizimi berilgan. Ikkinchi bo‘limda rasmiy ish uslubi bilan ishlash vositasida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqatini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Darslikning “Mutolaa” deb nomlangan qismi talabalarni jahonga mashhur adiblar hamda o‘zbek yozuvchilarining ibratli asarlaridan namunalar bilan tanishishga va ulardan tegishli xulosalar chiqarishga chorlaydi.

G.A. Asilova,
pedagogika fanlari doktori

I BO‘LIM

1-mavzu

O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN



1. Vatan haqidagi ta’riflarni o‘qing. Ularning mazmunini o‘z so‘zingiz bilan ifodalab bering.

“Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g‘urbat havas aylama”. (*Alisher Navoiy.*)

“Cho‘lda o‘rmlab yurgan jonivorlar ham tug‘ilishdanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o‘xshashlar ham o‘z uyalarini muhofaza qiladilar, – shuning kabi odamlar ham qayerda tug‘ilib parvarish topsalar, – o‘sha joyga cheksiz mehr qo‘ygan bo‘ladilar”. (*Fransisk Skorina, belorus faylasufi.*)

“Vatandan tashqarida baxt yo‘q, har kim jonajon yerida ildiz otsin”. (*Ivan Turgenev, rus yozuvchisi.*)

“Kim o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi”. (*Jorj Bayron, ingliz shoiri.*)

2. Maqollarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring.

Baliq suv bilan tirik,
Odam – ... bilan.

Begona tuproq – ... tuproq.

Bulbul chamanni ... ,
Odam – Vatanni.

Vatani borning ... bor,
Mehnati borning

Vatanning ... – sen

O‘z ... qadri
... yurtda bilinar.

3. Gaplarni to‘ldiring.

1. O‘zbekiston Respublikasi _____ va _____ oralig‘ida joylashgan.
2. _____ da Respublikamiz mustaqil deb e‘lon qilindi.
3. O‘zbekistonning _____ shaharlari xalqaro turizm markazlaridir.
4. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi chegaradosh davlatlari:
_____ (shimolda), _____ (sharqda), _____ (janubi-sharqda), _____ (janubda), _____ (g‘arbda).
5. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i _____ da qabul qilingan va undagi timsollar _____ ni ifodalaydi.
6. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi _____ da qabul qilingan va undagi timsollar _____ ni anglatadi.

4. Matnni o‘qing. Undagi asosiy fikrni bir necha gap bilan ifodalang.

Biz yashayotgan go‘zal yurt O‘zbekiston Respublikasi deb ataladi. Bu yurtni qadimda Movarounnahr, keyinroq Turkiston va Markaziy Osiyo deb kelishgan. U Osiyo qit‘asining markaziy va shimoliy qismida, Sirdaryo bilan Amudaryo oralig‘ida joylashgan.

O‘zbekiston – serquyosh o‘lka. Uning maydoni 447,4 ming kvadrat kilometrni egallagan. Davlat tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12ta viloyat kiradi. Mamlakat aholisining tarkibini o‘zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, tatarlar – jami 130dan ortiq millat vakillari tashkil qiladi.

O‘zbekistonning YUNESKO e’tirof¹ etgan va Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan shaharlari: Buxoro, Samarqand, Termiz, Farg‘ona, Xiva, Shahrisabz. Mamlakatimiz 5ta davlat – shimolda Qozog‘iston, sharqda Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston, janubda Afgoniston va g‘arbda Turkmaniston bilan chegaradosh.

Asrlar davomida xalqimiz Vatanimizning chinakam ozod va mustaqil bo‘lishini orzu qilib keldi. Bu yo‘lda shiddatli kurash²lar ham bo‘lib o‘tdi.

1991-yil 31-avgustda Vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi – mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e‘lon qilindi. Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston suveren davlat sifatida dunyo xaritasidan joy oldi.

Vatanimiz mustaqil bo‘lgan davr ichida barcha sohalarda katta ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi³ kun sayin oshib bormoqda. O‘zbekiston xalqi tinch va osuda⁴ hayot kechirmoqda. Buni kimdir Vatan chegaralarining daxlsizligi⁵dan deb bilsa, kimdir uning mustahkam ma’naviy qo‘rg‘oni⁶ bilan izohlaydi. Bu ikki omil uyg‘unligi tufayli jannatmakon yurtimizda totuvlik, osoyishtalik hukm surmoqda.

¹ e’tirof – признание

² shiddatli kurash – тяжёлая борьба

³ nufuz – престиж

⁴ osuda – безмятежный

⁵ daxlsizlik – нерушимость

⁶ ma’naviy qo‘rg‘on – духовная крепость

Hozirgi kunda yurtimiz Markaziy Osiyoning eng katta sanoat, yirik ilm-fan va yuksak madaniyat markazidir. Biz o‘z vatanimizni sevamiz va u bilan faxrlanamiz. Ammo Vatanni sevish tilda emas, dilda, so‘zda emas, amalda bo‘lishini isbotlash va namoyon qilish har birimizning muqaddas burchimizga aylanmog‘i lozim.

5. Berilgan so‘z va iboralarga matndan sinonimlar toping.

Mamlakat, tan olmoq, obro‘-e‘tibor, hamma, sarhad, istiqlol, yetuklik, Osiyoning yuragi, haqiqatan, g‘ururlanmoq, ko‘rsatmoq.

6. Quyidagi so‘zlarning ma‘nosini tushuntirib bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Millat, elat, kamsitmaslik, irq, din, inoq, g‘urur, totuvlik, hamkorlik, tahsin, muassasa, tamoyil, tashabbus, an‘ana, rasm-rusum, qadriyat, ehtiyoj, manfaat.

7. Berilgan so‘z va iboralar ishtirokida bog‘lanishli matn hosil qiling.

Barpo etilmoqda, tilaydilar, hilpiraydi, quvonchli, qadrlaydi, dovrug‘i oshdi, havas qiladi, munosabatlar, iqtisodiyot.

8. Matnni o‘qing, unga sarlavha qo‘ying. Matnning mazmunini qisqacha gapirib bering.

Bugun jahon xaritasiga nazar tashlasak, aksariyat mintaqalarda milliy-etnik munosabatlar murakkablashib, eng ilg‘or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, huquqlarini cheklash holatlari kuzatilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Dunyodagi ko‘pgina o‘zaro nizolar va urushlarning sababi ham irqiy, milliy va diniy kamsitishlarga borib taqaladi. Garchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan xalqaro Konvensiya qabul qilingan

bo'lsa-da, unga rioya qilayotgan davlatlar sanoqli. Bunday davlatlar sirasiga O'zbekiston ham kirishi bizga g'urur baxsh etadi. Zero, 130dan ortiq millat va elat vakillari ahil va inoq yashayotgan yurtimiz jahon ahlining tahsiniga sazovor bo'lmoqda.

1992-yil 13-yanvarda Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi. Ushbu markaz millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- millatlararo totuvlik tamoyillari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

- O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

- madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

- jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish;

- har xil millat va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradioko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar,

ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir millat, elat e'tibor va hurmatga munosib. Shu o'rinda mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikri yodga tushadi: "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi." Bu so'zlar mohiyatini teran anglagan O'zbekiston baynalmilal madaniyat markazi ko'pmillatli xalqimiz manfaatlari, uning urf-odat, qadriyat va an'analari saqlanishi, tili va madaniyatining kelajak avlodlarga to'la-to'kis yetkazilishi yo'lida o'zining ezgu sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda.

9. O'zbekiston Respublikasidagi milliy madaniy markazlar haqida ma'lumot tayyorlang.

10. She'rni ifodali o'qing. Uning mazmunini qisqacha ifodalab bering.

Aytgil, do'stim

Iqbol Mirzo

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt¹,
Seni guldek erkalagan chaman² uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt³,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

¹ shukrona ayt – будь благодарен

² guldek erkalagan chaman – *перен.* заботливый край

³ tuproqqa qayt – вернись на землю

Qachongacha qorning o‘ylab o‘tadirsan?
Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadirsan¹?
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Buncha bino qo‘yma² zarrin choponlarga³,
Saratonda yaproq bo‘lgin⁴ dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo‘lgin⁵ cho‘ponlarga,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo‘lmagaysan,
Yerda qolsang, oftob bo‘lib kulmagaysan.
Qachon belni mahkam tortib bog‘lagaysan⁶?
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko‘rgin o‘zingga sen,
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

11. Matnni o‘qing. Unga nom bering.

Buyuk sarkarda, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur otasining bevaqt o‘limi tufayli 12 yoshda taxtga o‘tirdi. Shu davrdan boshlab uning hayoti taxt⁷ uchun tinimsiz kurashishdan iborat bo‘lib qoldi. Boburning dilida saltanat ishq, temuriylarning yagona qudratli davlatini tiklash havasi jo‘shib, tug‘yon qilardi. U bu harakati bilan o‘zaro qirg‘in-qabohatlarga barham bermoqchi bo‘ldi, lekin



¹ ko‘kdan chalpak kutmoq – *фраз.* ждать у моря погоды

² bino qo‘ymoq – *фраз.* быть высокомерным

³ zarrin chopon – златотканый чапан

⁴ saratonda yaproq bo‘lmoq – стать кроной в жаркую пору

⁵ suyangani tayoq bo‘lmoq – *обр.* быть опорой

⁶ belni mahkam tortib bog‘lamoq – решительно взяться за дело

⁷ taxt – трон, власть

tarixning shafqatsiz to'liqini uni Vatanidan badarg'a etdi. Mana, shoirning o'zi hasrat, afsus va nadomatlar bilan bu haqda nima degan edi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki, ayladim – xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!

31 yoshida vatanini tark etishga majbur bo'lgan Bobur dastlab Afg'onistonga jo'naydi, u yerda o'z hukmronligini o'rnatadi. Musofirlikning 12-yilida Shimoliy Hindistonda Boburiylar sulola¹sining hukmronligi²ga asos soladi.

Bobur umr bo'yi Vatanni eslab, hijron o'tlarida yonib, g'ussaga ko'milib, so'nggi nafasigacha ona-yurt xayoli bilan yashadi. Shoir olis yurtlarda Vatanini qo'msab, ko'plab ruboiylar yozdi.

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.

* * *

Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Boburning eng mashhur asari memuar asar – “Boburnoma”ning Andijonga bag'ishlangan qismida Vatan manzaralari ham shoirning buyuk sog'inchini aks ettiradi. Asardagi ko'plab qaydlarda Vatan timsoli gavdalanadi:

¹ sulola – династия

² hukmronlik – господство

Bormoqqa ne maskan muyassar,

Turmoqqa ne davlat muqarrar.

Hindistonda qudratli saltanat oʻrnatgan, davlatning gullab-yashnashida katta hissa qoʻshgan shoir 1530-yil Agra shahrida olamdan oʻtdi.

Orfoepiya qoidalari

Toʻgʻri talaffuz qoidalarining yigʻindisi *orfoepiya* deb yuritiladi. Toʻgʻri soʻzlash, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Talaffuz meʼyorlari deganda maʼlum bir qonun-qoidalarga amal qilib soʻzlash va yozish tushuniladi:

1) *muhim, munis, muhit, mumkin* soʻzlarining ikkinchi boʻgʻini urgʻu oladi va juda aniq talaffuz qilinadi.

2) *bahor, nahor, savol, shamol* kabi soʻzlarning birinchi boʻgʻinidagi *a* tovushi *o* tovushiga yaqin talaffuz qilinsa ham, *a* yoziladi.

3) *traktor, direktor* kabi soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinidagi unli deyarli talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi.

Urgʻu maʼno talabi bilan qoʻyilib, uning yordamida soʻz maʼnolari farqlanadi: *bogʻlár (koʻp bogʻ)* – *bogʻlár (harakat)*, *surmá (ot)* – *súrma (harakat)*, *atlás (shoyi)* – *átlas (xarita)* va b.

Gapda, odatda, urgʻu olgan soʻz kesim oldida keladi. Bu *mantiqiy urgʻu* deyiladi. Bitta gapda nechta soʻz boʻlsa, hammasi mantiqiy urgʻu olishi mumkin: *Men maktabga bordim. Maktabga mén bordim.*

12. Soʻzlarni toʻgʻri oʻqing. Ularning yozilishi va talaffuziga eʼtibor bering. Har bir soʻzning maʼnosini tushuntiring.

ayon – aʼyon
davo – daʼvo
koʻrk – qoʻrq
sanat – sanʼat
tana – taʼna
sher – sheʼr

alam – aʼlam
qala – qalʼa
nasha – nashʼa
sava – saʼva
tarif – taʼrif
shox – shoh

asl – asil
yetib bor – eʼtibor
ong – oʻng
surat – surʼat
toʻrt – turt
zar – zor, zoʻr

Talaffuz va ohang

Talaffuzda ohang muhim o‘rin tutadi. Ohang vositasida so‘z birikmalari va gap, uning bo‘laklari farq qilinadi: *Tozagul* (ot, atoqli ot) – *toza gul* (so‘z birikmasi).

1. *Mashinadan / ikki bolali ayol tushdi.*

2. *Mashinadan ikki / bolali ayol tushdi.*

1-gapda ayol bitta, bola ikkita, 2-gapda esa ayol ikkita. Gap bo‘laklari talaffuz qilinganda, ular orasida to‘xtam qilinadi. Shu to‘xtam orasidagi bo‘lak *sintagma* deb yuritiladi. *Gul janubning oydin kechasi / Asta keldi dengiz yoniga*. Bu gapda ikkita sintagma mavjud. Sintagmalar orasiga yozuvda ba‘zan vergul qo‘yiladi, ba‘zan qo‘yilmasligi ham mumkin.

13. O‘qing, ayrim so‘zlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni toping.

1. Chol salomimga alik olish o‘rniga, boshi aylangandek ko‘zlarini yumub, ingradi-da, gendiraklab ketdi. (*S. Nazar.*)

2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. (*Shota Rustaveli.*)

3. To‘lun oyday yorug‘ sochar, shu payt uning jamoli. (*Shota Rustaveli.*)

4. Tutqin qizning qayg‘usini chekar faqat bu Asmat. (*Shota Rustaveli.*)

5. Kamarbasta xizmatkorlar g‘oyat xushmuomila. (*Shota Rustaveli.*)

6. Ikkinchi soatning so‘nggi minutlari o‘tayotganda, Saidiyning ko‘zi charchab, turtuna boshladi. (*Abdulla Qahhor.*)

14. Maqollarni ohang bilan o‘qing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying. Maqollarning ma‘nosini tushuntirib bering.

Yer xazina suv oltin. Gap ko‘p umr oz. Til tesha dil andisha. Ko‘z qo‘rqoq qo‘l botir. Rejasiz ish qolipsiz g‘isht. Teng tengi bilan tezak qopi bilan. Bir ko‘rgan tanish ikki ko‘rgan bilish. Daraxt ildizi bilan odam do‘stlari bilan. Ayron achchiq sut chuchuk. Loyqa boshdan og‘riq oshdan.



1. Savollarga javob bering:

Insonlarning muloqot vositasi nima?

Til qanday hodisa?

O‘zbek tili qaysi tillar guruhiga kiradi?

O‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berildi?

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning mazmuni nimadan iborat?

2. Berilgan jummalarga tayanib, kichik dialoglar tuzing.

– Ha, men bir necha tilda so‘zlashaman.

– Eng murakkab tillar – arab, grek va hind tillari. Yevropa tillarini o‘rganish osonroq.

– Eng muhimi – kuchli xotira va xohish.

– Tarjimonlik qilish uchun tilda erkin so‘zlashish kerak.

3. Matnni abzaslarga bo‘lib o‘qing. Undagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.

Til insonga, jamiyatga xos bo'lgan hodisadir. Til insonlar orasida aloqa vositasi bo'lib, ma'lum bir fikrni ifodalaydi, shuning uchun insonlar gaplashganda o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar. Til tufayli bilim avloddan-avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Ya'ni til o'tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijalarini kelgusi avlodga yetkazuvchi ko'priklar hamdir. Kishilar hayot tajribalari, ilmiy yutuqlarini so'zlarda, gaplarda, kitoblarda yig'adilar va ular avloddan-avlodga o'tib, boyib, rivojlanib boradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi. Bular esa tilning ulkan ma'rifiy¹ ahamiyatidir. Til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan o'ziga xos ijtimoiy hodisa²dir. Til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. O'zbek adabiy tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Bu til ma'lum qonun-qoidalarga asoslangan. 1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bob 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasida Davlat tili o'zbek tilidir" deyilgan. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, O'zbekiston hududida hamma millat, xalqlar o'rtasida yaqinlik, hamjihatlikni o'rnatish niyatida O'zbekiston Oliy Kengashi 1995-yil 21-dekabrda "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi. Yangi tahrirdagi qonunda O'zbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati aniq o'z ifodasini topgan. "Davlat tili haqida"gi Qonun 24 moddadan iborat. Unda O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar o'z ona tillarida aloqa

¹ ma'rifiy – просветительский

² ijtimoiy hodisa – социальное явление

qilishlariga monelik¹ qilinmasligi (2-modda), ularning tillarida maktab-maorif va madaniy muassasalar (5-modda), pochta-telegraf, notarial idoralar, televideniye va radio bemalol faoliyat ko'rsatishi kafolatlangan. Shuningdek, boshqa millatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish (4-modda) ta'kidlanadi. Bu qonun O'zbekistonda yashayotgan, shu yurtning rivoji, istiqboli uchun jon kuydirayotgan barchaniki.

4. Quyidagi so'z va iboralar ishtirokida kichik matn tuzing.

Xorijiy tillarni o'rganish, muloqot vositasi, fikrlash, tasavvur qilish, ma'lumotga ega bo'lish, keng imkoniyatlar, dunyoqarash.

5. Matnni o'qing, unga sarlavha qo'ying.

Adabiy til – umumxalq tilining qayta ishlangan, ma'lum bir me'yorga solingan shaklidir. Adabiy til darsliklarda, tilga oid qo'llanmalarda, shuningdek, turli lug'atlarda ko'rsatiladi.

O'zbek adabiy tili quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

Qadimgi turkiy adabiy til VI–X asrlar mobaynida amalda bo'lgan til bo'lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan.

Eski turkiy adabiy til XI–XIII asrlar davomida yaratilgan.

Eski o'zbek adabiy tili XIV–XVIII asrlarda shakllanib, takomillashib borgan tildir. Bu tilda, Navoiy, Bobur kabi buyuk shoir va yozuvchilar qalam tebratgan.

Yangi o'zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu tilda Nodira, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qilganlar. Bu davrdan boshlab matbuot tili kelib chiqdi.

¹ monelik qilmaslik – не препятствовать

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili XX asrning 20-yillarida shakllandi.

6. Quyidagi so‘z va iboralarning ma’nosini izohli lug‘at yordamida tushuntirib bering.

Adabiy til, taraqqiyot, yozma yodgorliklar, takomillashmoq, matbuot, qalam tebratmoq, ijtimoiy faoliyat, matbuot tili.

7. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiring.

Alisher Navoiy (1441–1501) – mutafakkir¹, davlat arbobi, o‘zbek *mumtoz adabiyoti* va o‘zbek adabiy tilining asoschisi, olim, rassom, musiqachi, ulkan adabiy meros sohibi. Bu nom butun dunyo xalqlari tarixida ma’naviy rivojlanishning ulkan bosqichi ramzi hisoblandi. Navoiy XV asr O‘rta Osiyo ma’naviy hayotiga jon bag‘ishlagan *nazmiy* va *nasriy* asarlar, ilmiy *mushohadalar* muallifidir. U turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Navoiyning “Xazoyin-ul-maoniy” devonidan 2500dan ortiq g‘azal jamlangan 4ta – “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye’ ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” devonlari o‘rin olgan.

Navoyining yana bir buyuk asari “Xamsa”² hisoblanib, unga “Hayrat ul-abror”³, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabba’i sayyor”⁴, “Saddi Iskandariy”⁵ dostonlari kiradi. Hazrat Navoiy asarlari dohiy ijodkor, buyuk qalb egasining *ko‘ngil mulki* va xalqimiz ma’naviyatining buyuk ustunlari sifatida asrlar osha avlodlarga xizmat qiladi.

¹ mutafakkir – мыслитель

² xamsa – пятица (пять поэм, объединённых в одно целое)

³ “Hayrat ul-abror” – «Смятение праведных»

⁴ “Sab’ ai sayyor” – «Семь планет»

⁵ “Saddi Iskandariy” – «Стена Александра»

8. Alisher Navoiy bilan bog‘liq nomlarga tayanib, shoir hayoti haqida matn tuzing.

*Hiro*t – Alisher Navoiy tug‘ilgan shahar, Xuroson davlatining poytaxti.

G‘iyosiddin Muhammad – Alisher Navoiyning otasi, Temuriylar xonadoniga yaqin amaldorlardan.

Mirsaid Qobuliy (Abu Said) – Alisher Navoiyning tog‘asi, o‘z davrining ma‘rifatli kishisi, shoir.

Muhammad Ali G‘aribiy – Alisher Navoiyning tog‘asi, musiqashunos va xattot¹.

Husayn Boyqaro – Alisher Navoiyning maktabdosh do‘sti, keyinchalik (1469–1506) Xuroson davlati hukmdori.

Abdurahmon Jomiy – buyuk shoir, Navoiyning do‘sti va ustoz.

Xoja Yusuf Burhon – o‘z zamonasining mashhur musiqashunosi. Alisher Navoiyga musiqa sirlarini o‘rgatgan ilk ustozlardan.

Mirshohiy – Alisher Navoiy 10–12 yoshlarida bu keksa shoir bilan she‘riy yozishmalar qilib turgan.

Lutfiy – Alisher Navoiyning ustoz.

“*Navoiy*” – o‘zbek tilidagi she‘rlari taxallusi.

“*Foniy*” – Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi she‘rlari va “Lison ut-tayr” dostonida qo‘llagan taxallusi.

9. Til haqidagi maqollarni to‘ldiring. Ularni yod oling va mazmunini aytib bering.

Tiling birla

Zahar til

¹ xattot – каллиграф

Til bor,,

Til bor,

Til yaxshisi.....,

Til yomoni... ..

.....bitar,

.....bitmas.

..... — boshga to‘qmoq,

Bo‘yinga — sirtmoq.

... ..— umr zavoli.

10. Matnning mazmunini o‘zbek tilida ifodalab bering.

Притча о языке

Знаменитый баснописец древней Греции Эзоп был рабом философа Ксанфа, жившего в Древней Греции в III веке до нашей эры. Однажды Ксанф пригласил гостей и приказал Эзопу приготовить самое лучшее угощение. Эзоп купил языки и приготовил из них три блюда. Ксанф спросил, почему Эзоп подаёт только языки. Эзоп ответил: «Ты велел купить самое лучшее. А что может быть на свете лучше языка? При помощи языка строят города, развивается культура народов. При помощи языка люди могут объясняться друг с другом и решать различные вопросы, просить и приветствовать, мириться и давать, получать и выполнять просьбы, вдохновлять на подвиги и выражать ласку, радость, объясняться в любви. Поэтому нужно думать, что нет ничего лучше языка».

Такое рассуждение пришлось по сердцу Ксанфу и его гостям.

В другой раз Ксанф распорядился, чтобы Эзоп приобрёл к обеду худшее. Эзоп опять пошёл покупать языки. Все удивились этому. Тогда Эзоп начал объяснять Ксанфу: «Ты велел мне сыскать самое худшее. А что на свете хуже языка? Посредством языка люди огорчают и разочаровывают друг друга, посредством языка можно лицемерить, лгать, обманывать, хитрить, ссориться. Язык может сделать людей врагами, он может вызвать войну, он приказывает разрушать города и даже целые государства, он может в нашу жизнь принести горе и зло, предавать, оскорблять. Может ли быть что-нибудь хуже языка?»

11. Matnni o‘qib, undagi ma’lumotlarga doir savollar tuzing.

Mutaxassislarning fikricha, dunyoda qariyb 6000ga yaqin tillar mavjud. Ulardan 500tasigina o‘rganilgan xolos. 2000ga yaqin tilning yozuvi bo‘lmay, faqat og‘zaki nutqda qo‘llanadi.

Tillar ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra rasmiy til va davlat tillariga ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Tilning yashashi uchun unda kamida 100000 kishi so‘zlashishi kerak. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyodagi tillarning deyarli yarmi yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida. Bu tillarni saqlab qolish maqsadida 1999-yilda Xalqaro ona tili kuni ta’sis etildi. U dunyo bo‘yicha har yili 21-fevralda nishonlanadi.

O‘zbek tili Amerika, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Ukraina va Rossiyadagi universitetlarda, Turkiya, Hindiston hamda Afg‘onistonda o‘rganiladi.

12. Gaplarni o‘qing. Ularni til va yozuv taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tartib bilan ko‘chiring.

VIII asrda Oʻrta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozuvi ham tarqaldi. Bu yozuvdagi 28 harfga yana qoʻshimcha 4ta harf kiritilgan.

1940-yil 8-mayda Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi oʻzbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida” Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning maʼnaviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan oʻzgarishlar asosida “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” ishlab chiqildi va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi.

Oʻzbek yozuvi, dastlab, 1929-yilda lotin yozuviga asoslangan alifboga koʻchirildi.

Turkiy xalqlarning koʻplab qiymatli yodgorliklari qadimgi turk va uygʻur yozuvlarida bitilgan. Oʻrxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli boʻlib, har bir tovush uchun maxsus shakl qoʻllangan.

Oʻrta Osiyo xalqlari qadimdan oʻz yozuv madaniyatlariga ega boʻlgan, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan soʻgʻd va xorazmiy yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

13. Mashhur poliglotlar haqida maʼlumotlar topib, gapirib bering.

O‘zbek tilining imlo qoidalari

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosidagi yozuv me‘yorlari 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ga tayanadi. Unda “Unlilar imlosi”, “Undoshlar imlosi”, “Asos va qo‘shimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Ajratib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Bosh harflar imlosi” va “Ko‘chirish qoidalari” berilgan. Rasmiy yozishmalarda, ish yuritishda, ta‘lim jarayonida, madaniy-ma‘rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilish majburiydir.

O‘zbek alifbosida 29 harf bor. Ulardan 6tasi unli tovushlarni, 23tasi esa undosh tovushlarni ifodalaydi. 3tasi harflar birikmasidir.

Unli nutq tovushlarining 5tasi 5 xil harf bilan ifodalanadi: *i, e, a, o, u*. Bittasi esa, ya‘ni *ўзбек, ўрмоқ* kabi so‘zlardagi *ў* tovushi maxsus belgi bilan emas, *олмоқ* so‘zidagi *o* harfiga “*ko‘chish belgisi*” (‘) ni qo‘shish bilan ko‘rsatiladi.

Alifboda 3 ta harf birikmasi mavjud: *sh, ch, ng*.

14. Kirill va lotin yozuvlariga asoslangan o‘zbek alifbolarining farqlarini jadval ko‘rinishida ifodalang.

15. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga tilning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritilgan qo‘shimcha harflarni tavsiflang.

16. So‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq yozing.

Aval, isiq, aqil, zulum, fasil, tashabus, jaji, tanafus, milion, minatdor, talafuz, muqadas, metal, gramatika, komisiya, gram, aparat, elik, to‘qiz, sakiz, profesor, chaqon, fikir, ilim, jahil, sabir, bodiring, lazat.

17. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Zarur hollarda lug‘atdan foydalaning. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kengash, tanga, gung, yog‘ingarchilik, jang, zarang, ingichka, keng, nahang, posangi, singil, tengdosh, tenglama.

я, ю, ё, е harflarining imloda berilishi

O‘zbekcha so‘zlarda **я, ю, ё, е** harflari so‘zning boshida hamda unli tovushdan keyin kelgan hollarda ikki harf bilan ko‘rsatiladi: яна – *yana*, уят – *uyat*, юр – *yur*, буюм – *buyum*, ётма – *yotma*, қуён – *quyon*, ем – *yem*, қаер – *qayer*, Алиев – *Aliyev*.

O‘zbek tilidagi boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda ham **я, ю, ё, е** ikki harf bilan beriladi: январь – *yanvar*, акция – *aksiya*, юбка – *yubka*, июнь – *iyun*, приёмник – *priyomnik*, реестр – *reyestr*.

Kirill yozuvida **я, ю, ё, е** harflari ayirish belgisidan yoki yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi. Bunday so‘zlardan o‘zbek tilida ham qo‘llanadiganlarida mazkur tovushlar ikki harf bilan ifodalanadi: адъютант – *adyutant*, объект – *obyekt*, пьеса – *pyesa*, премьера – *premyera*, ателье – *atelye*, компьютер – *kompyuter*.

Kirill yozuvida **я, ю, ё, е** harflari undosh tovushlardan keyin kelganda bir unli tovushdek aytiladi va o‘zidan oldingi undosh tovushning yumshoq talaffuz qilinishiga ishora qiladi. Bunday so‘zlardan o‘zbek tilida ham qo‘llanadiganlarida **я, ю, ё, е** harflari **а, и, о, е** harflari bilan beriladi: сентябрь – *sentabr*, рюкзак – *rukzak*.

Ushbu qoida doirasiga kirmaydigan so‘zlar ham bor. Masalan, quyidagi so‘zlarda **ё** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **о** bilan emas, balki ikki harf **yo** bilan beriladi: актыор, дубльор, транспортёр, монтыор, репортёр, сapyор, сuflyор, vaxyор, minomyot, pulemyot, samolyot, vertolyot, plyonka, shpaklyovka.

Ayrim so‘zlarda **ю** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **и** bilan emas, balki ikki harf **yu** bilan beriladi: byuro, byust, menyu.

Ba’zi so‘zlarda esa **я** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **а** bilan emas, balki ikki harf **ya** bilan beriladi: slavyan, buryat, naryad, snaryad, zaryad, plyaj.

18. Quyidagi soʻzlarni lotin alifbosi imlosiga muvofiq yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Жалюзи, жюри, шина, парашют, шуруп, бюджет, октябрь, январь, журнал, валюта, резолюция, алюминий, елкан, экспедиция, юмшоқ, респондент, қия, конституция, милиция, бордюор, велюр, туяқуш.

19. Nuqtalar oʻrniga mos harflarni qoʻying. Hikmatlarga hayotdan misollar keltiring.

1. Kimki samimi... va pokdil boʻlsa, uning ishlari oʻngidan kelav...radi.

2. Odamlarga qanchalik ...xshilik qilsang, ...l seni shunchalik ...zozlaydi.

3. Qa...siki narsaga oʻz mehnating bilan ...rshsang, oʻsha narsa sen uchun qadrlidir.

4. Kimning ...ragida oʻt-olov boʻlsa, oʻsha odamlarning ishlarida tashabbus boʻladi.

5. Qa...rda ahillik boʻlsa, oʻsha ...rda ...tuq bor.

6. Kimning aqli koʻp boʻlsa, a...blari ...shirin va doʻstlari koʻp boʻladi.

7. Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u oʻz maqsadlariga oson ...rishadi.

8. Nima...ki senga zarar keltirsa, oʻsha narsani boshqalarga ham ravo koʻrma.

9. Har kim oʻz ogʻzining qorovuli boʻlsa, uning nafasi h...ch qachon boʻgʻilma...di.

10. Kimning ichi nogʻora singari boʻsh boʻlsa, uning b...huda soʻzlari atrofdagilarning mi...sini ...govlaydi.

3-mavzu **MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI**



1. Savollarga javob bering.

Milliy qadriyatlar deb nimaga aytiladi?

O‘zbek xalqining qanday milliy qadriyatlarini bilasiz?

Hashar deganda nimani tushunasiz?

Milliy g‘urur tushunchasi nimani anglatadi?

2. Quyidagi tushunchalarning ma’nosini bilib oling.

Qadriyat – “tarix sinovlaridan o‘tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to‘la javob beradigan, yillar o‘tgani sari qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalardir”¹.

An’ana – kishilar ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, avloddan avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalardir.

Urf-odat – kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan ko‘nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 82-bet.

bilan izzatlash va h.k. An'analardan farqli o'laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o'z ichiga oladi.

Marosim – an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir.

An'ananing tarkibiy bo'lagi *odat*, odatning muhim bir qismi *marosim* bo'lib, odat kundalik hayotda uchrashi mumkin bo'lsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Yosh mutaxassislarning o'qishni bitirib, ishga joylashishi odat bo'lsa, bunga bag'ishlab tashkil qilingan an'anaviy tadbirlar marosimga aylanadi.

3. Matnni o'qing. Uni qismlarga ajrating va har bir qismga nom bering.

Har bir xalqning o'ziga yarasha milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatlar va marosimlari bo'ladi. Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi.

O'zbek xalqi azaldan milliy an'ana va qadriyatlarga, urf-odatlarga boy bo'lgan qadimiy xalq. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Milliy o'zbek an'analariidan biri insonlarning holati, unvoni, mansabidan qat'iy nazar, yoshi jihatidan katta bo'lgan kishini har doim hurmat qilish, ya'ni kattalarga salom berish, transportda yoki boshqa jamoat joylarida kattalarga joy berish, kattalar suhbatini bo'lmaslik, ularga yo'l berishdir. "Odobingni salomingdan bilurlar" maqolida salom insonning

fe'l-atvori, odobining ko'zgusi ekanligi ta'kidlangan. Bittagina salomlashish va hol-ahvol so'rashish odobi va odati orqali xalqimizga xos bo'lgan insonni sevish va ardoqlash hissining ustunligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, oilasini asrash, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

O'zbek xalqi to'y-tomoshaga boy xalq hisoblanadi. O'zbek to'y marosimlarining bir necha turi mavjudki, ularning har biri alohida bir kitob bo'lishga arzigulik. Oilada farzand tug'ilishi bilan to'y marosimlari boshlanib ketadi: soch to'yi, chilla to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, yosh to'yi (yubiley), kumush to'yi, oltin to'yi kabilardir. Ular orasida eng asosiysi nikoh to'yi bo'lib, bu to'y milliy urf-odatlarimiz va turli rasm-rusumlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Hashar – o'zbeklar, ayrim boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg'araz yordam shakllaridan biri. Asosan, hosilni zudlik bilan yig'ib olish kabi tezkorlik bilan bajarish zarur bo'lgan ishlar va katta mehnat talab inshootlarni bunyod etish, ya'ni kanal qazish, yo'l va ko'priklar qurishda qo'llangan. Hashar ariq qazish, imorat qurish kabi ishlarda bir necha kun ham davom etgan. O'zbekistondagi Katta Farg'ona kanali umumxalq hashari vositasida bunyod etilgan. O'zbekiston istiqloolidan so'ng hashar yangicha mazmun kasb etib, Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro'z, Mustaqillik

bayramlari kabi muhim sanalar oldidan umumxalq xayriya hasharini o'tkazish an'anaga aylandi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarni asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu jarayon birgina o'zbek millatining emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda.

Xalqimizning milliy qadriyatlarini doimo e'zozlab, qadrlab, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning burchimizdir. Zero, milliy qadriyat va an'analar millat iftixori, g'ururi hisoblanadi.

4. O'zbek xalqining quyidagi oilaviy marosimlari haqida kichik matnlar tuzing.

Beshik to'y, sunnat (xatna) to'yi, muchal yoshi, nikoh, kelin salom (yuz ochdi).

5. Matnni o'qib, mazmunini o'zbek tiliga so'zlab bering.

Ценности узбекского народа


С обретением независимости происходит укрепление ценностного потенциала в сознании узбекского народа. Узбекистану удалось сохранить свои исторические и культурные ценности и самобытные традиции.

Узбекский язык – основа национальных ценностей узбекского народа. Национальный язык стал важной неотъемлемой частью наших национальных ценностей. Под руководством Президента проведена последовательная работа по развитию узбекского языка,

являющегося средством выражения национальной культуры и самобытности народа. Как сказал мастер слова Абдулла Каххар, «наш язык очень богат и красив. Нет мысли, чувств, которые невозможно было бы выразить на этом языке!».

Великий узбекский писатель Абдулла Кадыри в своих произведениях писал об узбекской семье, о ее гостеприимстве, об этике семьи, родственных отношениях, уважении к старшим, к женщине – Матери. У людей разных национальностей растет интерес к узбекскому языку и литературе, историческим корням узбекской культуры.

6. Klaster bo'yicha matn tuzing.



7. Taniqli o'zbek rassomi Ortiqali Qozoqovning quyida berilgan asarida nima tasvirlanganini so'zlab bering.



8. Darslikning “Mutolaa” bo‘limidan O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasini o‘qing. Asarda tasvirlangan o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan munosabatlar, qadriyatlarning buzilishi oqibatlarini haqida gapirib bering.

9. She’rni o‘qing. Unda qanday milliy qadriyatlar aks etganini aytib bering.

Ey, qaldirg‘och

Munavvara Usmonova

Ey, qaldirg‘och, qayga shoshasan,
Chug‘urlaysan¹, nedan xafasan?
Ayvoniga in solgan qushni
Kutgan elni qaydan topasan?

¹ chug‘urlamoq – щебетать

Iningdan xas tushsa avaylab,
O‘z o‘rniga qo‘yadi joylab.
Polaponing¹ uchishin poylab
Turgan elni qaydan topasan?

Bu bir elki, bag‘ri keng – hotam²,
Yetti o‘lchab, tashlaydi qadam,
Bo‘ylasa ham dil uyiga g‘am³,
Kulgan elni qaydan topasan?

Kelmay qolsa uyiga mehmon,
Joni halak⁴ yugurar har yon,
Qush sayrasa, tunda turib non
Yopgan elni qaydan topasan?

O‘nta bo‘lsa – o‘rni bo‘lak, deb,
Bir kun bo‘lar, menga tirkak⁵, deb.
El tinchiga o‘g‘lon kerak, deb
Tuqqan elni qaydan topasan?

Bahor kelsa elni so‘roqlab,
Omonlik, deb uyini oqlab,
Bir chechakni ko‘ziga yig‘lab
Surtgan elni qaydan topasan?

Hol so‘rasang, non tutar dehqon,
So‘zlamagan umrida yolg‘on,
Yer kindigin uzarga⁶ ketmon
Chopgan elni qaydan topasan?

¹ polapon – птенец

² hotam – щедрый

³ dil uyiga g‘am bo‘ylasa – образ. если на душе будет печаль, тоска

⁴ joni halak – беспокойный

⁵ tirkak – опора

⁶ yer kindigin uzmoq – фраз. начинать сельскохозяйственные работы

Har bolaga – bittadan makon¹,
Mehnat qilib, topadi imkon.
O‘zi terak ekib, o‘zi tom
Yopgan elni qaydan topasan?

Quzg‘unga² ham qo‘ymaydi tuzoq,
Bir xatosin o‘y laydi uzoq,
Qo‘shni o‘tsa³, qirq kunlab chiroq
Yoqqan elni qaydan topasan?

Ey, qaldirg‘och, shoshqaloq⁴ sanam,
Ketma, qorlar yog‘sa nima g‘am,
Qush iniga tunda yoqib sham
Tutgan elni qaydan topasan?

Bunday elni qaydan topasan...

10. O‘zbekistonning milliy bayramlari haqida tadimot tayyorlang.

Ц harfining imloda berilishi

So‘z boshida kelganda s harfi bilan ifodalanadi: *цех-sex, цирк – sirk.*

So‘z oxirida kelganda s harfi bilan ifodalanadi: *абзац – abzas, шприц – shpris.*

So‘z o‘rtasida undosh tovushdan keyin kelganda s harfi bilan ifodalanadi: *акция – aksiya;*

So‘z o‘rtasida unli tovushdan keyin kelganda ts harfi bilan ifodalanadi: *лицей – litsey, офицер – ofitser, доцент – dotsent.*

11. Quyidagi baynalmilal so‘zlarni lotin alifbosida yozing. Ularning lug‘aviy ma‘nosini tushuntiring.

¹ makon – *здесь*: жилье

² quzg‘un – коршун

³ o‘tmoq – *здесь*: уйти в мир иной

⁴ shoshqaloq – торопливый

Конвенция, цивилизация, социология, абзац, целлофан, цемент, энциклопедия, циркуль, акциз, аттестация, конференция, декларация, агглютинация, интеграция, рецидив, компьютеризация, конституция, кондиционер.

Tutuq belgisining imlosi

Tutuq belgisi quyidagi hollarda qo‘yiladi:

– so‘zda tovush tutilishi (tutuq), bo‘g‘inni ajratib aytish uchun: *san‘at, sur‘at, jur‘at, an‘ana, qat‘iy, mas‘ul, Tal‘at, Jur‘at*;

– so‘zda **a, e, u** unli tovushlaridan so‘ng ovoz biroz tutilib, shu unlining cho‘zibroq tallafuz qilinishini ifodalash uchun: *ba‘zan, ta‘til, she‘r, e‘lon, fe‘l, shu‘la*;

– tarkibida yonma-yon kelgan *s* va *h* harflari ikki mustaqil tovushni ifodalaydigan so‘zlarda ushbu harflarni *sh* deb o‘qimaslik uchun: *Is‘hoqov, as‘har (tong), as‘hob (sohib so‘zining ko‘pligi)*;

– *мўъжиза, мўътабар, мўътадил* kabi so‘zlarda ikki xil belgi (ko‘chish va tutuq belgilari) ketma-ket kelib qolishini e‘tiborga olib, bunday so‘zlar tutuq belgisiz yoziladi: *mo‘jiza, mo‘tabar, mo‘tadil*.

12. Berilgan so‘zlarni lug‘at yordamida o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ularning imlosiga e‘tibor bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Континент, внимание, ответственный, лекция, искусство, проклятие, вера, священный, чудо, темп, решительность, глагол.

13. Quyidagi so‘zlarga tutuq belgisini qo‘yib ko‘chiring. Ularning ma‘nosini bilib oling.

Azo, alo, bazan, bemani, bidat, dafatan, davat, davogar, fel, jurat, inom, istedod, masul, marifiy, maruza, mano, qatiy, qita, sanatkor, tasir, talimot, takidlamoq, tasis, taqib, vada, vaz, zafaron, shan, sheriyat.

14. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri haqida insho yozing.

1. Savollarga javob bering.

Insonning vatani qayerda bo‘ladi?

Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?

Vatanga sadoqat nimalarda aks etadi?

2. Berilgan so‘z va iboralarning mazmunini tushuntirib bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sadoqat, fidoyilik, el-yurt ravnaqi, vatandosh, mas’uliyat, jasorat, ont, shijoat.

3. Matnlarni o‘qing. Vatanparvarlik tushunchasini ushbu afsonalar qahramonlari timsolida ifodalang.

To‘maris afsonasi

To‘maris eramizdan avvalgi VI asrda massaget qabilasiga bosh bo‘lib, Eron shohi Kirga qarshi kurash olib borgan. Bu ayol haqida grek tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida hikoya qilgan.



“Eng qadimgi zamonda Amudaryo yoqalarida massagetlar yashar edilar. Bu davrda ularga To‘maris ismli ayol boshchilik qilardi. Eron shohi Kir massagatlarni o‘ziga qaram qilish¹ niyatida To‘marisga uylanmoqchi bo‘lib,

¹ qaram qilmoq – поработить

sovchilar yuboradi. Lekin To‘maris Kirning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini beradi. Shundan so‘ng Kir ochiq tajovuz¹ga o‘tadi. To‘maris urushning oldini olishga, behuda qon to‘kmaslikka harakat qiladi. Lekin uning urinishlari behuda ketadi. Kir Amudaryo bo‘yiga kelib, uning ustiga ko‘prik qurdira boshladi. Katta qo‘shinni shu ko‘prikdan o‘tkazib, massagetlarga qarshi urush ochishga qasd qildi. To‘maris Kirga elchi yuboradi va aytadi: “Ey shoh! Qilayotgan ishingni to‘xtat! Hali sen boshlagan ishingni qanday tugashini bilmaysan-ku! Qo‘y, sen o‘z yurtingda podsholik qilaver, bizni ham o‘z holimizga qo‘y. Lekin bilaman, baribir nasihatimni qabul qilmaysan, chunki senga tinchlik, osoyishtalikdan ko‘ra, mo‘may boylik kerak. So‘zimizga quloq solging kelmasa, bilganingni qil! Agar urushmoqchi bo‘lsang, bizga bitta imkon ber. Odamlarimizni daryo bo‘yidan uch kunlik yo‘lga, cho‘l ichiga olib ketaylik. Keyin qo‘shining bilan bostirib kiraver. Agar biz bilan daryo qirg‘og‘ida urushmoqchi bo‘lsang, bunga ham qarshi emasmiz. Faqat nomardlik qilma”.

Kir II To‘marisning maktubi bilan tanishganidan keyin lashkarboshilarini to‘plab, kengash o‘tkazdi. Lashkarboshilarning aksariyati massagetlar bilan shu yerda, daryo bo‘yida urushmoqni afzal ko‘rdilar. Faqat lashkarboshi Kryoz massagetlar uch kunlik yo‘lga, cho‘l ichiga ko‘chib ketganlaridan keyin urush boshlash lozim, deb taklif qildi. Kir II Kryozning taklifini qabul qildi va To‘marisga shunday xat yozdi: “Taklifingni qabul qildim. Mayli, uch kunlik cho‘l ichiga ko‘chib o‘tinglar. Ammo nima bo‘lganda ham men senlarning kullaringni ko‘kka sovuraman²”.

¹ tajovuz – нападение, вторжение

² kulini ko‘kka sovurmoq – разгромить

Massagetlar To‘maris boshchiligida uch kunlik yo‘l bosib cho‘lga chekindilar. Shundan keyin Kir II qo‘shinining bir qismini daryo bo‘yida qoldirib, daryodan o‘tdi va lashkari bilan massagatlarning qo‘liga tushdi.

To‘maris daryo bo‘yida pistirma¹ qoldirib ketgan edi. Ertasi kuni pistirmadagi lashkarlar Kir II ning qoldirib ketgan lashkarini tor-mor keltirib, qurol-aslaha, chodirlari va kiyim-kechaklarini o‘lja² qilib oldilar. Shundan so‘ng kayf-u safo qilib, qattiq uxlab qoldilar. Shu payt Eron lashkarlari ularning ustiga bostirib keldilar va bir qismini qirib tashladilar. Ko‘pchiligini esa asirga oldilar. Asirga tushganlar ichida To‘marisning o‘g‘li Sparganis ham bor edi. To‘maris bo‘lgan voqeadan xabar topgach, ko‘p qayg‘urdi va Kir II ga quyidagi maktubni yo‘lladi: “O, qonxo‘r³ Kir! Maqtanma, lashkarlarim va o‘g‘limni ochiq jangda emas, mast holda asir olding. Yaxshilik bilan uni qaytarib ber va yurtingga qayt! Aks holda tangrim nomi bilan qasam ichamanki, seni o‘z qoningga to‘ydiraman”.

Lekin Kir II uning gapiga quloq solmadi. To‘marisning o‘g‘li asirga tushgach, o‘zini o‘ldirdi. To‘maris bor lashkarini olib, Kir II ustiga yurish qiladi. Har ikki tomon bir-birini o‘qqa tutib, bir-biriga nayza sanchib, dahshatli jangda to‘qnashdi. Qon ariqdagi suvday oqdi. Bu urushda Kir II ning o‘zi ham halok bo‘ldi. Massagatlardan bir yigit o‘liklar orasidan Kir II ning jasadini topib, kallasini kesib, To‘marisning oyog‘i ostiga tashladi. Malika uning boshini qon to‘ldirilgan meshga solishni buyurdi va baland ovozda:

– Erimni, o‘g‘limni o‘ldirding, mening ham qonimni ichmoqchi bo‘lding. Tirikligingda inson qoniga to‘ymagan eding. Mana, endi to‘yganingcha ich, qonxo‘r! – dedi.”

¹ pistirma – засада

² o‘lja – добыча

³ qonxo‘r – кровопийца

Massagetlar bilan Eron shohi Kir II o'rtasidagi bu urush tillarda doston bo'ldi. "Mening bilishimcha, urushlar ichida bundayin urushni hech kim ko'rmagan", deb yozgan edi Gerodot.

Shiroq afsonasi

Ushbu afsona ham tarixiy voqealar zaminida yuzaga kelgan.

Shiroq (yunon manbalarida *Sirak*) – Turon xalqlarining ahamoniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni. Eramizdan avvalgi V asrda Eron shohi Doro I qo'shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig'i Polienning 8 kitobdan iborat "Harbiy hiylalar" ("Strategmalar") asarida ilk marta Shiroq jasorati tilga olingan.



Polienning yozishicha, Doro qo'shini bilan saklar o'rtasida urush borardi. Sak qabilalari oqsoqollari fors qo'shinini yengish uchun harbiy kengash o'tkazayotganda, ularning huzuriga sak podachilaridan Shiroq kelib, o'z rejasini bayon qilgan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z qabilasi manfaatini himoya qilib, harbiy hiyla¹ ishlatgan va yolg'iz o'zi Doro I lashkariga qarshi turgan.

Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari nohaq sitam² yetkazganligi uchun (uning burni va quloqlari kesilgan edi) u Eron qo'shinini saklar qabilasi turgan yerga qisqa yo'l bilan olib borishini aytib, dushman qo'shinini Qizilqum cho'li ichkarisiga boshlaydi. Eron qo'shini "yo'l boshlovchi"ning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda cho'lni

¹ harbiy hiyla – военная хитрость

² nohaq sitam – несправедливое угнетение

kechib o'tayotgan dushman qo'shini holdan toyib, oziq-ovqat ham tugaydi. Atrof suvsiz va quruq sahrodan iborat. Nihoyat, muhlatning 7-kunida dushman qo'shini aldanganini anglaydi. Doroning qo'shin boshlig'i Ranosbat Shiroqdan shunday ulug' podshohni aldab, na olg'a yurish, na yurtga qaytish mumkin bo'lmagan sahroga boshlab kelishdan muroding nima deb so'raydi. Shiroq atrofini qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi so'zlarni aytadi: "Men yolg'iz o'zim Doro qo'shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho'lning qoq o'rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to'rt tomoningiz ham 7 kunlik yo'l!".

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yolvorib, unga suvsiz cho'ldan olib chiqishi uchun katta boylik va'da qilishadi. Shiroq vatan ozodligi yo'lida jon fido qilishini¹ aytgach, Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo'shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho'lida qirilib ketgan. Faqat Doro I va uning oz sonli a'yonlari yomg'ir yog'ishi natijasida halokatdan qutulib, Baqtra daryosi (Amudaryo) qirg'og'igacha yetib kelishgan.

("O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" dan)

4. Hikmatli so'zlarni sharhlang.

"Vatanparvarlik – yolg'iz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda kuchli his... Bu – vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotish demakdir". (*Aleksey Tolstoy.*)

"Kim bo'lishdan qat'iy nazar, uning vatanparvarligi so'zi bilan emas, ishi bilan isbot qilinadi". (*Vissarion Belinskiy.*)

"Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun". (*Mumtoz Salmon.*)

¹ jon fido qilmoq – жертвовать жизнью

“Agar hayot go‘zalligi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, vatan uchun kurashda fidokorlik ko‘rsata bilish go‘zal hayotning eng yuksak namunasidir”. (*Mixail Kalinin.*)

“Kimda o‘z yurtiga bo‘lmasa mehr,
U qalban shikasta, u qalban majruh”. (*Taras Shevchenko.*)

5. Mirkarim Osimning ”To‘maris” qissasini o‘qib, undan olgan taassurotlaringizni so‘zlab bering.

6. Savollarga javob bering.

“Jadid” so‘zining ma’nosi nima?

Jadidlar qanday g‘oyalarni targ‘ib qilganlar?

Jadid adabiyotining qaysi vakillarini bilasiz?

Ularning qanday asarlarini o‘qigansiz?

7. Matnni o‘qing va unga sarlavha qo‘ying. Matnni qismlarga bo‘lib, mazmunini so‘zlab bering.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida jadidchilik deb nom olgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan, XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqalgan. Unga diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851–1914) asos solgan. Ismoilbek 1884-yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o‘qitish usuli “usuli savtiya”, ya’ni “yangi usul” nomi bilan shuhrat qozondi.

“Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi.

Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o‘zining “Tarjimon” (1883–1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

Jadidchilik ilm va madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Jadidlarning xalq ma‘rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, Abdulhamid Cho‘lpon, Sidqiy Xandaqliqiy, Elbek, Botu, Tavallo va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi.

Turkiston jadidlari zamonaviy kiyinishlari, yurish-turishlari, muomala madaniyati, umuman, tashqi qiyofalari bilan ham xalq orasida ajralib turganlar. Ular birinchilardan bo‘lib, milliy kiyimlar bilan ovro‘po kiyimlarini mutanosiblashtirishga, musulmonlar uchun muvofiqlashtirishga harakat qilganlar. Buyuk yozuvchi Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida jadid timsolini yaratar ekan, do‘stlari,

hammaslak¹larining o'ta saranjom-sarishta² tashqi qiyofasidan ham o'rinli foydalangan.

Jadidlarning faoliyati fojia bilan tugaganligi, ularning barchasi avval Chor Rossiyasi, keyin sovet tuzumi tomonidan "Vatan xoinlari" deb e'lon qilinib, birin-ketin qatl qilinganligi tariximizdan ma'lum. Mustaqillik davrida jadid adabiyoti namoyondalari³ "millat fidoyilari" deb baholandi. Jadidlar O'zbekiston tarixi va madaniyatida milliy uyg'onishni boshlab berdilar. Yangi badiiy tafakkur jadid adiblari ijodi bilan shakllandi va kamol topdi.

8. Jadid shoirlaridan Sidqiy Xandaqliqiyning quyida berilgan g'azalida Vatanga muhabbat qanday badiiy vositalar yordamida aks ettirilganini ko'rsating.

Vatan nadir, tuqqan yerim, turg'on yerim,
O'sib-unib, o'ynab-kulib yurg'on yerim.

Vatan menga haqiqatda qo'ndiq kabi,
Tarbiyaning negizini qurg'on yerim.

Ot-eshakda o'rdan-qirdan bug'doy tashib,
Issiq kunda o'ng'ay, sozlik qurg'on yerim.

Qayda bo'lsam, qayda tursam, qayda yursam,
Mangu o'ynar ko'zda javlon urg'on yerim.

Jonim vatan, tanim vatan, ko'zim vatan,
Esdan chiqar oni ko'rg'och, ko'rg'on yerim.

¹ hammaslak – соратник

² saranjom-sarishta – аккуратный, опрятный

³ namoyondalar – представители

Jonim birlan, tanim birlan nega suymay,
Rohat yashab, sog‘lom yashab yurg‘on yerim.

Chet shaharning gulzoridan ko‘zga yaxshi,
O‘roq birla xoru xasin o‘rg‘on yerim.

Sidqiy meni mehnatiki garchand ezar,
Qayda boray davru davron surg‘on yerim.

9. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.

Писатель Абдулхамид Сулейман (1897–1938) подписывал свои произведения псевдонимом Чулпан (“утренняя звезда”). Это была довольно одаренная личность, которая оставила заметный след в истории отечественной литературы.

Абдулхамид Сулейман был достаточно образованным человеком для своего времени. “Чулпан, – писал критик В. Махмуд в газете “Туркестан” в декабре 1923 года, – является новым поэтом узбеков. Поэтому в его сборнике “Источники” кипят сегодняшний дух, состояние и сознание узбекского народа. Здесь в полный голос звучат узбекский язык, узбекская мелодия. Здесь взлетают в небеса волны национального духа. В сборнике плачут чувства, боли, волнения узбеков”.

В 1924 году известный ученый-тюрколог А. Самойлович впервые перевел ряд стихотворений Чулпана на русский язык и опубликовал в Москве. В публикации была претворена небольшая, но очень эмоциональная статья ученого о поэте.

10. “Vatanparvarlik” mavzusida insho yozing. Unda quyidagi jihatlarni yoritib:

- o‘z mamalakatining fuqarosi;
- fuqarolarning majburiyatlari;
- fuqarolarning huquqlari;
- yurt ravnaqiga hissa qo‘shmoq;
- xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ymoq;
- mamlakatimizda yashovchi boshqa millat vakillariga munosabat;
- mamlakat ravnaqiga hissa qo‘shmoq.

O‘zbek tilida so‘z yasalishi

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlar *tub* va *yasama* so‘zlarga bo‘linadi. Masalan: *kitob* – tub so‘z, *kitobxon* esa *yasama* so‘z; *bug‘doy*, *rang* so‘zlari alohida-alohida olinganda tub so‘zlar, ammo *bug‘doyrang* – *yasama* so‘z; *tog‘* – tub so‘z, ammo *tog‘ma-tog‘* *yasama* so‘z; *besh*, *o‘n* tub so‘zlar, *o‘n besh* *yasama* so‘z hisoblanadi.

So‘z yasovchi affiksi bo‘lmagan so‘zlar *tub so‘z* deyiladi. Ma‘lum bir so‘z negizida ma‘no jihatidan undan farqlaydigan yangi so‘z hosil qilish *so‘z yasash* deyiladi. Qiyoslang: *ish* – *ishchan*, *jon* – *jonlandi*, *oq* – *oqla*, *g‘alla* – *g‘allazor*.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashning asosan ikki usuli mavjud: affiksatsiya (morfologik) usuli va kompozitsiya (sintaktik) usuli.

O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish *affiksatsiya* usuli bilan so‘z yasashdir. Masalan: *mevali daraxt*, *serhosil yer* kabi birikmalardagi *mevali*, *serhosil* *yasama* so‘zlar bo‘lib, ular *meva* o‘zagiga *-li*, *hosil* o‘zagiga *ser-* affikslarini qo‘shish orqali yasalgan so‘zlardir.

Ikki va undan ortiq so‘z shakllari qo‘shilib, bir so‘zga aylansa, bu *kompozitsiya* usuli bilan so‘z yasash deyiladi. Masalan: *belbog‘*, *oshqozon*, *mehmondo‘st*, *so‘z boshi*, *bir yuz o‘n*, *ahd qilmoq*, *bir oz* va boshqalar.

Juft qo‘llanadigan ayrim so‘zlar ham *yasama* so‘z sanaladi, masalan: *yildan-yilga*, *zo‘r-bazo‘r*, *uyma-uy* kabi.

11. Hikmatlarni o‘qing. Yasama so‘zlarni toping.

1. Kimki o‘rganishni uyat, or demas,
Suvdan dur topadi, toshdan la‘l, olmos. (*Nizomiy Ganjaviy.*)
2. Kim ravshan flkrlasa, u ravshan bayon etadi. (*Artur Shopengauer.*)
3. Kimki qanoat birlan shod bo‘lsa, u o‘lguncha aslo tashvish ko‘rmaydi.
4. Kimki o‘z yaxshiliklarini birovga minnat qilmasa, u haqiqiy jannat bandasidir.
5. Kim hunarni desa, u dono bo‘lur,
Nodonlar qudrat deb boylikni bilur. (*Abdurahmon Jomiy.*)

O‘zbek tilida so‘zlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi: *sodda so‘z, qo‘shma so‘z, juft so‘z, murakkab so‘z.*

Sodda so‘z bitta o‘zak morfemasi bo‘lgan so‘zdir. Masalan: *bola, bolalik, bolalar, bolalarimiz* kabi.

Kungaboqar, gultojxo‘roz, Oqqo‘rg‘on, sohibjamol kabi so‘zlar qo‘shma so‘z deyiladi. Bu kabi so‘zlar ikki va undan ortiq so‘z yoki so‘z shakllaridan tashkil topib, bir urg‘uga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi.

Tarkibi alohida-alohida yoziladigan leksik va grammatik ma‘nolari ayrim holda ham, bir butunlik hosil qilgan holda ham izohlanishi mumkin bo‘lgan so‘zlar murakkab so‘z deyiladi. Masalan: *to‘q sariq, och jigar rang, yigirma besh ming, borib keldi, sotib yubordi* kabi.

Nutqimizda qo‘llanadigan *opa-singil, non-pon, tog‘-tosh, onda-sonda, tez-tez, xirmon-xirmon, chala-chulpa, o‘n-o‘n besh, suv-puv* kabi so‘zlar *juft so‘z* deb yuritiladi.

12. Berilgan so‘zlardan juft otlar hosil qilib, ularni lotin alifbosida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ота, ўт, дон, адир, опа, кеча, меҳр, эл, кийим, қовун, бозор, қонун, савдо, чора, дон, майда, дўст, ҳисоб, нарх, хавф, экспорт.

Qo'shma va juft so'zlar imlosi

Quyidagi kabi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

– bir tushunchani bildiradigan va bir bosh urg'u bilan aytiladigan qo'shma so'zlar: *belbog'*, *asalari*, *oshqozon*, *sheryurak* kabi;

– *xush*, *kam*, *ham*, *umum*, *bop*, *noma*, *xona*, *sifat*, *rang*, *baxsh* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar: *xushxabar*, *kamhosil*, *hamfikr*, *umumxalq*, *hammabop*, *tavsiyanoma* kabi;

– ikkinchi qismi *-(a)r*, *-mas* qo'shimchalari bilan tugaydigan qo'shma so'zlar: *o'rinbosar*, *cho'lquvar*, *ishyoqmas* kabi;

– keyingi qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan ifodalangan geografik nomlar: *Amudaryo*, *Yangiyo'l*, *Kosonsoy*, *Yunusobod* kabi.

Quyidagi kabi qo'shma so'zlar ajratib yoziladi:

– birinchi qismi sifat, ikkinchisi atoqli ot bo'lgan geografik nomlar: *Kichik Osiyo*, *Sharqiy Turkiston*, *Quyichirchiq* kabi;

– qo'shma fe'lning qismlari: *shifo topmoq*, *olib chiqmoq*, *yoza boshlamoq*, *aytib bermoq*, *ko'rgan edi* kabi;

– qo'shma ravishlar: *har kim*, *hech bir*, *hamma vaqt*, *qay kuni* kabi. *Biroz*, *birpas*, *birato'la*, *birmuncha* so'zlari bundan mustasno;

– o'zaro *-dan* qo'shimchasi bilan bog'langan takror so'zli birikmalar: *kundan kunga*, *tomdan tomga*, *ochiqdan ochiq* kabi.

Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi:

– juft va takror so'zlarning qismlari: *asta-sekin*, *uch-to'rt*, *kiyim-kechak*, *qop-qop*, *uy-uyiga* kabi;

– *-ma*, *-ba* yordamida birikkan so'z qismlari: *yuzma-yuz*, *rang-barang*, *qadam-baqadam* kabi;

– arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar: *5-sinf*, *1991-yil*, *3-mart* kabi.

13. O'zbek tilining imlo lug'atidan bir necha o'zakdan yasalgan qo'shma so'zlarni toping. Ularning ma'nosini tushuntiring.

14. She'rni ifodali o'qing. She'rning matnidan qo'shma va juft so'zlarni toping.

O'g'lonlar asraydi asli Vatanni

Shahlo Ahrorova

Buyuk bir mehrni dilga etib jo,
Shu poyi zaminga tiksak-da jonni.
Qiz qo'liga qilich berilmas, illo,
O'g'lonlar asraydi asli Vatanni!

Yuragida o't bor, ko'zlarida cho'g',
Qalbi iftixorga, g'ururga to'lig'.
O'g'lim bor deganda asli armon yo'q,
O't joylar asraydi asli Vatanni.

Opam deb, singlim deb, ota-onam, deb,
Sig'ingan go'sham deb, qiblaxonam deb.
Har gardi oltindan, gul ostonam, deb,
Iymonlar asraydi asli Vatanni.

O'g'il yoqar ekan uy chirog'ini,
Rabbim ko'rsatmasin g'am-firog'ni.
Yigit yechar bo'lsa gar belbog'ni,
Armonlar asraydi endi Vatanni!

Agar sevar bo'lsa, yurak titraydi,
Qadamida qirqta malak titraydi.
Qahr etsa yeru falak titraydi,
Mard jonlar asraydi asli Vatanni.

Nomardlar oldida boshin egmagan,
Kuragi bir bora yerga tegmagan.
Alpomish kelbatli, xuddi siz kabi,
Polvonlar asraydi asli Vatanni!

1. Savollarga javob bering.

Buyuk Ipak yo‘li qachon paydo bo‘lgan?

Ushbu yo‘l “Ipak yo‘li” deb nomlanishining sababini bilasizmi?

“Buyuk Ipak yoli” atamasi kim tomonidan kiritilgan?

Buyuk Ipak yo‘li yurtimizning qaysi shaharlari orqali o‘tgan?

2. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga o‘giring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Караванная дорога, побережье Тихого океана, страны Средиземноморья, расцвет городов, ирригационная система, развитие ремёсел, взаимообогащение цивилизаций, культурное наследие.

3. Quyidagi xaritani diqqat bilan o‘rganing. Buyuk Ipak yo‘lining yo‘nalish (marshrut)lari, ushbu yo‘lda joylashgan qadimiy shaharlar haqida gaplar tuzing.



4. Matnni o‘qing. Unga sarlavha qo‘ying. Matnni kengaytirib so‘zlang.

Jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissasini qo‘shgan Buyuk Ipak yo‘li haqidagi dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi II asrga tegishlidir. Savdo-sotiqqa bo‘lgan ehtiyoj¹ yuzasidan vujudga kelgan bu yo‘l insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G‘arb dunyosini bir-biriga bog‘lagan xalqaro, qit‘alararo² yo‘l edi.

Ushbu karvon yo‘llarini birinchi bo‘lib venetsiyalik savdogar Marko Polo “ipak yo‘li” deb nomlagan. U yevropaliklardan birinchi bo‘lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. “Buyuk Ipak yo‘li” atamasini esa nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofen 1877-yilda o‘zining “Xitoy” nomli asarida ilk bora kiritgan. Nomidan ma‘lumki, karvon yo‘llaridagi savdoning asosiy buyumi butun jahonda juda qimmatbaho bo‘lgan ipak mahsulotlari edi.

Biroq ipak qit‘alararo yo‘l orqali tashib o‘tiladigan asosiy mol bo‘lsa ham, yagona emas edi. Markaziy Osiyodan Xitoyda juda qadrlanadigan otlar, tuyalar, harbiy anjom³lar va qurol-yarog‘lar, oltin va kumush, yarim qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va junmo‘ynalar, gilamlar-u ip-gazlama matolar, zar tikilgan matolar, o‘ziga xos antiqa mevalar – tarvuzlar, qovunlar va shaftolilar, yirik dumbali qo‘ylar va ovchi itlar, qoplonlar va arslonlar olib chiqib sotilar edi. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlarni, laklangan buyumlar va pardoz-upalarni, choy va guruchni olib kelishar edi.

Bu yo‘l hech qachon yagona bir yo‘l bo‘lmasdan, balki azim bir daraxtning sadasi⁴ga o‘xshash tarzda shoxlanib ketgan⁵ turli-tuman

¹ ehtiyoj – потребность, необходимость

² qit‘alararo – межконтинентальный, межматериковый

³ harbiy anjom – военное снаряжение

⁴ azim daraxtning sadasi – здесь: крона большого дерева

⁵ shoxlanib ketgan – ветвистый

yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan edi. Masalan, Osiyoni sharqdan g‘arbga qarab kesib o‘tuvchi asosiy yo‘llardan biri qadimiy Xitoyning poytaxti Chanan shahrida boshlanib, uning shimoli-g‘arbiy chegaralarigacha Gobi sahrosining cheti bo‘ylab ketgan, keyin Sharqiy Turkiston orqali o‘tgan.

Tyan-Shan tizmasi dovoni¹dan oshib o‘tgan karvonlarining bir qismi Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi orqali So‘g‘diyoning poytaxti Samarqandga, Buxoroga, Xorazmga olib borgan, keyin esa Kaspiy dengizi qirg‘oqlariga yetib kelar edi. Karvonlarning bir qismi Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysidan o‘tib Termiz shahriga kelar edi, u yerdan Amudaryodan kechib o‘tib, Janubga, Baqtralar va Hindistonga qarab ketar edi. Yo‘lning yana bir yo‘nalishi Eron, Suriya davlatlari orqali o‘tib, O‘rta Yer dengizi bo‘yiga yetib kelar edi, mahsulotlarning bir qismi dengiz yo‘li bilan Rim va Yunoniston²ga kelib tushar edi.

Sharq va G‘arbni o‘zaro bog‘lagan bu beqiyos buyuk yo‘lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O‘zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent shaharlari bo‘lib, ularning me‘morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo‘lining ko‘p asrlik tarixini o‘zida mujassam etadi³.

Turli davrlarda Ipak yo‘lining Markaziy Osiyodagi asosiy manzillari vazifasini Farg‘ona, Qo‘qon, Samarqand, Xiva shaharlari bajargan.

Bugun dunyoning ko‘plab mamlakatlari sa‘y-harakati⁴ bilan Buyuk Ipak yo‘lini qaytadan tiklashga, unga Sharq va G‘arb o‘rtasida madaniy, iqtisodiy va sayyohlik aloqalarini, hamkorlikni

¹ Tyan-Shan tizmasi dovoni – перевал Тянь-Шанской гряды

² Yunoniston – Древняя Греция

³ mujassam etmoq – воплощать

⁴ sa‘y-harakat – усилие

mustahkamlashning asosiy vositasi sifatidagi rolini qaytarishga qaror qilingan. Bu ishda O‘zbekistonning ulkan hissasi bor. Mamlakatimiz madaniyat va turizm sohasidagi yetakchi tashkilotlar – YUNESKO va Jahon turizm tashkilotining faol a‘zosi sifatida Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishiga bosh-qosh bo‘lmoqda.

5. Tushirib qoldirilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, gaplarni to‘ldiring.

1. Qadimda Buyuk Ipak yo‘li ... dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

2. ... Buyuk Ipak yo‘liga o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar.

3. ... davrida Buyuk Ipak yo‘lining ... ta‘mirlangan va ba‘zi yerlarda yangilari Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta‘minlovchi ... qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan ... himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.

4. Buyuk Ipak yo‘li ... ham muhim o‘rin tutgan. Turli mamlakatlardan kelgan va turli tomonlarga yurtimizdan ketgan olimlar, sayyohlar, hatto savdogarlar ham bir vaqtning o‘zida ilm-fan jarchilari bo‘lib xizmat qilganlar. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan shaharlarning madaniy jihatdan boshqa shaharlarga nisbatan ravnaq topganligining sabablaridan biri ham shundadir.

Qo‘yish uchun so‘z va birikmalar: Amir Temur, harbiy qo‘riqchilar, ilm-u fan taraqqiyotida, bekatlari, mintaqamizni, karvonsaroylar, bunyod etilgan, Amir Temur va temuriylar.

6. Buyuk Ipak yo‘li haqida turli manbalardan ma‘lumotlar toping. Olgan ma‘lumotlaringizni tayanch tushunchalar yordamida quyidagi shaxslar nomidan gapirib bering:

- tarixiy ma'lumotlarni qayd etuvchi;
- arxeolog;
- savdogar;
- soliqchi;
- shahar fuqarosi.

Tayanch tushunchalar: ipak ishlab chiqarish, hunarmandlar rastalari, tarixiy ma'lumotlar, boj to'lovlari, karvonsaroylar, qimmatbaho metallar, xorijlik savdogarlar, san'at asarlari, arxeologik topilmalar, sharq mevalari, tuyalarga ortmoq, qurol-yarog', poliz mahsulotlari, mo'ynalar, qaroqchilar hujumlari, quruq mevalar, shahar darvozalari, qo'riqchilar, tovar almashish, nodir kitoblar, masjid xarobalari, dunyo sivilizatsiyasi.

7. Rasmga qarab, qadimgi Sharq bozori haqida hikoya tuzing.



8. O‘qing. Matnni mazmun jihatdan qismlarga bo‘ling va har bir qismga nom bering. Matnning mazmunini o‘zbek tilida ifodalang.

Основание Шёлкового пути относят ко II веку до н.э., когда китайский посол Чжан Цянь посетил страны Центральной Азии с дипломатической миссией. До II века до н.э. путь из Европы в Азию обрывался у границ Китая, так как горные системы Азии – Тянь-Шань, Кунь-Лунь, Каракорум, Гиндукуш, Гималаи – скрывали древнейшую китайскую цивилизацию от остального мира. Открыть богатейшее западное направление помог случай.

Одно из кочевых союзных Китаю племен было вытеснено другим племенем, открыто враждебным Китаю. Бывший союзник ушел на Запад. Китайский император послал вдогонку посольство во главе с Чжан Цянем. Пройдя тяжелейшую пустыню Такла-Макан, горы Тянь-Шаня, пережив десятилетний плен, Чжан Цянь нашел бывших союзников в оазисах Средней Азии. Чжан Цянь был поражен увиденным: только в Ферганской долине он насчитал более 70 больших и малых городских поселений с развитым ремеслом, земледелием. Жители городов-оазисов вели широкую торговлю с Индией, Ближним и Средним Востоком, античным миром. Возвратившись в Китай, Чжан Цянь рассказал императору о странах к западу от Китая, о том, чем они богаты. Сообщил о породистых «крылатых» конях Давани, не идущих ни в какое сравнение с мелкими китайскими лошадами. Император тут же захотел иметь таких лошадей, так как обладание ими давало огромные преимущества в борьбе против кочевников. Вскоре в Среднюю Азию были отправлены посольства. Среди прочих даров они везли китайский шелк.

Так встретились древние цивилизации Средней Азии и Китая, а позже Средиземноморских стран и Индии. Сошлись в единое целое две великие дороги. Одна, шедшая с Запада, из стран Средиземноморья в Среднюю Азию, другая, ведущая с Востока, из Ханьской империи в Центральную Азию.

(www.advantour.com)

9. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘z birikmalarining ma’nosini shahlang. Matndagi asosiy fikrni ifodalab bering.

Milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro *transport arteriyasi* vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta Yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ulkan, beqiyos rolini baholashning o‘zi qiyin.

Mazkur yo‘l nafaqat yuqorida zikr etilgan hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki *qit’alar va davlatlar o‘rtasida axborot almashuvini* ta’minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog‘oz va boshqa ko‘plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo‘jaligi ekinlari va *agrotexnologiyalarning*, shuningdek, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining *ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi* alohida rol o‘ynadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G‘arb olamidagi ulug‘ alloma va mutafakkirlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, *g‘oya va kashfiyotlarini* o‘rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi.

Ma’lumki, o‘sha davr an’analariga ko‘ra, ma’rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida *panoh topganlar*. Ular orasida IX–XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi va “Baytulhikma”, ya’ni “*Donishmandlik uyi*” degan nom bilan shuhrat qozongan Bag‘dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug‘bekning *ilmiy maktabida* samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli *po‘rtanadek otilib chiqqan* ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi *Renessans* jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida *dunyo ilmiy jamoatchiligi* tomonidan haqli ravishda tan olingan.

(Islom Karimovning “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqidan.)

10. She’rni o‘qing. Unda tasvirlangan manzara qaysi davrga tegishli ekanligini ayting.

Buyuk Ipak yo‘li

Iqbol Mirzo

Qumlar sochib, yo‘l ochib, tasbehdek¹ karvon o‘tar,
Tuyalarda chayqalib davr o‘tar, davron o‘tar.
Mushkni² murchga, guruchni adrasga ayirboshlab,
Alakni³ bo‘zga, bo‘zni atlasga ayirboshlab,
Gohida insof bilan, gohida iymon bilan,
Yo‘lning tanobin tortib, tosh bilan, dovon bilan,
Birda aldab, birida g‘aflatda qolib o‘zi,
Goh yo‘lidan, gohida o‘zidan nolib o‘zi,
Turfa libos, dil bilan turli karvonlar o‘tar,
Nortuya odimidek vazmin⁴ zamonlar o‘tar.
Sahro – ulkan qumsoat. Qor to‘kilar oq qumday,
Tujjorning⁵ nasibasi gohi zahar-zaqqum¹day,

¹ tasbeh – чётки

² mushk – благовония

³ alak – хлопчатобумажная ткань

⁴ vazmin – степенный, неторопливый

⁵ tujjor – устар. предприниматель

Lekin Ipak yo‘li bu – haq yo‘li, urfon² yo‘li,
Insoniyat jismida jon yo‘li bu, qon yo‘li.
Shu yo‘l bois Rumoda³ chiniy⁴ jarangoslari,
Olmonlarda⁵ qo‘lma-qo‘l Samarqand qog‘ozlari.
Xurjunning bir ko‘zida xalvo-yu novvot ketar,
Bir yonda Samarqandiy kitobu dovot⁶ ketar.
“Adolat sari yurgil, yuzlangin ilm tomon!” –
Duoga juftlangan kaft, hovuch kabi Registon.
“Olam simobdek titrar, o‘zingdan bo‘lgil ogoh!” –
Ko‘z yummas Shohi Zinda – abadiy barhayot shoh.
Qancha savdogar bunda el bo‘lib qolib ketgan,
Ketganlari ma’rifat, ma’rifat olib ketgan.
Vale⁷ Buyuk karvonning yumushi bitgani yo‘q,
Hanuz yo‘ldadir, hanuz manzilga yetgani yo‘q.

11. Matnni o‘qing. Muallifning asosiy g‘oyasini ifodalang.

Tarixdan ma’lumki, sivilizatsiyalar katta saltanatlar hududlarida, iqtisodiy va mintaqaviy barqarorlik hukm surgan, uzoqni ko‘ra oladigan, xalq farovonligi yo‘lida jiddu jahd ko‘rsatgan, ilm-fan homiysi bo‘lgan davlat rahbarlari davrida yuz bergan. Barcha sohalarga birdek e’tibor, ijtimoiy adolat tamoyili, tadbirkorlikning rivojlanishidan manfaatdorlik, umuman obod turmush konsepsiyasi Amir Temur siyosatining natijasi sifatida ikkinchi Renessansga asos bo‘lib xizmat qilgan. Yigirma yetti davlatni o‘z ichiga olgan saltanatda ichki va tashqi savdo-sotiq almashinuvlari mamlakat iqtisodini yuksaltirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

¹ zahar-zaqqum – яд, отрава

² urfon – наука

³ Rumо – *устар.* Древний Рим

⁴ chiniy – *устар.* китайский

⁵ olmonlar – *устар.* германцы

⁶ dovot – *устар.* чернильница

⁷ vale – *устар.* однако

Amir Temur va temuriylarning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosati tufayli bu davrda savdo yo‘llari orqali integratsiya jarayonlari kuchayib borgan. Sohibqiron Buyuk Ipak yo‘lining ish faoliyatini ma‘lum bir qonun-qoidalar, uning himoyasini kafolatlovchi yangiliklar asosida shakllantirgan. Birinchi navbatda Buyuk Ipak yo‘lining bekatlari ta‘mirlangan va ba‘zi yerlarda yangilari bunyod etilgan. Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta‘minlovchi karvonsaroylar qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan harbiy qo‘riqchilar himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.

Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan shaharlar, avvalo Samarqand Amir Temur davrida yuqori darajada ravnaq topgan. Samarqandga dunyoning barcha taraflaridan savdogarlar kelib turgan. Bu yerda do‘kon-u, bozorlar, hunarmandlik ustaxonalari son-sanoqsiz bo‘lib, mahalliy mahsulotlar chetga sotilgan.

Sohibqiron Buyuk Ipak yo‘lini mustahkamlash orqali o‘z davlati va qo‘shni davlatlarning mudofaa va xavfsizligini ta‘minlash maqsadlariga ham alohida e‘tibor qaratgan. Amir Temur zamonida davlatlarning tutash mintaqalarida hozirgi bojxona vazifasini o‘tgan maskanlar barpo etilgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali Amir Temur nafaqat mudofaa, tinchlik, barqarorlik, yaxshi qo‘shnichilik va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirgan, balki geosiyosiy maqsadlarini ham amalga oshirgan.

(SH. O‘ljayeva, tarix fanlari doktori.)

O‘zbek tilining leksik qatlamlari

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi eng qadimgi turkiy urug‘ va qabilalardan o‘sib chiqqan. Demak, uning tili ham shu urug‘ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qardosh xalqlar bilan qo‘shnichilik munosabatlari ham o‘zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta‘sir o‘tkazgan.

1. *Umumturkiy soʻzlar* oʻzbek tili leksikasining eng qadimgi lugʻaviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirgʻiz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Qʻiyoslang: *bosh* (oʻzbek) – *bas* (qozoq, qoraqalpoq) – *bosh* (qirgʻiz, turkman); *til* (oʻzbek, qozoq, qirgʻiz) – *dil* (turkman, ozarbayjon, gagauz); *togʻ* (oʻzbek) – *too* (qirgʻiz) – *tav, tau* (qoraqalpoq, qozoq) – *dagʻ* (turkman, ozarbayjon) kabi.

Umumturkiy soʻzlar qatlamida “qon-qarindoshlik”, “inson aʼzolari”, “uy hayvonlari”, “yovvoyi hayvonlar”, “parrandalar”, “mehnat faoliyati”, “uy-roʻzgʻor buyumlari”, “rang-tus”, “urf-odat” maʼnoli soʻzlar koʻpchilikni tashkil etadi.

2. *Sof oʻzbek soʻzlari* – oʻzbek tilining oʻzida yasalgan leksemalar.

3. *Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksemalar*. Masalan: *maktab, oila* (arab), *daraxt, gul* (fors-tojik), *axta, bahodir* (moʻgʻul), *afandi* (turk), *ravshan* (soʻgʻd), *traktor, avtobus* (rus) va boshqalar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar koʻpchilikni tashkil qiladi.

12. Hikmatlarni oʻqing. Ajratilgan soʻzlarning etimologiyasini lugʻat yordamida aniqlang.

1. Eng yaxshi yoʻl shuki, yaxshi *doʻst yor-diyordan* ayrilishni *ixtiyor* etmaydi.

2. Oʻtgan *ota-bobolarning* xulosasi shuki, *shirin* soʻz odamlarning *qalbini bogʻlovchi zanjir*dir.

3. Qisqa gap shuki, *odam* soʻzi bilan taniladi, *axloqi* bilan maqtaladi.

4. *Donolarning oʻgiti* shundayki, soʻzning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.

5. *Xalqning* xulosasi shuki, *xudbin* odam hech qachon *elga* qovushmaydi.

(“*Hikmatlar boʻstoni*” kitobidan.)

13. Darslikning “Mutolaa” boʻlimidan rus adibi Lev Tolstoyning “Ossuriya shohi Asarxadon” hikoyasini oʻqing. Hikoyada qoʻllangan tarixiy soʻzlar va atamalarni yozib oling. Asardan chiqargan xulosangizni ifodalang.

14. Tarixiy mavzudagi badiiy filmlardan biri haqidagi taassurotlaringizni yozing.

1. Savollarga javob bering.

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda tug‘ilib, faoliyat yuritgan qaysi olimlarni bilasiz? Ular dunyo ilm-faniga qanday hissa qo‘shganlar?

Matematika fanining asoschisi kim?

Arab raqamlari qachon paydo bo‘lgan?

Astronomiya va geografiya sohasida o‘rta asrlarda qanday kashfiyotlar qilingan?

“Tib qonunlari”ning muallifi kim?

Markaziy Osiyodagi birinchi rasadxonani kim qurgan?

2. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohli lug‘at yordamida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Alloma –

Mutafakkir –

Daho –

Ma’rifatparvar –

Faylasuf –

Kashfiyotchi –

Asoschi –

Tadqiqotchi –

Qomusiy olim –

3. Matnni o‘qing. Unda tilga olingan mashhur olimlarning qaysi sohalarga asos solganligi haqidagi ma’lumotlarni toping. Ularni jadval shaklida ifodalang.

Sharqda, O'rta Osiyo zaminida yuz bergan Uyg'onish jarayoni, xususan, dunyoviy fanlar rivojida alohida yuksalish bosqichi bo'ldi. Bu borada ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat ko'rsatgan "ilm uylari" – Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" (Bag'dod akademiyasi), Xorazm poytaxti Urganchdagi "Ma'mun akademiyasi", shuningdek "Ulug'bek akademiyasi" va boshqa ko'plab yuksak ilm dargohlarining o'rni hamda ahamiyati beqiyosdir. Uyg'onish davri o'z yuksak aql-zakovati, salohiyati, izlanishlari bilan fanning ko'plab sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan qanchalab buyuk daholarni yetishtirib berdi. Ular jahon fanining tibbiyot, falakiyot, matematika, jo'g'rofiya, tarix, geologiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va boshqa yo'nalishlari tamal toshini yaratdilar. Bu muqaddas zamindan yetishib chiqqan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-Shoshiy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk siymolar nomini haqli ravishda ehtirom bilan tilga olamiz.


VIII asr oxiri – IX asr boshida Bag'dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Sokrat, Gippokrat, Galen, Yevklid kabilarning asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Xristian va islom olimlari o'rtasida hamkorlik ishlari amalga oshirildi. Xalifa Xorun ar-Rashid o'limidan (813-yil) so'ng uning o'g'li al-Ma'mun xalifa etib tayinlandi. U ilm-fan, madaniyatga qiziqqan odam bo'lib, unga qadar xalifalikning Markaziy Osiyo va Xuroson bo'yicha vakili sifatida Marvda hokimlik qilar edi. Otasining o'limidan so'ng xalifa sifatida Bag'dodga ko'chgach (819-yil), u yerda ilmiy Markaz tashkil etib, unga

barcha musulmon o'lkalari, jumladan, Movarounnahrda ham olimu fozillarni to'pladi. Bu markazda Movarounnahr, Xurosondan chiqqan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Marvaziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar faoliyat ko'rsatib, Bag'dod ilmi madaniyatini, arab ilmini olamga mashhur qilishda ulkan hissa qo'shdilar. Bu ilmiy markaz tarixda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") nomi bilan mashhurdir. "Bayt ul-hikma"da asosan riyoziyot, tibbiyot, ilmi-nujum, jo'g'rofiya, astrologiya, handasa va shunga o'xshash boshqa fanlar o'rgatilgan.

(<http://tridantus.uz> saytidan olindi.)

4. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralarning ma'nosini tushuntiring.

Muhammad Muso al-Xorazmiy (783 – 850)



Abu Abdulla Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa, *tabiiy fanlarni* o'rganishga qiziqdi. Arab, fors, hind, *yunon tillarini* mukammal o'rgandi. O'qigan, o'rganganlari asosida bir necha fanlarga doir yirik, *qimmatli* asarlar yaratdi. Uning arifmetika va algebraga doir "Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" ("To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida qisqacha kitob") asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi.

Al-Xorazmiyning "Al-jabr va al-muqobala" asari keyinchalik Yevropada "Algebra" deb yuritila boshlandi. Mazkur asar *merosxo'rlar*

orasida mol-dunyo taqsimlashga xizmat qilgan. Bu fanga mol va yerni o‘lchash, kimga qancha qism tekkanligini aniqlash, ariq, anhor qazish va bu ishlarni bajarganlar mehnatiga tegishli haq to‘lash kabi qator masalalarni hal qilish borasida zarurat tug‘ilgan. Al-Xorazmiyning ikkinchi matematikaga oid asari “Hind arifmetikasi haqida kitob” bo‘lib, bu asar tufayli avval Sharq, so‘ngra Yevropa xalqlari o‘nli pozitsion hisoblash tizimi bilan tanishdilar. Ushbu asar XII asrda lotin tiliga o‘girilgan.

Al-Xorazmiy ijodida geografiya fani ham muhim o‘rin tutadi. U tarixda birinchilardan bo‘lib Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini isbotlagan. Xorazmiyning “Kitob surat al-ard” (“Yerning surati”) asari geografiyaga, “Astronomik jadvallar” astronomiyaga oid bo‘lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, “Quyosh soatlari to‘g‘risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqqa risolasi” singari ajoyib asarlari olimga katta *shuhrat* keltirdi, uning *nomini abadiylashtirdi*. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki g‘arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o‘ynadi.

Xorazmiyning 20dan ortiq asaridan faqat 10tasi bizgacha yetib kelgan. Ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi va turli tillarga tarjima qilingan.

5. Kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni to‘ldiring.

1. Xorazmiyning to‘liq ismi _____ .
2. Olimning hayoti 813-yildan _____ bilan bog‘langan.
3. Al-Xorazmiy _____ tillarni mukammal bilgan.
4. Olim _____ sohalarida ilmiy asarlar yaratgan.

5. _____ -yildan _____ akademiyasiga rahbarlik qilgan.

6. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Ал-Хорезми известен прежде всего своей «Книгой о восполнении и противопоставлении» («Аль-китаб аль-мухтасар фи хисаб аль-джабр ва-ль-мукабала»), которая сыграла важнейшую роль в истории математики. От названия этой книги произошло слово «алгебра». Подлинный арабский текст утерян, однако содержание известно по латинскому переводу английского математика Роберта Честерского 1140 года. Эта книга была дважды переведена в XII веке на латинский язык и сыграла чрезвычайно важную роль в развитии математики в Европе.

7. Matnni o‘qing. Olimning asarlari ro‘yxatini tuzing.

Ahmad al-Farg‘oniy (taxminan 797-865-yillar)

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy Farg‘ona vodiysining Quva qishlog‘ida tug‘ilgan. Bo‘lajak olim 15 yoshida matematika va astronomiyani o‘rganish uchun Bag‘dodga yo‘l oladi. U yerda yunon olimlarining asarlarini tarjimasiz o‘qish uchun yunon tilini o‘rganadi.

Ahmad al-Farg‘oniyning 8ta asari ma’lum. Bu kitoblarning har birida astronomiyaga oid yangi, qimmatli fikrlar aytilgan. Ularning, ayniqsa, ikkitasi jahon astronomlariga ma’lum va mashhurdir. Bu “Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi”



(“Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”). Ushbu asar “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan ham ma’lum bo’lib, 1145- va 1175-yillarda Yevropada lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. Shundan so‘ng al-Farg‘oniy nomi lotinlashtirilib, “Alfraganus” shaklida G‘arbda shuhrat topgan.

Olimning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob o‘sha zamondagi astronomiya bo‘yicha eng muhim va zarur bilimlarni o‘z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo‘limi Yer yuzidagi mamlakat va shaharlar haqida eng boshlang‘ich va zaruriy bilimlarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Yerdagi ma’lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida” deb atalgan. Unda Yerning dumaloqligi, bir xil osmon yoritqichlari¹ning turli vaqtda ko‘tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko‘rinishi, masofalar o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi ham o‘zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan. Ushbu asar o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlarida, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlarida astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.

Yana bir kitobi – “Asturlob yasash haqida kitob” (“Kitob al-komil fiy san’a al-asturlob”) deb atalgan. Ushbu asarning birgina qo‘lyozmasi Rampur (Hindiston)da saqlanadi. Boshqa asarlarining qo‘lyozmalari jahonning turli shaharlari – Berlin, London, Parij, Tehron, Toshkent, Dushanbe, Mashhad, Patna, Halab va Qohiradagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda.

8. Quyidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

¹ osmon yoritqichlari – небесные светила

Астрономические вычисления, значимые труды, плеяда ученых, астрономические исследования, мировая известность, небесные движения.

9. Matnni o‘qing. Unga munosabat bildirib so‘zlab bering.

Abu Ali ibn Sino (980-1037)

“Shayx ur-rais”, “Donishmandlar sultoni”, “Tabiblar shohi” – bunday yuksak va mo‘tabar¹ nomlarga qomusiy bilim sohibi², tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino musharraf bo‘lgan³. Yevropada uni Avitsenna deyishadi.

Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Ali ibn Sinod Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. U iste‘dodli, xotirasi kuchli, zehni o‘tkir⁴ bo‘lganligidan o‘z davrida ma‘lum bo‘lgan ilmlarni tez egallagan. 10 yoshida Qur‘onni yoddan bilgan va fors, arab tillarining grammatikasi, she‘riyat, adabiyot, tarixni o‘zlashtirgan. Algebra, geometriya va hatto falsafani o‘rgangan, hamma yulduz turkumlarining qanday atalishini



bilgan va aniq ko‘rsata olgan. Savollari bilan mudarris⁵larni esankiratib qo‘ygan. Biroq Ibn Sinoni matematika va fizika, astronomiya va falsafadan ko‘ra tibbiyot ko‘proq o‘ziga tortar edi. Mamlakatda vabo va chechak kasalligi keng tarqalgan, bu darddan minglab kishilar halok bo‘lmoqda edi. Ibn Sino bu dahshatdan xulosa chiqarib, odamlarni davolayman, degan qarorga keldi.

¹ mo‘tabar – достойный

² qomusiy bilim sohibi – обладатель энциклопедических знаний

³ musharraf bo‘lmoq – быть удостоенным

⁴ zehni o‘tkir – смыслённый

⁵ mudarris – преподаватель медресе, высшего мусульманского духовного учебного заведения

Buxoroda Mansur shoh ko'p kasal bo'lib, uni hech kim davolay olmagan edi. Yosh tabib ibn Sino shohni davolaydi. Shu tariqa shoh kutubxonasidan bahramand bo'lish¹ baxtiga erishadi. U yerdagi xilma-xil kitoblarni o'qib, o'z bilimini boyitadi.

Ibn Sino 16 yoshdayoq mashhur tabib-hakim bo'lib tanildi va keyinchalik "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi.

999-yilda Buxoro Sulton Mahmud tomonidan bosib olinadi. Ibn Sino musulmon ruhoniylari² va Sulton Mahmudning ta'qibidan cho'chib, 1002-yilda Xorazm poytaxti Urganchga ketadi. Urganchda Xorazm shohi Ma'munning saroyida yashaydi. Ibn Sino bu yerda mashhur olim Beruniy bilan uchrashadi.

Ibn Sino o'z davrigacha yaratilgan barcha fanlarni o'zlashtirdi va o'zi ham shu ilmlarning deyarli barchasida ijod etdi. Ibn Sino bu haqda ruboiy³lardan birida shunday yozgan:

Shul xoki siyohdin to avji Zuhal

Har nechaki mushkulot erur, etdim hal.

Ochdim necha zanjir-zanjiri makru hiyal.

Yechdim necha bir tugun, faqat qoldi ajal...

(От праха черного и до небесных тел

Я тайны разгадал мудрейших слов и дел.

Коварства я избег, распутал все узлы,

Лишь узел смерти я распутать не сумел...)

¹ bahramand bo'lmoq – пользоваться

² ruhoniylar – духовенство

³ ruboiy – рубаи, четверостишие

Ibn Sino o‘zidan keyin ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari soni 450dan oshadi, biroq bizgacha faqat 160ga yaqin asari yetib keigan. Uning, ayniqsa, “Tib qonunlari” asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, 800 yil davomida G‘arb mamlakatlari universitetlarida asosiy qo‘llanma bo‘lib kelgan va hozir ham bir qancha tibbiy o‘quv yurtlarida o‘rganiladi.

10. Matnni o‘qing va unga nom bering.

Rivoyatlarga qaraganda, Ibn Sino safarda vafot etgan. U o‘zining vasiyatnomasida barcha mol-mulkini muhtojlarga tarqatishni, xizmatkorlariga esa erkinlik berishni yozib qoldirgan.

Emishki, Ibn Sino o‘limning davosini topgan ekan. U ko‘p yillik izlanishlari mahsuli bo‘lgan 40 ta dorini tayyorlab, idishchalarga joylabdi. Shogirdiga joni uzilgan zahoti dorini ma’lum ketma-ketlikda berishni tayinlabdi. Ustozi vafot etgach, shogird dorilarni berishni boshlabdi. Kundan kunga dorilarning ta’siri ko‘rinar, tabibning tanasi yosharib, yuzlariga qizillik yugurib, soch-soqollari qoraya boshlabdi. Buni ko‘rgan shogird hayratda ekan. Qirquinchi dorini berayotganda kuchli hayajondan qo‘lidagi idishni tushirib yuboribdi...

11. Matnni o‘qing, uni mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

Mirzo Ulug‘bek (1394–1449)

Buyuk astronom, matematik, davlat arbobi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Sohibqiron Amir Temurning nabirasi bo‘lgan. Amir Temur yoshligidan o‘tkir zehnlilik, xotirasi kuchli, teran fikrli¹, ziyarak, qiziquvchan nabirasi Mirzo Ulug‘bekning tarbiyasiga katta e’tibor

¹ teran fikrli – глубококомыслящий

bergan. Ulug‘bekning dunyoqarashi kengayishiga otasi Shohrux Mirzo to‘plagan nihoyatda boy kutubxona yordam bergan. U she‘riyatni, tarixni sevgan, biroq falakiyot ilmi¹ uning qalbida alohida o‘rin egallagan.

Ulug‘bek bilimdon va tajribali murabbiy, ya‘ni astronomiya ilmining bilimdoni Qozizoda Rumiylahnamoligida² fan asoslarini, ayniqsa, astronomiya ilmini puxta o‘rgandi va uning taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning ko‘p yillik mehnati samarasi – “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari astronomiya fanining durdonasi hisoblanadi.



“Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asosan ikki qismdan: katta muqaddima va 1018ta yulduzning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ushbu asarda astronomiyaning muhim poydevor³laridan hisoblangan sana yoki yil hisobi masalalari, yulduzlarning chiqishi va botish joylari, yulduz va sayyoralarning quyosh atrofidagi harakati, yulduzlarning holati va harakatiga qarab taqdirni belgilash masalalari haqida bayon etilgan. Ulug‘bekning sana va sayyoralarning yillik harakatlari haqidagi hisoblari hozirgi hisob-kitoblarga juda yaqindir.

Mirzo Ulug‘bek buyuk olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi ham bo‘lgan. U 1409–1449-yillarda markazi Samarqand bo‘lgan Movarounnahrqa hukmronlik qilgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand yanada gullab-yashnadi, hunarmandchilik, me‘morchilik va adabiyot ravnaq topdi⁴, ilm-fan yuksaldi, savdo rivojlandi. Ulug‘bek

¹ falakiyot ilmi – астрономия

² rahnamoligida – под руководством

³ poydevor – фундамент

⁴ ravnaq topdi – развивался, процветал

farmoyishi bilan Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432–1433) madrasalar qurildi. Samarqanddagi me'morchilikning nodir namunalaridan biri Ulug'bek rasadxona¹sidir. Bu inshoot 1428–1429-yillarda Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida Obirahmat arig'i bo'yida bunyod etilgan. Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatidan beqiyos bo'lgan. “Ziji jadidi Ko'ragoniy” asari ham shu yerda yaratilgan.

Ulug'bek Mirzo bobosi davrida qurila boshlagan, lekin ayrim sabablarga ko'ra bitmay qolgan talaygina binolarni ham bitkazdi. Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda mozori va Shahrisabzdagi Ko'k gumbaz masjidi shular jumlasidandir. Astronomiya va matematika fanlari sohasida mashhur asarlar yaratgan, o'rta asrda eng katta rasadxona qurib, Sharq astronomiya maktabini vujudga keltirgan, o'ziga zamondosh bo'lgan eng yaxshi olimlarni atrofiga to'plab, ularning ilmiy ish olib borishlariga katta imkoniyatlar yaratib bergan va bunday olijanob xizmatlari tufayli dunyo fani tarixida o'chmas nom qoldirgan.

12. Matnni o'qib, unga sarlavha toping. Uni o'zbek tilida gapirib bering.

По велению Улугбека на холме Кухак было возведено величественное здание обсерватории, равной которой в то время не было в мире. К постройке этого великолепного сооружения Улугбек привлек виднейших ученых, в том числе «Птолемея эпохи» Алауддина Али ибн Мухаммеда, прозванного Али Кушчи, «Платона своей эпохи» Салахуддина Муса ибн Мухаммед Казызаде Руми, «величайшего знатока» Гиясутдина ал Каши и других, которые разработали проект, а также усовершенствовали

¹ rasadxona – обсерватория

необходимые астрономические инструменты. По некоторым сведениям, преподавал в этом медресе сам Улугбек.

Выдающимся достижением самаркандских астрономов был составленный ими каталог звезд. Ценность этого каталога, прежде всего, в том, что в нем определены координаты 1018 звезд. Над этими таблицами самаркандские астрономы работали долго и закончили их к 1437 году, но изменения и дополнения Улугбек вносил в них до самой своей смерти.

После смерти Улугбека обсерватория еще продолжала работать 20 лет. Когда положение ученых крайне ухудшилось, Али Кушчи с учениками вынужден был покинуть обсерваторию и переехать в Герат, где первым министром был великий Алишер Навои. Вскоре самаркандского астронома пригласили в Стамбул. Там он закончил и издал труды обсерватории. Астрономические таблицы, составленные в обсерватории Улугбека, пользовались заслуженной славой на Востоке и очень долго оставались непревзойденными по точности. В Европе они были впервые изданы в 1650 году.

(Ю.Н.Алескеров.)

O‘zbek tilida sinonimlar

Sinonimlar yozilishi va talaffuzi jihatidan turlicha, anglatadigan ma’nolari esa o‘zaro yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Sinonimlar tushuncha ifodalashda bir-biriga qanchalik yaqin bo‘lsalar ham, ma’no nozikligini ifodalashda bir-biridan farq qiladi. Masalan: *odam, inson, kishi, kimsa, bashar, shaxs* so‘zlarini har doim ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. *Osmon, ko‘k, havo, falak, samo, gardun* so‘zlari ham ma’no qirralari va qo‘llanish uslubi hamda doirasi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Sinonim so‘zlar majmuiga *sinonimik qator* deyiladi. Sinonimik qatorni tuzishda ma’nosiga ko‘ra betaraf bo‘lgan so‘z asos qilib olinadi.

Sinonimlarning fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham o‘zbek yozuvchilari, shoirlari, olimlari tilimizning omonim, sinonim so‘zlaridan mohirlik bilan foydalanib, mazmunan boy, til jihatdan rang-barang badiiy, ilmiy asarlar yaratib kelmoqdalar.

13. Quyidagi terminlarning zamonaviy muqobillarini toping.

Riyoziyot, tabobat, ilmi-nujum, jo‘g‘rofiya, handasa, ilmi hayat, ilmi hisob, falakiyot, mantiq.

14. She‘rni o‘qing. O‘zbek tilining izohli lug‘ati yordamida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

Rasadxona. Ulug‘bek yulduzi

Iqbol Mirzo

“Temurxon *naslidin* sulton Ulug‘bek”¹...

Yurakka *cho‘g‘* solar uchgan yulduzlar.

Fonus tegrasida parvonalardek

Oy to‘garagida *g‘ujg‘on* yulduzlar.

Koinot – aqlga abadiy so‘roq,

Tafakkurga mangu qiynoq – koinot.

*Saltanat tizginin*² siltab turgan *chog‘*

Sulton nega ko‘kka solar betin ot³?

Faqirmi, saidmi, xo‘ja yo vali

Bu *yurtda samoni ko‘zlagan mudom.*

Osmon bilan *yolg‘iz qolgan mahali*

O‘zining yulduzin *izlagan mudom.*

¹ Alisher Navoiy satri

² saltanat tizgini – бразды правления

³ ko‘kka solar betin ot – *здесь*: постоянно стремится, тянется к звездам

Bibixonim quchib kichik Mirzoni
Bobongiz dunyoni oldi, degandir.
Erkalab, ko‘rsatib o‘tlig‘ samoni¹
Sizga *sayyoralar* qoldi, degandir.
Aks etmagan “Ziji Ko‘ragoniy”da
Ulug‘bekning porloq *tole* yulduzi².
Derlar, *gard* bo‘lmasa dil, iymonida³
Yulduzni ko‘rgaydir hatto kunduzi.
Yashirib ne qildim: *falak*da emas,
*Zamin*ning o‘zida yulduzni ko‘rdim.
Ozod *sunbulaga* tomiri payvast
O‘smirning ko‘zida yulduzni ko‘rdim!
O‘zbekim, dunyoga shoh berding, ajab –
Shohlar olim chiqdi, olam mot bo‘ldi⁴.
Kimlar yulduzini topdi sen sabab,
Kimga ilmu shahding qo‘shqanot bo‘ldi.
Ulug‘bek yulduzin ko‘rdim – qalqdi yosh⁵,
Tongda tillolanib ketdi osmonim:
Qalbimga bobomdek qo‘r to‘kdi quyosh⁶ –
Bu – sening yulduzing, O‘zbekistonim!

15. “Sharqning buyuk mutafakkirlari” mavzusida taqdimot tayyorlang. Unda buyuk olimlarning dunyo faniga qo‘shgan hissalarini ko‘rsating.

¹ o‘tlig‘ samo – здесь: сверкающие звезды

² *tole* yulduzi – счастливая звезда

³ *gard* bo‘lmasa dil, iymonida – если душа и совесть чиста

⁴ olam mot bo‘ldi – мир был поражен, покорен

⁵ qalqdi yosh – глаза наполнились слезами

⁶ qo‘r to‘kdi quyosh – солнце расположилось

ADABIYOT – MA’NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA



1. Savollarga javob bering.

“Adabiyot” so‘zining ma’nosi nima?

Adabiy janr deganda nimani tushunasiz?

Dunyoga mashhur qaysi adabiy asarlarni bilasiz?

O‘zbek adiblaridan kimlarning asarlarini o‘qigansiz?

2. Taniqli adiblarning fikrlarini o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiring.

Mario Vargas Lyosa, perulik yozuvchi, Nobel mukofoti laureati (2010):

Adabiyot tufayli, adabiyot uyg‘otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, *xayolot saltanatiga* safar chog‘i ko‘ngilda bosh ko‘targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o‘ylab topgan *badiiy to‘qima* qumga singigan suvdek izsiz ketmadi, bil’aks toshga aylangan yuraklarni *mumdek eritdi*. Yaxshi kitoblar bo‘lmaganida edi, insoniyatning bugungi *holiga maymunlar yig‘lagan* bo‘lard, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi,

ko'ngil birligi yo'qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi – taraqqiyotning yetakchi omili – yo'qolardi.

Yudjin O'Nil, amerikalik dramaturg, Nobel mukofoti laureati (1936):

Hozirgi paytda tragediyani baxtsizlik, deb tushunishadi. Qadimda yunonlar boshqacha tushunishgan. Tragediya kishiga *ko'tarinki ruh* bag'ishlashini his etishgan. Bu turdagi asarlar ta'sirida ular kundalik odatdagi tirikchlikning mayda tashvishlaridan yuqori turishgan. Tragediya kishilarni *ezgulikka yo'llaydi*, deb hisoblashgan. Zotan, chinakam san'at asari, qaysi tur va janrda yaratilganiga qaramay, barcha zamonlarda odamlarga *xushbaxtlik* bag'ishlaydi.

Migel Anxel Asturias, gvatemalalik yozuvchi, Nobel mukofoti laureati (1967):

To'g'ri, yozuvchi oddiygina so'zlarni ishlatadi, lekin ularning o'ziga yarasha qancha qonunlari, qoidalari bor! So'zlarda u yaratayotgan *dunyolarning yurak urishi* eshitiladi. Ular yog'och kabi, metall kabi tovush chiqaradi, jaranglaydi. Ular tovushlarga *taqlid qiladi*. Bizning ishimizda eng avval mana shuni – tovushga taqlidni hisobga olish lozim.

Xorxe Luis Borxes, argentinalik adib:

Inson qo'lidagi turli-tuman qurol-yaroq, asbob-uskunalar orasida eng g'aroyibi, shubhasiz, kitob sanaladi. Qolganlarini uning *jismoniy davomi*, deyish mumkin. Mikroskop va teleskop – ko'zning davomi, telefon – ovozning, omoch va qilich – qo'lning. Biroq kitob – butunlay boshqa narsa, kitoblar – xotiralar va tasavvurlarning davomidir.

Frans Kafka, nemis adibi:

Uydan tashqariga chiqishingga hojat yo'q. Yozuv stolingdan jilma va tingla. Hatto tinglama ham, faqat kut. Hatto kutma ham, shunchaki *sukut saqla* va yolg'iz bo'l. Shunda olam *o'zini oshkor etishni* boshlaydi,

u boshqacha bo‘la olmaydi, u sening qoshingda ilojisiz o‘zining *arzu jamolini* namoyon etadi.

3. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiring.

Adabiyot – insonning *badiiy tafakkuri mahsulidir*. Adabiyot – so‘z san’ati. “Adabiyot” arabcha “adab” – odob so‘zining ko‘plik shaklidir.

O‘zbek tilida “adabiyot” *atamasi* kishilarga yaxshi *xulq* va umuman hayotni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri yashashni o‘rgatish maqsadida yozilgan asarlar ma’nosida qo‘llanilgan. Adabiyot – kishini yomon *tuyg‘ulardan tozalaguvchi*, *ruhini tiniqlashtiruvchi*dek bir ajoyib vazifani o‘taydi.

Adabiyot avval og‘zaki bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng yozma shaklga o‘tgan. Uning asosiy quroli so‘z bo‘lib, so‘z orqali insonning his-tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. So‘zni ham naqqoshlarcha, ustalik bilan ishlata olgandagina adabiyot biror-bir *timsol* yarata oladi, fikr ayta oladi.

Adabiyot olam hodisalari haqida ham bilim va ma’lumot beradi. Bu jihatdan u fanga, *fanning turli tarmoqlari*: falsafa, tabiatshunoslik, kimyo, fizika, tarix va boshqalarga o‘xshaydi. Ammo ular hayot hodisalarini aks ettirish usuliga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Zero, fan ilmiy umumlashmalarga tayansa, adabiyot badiiy obrazlarga suyanadi.

Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlaridek, ularning *qalb kechinmalari* ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqining o‘zi singari juda boy, qadimiy tarixga ega. Uning o‘ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo‘li, rivojlanish qonuniyatlari bor. O‘zbek adabiyoti tarixi insonning ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy.

Ular hozirgi avlod *ruhiyatida*, qalbida ham *hayajon* uyg'ota oladi, ularning ma'naviy boyishlariga hissa qo'sha oladi. Muhimi, ular faqat ma'rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.

4. Quyidagi janrlarni tegishli guruhlarga ajratib yozing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

Ballada, doston, epigrama, felyeton, hajviya, hikoya, qissa, intermediya, komediya, masal, masnaviy, memuar, muxammas, novella, ocherk, pyesa, roman, ruboiy, sonet, trilogiya, vodevil, g'azal.

5. Darslikning “Mutolaa” bo'limidan Abdulhamid Cho'lponning “Adabiyot nadir?” asarini o'qing. Muallifning fikrini qisqacha ifodalab bering.

6. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning zamonaviy sinonimlarini toping.



O'rxun-Enasoy *obidalar* V–VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo'g'ulistondagi O'rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo'g'ulistondan Shimoliy dengizgacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi *yodnomalar* uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O'rxun yozuvidan foydalanilgan.

O‘zbekiston hududida 20dan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan. Yirik O‘rxun bitiklari Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq va boshqa yozuvdagi yodnomalar adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin keladi.

Kultigin *bitiktoshi* 732-yilda Turk xoqonligining lashkarboshisi sharafiga o‘rnatilgan. Bitiktosh 2 qismdan: Kichik va Ulug‘ bitikdan iborat. Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi uchun kurash bitiktoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg‘ach, Tibet, Sug‘d, Turgash, Qirg‘iz kabi joy nomlari tilga olingan.

Enasoy bitiklari *marsiya* va *madhiya* janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi. Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o‘qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Shuningdek, AQSH, Polsha, Vengriya, Finlandiya va Turkiyada ham o‘rganilgan.

7. Quyida nomlari berilgan adiblarni davrlar bo‘yicha ajratib, ularning eng mashhur asarlari nomlari hamda qaysi tilda ijod qilganligi haqidagi ma’lumotlardan jadval tuzing.

Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Alber Kamyu, Aleksandr Dyuma, Aleksandr Pushkin, Alisher Navoiy, Antuan de Sent-Ekzuperi, Artur Konan Doyl, Daniel Defo, Dante Aligyeri, Ernest Xeminguey, Frans Kafka, Franchesko Petrarka, Fyodor Dostoyevskiy, Gabriel Garsia Markes, Hans Hristian Andersen, Herbert Uells, Herman Hesse, Homer, Iohann Hyote, Ivan Turgenev, Jek London, Jorj Sand, Lev Tolstoy, Migel Servantes, Mixail Bulgakov, Onore de Balzak, Oskar Uayld, Oybek, Paolo Koelyo, Rey Bredberi, Somerset Moem, Stendal, Tomas Mann, Uilyam Folkner, Uilyam

Shekspir, Umberto Eko, Viktor Gyugo, Xaruki Murakami, O‘tkir Hoshimov, Charlz Dikkens, Chingiz Aytmatov.

8. O‘zbek adibi Abdulla Qahhorning adabiyot haqida yozganlarini o‘qib, ularni qanday tushunganingizni gapirib bering.

Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo‘lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo‘yar edim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog‘liq.

Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak, lekin yozilgan narsani o‘chirish, kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish uchun talantning o‘zi kifoya qilmaydi, insof ham kerak.

Yozuvchini hech qachon hech kim ko‘tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlar ko‘taradi, yaxshi yozuvchi ko‘tarilib ketganini hatto o‘zi ham bilmay qoladi.

Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o‘lik bo‘ladi. Bundoq asarga hech qanaqa g‘oya, muhim mavzu jon kirita olmaydi.

Yozuvchilikning boshqa hunarlardan farqi — yozuvchi o‘zini o‘zi operatsiya qiladi: yozganini qisqartirib tashlay oladi.

Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘za ichiga qamab bera biladi...

9. Badiiy adabiyot haqidagi fikrlarga asoslanib, sevimli badiiy qahramoningiz obrazini tasvirlang.

San‘at turlari orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotda hayot boshqa san‘at turlariga qaraganda to‘laqonliroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirra va ta’sirchan bo‘ladi. Tasavvur qilaylik, siz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘qish bilan mashg‘ulsiz. Bilasizki, romandagi

voqealar, bundan bir yarim asr oldin ro'y bergan, asar qahramonlarining dunyodan o'tib ketganligi ham sizga yaxshi ma'lum. Buning ustiga, ular sizga qarindosh ham, yaqin ham bo'lmaganlar. Lekin asardan bosh ko'tara olmaysiz. Roman qahramonlarining taqdiri sizning taqdiringizga, ularning tuyg'ulari siznikiga qo'shilib ketganday bo'ladi. Ular qiynalsa, azob chekasiz, quvonsa, rohat qilasiz. Ba'zan esa, hatto, yig'lab olishga ham to'g'ri keladi. Kumushni opangizday, balki undan ham ortiqroq, Otabekni akangizday yaxshi ko'rib qolasiz.

Ijodkor yaratgan asl badiiy manzarada doimo fikr bilan birgalikda tuyg'u, hissiyot ham bo'ladi. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi, yoki inkor qiladi. Betaraf badiiy ijod bo'lishi mumkin emas. Chunki inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugagandan so'nggina chinakam badiiy asar yaratiladigan holat paydo bo'ladi. Adibning tuyg'ulari nechog'lik kuchli, nigohi qanchalar o'tkir, tili qanchalik boy bo'lsa, o'quvchi uning asari ta'siriga shunchalik qattiq beriladi. Yaratilgan badiiy matnning qanchalik hissiy, ta'sirchan bo'lishi uning timsoliyligi – obrazlilik darajasiga bog'liq.

Shunday qilib, badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan asosiy hal qiluvchi farqi uning obrazlilikidir. Badiiy adabiyot obrazli bo'lganligi uchun ham odamga kuchli ta'sir etadi. Xo'sh, u holda badiiy timsol – obrazning o'zi nima degan savol tug'iladi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqadigan bo'lsak, ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan tasvirni badiiy timsol yoki obraz, deyish mumkin.

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, asosiy materiali ham so'z ekanligi bilan farq qiladi. Yozuvchi insonning ko'z bilan ko'rish, quloq bilan eshitish, qo'ying-chi, biron-bir sezgi a'zosi bilan bilish imkoni bo'lmagan eng yuksak fikrlari, murakkab tuyg'ulari, nozik sezgilarini birgina so'z orqali ifoda etadi.

Frazeologik birliklar

Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir maʼno ifodalaydigan til birligi *frazeologik ibora* deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan soʻzning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *ogʻzi qulogʻida* iborasi tarkibidagi soʻzlar bir butun holda koʻchma maʼnoda qoʻllanib, *xursand* tushunchasini ifodalagan. Biroq *qoʻl koʻtarmoq* birikmasida *koʻtarmoq* soʻzining koʻchma maʼnoda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turgʻun birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralar soʻzlar singari tilning lugʻaviy birliklari qatoridan oʻrin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab boʻladi:

1. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan turgʻun birikmalar boʻlsa ham, soʻzlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni soʻzlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini taʼminlaydi: *Uchiga chiqqan – oʻtaketgan, turgan gap – albatta, yeng ichida – xuftiya, yashirin* kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular soʻzlar singari bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi: *Komissiya hayron boʻlib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni ogʻziga olmas edi* (Abdulla Qahhor).

2. Frazeologizmlarda ham soʻzlar singari koʻp maʼnolilik mavjud: *oʻziga kelmoq* – hushini yoʻqotgach oʻziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan soʻng oʻziga kelmoq; *yerga urmoq* – qimmatini pasaytirmoq, obroʻsizlantirmoq, biror narsaning qadriga yetmaslik.

3. Soʻzlar singari frazeologizmlarning ham shakl va maʼno munosabatiga koʻra quyidagi turlari mavjud:

a) omonimlar: *boshiga koʻtarmoq* – toʻpolon qilmoq, yaxshi koʻrmoq, eʼzozlamoq;

b) sinonimlar: *feʼli aynimoq* – *avzoyi buzilmoq*, *yaxshi koʻrmoq* – *koʻngil qoʻymoq*, *toqati toq boʻlmoq* – *sabr kosasi toʻlmoq*;

d) antonimlar: *koʻkka koʻtarmoq* – *yerga urmoq*, *yuzi yorugʻ* – *yuzi shuvut*, *yuragi qinidan chiqmoq* – *koʻngli joyiga tushmoq*.

Frazeologizmlar nutqning taʼsirchan vositalaridan boʻlib, soʻzlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qoʻllaniladi.

10. Berilgan soʻzlarga mos iboralar keltiring.

Ayyor, saxiy, xursand boʻlmoq, toʻpolon qilmoq, eʼtibor bermaslik, sabr-chidami tugamoq, sevinganidan qattiq hayajonlanmoq.

11. Gaplarning tarkibida kelgan frazeologik sinonimlarni topib, maʼnolarini ayting.

- I.**
1. Kishing bahrini ochadigan salqin, sokin bir oqshom edi.
 2. Sabr qiling, sizning ham dimogʻingizni chogʻ qilaman.
 3. Teshaboy esa, qaynatasining aksiga oʻlaroq, juda xursand, kayfi chogʻ edi.
- II.**
1. Togʻ yoʻnishning nima zaruriyati bor ekan deya boshim qotdi.
 2. Shu kunda hammaning boshi shishgan.
 3. Ming xil xayol bilan miyam gʻovlab ketdi.
 4. Bu oʻylarda Sayyoraning boshi gʻovlab ketdi.
- III.**
1. Menga nasihat qilaverib, jonimni chiqaramng!
 2. “Meni tergov qilib, surishtirdi...” – deganida esa Dadajonovning tepa sochi tik boʻlib ketdi.
 3. “Qoʻying-e, – dedi Lutfixon uy derazasini yopa turib, – Oʻzi jonim halqumimga kelib turibdi”.

12. Quyidagi iboralarning maʼnosini ifodalovchi soʻzlar toping.

Yogʻ tushsa yalaguday, yegan ogʻiz uyalar, koʻz yummoq, tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq, boshi osmonda, yerga ura koʻkka sakramoq, hafsalasi pir boʻlmoq, tepa sochi tikka boʻlmoq, gullab qoʻymoq, pixini yorgan.

13. Iboralarni topib, maʼnosini tushuntirng.

1. Baʼzan dovon oshishingga koʻzing yetmay, yuraging orqaga tortib ketadi.

2. So‘nggi bir-ikki soat ichida yuz bergan bu ikki quvonchli hodisa Rahim Saidovning boshini aylantirib qo‘ygan, kim bilandir uning o‘rtoqlashgisi kelib qolgan edi.

3. Tansiq go‘yo bo‘g‘ilganday uh tortdi. Shunday qarindoshlarni ko‘kka ko‘targan dadasidan xafa bo‘ldi u. *(Oybek.)*

4. Bu yoqda Jamol Bo‘riboyevday og‘aynilari bo‘lgan, yulduzni benarvon uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak. *(O. Yoqubov.)*

5. Toshkentdagi istiqloq davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi.

14. Matn qaysi adib qalamiga mansubligini va qaysi asardan olinganligini ayting.

“Tarix xatosi”

IX asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi.

X asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Metafizika” asariga eng mukammal sharh yozib, “ikkinchi ustoz” unvonini oldi.

XI asr. Abu Rayhon Beruniy yer bilan Oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi – “Tib qonunlari”ni yaratdi.

XIV asr. Sohibqiron Amir Temur Yevroosiyoning yarmini tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

XV asr. Ulug‘bek 1018 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas “Xamsa”sini yozdi.

XVI asr. “Boburnoma” olamga tarqaldi.

XVII asr. Shohjahon dunyodagi yetti mo‘jizaning biri – Tojmahalni bunyod etdi.

XX asr. O‘zbek sovet olimlari misli ko‘rinmagan “ixtiro” qildilar – tarix “xato”sini tuzatib, o‘tmishda biz yoppasiga “savodsiz” bo‘lganimizni isbotlab berdilar...



1. Savollarga javob bering.

“Mutolaa” so‘zining ma’nosi nima?

Siz qanday kitoblar o‘qiysiz?

Kitoblarni qayerdan yoki qaysi manbalardan topasiz?

O‘qigan kitoblaringizdan qaysilarining ta’sirini o‘zingizda his qilgansiz?

2. Quyidagi tushunchalarning mavzuga qanday aloqasi borligini misollar yordamida ko‘rsatib bering.

Lug‘at zaxirasi, fikrni mustaqil ifodalash, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, tafakkur, kuzatuvchanlik va ziyraklik, ravon nutq, ma’naviy o‘shish.

3. Matnni o‘qib, fikr yuriting. Xulosalaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Kitobni oftobga qiyos qilamiz, “bilimlar xazinasini” deymiz. “Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi”, deb yozgan edi buyuk shoir va mutafakkir

Alisher Navoiy. Kitob kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan eng buyuk ixtiro, bir avlodning o'zidan keyingi avlodlarga qoldiradigan bebaho madaniy merosidir. Inson hayotida kitobning o'rni beqiyosdir. Erishgan bilimlarimiz va ma'lumotimiz uchun biz Kitob deb atalmish bilimlar xazinadoni oldida qarzdormiz. Kitob doim bizni fikrlashga, halol yashashga, Vatanni sevish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish va ma'naviy me'rosimizni asrashga, ezgulikka chorlab kelgan. "Ko'rdimki, eng yaxshi do'st kitob ekan", – degan edi Najmiddin Kubro.

Kitob mutolaasi nainki kishining bilim doirasini kengaytiradi, balki uning ma'naviy-ruhiy kamolotida ham muhim o'rin tutadi. Kitob mutolaasi ko'ngil xohishi bilan bog'liq mashg'ulot. Albatta, hech kim birovni kitob o'qishga majburlay olmaydi. Aksincha, mutolaaga da'vat etish¹ mumkin, xolos. Kitob mutolaasi insonni hayoti davomida mukofot bilan bilan taqdirlovchi sharaflı mehnatdir.

Kitoblar insonga o'zlikni, dunyoni anglash, hayot mazmunini tushunish imkonini beradi. Kitobxonlik tor ma'noda kitob o'qishni bildirsa, keng ma'noda tanlab o'qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi. Badiiy adabiyotsiz fikriy teranlik²ka erishib bo'lmaydi.

Biz buyuk asarlarni, kitoblarni o'qib, ulardagi ajoyib qahramonlarni yoqtirib qolamiz. Ba'zan berilib ketib, ularning hayotlariga aralashib ketamiz-u, nima bilandir ularga o'xshagimiz, ularning ezgu ishlaridan ibrat olgimiz kelib ketadi. O'zimizdagi ayrim qusurlar³ni anglab olamiz va ulardan poklana borishga harakat qilamiz. Bularning hammasi, asosan, ijobiy qahramon tufayli sodir bo'ladi. Insonda didni, saviya⁴ va idrokni adabiyot-u san'at tarbiyalaydi.

¹ da'vat etish – призывать

² fikriy teranlik – глубина мыслей

³ ayrim qusurlar – некоторые недостатки

⁴ saviya – уровень

Inson qadim-qadimdan ilmga intilib yashaydi. Bu yo‘lda esa kitob uning doimiy hamrohi. O‘tmishda o‘zini ziyoli, martabali sanagan kishilar albatta ma’naviy mulk – xos kutubxonaga ega bo‘lganlar.

Bugun kitoblar, kutubxonalarga munosabat o‘zgargan. Bunga birinchi navbatda kundalik hayotimizning kompyuter, internet tarmog‘i bilan bog‘liqligi sababdir.

Javonlarni to‘ldirib turuvchi kitoblar endi ixchamgina lazer lappakchasiga ham “sig‘adi”. Ammo, tan olish kerak, kitob, bu – kitob... Inson bor ekan, adabiyot va kitob yashashda davom etaveradi. Radio, televideniye, internet bor-ku, ular ma’naviy ehtiyojimizni qondirolmaydimi? – dersiz. Ular hech qachon kitobning o‘rnini bosolmaydi.

4. Ilm hamda kitob haqidagi maqollarni to‘ldiring.

Ilmi borni ... dema,
Ilmi yo‘qni ... dema.

Ilmsizga ... yo‘q,
Hunarsizga ... yo‘q.

Ilm olishning ... yo‘q.

Kitob ko‘rmagan ... –
Giyoh unmagan

Kitob – ... qayrog‘i.

Kitobsiz ... – qanotsiz qush.

Ko‘rib bilish ,
O‘qib bilish
O‘qigan ... emas,
Uqqan –

5. Kitob mutolaasi haqidagi 10ta fakt bilan tanishing.

1. *Mutolaa nigohni o'tkirlashtiradi.* Mutolaa sababli atrof olam va undagi odamlarga o'zgacha nazar bilan qarab, ularni tushuna boshlaysiz. Agar qo'lingizga yaxshi kitob tushib qolsa, uni takror va takror o'qisangiz, har gal yangi narsani kashf qilasiz.

2. *Mutolaa badantarbiyadir.* Kitob mutolaa qilar ekansiz, undagi voqealar, obrazlarni tasavvur qilasiz. Fikrash faoliyati tezlashadi, bu esa miya uchun gimnastikadir.

3. *Mutolaa atrof-muhit uchun zararsiz.* To'g'ri, kitob tayyorlash uchun daraxtlar kesiladi, biroq kitob sizga foyda keltirsa, demak kesilgan daraxt behuda ketmagan. Bundan tashqari, kitob o'qish uchun elektr energiyasidan, batareykadan foydalanilmaydi.

4. *Mutolaa muloqot qilishga o'rgatadi.* Kitobdagi voqealarni suhbatdoshingizga gapirib berib, qahramonlarning hissiyotlari bilan bo'lishsangiz, do'stlaringiz bilan muloqotingiz qizg'in o'tadi.

5. *Kitob mutolaasi bo'sh vaqtingizni mazmunli o'tkazishingiz uchun ajoyib imkoniyat.* Kitoblarga ixlos qo'ysangiz, ular hech qachon joningizga tegmaydi. Axir ularning xili, yo'nalishlari juda ko'p. Xohlaganingizni topib o'qishingiz mumkin.

6. *Kitob mutolaasi osoyishtalik baxsh etadi.* Bolalarning shovqin-suronli o'yinlaridan ko'ra kitob o'qishlari afzalroq. Hech kimga xalal bermaydi.

7. *Kitob mutolaasi cho'ntak uchun hamyonbop.* Birinchidan, kitoblarning narxi kompyuter o'yinlaridan ko'ra arzonroq. Ikkinchidan, tanishlaringiz qiziqishingizni bilsalar, sizga sovg'a tanlashda qiynalmaydilar. Uchinchidan, kitob mutolaasi uchun hamisha kutubxonalardan foydalanish ham mumkin.

8. *Mutolaa diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradi.* Kitobni musiqa ostida ham, biror narsa bilan mashg‘ullik paytida ham o‘qish mumkin. Ha, haqiqiy kitob shinavandalari atrofdagi shovqinga ahamiyat bermay o‘qishni biladilar.

9. *Kitobning qomatga ta’siri.* Shubhasiz kitobning qomatga ta’siri bor ekan. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra, zerikkan insonda ko‘p ovqat yeyishga moyillik bo‘lar ekan. Binobarin, kitobxon odam ovqatni ortiqcha yemaydi. U kitobdagi voqealarga berilib, uzoq-uzoqlarga safar qiladi.

10. *Kitob mutolaasi tarbiyaviy ahamiyatga ega.* Ota-onasining kitob o‘qiyotganini ko‘rgan bolalarda ham kitobga qiziqish kuchaya boradi. Bu esa o‘z navbatida bolaning dunyoqarashi kengayishiga sabab bo‘ladi.

6. Mashhur insonlarning quyida berilgan fikrlarini o‘zbek tilida ifodalang. Ularning mualliflari haqida ma’lumotlarni toping.

«Читая авторов, которые хорошо пишут, привыкаешь хорошо говорить». (*Франсуа Вольтер.*)

«Культура – это не количество прочитанных книг, а количество понятых». (*Фазиль Искандер.*)

«Чем больше читаешь, тем меньше подражаешь». (*Жюль Ренар.*)

«Чтение для ума – то же, что физические упражнения для тела». (*Джозеф Аддисон.*)

«Есть преступления хуже, чем сжигать книги. Например – не читать их». (*Рэй Брэдбери.*)

«Хорошая книга подобна айсбергу, семь восьмых которого скрыто под водой». (*Эрнест Хемингуэй.*)

«Читатель проживает тысячу жизней, прежде чем умрет. Человек, который никогда не читает, переживает только одну».
(Джордж Мартин.)

7. Matnni o‘qing. Muallifning fikrlarini ularga o‘z munosabatingizni bildirgan holda so‘zlab bering.

Mutolaa haqida

Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va ko‘p kishilar nima uchun o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydilar. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning qiyin va yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qiladi. Boshqa bировlar uchun esa o‘qish – dam olish, shunchaki vaqtni o‘tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o‘qish baribir, zerikarli bo‘lmasa, bas.

Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan va “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakligini tushunmasdan, har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh etadigan kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?!

Biz, mualliflarga odamlarning ko‘p mutolaa qilishlari, albatta, yoqimli va aynan ijodkor tomonidan, haddan ziyod ko‘p o‘qishadi, deyilishi noo‘rindir. Ammo mingta loqayd kitobxondan o‘nta yaxshi kitobxon durust. Shu bois, bemalol ta’kidlashim mumkinki, hamma joyda haddan ziyod ko‘p mutolaa qilishadi va bu – adabiyot uchun obro‘ emas, ziyon keltiradi. Kitob mustaqil bo‘lmagan kishilarni yana ham

ma'naviy zaiflashtirish uchun yozilmaydi, bundan tashqari, undan ba'zan noqobil odamlarga arzonroq tasvir hamda osongina o'zgartirilgan hayotni ko'rsatish uchun ham foydalanishadi. Kitoblar insonni hayotga yo'llagandagina, unga xizmat qilgandagina foydalidir. Agar kitob o'quvchiga oz bo'lsa-da, kuch-g'ayrat, shijoat, ma'naviy poklik baxsh etmasa, mutolaa uchun sarf etilgan har bir soat behuda, besamar bo'lib qolaveradi.

Shunchaki o'qish – bu diqqatni to'plashga majbur etuvchi mashg'ulot va ovunish uchungina o'qish – o'z-o'zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun, umuman, biror narsadan ovunishning hojati yo'q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat-e'tiborli bo'lishlari, qayerda nima bilan mashg'ul bo'lishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat'iy nazar, o'zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari zarur.

Hayot qisqa, uning poyonida hech kimdan o'qilgan kitoblar soni so'ralmaydi. Biror foydasi bo'lmasa, o'qishga vaqt sarflash aqllilik belgisi emas, aksincha, koni ziyon emasmikan?! Men bu o'rinda faqat yomon kitoblarni emas, avvalambor sifatli mutolaani nazarda tutayapman. Hayotda har bir qadaming kabi o'qishdan ham biron natija kutiladi. Mutolaadan yangi kuch-g'ayrat olmoq uchun avvaliga kuch sarf etmoq, o'zingni yanada yaxshiroq tushunmoq uchun oldin o'zingni “yo'qotmoq” kerak bo'ladi.

Agar har bir o'qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma'no yo'q. Fikr-mulohaza qilmasdan o'qish – xushmanzara tabiat qo'ynida ko'zni bog'lab yurmoq demakdir. Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda jilovlash uchun o'qishimiz kerak. Kitobga dimog'dor o'qituvchiga qaragan

qo‘rqqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

(Hermann Hesse.)

8. Kitoblar haqida qiziqarli faktlar bilan tanishing. Ularga qo‘shimcha tarzda ma‘lumotlar izlab toping va gapirib bering.

Olimlarning aniqlashicha, Sankt-Peterburgning Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonasida saqlanadigan Alisher Navoiyning ilk she‘rlari to‘plami bundan besh asr ilgari buyuk adibning shaxsiy kutubxonasida saqlab kelingan. Kitob oltin suvi bilan ipak qog‘ozda bitilgan va har bir sahifasi naqshlar bilan bezab chiqilgan. Ushbu to‘plam Sharqning mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan.

Dunyodagi eng katta kitob Amsterdarning muzeylaridan birida saqlanadi. Bu kitob “Dengiz qoidalari to‘plami” deb nomlanadi.

Dunyodagi eng og‘ir kitob Londonning Britaniya muzeyida saqlanadigan geografik atlas hisoblanadi. Kitobning bo‘yi bir metr dan ortiq va og‘irligi 320 kilogrammdir.

Eng qimmat kitob fransuz Jozef Fore tomonidan nashr qilingan noyob “Apokalipsis” kitobi hisoblanadi. 100 million eski frank miqdorida baholangan ushbu kitob Parijning zamonaviy san’at muzeyida saqlanadi. Vazni – 120 kilogramm.

Amerika muzeylaridan biri Iogann Gutenberg uskunasida nashr qilingan Injil¹ uchun eng yuqori baho – 200 ming AQSH dollari to‘lagan.

Rohib Gabriel Chelani 80×60 sm o‘lchamdagi varaqda Dantening “Ilohiy komediya”sini sig‘dira olgan. Shunday bo‘lsa ham, asarning har bir misrasini yordamchi vositalarsiz bemalol o‘qish mumkin. Ushbu varaqqa ma‘lum masofadan qaralsa, Italiyaning rang-barang xaritasini

¹ Injil – Библия

ko‘rish mumkin. Bunga harflarni ranglar bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilishi orqali erishilgan.

Dunyoning 12ta eng kichik kitobi bir osh qoshig‘ida joylashadi. Ular quyidagilar:

- 1) Qur‘oni Karimning mitti nashri;
- 2) 12 000 so‘zli ingiz tili lug‘ati;
- 3) Galileo Galiley asarlari to‘plangan kitobcha (uning kattaligi pochta markasining yarmicha keladi va 208 sahifadan iborat);
- 4) Yangi Ahd¹ (bu kitobcha 1896-yilgacha dunyodagi eng kichik nashr hisoblangan);
- 5) Shoir Robert Berns she‘rlari to‘plangan jild² (pergamentda);
- 6) Fransuz ma‘lumotlar to‘plami³;
- 7) Nemis ma‘lumotlar to‘plami;
- 8) Muso qonunlari kitobi (qadimgi yahudiy kitobidagi eng kichik kitob);
- 9) Hindlarning “Gita” kitobi (sanskritda);
- 10) Irland va shotland qo‘shiqlari to‘plami (notalari bilan);
- 11) Fransiya konstitutsiyasi (kitobcha oltin suvi yuritilgan teridan qilingan muqova bilan qoplangan);
- 12) Prezident Linkolnning Gettisbergdagi nutqi (kitobcha katta barmoqning tirnog‘i kattaligida).

9. Taniqli insonlarning kitob haqidagi mulohazalarini o‘qing va ularga munosabat bildirib so‘zlab bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini tushuntiring.

¹ Yangi Ahd – Новый Завет

² jild – том

³ ma‘lumotlar to‘plami – справочник

O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov:

Kitobxon oilada katta bo‘lganim kelajagimga, ijodimga katta ta’sir o‘tkazgan. Otam kitobni sevadigan, *e‘zozlaydigan*, ziyoli insonlarga mehr qo‘ygan kishi edi. Ko‘p hollarda boshdan kechirgan og‘ir damlari haqida so‘zlab berar, biz esa bir qiziq kitob o‘qiyotganday tinglardik. Padari buzrukvorim hayotidan, ko‘rgan kunlaridan *saboq* chiqarishga, onam aytgan *o‘g‘itlarni* bajarishga harakat qilardik. Shu tariqa menda ham kitobga muhabbat uyg‘ongan.

Yoshligimda o‘qigan kitoblarim orasida o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari kaminada katta taassurot qoldirgan. Undagi o‘zbekona ifodalar, mehr-muhabbat, go‘zallikka *yo‘g‘rilgan* munosabatlar qalbimda shirin tuyg‘ular barq urishiga sababchi bo‘lgan. Romandan haqiqiy muhabbatni, uning uchun kurashishni, qadriga yetishni, Vatanni sevishni o‘rganganman. Mard va jasur inson doim haq bo‘lishini anglaganman.

Odatda, biror narsadan xafa bo‘lsam yoki juda sevinsam, qo‘limga kitob olaman. Ichimdagi *tug‘yonlarni* kitob sahifalariga sochaman. Shu bois ularda o‘zgacha bir navo his qilaman. Bilim o‘chog‘i sanalmish kutubxonani esa betakror, qaytarilmas, sog‘inchli simfoniyaga qiyoslayman.

Ko‘p hollarda mutolaa qilgan asarim haqida rahmatli akam Botir Zokirov bilan fikr almashardik. Chunki u men o‘qigan kitobni allaqachon *xatm* qilib bo‘lgan bo‘lardi. O‘zbekcha, ruscha asarlarni berilib, ta’sirlanib mutolaa qilar va taassurotlari bilan o‘rtoqlashardi. Uning asosiy do‘stlari shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, adabiyotshunoslar hisoblangan. Shu bois akamga doim havas qilganman. Botir Zokirov chinakam san’atkor, betakror ovoz egasi va samimiy inson edi. Uning kitobga, san’atga e’tiqodini so‘z bilan ta’riflash qiyin.

Aslida san’atkor yuragini uning o‘zidan bo‘lak to‘laqonli tushunadigan inson bo‘lmasa kerak. Men akamning qo‘shiqlari butun dunyoga mashhur bo‘lishida uning qalbi, ovozi bilan birga, tinimsiz mutolaa qilib, tafakkurini boyitib borgani ham sabab bo‘lgan, deb bilaman. Chunki kitob o‘qigan insongina yangilik qilishga, insonlarni ortidan ergashtirishga qodir. U tinim bilmay o‘qirdi, izlanardi, ijod qilardi. O‘zini sira o‘ylamasdi.

Umuman olganda, oilada kimdir kitob o‘qisa, o‘sha xonadonda tarbiya topayotgan bola ham mutolaaga mehr qo‘yadi. Shuning uchun

ota-onam, ayniqsa, akam ortidan borib, men ham ko‘p kitob o‘qiydigan, she‘rlar yodlaydigan, hatto, ularga o‘zimcha *musiqa bastalab*, asta-sekin qo‘shiq kuylaydigan bo‘ldim.

Hozir qayerga borsam, o‘sha joydan kitob xarid qilib, shaxsiy kutubxonamni boyitishga harakat qilaman. Ularning sehri meni doim o‘ziga chorlab turadi. Kitoblar menga bir olam, hali o‘qilmagan kitob esa sirli bir kuyday tuyuladi.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga kelsam, ko‘nglim yorishib, qalbim quvnab ketadi. Bu yerda yoshlar bilan uchrashib, ularga oz bo‘lsa-da, o‘z tajribamdan o‘tkazgan xulosalarim, fikrlarimni aytaman. Bundan behad baxtiyorman. Chunki kelajak kitob o‘qiydigan yoshlar qo‘lida! Kutubxonalar men uchun, yuqorida aytganimday, *sirli simfoniya*, hali hech kim tinglamagan navolar. Niyatim – bu simfoniyalar doim yurtimiz qalbida yangrayversin.

Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmedov:

Hech kim o‘z-o‘zidan kitobxon bo‘lib qolmaydi. Aslida kitobxonlik kitobga qiziqishdan, qiziqtirishdan boshlanadi. Bunda ota-onaning o‘rni katta. Odam nimani sevsa, nimaga qiziqsa va intilsa, shunga yaqinlashib boraveradi. O‘sha soha unga keng yo‘l ochadi, ulkan parvozlarga chorlaydi. Buning uchun har bir shaxs o‘ziga nima kerakligini, avvalo, aniq va ravshan bilib olishi zarur.

Otam oddiy ishchi, ammo ma‘rifatli inson edi. Uzoq qish kunlari *tancha* atrofida tizilib o‘tirgan biz – farzandlariga turli-tuman kitoblarni o‘qib berar, asar yoki *hikoyaning mag‘zini* soatlab tushuntirardi. O‘qiyotgandagi hayajoni hech qachon ko‘z oldimdan ketmaydi. Har bir so‘zni avaylab, tushunarli bo‘lishi uchun ravon o‘qirdi.

Birinchi mustaqil o‘qigan kitobim Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asari edi. Qattiq *ta’sirlanganman* va undagi qahramonlarga o‘xshashga intilganman. Ba’zi vaqtlarda o‘qishga shu qadar berilib tonggacha o‘qirdim-da, hech narsa bo‘lmaganday darsga otlanardim. Bir kuni kechasi bilan kitob o‘qib chiqdim. Tong sahar kitobni tugatib turaman, desam, boshim aylanib, ukam yotgan beshik ustiga yiqilib tushdim. Yaxshiyamki, ukamga hech narsa qilmagan.

Urushdan keyingi og‘ir yillarda maktabdan-maktabga ko‘chishga to‘g‘ri keldi. Ammo qaysi maktabga bormay, o‘sha maktabning kutubxonasi boy, ustozlari ham mehribon, *zakovatli* odamlar edi. Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy asos solgan 40-maktabda

tahsil oldim. U yerdagi ustozlar ulug‘ an‘analarni muqaddas bilib, ularni davom ettirib kelayotgan kishilar edi. Men maktabda aniq hamda gumanitar fanlarni puxta egallashga harakat qildim. So‘ng oliygohga o‘qishga kirdim.

Institutda o‘qib yurgan kezlirim kutubxona eng sevimli maskanim bo‘ldi. Kitobga qiziqqan insonning *yo‘li nurl*i kechadi. Yaxshi kitob unga hamisha yo‘ldosh bo‘ladi. Buni qarangki, men avtobusga chiqadigan bekat qoshida ham, institut oldidagi bekatda ham kitob do‘konlari bor edi. Har kuni o‘qishga kelib-ketganda kitob do‘konlariga, albatta, kirib o‘tardim.

Matematika domlamiz bir kuni doskaga “Koshi teoremasi”, deb mavzu qo‘ydi. Men kitob do‘konlarini kezib chiqqanim uchun «М.Я.Выготский. Справочник по элементарной математике» degan kitobni o‘qigandim. Unda “Buyuk o‘zbek matematigi”, “Buyuk o‘zbek astronomi”, “Buyuk o‘zbek faylasufi” kabi sifatlar yozilib, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Ulug‘bek va Jamshid Koshiy nomlari qayd etilgan edi. Domladan “Koshi deganingiz Jamshid Koshiymasmi?”, — deb so‘radim. Domla xushlamaygina “Ey, bu boshqa”, deb javob berdi. Men hayron bo‘ldim: “Справочник”da “o‘zbek” deyilgan-ku?!”

Shu-shu, men Xorazmiy, Farg‘oniy, Koshiy, Ulug‘beklar bilan qiziqib, aniq fanlar tarixiga sho‘ng‘ib ketdim. O‘sha olimlar ijodini o‘rganish menga *tarix eshigini ochdi*. Avvaliga matematik, keyin tarixchiga aylanganimni o‘zim ham sezmay qoldim...

Ba‘zi tarixchilarning o‘z tarixini chin dildan sevmasligi dilimni o‘rtaydi. Hozir qadimgi o‘rta asr tarixini biladigan juda kam. Yo‘q, desak ham bo‘ladi. Yaqinda bir tarixchi bilan suhbatlashib qoldim. U menga: “Gerodotning “Tarix” kitobini o‘qimaganman, to‘g‘ri kelmagan-da”, deb xotirjam gapiryapti. Qanday qilib tarixchi bo‘lib, yurtning haqida bitilgan qadimiy kitobni o‘qimaslik mumkin? Rus tilida bo‘lsa, nima qilibdi?

Ilgari biz biron bir kitobni oylab navbatga turib o‘qir edik. Shukrki, bugun unday emas. Istalgan kitobni topishning iloji bor. Shunday ekan, bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish zarur. Bolalarga kitobga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish kerak. Eng avvalo, har bir ota-ona mas‘uliyatni his etsa, farzandi kelajakda albatta, katta natijalarga erishadi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, hech kimning kitobdan uzoqlashishga haqqi yo‘q. Chunki undan uzoqlashish o‘zlikdan, tarixdan uzoqlashishdir.

10. Quyidagi savollarga javob bering.

Kitob haqida 10 savol

1. Kitob hayotingizda qanday o‘rin tutadi?
2. Ilk bor o‘qib, zavq olgan kitobingiz esingizdami? Bolaligingizda o‘qigan yana qaysi kitoblar hayotingizda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan?
3. Yangi chop etilayotgan kitoblarni kuzatib borasizmi? Ulardan ko‘nglingiz to‘lmayotgan jihatlari ham bormi?
4. Hozir bizda kiyim-kechak, oziq-ovqat bozorining xaridorlari nihoyatda serob. Qachon kitob bozori gavjumlashadi?
5. Adib Asqad Muxtorning: “Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o‘qilgani”, degan iborasini qanday izohlaysiz?
6. Javoningizda qayta-qayta o‘qiydigan, sog‘inib qo‘lga oladigan kitob bormi? Ayting-chi, u qaysi kitob?
7. Hozir nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari ham kitob o‘qimayotganligi haqidagi tashvishli fikrlarga qanday qaraysiz? Ularni kitobga qaytarishning yo‘li bormi?
8. Agar o‘zbek adabiyoti bo‘yicha “Oltin javon” tuzilib, unga 10ta kitob kiritish zarurati tug‘ilsa, qaysi kitoblarni kiritgan bo‘lardingiz?
9. Shu kunlarda qanday kitob o‘qiyapsiz?
10. Kitobxonlarga qaysi va qanday kitoblarni o‘qishni tavsiya qilaysiz?

11. She’rni ifodali o‘qing. Uning ma’nosini o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntirib bering. Hayotdan misollar keltiring.

KITOB KERAKDIR

Mahmud Toir

Suvrat asli nurni siyrat¹dan olur,
Siyrat esa ilmu hikmatdan olur,
Odamdan ezgulik, muhabbat qolur,
Saodat sayliga savob kerakdir,
Ko‘ngilning mayl²iga kitob kerakdir.

Kitob – dil bog‘ida gulning rangidir,
Kitob – otash ichra dilning rangidir,
U – qalbning kamoli, aql jangidir,
Ko‘kni ko‘zlaganga xitob³ kerakdir,
O‘zni izlaganga kitob kerakdir.

O‘qigan, uqqanga eli ergashgay,
Oqil yo‘lga chiqsa yo‘li ergashgay,
Jannatday jilmayib cho‘li ergashgay,
Savol yuz ochganda javob kerakdir,
Javob jarangiga kitob kerakdir.

Kitob – bu osmonning o‘ziga narvon,
Kitob – bu jahonning ko‘ziga narvon,
Tirik tarixlarning so‘ziga narvon,
Tunda talpinganga mohtob⁴ kerakdir,
Kunday kulay desang kitob kerakdir.

Olam olamligin bilmoq uchun ham,
Odam odamligin bilmoq uchun ham,
Qilni qirq tilimga tilmoq uchun ham,
Tig‘ni tutguvchiga shitob kerakdir,
Tug‘ni tutguvchiga kitob kerakdir.

¹ siyrat – внутренний мир, душа

² mayl – интерес, тяга

³ xitob – обращение, воззвание

⁴ mohtob – лунная ночь

12. Darslikning “Mutolaa” bo‘limida berilgan Muhammad Ismoilning “Kitob haqida xitob!” essesi bilan tanishing. Muallifning g‘oyasini qanday tushunganingiz bilan o‘rtoqlashing.

Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so‘zlar

Tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlar nutqning biror uslubiga xoslangan bo‘lishi yoki nutq uslublariiga betaraf bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra lug‘aviy birliklar ikki guruhga bo‘linadi: uslubiy betaraf so‘zlar va uslubiy xoslangan so‘zlar.

Uslubiy betaraf so‘zlar nutq uslublariining birortasiga xoslanmay, barcha uslublarda birdek qo‘llanilaveradigan lug‘aviy birliklardan tashkil topadi: *havo, suv, daraxt, bir, ikki, hamma, biz, siz, turmoq, yugurmoq* kabilar shular jumlasidandir.

Nutqning ayrim-ayrim uslublari uchungina xizmat qiladigan so‘zlar *uslubiy xoslangan so‘zlar* deyiladi. Bunday maxsus so‘zlar dastavval og‘zaki nutqda yoki yozma nutqda qo‘llanishiga ko‘ra ikkiga ajraladi. Masalan, *hazar qilmoq, birlashmoq, hunar, o‘rin, arzimagan (kichik)* so‘zlari ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llansa, ularning sinonimlari bo‘lgan *jirkanmoq, uyushmoq, kasb, makon, juz‘iy* so‘zlari ko‘proq yozma nutqda qo‘llanadi.

13. “Men sevgan asar” mavzusida insho yozing.

14. Berilgan maqollarni mazmunan tugallang. Ularning har biri qaysi mavzuga bag‘ishlanganini ayting. Ona tilingizda shu maqollarga o‘xshashlari bormi?

O‘zingni er bilsang,

Har yerni qilma orzu,

Sog‘lom tanda,

Sog‘liq qadrini

Tabib tabib emas,

Yaxshi odam yurt tuzar,

Birni kessang,

Gapni gapir uqqanga,

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI



1. Berilgan ta’riflarni o‘qing va eslab qoling.

Kutubxona – bosma va ayrim qo‘lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta’minlovchi madaniy-ma’rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar to‘plash, saqlash, targ‘ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug‘ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko‘rsatadi.

Bibliografiya – matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma’lum ijtimoiy maqsadlarda targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi.

Elektron kutubxona – navigatsiya va qidiruv vositalari bilan ta’minlangan turli xil elektron hujjatlar (shu jumladan kitoblar, jurnallar) ning tartiblangan kolleksiyasi.

2. Berilgan so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qiling.

kitobxon + madaniyat, ma’naviyat + ma’rifat + talablar, noshir + faoliyat, ixtisoslik + kitob + do‘kon, ilm + texnika + adabiyot, o‘qish + uslub + adabiyot, ilm + nazariya + manba.

3. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Произведение печати, общественное пользование, справочно-библиографическая работа, особые условия хранения, открытый доступ, особо редкие издания, сетевая литература, электронные носители.

4. Quyida berilgan parcha qaysi manbadan olinganini aniqlang. Unda O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga qanday vazifa yuklangan?

Ayni vaqtda o‘tkazilgan kuzatish va tahlillar bu sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar borligi va ularni keng ko‘lamda hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta’lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

5. Matnni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan davom ettiring.

Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda sopol

bitiklari saqlangan kutubxonalar bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII asr o‘rtalarida Sharqdagi ko‘p saroylarda, Qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalar bo‘lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasidir.

O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning so‘nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. Ular hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo‘shni bo‘lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan, o‘sha davrlardagi mavjud qo‘lyozmalar bilan ham tanish bo‘lgan.

O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari saqlanmagan. Kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davrida yo‘q qilib yuborilgan.

6. Matnni o‘qing. Undagi ma’lumotlar asosida matnni qismlarga bo‘ling va ularga nom bering.

“Agarda qandaydir vayronkor halokat natijasida yer yuzidan barcha ta’lim va madaniyat markazlari yo‘q bo‘lib ketsa, agar olamda kutubxonalardan boshqa hech nima qolmasa – dunyo va insoniyatning qayta yaralishiga imkon bo‘ladi”.

Dmitriy Lixachev

Kitob – insoniyatning asrlar mobaynida jamlagan ilm xazinasidir. Bu borada fikr yiritar ekan, ingliz publitsisti, tarixchi va faylasuf Tomas Karleyl: “Kitob jamlanmasi¹ ham – universitetdir” degandi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi “kitob jamlanmasi” – O‘zbekistondagi eng katta va bosh kutubxona. 1870-yil may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan. Alisher

¹ jamlanma – фонд

Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va ma’daniy-ma’rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi.

Kutubxona faoliyat ko‘rsata boshlagan davrda kitobxonlarning asosiy qismini harbiylar tashkil etgan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. 2002-yil 12-aprelda kutubxona “Milliy” maqomini olgan (bungacha “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi” deb atalgan).

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 million nusxaga yetgan. Kutubxona fondida universal adabiyotlar mavjud bo‘lib, badiiy adabiyotlar, fan va texnikaga oid hamda barcha fan sohalari bo‘yicha nashrlarni olib foydalansa bo‘ladi. Kutubxonada XVI–XX asrlarda chop etilgan nodir va noyob nashrlar¹ mavjud bo‘lib, bular qo‘lyozmalar, sharq litografiyasi², Turkistonda chop etilgan birinchi jurnallar va gazetalar, sharqshunoslar monografiyalari va ilmiy ishlardir. Jami qo‘lyozmalar 16 ming noyob va alohida qimmatga ega nashrlarni tashkil qiladi. XIX asr boshi – XX asr qo‘lyozmalari, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar fondi 200 mingdan ortiq.

Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo‘yicha metodik rahbarlik qiladi.

Kutubxonada quyidagi zallar faoliyat ko‘rsatadi:

“Tafakkur” katta o‘quv zali,

“Istiqbol” yoshlar va talabalar zali,

¹ nodir va noyob nashrlar – ценные и редкие издания

² sharq litografiyasi – восточная литография (*литография* – печатание с плоской поверхности камня, на которой сделан рисунок)

“Kashfiyot” ilmiy o‘quv zali,
nodir qo‘lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar o‘quv zali,
“Jahon” xorijiy adabiyotlar o‘quv zali,
ilmiy texnikaviy adabiyotlar o‘quv zali,
“O‘zbekiston” milliy adabiyotlar va davlat tarixi o‘quv zali,
“Adolat” huquqiy axborot o‘quv zali,
“Ijod” nota-musiqqa nashrlar zali,
“Ilm” dissertatsiyalar o‘quv zali,
an’anaviy katalog va kartotekalar zali,
elektron katalog zali,
ko‘rgazma zali,
maxsus o‘quv zallari.

Shuningdek, kutubxonada virtual ma’lumot xizmati, elektron kutubxona, kitob muzeyi, “Mediamarkaz” media va internet markazi mavjud.

Kutubxonaga 14 yoshga to‘lgan har bir shaxs a’zo bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchilar kutubxonaga tashrif buyurib ham, masofadan turib ham a’zo bo‘lishlari mumkin (*online* a’zo bo‘lish). Buning uchun ular ibs.natlib.uz saytidagi a’zolik kartochkasini to‘ldirishlari kerak. A’zo bo‘lgan shaxsga foydalanish muddati 3 yilgacha bo‘lgan ID kartasi beriladi. Kutubxona har kuni xizmat ko‘rsatadi.

Kutubxona ko‘plab xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar bilan, shuningdek O‘zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar

o‘rnatgan bo‘lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo‘lgan xalqlarning yaqinlashishiga o‘zining hissasini qo‘shmoqda.

7. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida faoliyat ko‘rsatayotgan zallardan biri haqida ma’lumot tayyorlang.

8. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои – крупнейшее хранилище рукописей, печатных изданий и художественных произведений полиграфии в Республике Узбекистан. Самое большое в мире собрание рукописных и печатных трудов на узбекском языке. Ведущий научный центр в области библиотековедения и библиографии. В рамках государственного учреждения «Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои» были объединены два крупнейших столичных книжных фонда – Государственная библиотека Республики Узбекистан имени Алишера Навои и Республиканская научно-техническая библиотека.

В августе 1867 года впервые в колониальной администрации генерал-губернатора Туркестана была высказана идея о создании в Ташкенте публичной общедоступной библиотеки. Предполагалось, что основной фонд должен формироваться материалами, освещающими географию и культуру Туркестана и прилегающих к нему областей. Приоритетным направлением развития Библиотеки являлось собрание изданий, посвященных истории Туркестанского края и соседних с ним стран.

Первым директором библиотеки 11 мая 1872 года стал Николай Васильевич Дмитриевский, который служил в

Туркестанской канцелярии, а затем работал помощником редактора газеты «Туркестанские ведомости». В 1869–1870 годах Н.В. Дмитриевский составил опись книг, ставших «ядром» будущей библиотеки. Заняв должность Директора библиотеки, он в 1870–1872 приступил к осуществлению грандиозного труда – создания «Каталога книг Ташкентской общественной библиотеки».

9. “Jahonning mashhur kutubxonalari” rukni ostida taqdimot tayyorlang.

Nutq uslublari

Nutq uslublari deganda, til uslublarining aloqa jarayonida qo‘llanilishi tushuniladi.

O‘zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor:

so‘zlashuv uslubi,

kitobiy uslublar: badiiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub, ilmiy uslub.

10. O‘qing. Matnlarning uslubidagi farqlarni tushuntirib bering. Fikringizni asoslang.

A. Moddalar tarkibining doimiyligi qonuni kimyoning asosiy qonunlaridan biridir. Bunga muvofiq, har qanday toza modda, olinish usulidan qat’iy nazar, o‘zgarmas sifat va miqdoriy tarkibga ega bo‘ladi. Masalan, karbonat angidrid ko‘p xil usullar bilan sintez qilinishi mumkin: 1) uglerod; 2) karbonatlarga kislotalar ta’sir ettirish orqali va boshqalar.

B. Yaqin kunlarda haddan tashqari faollashgan quyosh chaqnashlari sayyoramizda yuqori intensiv magnet bo‘ronini keltirib chiqaradi. Olimlarning prognoziga ko‘ra, Yerga so‘nggi 20 yildagi eng

kuchli magnit bo‘roni tahdid solmoqda. Bunga oxirgi vaqtlarda bir necha marta ro‘y bergan quyosh chaqnashlari sabab bo‘lmoqda.

C. Biz azaldan yonma-yon tushgan ikki uyda turardik. Ularning balandligi uch metrcha keladigan devorlari juda pishiq qurilgan bo‘lib, daryo tomoni daraxtlar bilan o‘ralgan hovli bizniki edi. Men katta uyning o‘g‘li edim. Akalarim urushga ketishgan, ulardan xat-xabar yo‘q edi. Ikkalasi ham balog‘atga yetib, ayni uylanadigan vaqtda ketishgan. Keksa otam – duradgor usta. Tong saharda namozini o‘qirdi-da, ustaxonaga jo‘nardi, shu ketgancha qosh qorayganda kelardi. Xo‘jalikdagi barcha aravalar uning qo‘lidan o‘tardi. Uyda onam bilan singilcham qolardi, xolos.

Badiiy uslub

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik jihatdan ta’sir qiluvchi uslub *badiiy uslub* deb ataladi. Badiiy uslub *aralash uslub* hisoblanadi, chunki bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi.

Badiiy asarlar (nazm, nasr va drama) badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi: *O‘lkamizda fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoymoqda.*

Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so‘zlari, shevalardan ham foydalaniladi.

11. Berilgan gaplarni kengaytiring. Bunda turli nutq uslublarining vositalaridan foydalaning.

Namuna: ***Ob-havo yaxshi.*** – *Har doimgidek, mening jonajon Toshkentimda, ayniqsa, aprel-may oylarida ob-havo yaxshi* (So‘zlashuv uslubi).

1. O‘zbek tili turkiy til. 2. Yomg‘ir yog‘moqda. 3. Men tahsil olyapman. 4. Uchrashuv belgilandi. 5. Ularga yoqadi. 6. U ma‘ruza qildi. 7. Suhbat qisqa bo‘ldi. 8. Siz bilmaysiz. 9. Sen shug‘ullanasan. 10. Toshkent – poytaxt.

12. Maqollarni eslab qoling va mazmunini tushuntirib bering.

Bilim yo‘q joyda, mardlik ham yo‘q.

Ter to‘kib ishlagan joyda, baxt – bu ajoyibot emas.

Qayerda tug‘ilgan bo‘lsang, u yerda keraksan.

To‘g‘ri yo‘l turgan joyda, qiyshiq yo‘ldan yurma.

Sevgi va murosas bo‘lgan yerda – g‘am yo‘q.

Ip qayerda bo‘lsa, igna ham o‘sha yerda.

Qayerda xalq hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda g‘alaba va ozodlik barqaror bo‘ladi.

13. Nutq uslublarining vujudga kelgan davri bo‘yicha ketma-ketligini belgilang.

Tartib raqami	Nutq uslublari turlari
	Badiiy uslub
	Ilmiy uslub
	So‘zlashuv uslubi
	Publitsistik uslub
	Rasmiy-idoraviy uslub

14. Darslikning “Mutolaa” bo‘limidan yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoskening “O‘rgimchak uyining tolasi” hikoyasini o‘qing. Asardagi badiiy uslubga xos vositalarni ko‘rsating. Asardan chiqargan xulosangizni aytib bering.



1. Savollarga javob bering.

San'at nima?

San'atning vazifasi qanday?

San'atning qanday turlari mavjud?

O'zbek xalq san'atining qaysi turlarini bilasiz?

2. Quyidagi terminlarni o'zbek tilida yozing. Ularni san'at turlari bo'yicha guruhlang.

Прикладное искусство, художественная академия, изобразительное искусство, драматический спектакль, художественный образ, архитектурный ансамбль, изделия из керамики, картинная галерея, резьба по дереву, эстетический вкус, народные ремёсла, историческая мелодрама, оперная ария, цирковая арена, скульптурное изображение, компьютерная графика, сценическое искусство.

3. Quyidagi tushunchalarning mazmuni bilan tanishing. Ularning orasida qanday bog‘liqlik borligini tushuntiring.

Balet (lot. *ballo* – “raqsga tushaman”) – asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san’ati turi. O‘zida dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san’at elementlarini uyg‘unlashtiradi. Balet – musiqada yozilgan, xoreografiyada gavdalantirilgan drama.

Kino – film ishlab chiqarish va tomoshabinlarga ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi madaniyat va san’at tarmog‘i, san’atning eng ommaviy turi. Kino san’atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy film, ilmiy-ommaviy kino, hujjatli kino va multiplikatsion kino.

Teatr (grek. “tomosha uchun joy”) – sahnada dramatik asarlarni tasvirlash san’ati. Unda musiqa, xoreografiya, adabiyot, vokal elementlari mujassamlanadi. Teatrlarning qo‘g‘irchoq, balet, opera, operetta, drama, musiqali kabi turlari mavjud.

Sirk (lot. *circus* – “doira”) – tomosha san’atining ko‘ngilochar turi. Sirkda dorbozlik, ko‘zboylog‘ichlik, akrobatika, masxarabozlik, qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlar bilan tomoshalar ko‘rsatiladi. Sirk san’atida teatr, xoreografiya, vokal, rassomlik, kino elementlaridan foydalaniladi.

4. Berilgan baynalmilal terminlar san’atning qaysi turlariga tegishli ekanligini aniqlang. Ularning ma’nosini izohlang.

Akrobatika, allegoriya, animatsiya, ariya, arka, balustrada, barelyef, dekoratsiya, dizayn, ekvilibratika, eskiz, fute, interyer, kartina, kollaj, komediya, libretto, manej, mayolika, monument, naturmort, panno, pantomima, personaj, peyzaj, plastika, vokal.

5. San'at haqida mashhur insonlarning fikrlarini o'zbek tilida ifodalab bering.

«Дороги, ведущие к искусству, полны терний, но на них удается срывать и прекрасные цветы». (*Жорж Санд.*)

«Искусство заключается в том, чтобы найти необыкновенное в обыкновенном и обыкновенное в необыкновенном». (*Дени Дидро.*)

«Писать об искусстве нельзя. Его можно только чувствовать». (*Эрих Мария Ремарк.*)

«Благо, даруемое нам искусством, не в том, чему мы научимся, а в том, какими мы, благодаря ему, становимся». (*Оскар Уайльд.*)

«Искусство — расстояние, на которое время удаляет от нас страдания». (*Альбер Камю.*)

«Творенье может пережить творца:

Творец уйдет, природой побежденный,

Однако образ, им запечатленный,

Веками будет согревать сердца.

Я тысячами душ живу в сердцах

Всех любящих, и, значит, я не прах,

И смертное меня не тронет тленье». (*Микеланджело.*)

«Искусство — это попытка создать рядом с реальным миром другой, более человеческий мир». (*Андре Моруа.*)

«Высшая цель, которой может служить искусство, — способность тому, чтобы люди глубже понимали жизнь и больше ее любили». (*Рокуэлл Кент.*)

«Нет искусства без переживания». (*Константин Станиславский.*)

«Искусство – самый прекрасный, самый строгий, самый радостный и благой символ извечного, не подвластного рассудку стремления человека к добру, к истине и совершенству». (Томас Манн.)

6. Matnni o‘qing. Uni qismlarga bo‘ling va har bir qismga nom bering.

“San’at mo‘jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin.”

Abu Ali ibn Sino

San’at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shakli. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kela boshlagan.

Ibtidoiy san’atning dastlabki izlari so‘nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40–20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san’at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma’naviyat moddiy ishlab chiqarish bilan qorishiq holatda edi. Keyinchalik madaniyatning o‘sishi natijasida san’at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi.

San’at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a‘zolarini ma’lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg‘u, manfaat, ideallarini ifoda etgan.

San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi.

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazaridan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

San'at tasviriy san'at, ko'rgazmali-amaliy san'at, me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, raqs, vokal, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, televideniye, fotosan'at, xattotlik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ularning barchasini quyidagi xususiyatlar birlashtiradi:

- inson uchun estetik zavq-shavq manbai;
- inson hayotiga go'zallik baxsh etish;
- odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantirish;
- hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi;
- hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam berish;
- tarbiya vositasi;
- hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlash;
- odamlar orasidagi ma'naviy ko'priq, muloqot vositasi;
- odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalash, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantirish va h.k.

7. Quyida nomlari keltirilgan taniqli shaxslar, ular faoliyat ko‘rsatgan sohalar haqida ma’lumotlar topib, gapirib bering.

Abror Hidoyatov, Alisher Narzullayev, Bahodir Jalolov, Bernora Qoriyeva, Ergash Karimov, Ilhom Jabborov, Ismoil Jalilov, Kamoliddin Behzod, Komil Yormatov, Mutal Burhonov, Rafael Xayrutdinov, Tamaraxonim, Toshkanboy Egamberdiyev, Yunus Rajabiy.

8. Darslikning “Mutolaa” bo‘limidan amerikalik adib O’Genrining “So‘nggi barg” hikoyasini o‘qing. Hikoya qahramonlarini tasvirlab bering. San’atning inson hayotidagi ahamiyatini mazkur hikoya sujeti misolida ifodalang.

9. Quyidagi kasb egalariga o‘z so‘zingiz bilan ta’rif bering.

Aktyor, dorboz, fotosuratchi, haykaltarosh, hofiz, kulol, masxaraboz, me’mor, raqqosa, rassom, xattot, zargar.

10. Sizda chuqur taassurot qoldirgan san’at asari haqida matn tuzing.

11. Matnni o‘qing. Unga sarlavha qo‘ying. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

Temuriylar davri tomosha san’atlari, bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlar va umumlashmalar ko‘plab saqlanib qolgan. Ayniqsa, an’anaviy teatr, raqs va sirk bo‘yicha ma’lumotlar va mo‘jaz tadqiqotlar Alisher Navoiyning butun ijodi bo‘ylab sochilgan. Shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalarning musiqa san’atiga oid risolalarida raqs ritmi va usullari haqida ma’lumotlar, ilmiy mushohadalar uchraydi.

O‘tmishda an’anaviy teatr, qo‘g‘irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo‘shiqchilikning barcha shakllari, turlari “tomosha” degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so‘z “qarash, ko‘zdan kechirish” degan ma’nomlarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma’no doirasi juda keng bo‘lib, ko‘pchilikka mo‘ljallangan hamda ko‘ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg‘urtiradigan, ba‘zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma’rakalari, marosimlar bilan bog‘liq namoyishlar va o‘yinlar – barchasi “tomosha” deb yuritilgan.

Samarqand saltanatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yozishicha, Amir Temur “Qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo‘ysundirgan bo‘lsa, ularning hammasidan odamlar Samarqand va uning atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Shoh har xil hunarmandlarni yig‘ishga, ayniqsa, ko‘p harakat qildi”.

Olib kelingan xaloyiq hayratlanarli darajada ko‘p ediki, shaharga, ko‘cha va maydonlarga, qishloqlarga, hatto shahar tashqarisidagi daraxtlar ostiga, g‘orlarga ham odam sig‘may ketgan edi. Amir Temur ularni bir-biridan ajratmasdan, qavmi va oilasi bilan birga jamoa-jamoa joylashtirgan, zarur shart-sharoit yaratib bergan, chunki yangi joyda o‘z hunarlarini yo‘lga qo‘yishlari, mahorat va bilimlarini namoyon qilishlari uchun ular yotsiramasligi, mahkam o‘rnashib olishlari kerak edi. Samarqand atrofida Damashq, Misr, Bog‘dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlarning paydo bo‘lishini shu bilan izohlash mumkin. Bunday qishloqlar Shahrisabz, Qarshi, Buxoro atroflarida ham yuzaga kelgan.

XIV asr oxirlaridayoq qurilishda birga ishlagan mahalliy va kelgindi me’morlar, ustalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir va o‘ziga xos ijodiy amaliy birdamlik yuzaga kelgan. XV asr boshlarida umumiy badiiy maktablar shakllangan. Natijada nainki me’morchilik, naqqoshlik,

o‘ymakorlik va boshqa qator hunarlarda, balki musavvirchilik, musiqa, raqs, tomosha san’atlarida ham keskin yuksalishlar yuz berdi. Buni aksar olimlar uyg‘onish davri, temuriylar renessansi deb ataydilar.

Amir Temur va temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o‘tkazilib kelinganligi to‘g‘risida ko‘pgina ilmiy ma’lumotlar bor. Ma’rakalarda har toifa ijrochilar, alohida-alohida tarabxona va xosxona san’atkorlarning aralash guruhlari o‘z mahoratlarini namoyish etishgan bo‘lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o‘zaro bellashgan.

(Husniddin Toshkanboyev.)

Esse (fran. “tajriba, mashq”) – adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik mavzularda yozilgan, muammolar sistematik ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar.

Yozilish maqsadiga ko‘ra esse quyidagi turlarga bo‘linadi:

- tavsiflovchi esse;
- mulohazali esse;
- umumlashtiruvchi esse;
- argumentli esse;
- ijodiy esse.

Esse muallifga o‘z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma’lumotlarni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o‘z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o‘rinli qo‘llanishidir.

Essening hajmi 200–250 so‘z atrofida bo‘ladi.

12. “San’at va ma’naviyat” mavzusida esse turlaridan birini yozing.



1. Quyidagi satrlarning mazmunini tushuntiring.

Xotira bor ekan, tirikdir millat,

Tirikdir iftixor, tirikdir g‘urur.

Xotira – elni xalq etguvchi qudrat,

Xotira – ertani yoritguvchi nur.

(Xurshid Davron.)

2. Matnni o‘qing. Uni kengaytirib so‘zlab bering.

El-yurtimiz ozodligi yo‘lida jon fido qilgan bobolarimizni eslash, ularning muborak ruhlarini shod etish barchamizning insoniy, farzandlik burchimizdir.

2001-yildan buyon 31-avgust mamlakatimizda qatag‘on¹ qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlab kelinadi.

¹ qatag‘on – репрессии

Toshkent shahrida
Boʻzsuv sohilida
joylashgan “Shahidlar
xotirasi” yodgorlik
majmuasi doimo
ziyoratchilar bilan gavjum.
Bu qadamjo nafaqat
shahidlar yodini, balki



xalqimizning kechmishini oʻzida mujassam etgan tarix kitobiga oʻxshaydi. Bu yerga kelgan har bir inson qalbida shu tabarruk yurt barchamizniki, uni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash muqaddas burchimizdir, degan ezgu tuygʻu joʻsh uradi. Har yili 31-avgust tongida poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” xiyobonida xalqimizning ozodligi va mustaqilligi yoʻlida qurbon boʻlgan marhumlarni yod etish marosimi oʻtkaziladi. Ushbu xiyobon 2000-yilda bunyod etilgan.

Qatagʻon qurbonlarini xotirlash va eʼzozlash, xalq ozodligi yoʻlida qurbon boʻlgan ajdodlarimizning porloq xotirasini tiklash maqsadida majmua tarkibida 2002-yil 31-avgust kuni “Qatagʻon qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi.

Insonning ezgu amallari, ishlari, bunyodkorliklari unutilmaydi. Behbudiy, Usmon Nosir, Choʻlpon, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek singari koʻplab maʼrifatparvarlarning kurashlarga yoʻgʻrilgan hayoti bunga yorqin misoldir.

Oʻtganlar yodi – muqaddas. Mana shunday nurafshon kunlarni orzu qilgan, shu yoʻlda oʻz umrini ham ayamagan qatagʻon qurbonlarining xotirasini yod etish bilan qalbimiz nurga toʻladi, ruhimiz tetiklashadi.

3. Savollarga javob bering.

Muzey nima?

Siz qanday muzeylarni bilasiz?

Siz yashaydigan joyda qaysi muzeylar faoliyat ko'rsatadi?

Jahondagi mashhur muzeylardan qaysilari haqida ma'lumotga egasiz?

Muzeylar nima uchun kerak?

4. Matnni o'qing. Unga munosabat bildirgan holda so'zlab bering.

Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylar ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazinadir. Bu xazina yillar davomida boyib boradi. Har bir oilada muzeyning bir elementi mavjud. Ota-ona, bobo-momolarimizdan bizga meros buyum, fotosurat yoki hujjat bo'ladimi, biz avaylab-asraymiz va o'z farzandlarimizga ular to'g'risida faxr bilan so'zlab beramiz.

Meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy oladi hamda umuminsoniy boylikka aylanadi. Ajdodlardan meros bo'lgan an'analar va urf-odatlarni farzandlar va nabiralarga aytib berish, meros qoldirish orqali insoniyat tadrijiy rivojlanib boraveradi.

Mamlakatimizda muzeylar tashkil etish XIX asrning 70-yillariga borib taqaladi. 1876-yilda tashkil etilgan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi Markaziy Osiyodagi ilk muzeylardan sanaladi. Ushbu muzeyda yurtimiz hududidagi ibtidoiy jamoa tuzumidan to shu kunga qadar madaniy hayotdan darak beruvchi arxeologik topilmalar, turli

davrdagi taraqqiyot, fan va madaniyatning yuksalgan davri, foto hujjatlar, tasviriy san'at namunalari o'rin olgan.

Yana bir ilk muzey O'zbekiston Davlat tabiat muzeyidir. U 1876-yil 12-iyulda tashkil etilgan bo'lib, o'z yo'nalishiga ko'ra Markaziy Osiyoda yagonadir. Uning ilmiy fondida tabiatshunoslikka oid ko'plab muzey ashyolari mavjud bo'lib, mazkur soha bo'yicha mamlakatimizda bosh muzey hisoblanadi.

Umuminsoniyat madaniyati va milliy qadriyatlarni o'zida saqlovchi muzeylarning bayrami 1977-yilda Xalqaro Muzeylar kengashining Bosh konferensiyasi qarori bilan tasdiqlangan. Unga ko'ra har yili 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanadi.

1999-yildan boshlab mamlakatimizda muzeylar kunini nishonlash O'zbekiston madaniy hayotining muhim voqealaridan biriga aylandi. Ushbu kunda o'zbek muzeylari jamoatchilikni o'z faoliyatining yangi jihatlari bilan tanishtiradi, ochiq eshiklar kunlarini o'tkazadi, turli ko'rgazmalar tashkil etadi. Bu esa madaniyat va tarix, o'tmish va kelajak o'rtasidagi bog'liqlik haqida fikrlashga imkon beradi. Mazkur kunda muzeylar milliy boylik markaziga aylanadi.

Muzeylar o'tmish, bugungi kun va kelajakni, muzey xodimlarini, tadqiqotchilarni, kolleksionerlarni va tashrif buyuruvchilarni, turli mamlakatlar odamlarini, millatlarni, mutaxassislar, turli diniy qarashdagilarni, turli yoshdagilarni birlashtiradi.

5. Quyidagi g'aroyib muzeylar haqida ma'lumot toping.

Dunyodagi birinchi muzey, avtomobillar muzeyi, qoshiqlar muzeyi, non tarixi muzeyi, dunyodagi eng mitti muzey, suv muzeyi, kapalaklar muzeyi, samovarlar muzeyi, parovozlar muzeyi, nindzya muzeyi, kino muzeyi, Ginnes rekordlar kitobi muzeyi, psixiatriya muzeyi, Kunstkamera.

6. Berilgan tushunchalarning bir-biridan qanday farqlanishini ayting.

Muzey (yun. *musion* – “muzalarga bag‘ishlangan joy”) – tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma’rifiy muassasa.

Ekspozitsiya (lot. “ko‘rsatish, bayon etish”) – badiiy asar, moddiy madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va boshqalarning ko‘rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma’lum tizimda joylashtirilishi. Ekspozitsiyalar doimiy va davriy bo‘lib, ularning maqsadi barcha eksponatlarni ularning badiiy va ilmiy qiymati, tarixiy-badiiy jarayondagi o‘rni, materiallarning ahamiyatini mukammal yoritib berishdir.

Ko‘rgazma – insonning moddiy va ma’naviy faoliyati sohalaridagi yutuqlarni ommaviy namoyish etish. Ko‘rgazmalar savdo va ma’rifiy-targ‘ibiy maqsadlarda uyushtiriladi.

Ekspomarkaz – xalqaro ishtirokchilar bilan hamkorlikda ekspozitsiyalar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha markaz. 1958-yildan boshlab umumjahon ko‘rgazmalari “EKSPO” nomi bilan o‘tkaziladi.

7. Quyida nomlari keltirilgan muzeylar haqida taqdimot tayyorlang.

Luvr, Britaniya muzeyi, Ermitaj, Metropoliten muzeyi, Prado muzeyi, Kohira muzeyi, Vatikan muzeyi, Ikkinchi jahon urushi milliy muzeyi, d’Orse muzeyi, Tretyakov galereyasi, Amsterdamdagi Reyksmuseum, Afina Milliy arxeologiya muzeyi, Nyu-York zamonaviy san’at muzeyi, Yaponiya fan milliy muzeyi, Drezden kartina galereyasi, Madam Tyusso muzeyi.

8. Muzeylar haqidagi qiziqarli faktlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Старейшим в мире публичным музеем является Капитолийский музей в Риме, он был основан Папой Сикстом IV в 1471 году, когда он передал часть античных скульптур из своей коллекции в дар римскому народу.

Одним из известнейших музеев мира является Эрмитаж в Санкт-Петербурге. Чтобы его весь обойти, причем, не останавливаясь, потребуется 12,5 часов. В его коллекции находится 3 миллиона экспонатов.

В Амстердаме есть уникальный музей – «Музей-Тело». Он имеет вид макета человека, высотой 35 метров и точно имитирует тело человека. Музей оснащен весьма точными имитациями всех процессов человеческого организма. Фишкой музея является то, что кроме визуального эффекта, посетители получают также звуковые и обаятельные дополнения, позволяющие создать полностью реальную картину жизнедеятельности человеческого тела.

Самый популярный музей в кино – Музей естественной истории в Нью-Йорке. Он «снялся» в двух частях «Ночи в музее» (2006, 2009), фильмах «Экзорцист II» (1977), «Малколм Икс» (1992), «Дневники няни» (2002), «Кальмар и кит» (2005), «Послезавтра» (2009), мультфильмах «Мы вернулись: история динозавров» (1993) и «Американская история 3: Сокровища острова Манхэттен» (1998).

За год парижский Лувр принимает 8,5 миллионов посетителей, что делает его самым посещаемым музеем в мире. В тройку самых посещаемых входят также Британский музей (5,8 миллионов посетителей в год) и Метрополитен-музей в Нью-Йорке (5,2 миллиона посетителей в год).

Коллекция Британского музея содержит, по меньшей мере, 8 миллионов объектов и охватывает два миллиона лет человеческой истории.

Крупнейший музейный холдинг в мире – Музей Смитсоновского института в Вашингтоне, там находится 136

МИЛЛИОНОВ ЭКСПОНАТОВ.

Самый высокий музей – Каса де ла Монеда – монетный двор и Национальный музей в городе Потоси, Боливия, он находится на высоте 4100 метров над уровнем моря.

Самый маленький в мире музей «Баублис» находится в дупле старого дуба в литовской деревне Биетай. Музей официально существует с 1812 года.

В доме-музее Эрнеста Хемингуэя живёт более 50 кошек, половина из которых имеют лишние пальцы на лапах, так как многие являются потомками мейн-куна Снежка с генетической мутацией, подаренного писателю.

В России есть Художественный музей мусора. В его экспозиции представлены работы, выполненные из бытового мусора, найденного на свалках. Отслужившие свой век вещи в руках умелых мастеров обретают вторую веселую, а иногда и полезную жизнь, превращаются в настоящие арт-объекты.

9. O‘zingiz tashrif buyurgan muzeylardan olgan taassurotlaringiz haqida matn tuzing.

So‘zlashuv uslubi

Uyda, ko‘chada, insonlarning o‘zaro so‘zlashuvida qo‘llanadigan uslub **so‘zlashuv uslubidir**. Bu uslubning adabiy til me‘yorlariga rioya qiladigan ko‘rinishi adabiy so‘zlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday me‘yorlariga rioya qilinmaydigan ko‘rinishi oddiy so‘zlashuv uslubi deb ataladi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik shaklda bo‘ladi. So‘zlashuv uslubida ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin:

Kep qoling! Obbo, boplabsiz-da. Yo ‘g‘e-e-e-!

So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ko‘proq soddaga gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

10. Gaplarni uslubiy shakliga ko‘ra guruhlariga ajratib ko‘chiring. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimcha, so‘z yoki fe‘l shaklini qo‘ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo‘q.
2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniq..., to‘p..., uni o‘rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtayi nazar.
3. Men, Rasulov Anvar, “Eng yaxshi kitobxon” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish ... institutimiz kutubxonasidan 10 (o‘n)ta badiiy kitob ol... .
4. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi... . Shuni ... kerakda, “o‘qib uqmasa bekor”

11.O‘qing. Gaplarning qaysi nutq uslubiga mansubligini aniqlang. Fikringizni asoslab bering.

1. Ko‘kdan quyosh mo‘ralab qaraydi. (*Uyg‘un.*)
2. Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib,
Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi. (*Muhammad Yusuf.*)
3. Bir narsani surishtirib, tagiga yetmoqchi bo‘lsak, aslidan kelamiz: asli nima edi? Asli qanday edi? va hokazo. (*N. Komilov.*)
4. Fe’llar harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlardir. (*A. Hojiyev.*)
5. Ertaga soat 15.00da 1-kurs talabalarining yig‘ilishi bo‘ladi.

Sheva forscha “*ravish*”, “*yo‘sin*” degan ma’nolarni bildirib, biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik qismini anglatadi. Xalq shevalarining faqat og‘zaki shakli mavjud.

Lahja – bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisidir. O‘zbek tili tarkibida 3 xil lahja bor.

Qarluq lahjasi janubi-sharqiy guruhni tashkil qilib, asosan sharqiy shevalarni o‘z ichiga oladi.

Qipchoq lahjasi shimoli-g‘arbiy guruhni tashkil qiladi, unga asosan qishloqlarda yashovchilarning shevalari kiradi.

O‘g‘uz lahjasi janubi-g‘arbiy guruhni tashkil qilib, janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasi kiradigan Farg‘ona, Toshkent shevalari asos qilib olingan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek millati ijtimoiy faoliyatining barcha sohasida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

12. Quyidagi so‘zlarni jadvalning mos ustunlariga joylashtiring.

Reportaj, ma’ruza, komediya, referat, esse, monografiya, annotatsiya, lug‘at, ma’ruza, maqola, ariza, roman, katalog, shaxsiy kundalik, ocherk, dissertatsiya, deklaratsiya, majlis bayoni, metodik qo‘llanma, shaxsiy xat, ma’lumotnoma, qissa, bahs, ishonchnoma, insho, suhbat, darslik, kafolat xati, esdaliklar, epigrama, kurs ishi, doston, hisobot.

Ilmiy uslub	Rasmiy- idoraviy uslub	Publitsistik uslub	Badiiy uslub	So‘zlashuv uslubi

13. Murojaat va iltimosning rasmiy hamda norasmiy ko‘rinishlarini jadvalga ajratib yozing. Ularga misollar keltiring.

<i>Rasmiy vaziyat</i>	<i>Norasmiy vaziyat</i>

Ishda, tanaffus paytida, mashg‘ulot paytida, majlisda, sayr qilayotganda, konferensiyada, uyda, shifoxonada, bozorda, konsertda, telefon orqali muloqotda, internet-muloqotda, do‘konda.

14. Turli nutq uslublariga misol bo‘la oladigan 3tadan gap yozing. Bu gaplarning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini ko‘rsating.



1. Savollarga javob bering.


Ommaviy axborot deganda nimani tushunasiz?

Qaysi gazeta yoki jurnallarni o‘qiysiz?

Qaysi teleko‘rsatuvlarni tomosha qilishni yoqtirasiz? Nima uchun?

Reklama kishining ongiga qanday ta’sir o‘tkazadi deb o‘ylaysiz?

2. Quyidagi so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalarini tuzing. Ular yordamida “Axborotning bugungi qiyofasi” mavzusida matn tuzing.



3. Jadvalning chap ustunidan o'ng ustundagi fikrlarning mualliflarini toping.

Benjamin Franklin, <i>AQSH prezidenti</i>	Har qanday chuqurlikdan ham osmonga ko'tarilish mumkin.
Deyl Karnegi, <i>amerikalik psixolog</i>	Vaqt – pul demakdir.
Seneka, <i>Rim faylasufi</i>	Agar sening o'ng yuzingga ursalar, chap yuzingni ham tutgin.
Abdulla Qahhor, <i>o'zbek yozuvchisi</i>	Go'zallik dunyoni qutqaradi.
Margaret Tetcher, <i>britaniyalik siyosatshunos</i>	Ekologik halokat yuz berishi muqarrar.
Fyodor Dostoyevskiy, <i>rus yozuvchisi</i>	Siyosatda do'stlar bo'lmaydi, faqat manfaatlar bo'ladi.
Ishbilarmonlar	Ota-onalar zamondan orqada qolib ketishgan.
Lev Tolstoy, <i>rus yozuvchisi</i>	Yerga engashganning qomati oliftaning bo'yidan balandroq.
Olimlar	Palag'da tuxumga murch sepib bergan bilan uni yeb bo'lmaydi.
O'smirlar	Mening oltita sadoqatli xizmatkorim bor. Hamma narsani ulardan o'rganaman. Ismlari: nima? qachon? qanday? qayerda? kim? nimaga?

4. Berilgan ta'riflarni o'qing. Ularning orasidagi farq haqida fikr bildiring.

Gazeta (ital. *gazzeta* – “chaqa pul”) – kundalik voqealar to'g'risida materiallar e'lon qilinadigan davriy bosma nashr. Uning vazifasi jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini, ma'naviy intellektual talablarini qondirishdan iborat.

Jurnal (fran. *journal* – “kundalik daftar”) – bosma davriy nashr, axborotni tanlash, tahlil etish va baholashning asosiy vositalaridan biri.

Jurnal gazeta kabi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish yo'li bilan uni shakllantirishga xizmat qiladi; omma ijtimoiy ongiga muayyan g'oya va qadriyatlarni singdiradi.

5. Quyidagi tushunchalarning mazmunini lug'at yordamida sharhlang.

“To‘rtinchi hokimiyat”, ma’rifat, ta’sis etmoq, ko‘ngilochar, rubrika, tezkor axborot, mediamaydon, tiraj.

6. Matnni o‘qing. Unga qo‘shimcha ma’lumotlar kiriting. Matnga sarlavha qo‘ying.

Ommaviy axborot vositalarining insonlar ongiga ta'siri qay darajada kuchli ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Biz ulardan dunyoda yuz berayotgan hodisalar, siyosat, taniqli kishilar haqidagi ma'lumotlar, sport, ob-havo, moda va boshqalar haqida ma'lumotlar olamiz. Shu bois XXI asrda insonlarning hayotida matbuotning roli juda katta.

“Matbuot” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, bosma asarlar, nashrlar degan ma’noni bildiradi.

O‘zbek matbuotini shakllantirishda va davriy nashrlar faoliyatini tashkil etish hamda yo‘lga qo‘yishda jadidchilardan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lponlar bosh-qosh bo‘lganlar. Ular ma’rifatchi Ismoil Gaspirali muharrirligi ostida chiqqan “Tarjimon” gazetasining ish tajribasiga tayanib, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Sadoyi Turkiston”, “Samarqand”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarini va “Oyna” jurnalini chiqarganlar.

XX asr boshida o‘lkamizda “Nasha gazeta”, “Izvestiya”, “Turkestanskaya pravda” va “Pravda Vostoka” gazetolari chop etila boshlagan.

Mustaqilligimiz tufayli o‘zbek matbuoti yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Davriy matbuotning ahamiyati va mavqe¹yi har jihatdan yuksaldi va keng taraqqiy etib, gullab-yashnadi. Unga barcha jabha²lardagi islohotlarni yoritish, aholini xolis axborot bilan ta’minlash, kishilar ongini shakllantirishda hukumat va xalq o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik sifatida qarala boshlandi va jamiyatimizdagi uch hokimiyat – qonun chiqaruvchi, ijro va sud tizimi bilan bir qatorda to‘rtinchi hokimiyat maqomi berildi.

Ommaviy axborot vositalari deb doimiy nomga ega bo‘lgan, ommaviy axborotni davriy tarqatishning bosma (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, bulletinlar va boshqalar) yoki elektron (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, veb-saytlar) tarzda nashr etiladigan, efirga beriladigan shakllariga aytiladi.

O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga oid bir qator qonunlar qabul qilinib, jurnalistlarning professional faoliyati uchun zarur qulayliklar yaratildi. Xususan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda axborot va so‘z erkinligini ta’minlash hamda himoya qilish belgilab qo‘yildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bosma ommaviy axborot vositalari jadal sur‘atlar bilan rivojlandi. O‘zbekiston davriy nashrlari quyidagi segmentlardan iborat:

- ijtimoiy-siyosiy nashrlar;
- iqtisodiyot, moliya va biznes sohasidagi nashrlar;

¹ mavqe – положение, роль

² jabha – сфера

- qishloq xo‘jaligi va fermerlik masalalari bo‘yicha nashrlar;
- ta‘lim va fan masalalari bo‘yicha nashrlar;
- tibbiyot va salomatlik bo‘yicha nashrlar;
- ko‘ngilochar nashrlar va dayjestlar;
- xotin-qizlar uchun nashrlar;
- sport matbuoti;
- satirik nashrlar;
- kechki gazetalar;
- siyosiy partiyalar va harakatlarning nashrlari;
- milliy tillardagi gazeta va jurnallar (qoraqalpoq, qozoq, tojik, koreys va boshqa tillarda).

Hozirgi kunda mamlakatimizda “Xalq so‘zi”, “Fidokor”, “Milliy tiklanish”, “Adolat”, “Huquq”, “Hurriyat” kabi siyosiy partiyalar va vazirliklar tomonidan ta‘sis etilgan gazetalar bilan bir qatorda ko‘ngilochar nashrlar: “Darakchi”, “Hordiq”, “Bekajon”, “Charxpalak” kabi gazetalar, “Yoshlik”, “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Fan va turmush”, “Saodat”, “Jahon adabiyoti”, “Gulxan” kabi yuzlab jurnallar chop etilmoqda.

7. Berilgan so‘zlarning ma‘nosini lug‘at yordamida izohlang.

Notiqlik, sharh, sharhlovchi, hozirjavoblik, ta‘sirchan, tashviqot, targ‘ibot, bo‘yoqdorlik, talqin, tavsif, taassurot, mulohaza, nasriy.

8. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini nutq uslublarning turlariga ko‘ra ajratib yozing.

Morfologiya, fuqarolik burchi, ichki tartib-intizom, aft, to‘nini teskari kiymoq, energiya manbayi, xushbichim, man qilinadi, aziz hamyurtlar, hormang, rioya qilish, aksioma, burchga sadoqat, bo‘tam, tok o‘tkazgich, ish ishtaha ochar, iltimos, bashara, uchburchak, katta-yu

kichik, tenglama, tong nashidasi, oltin qo‘llar, yurtim shamoli, ofarin, tushuntirish xati, nahotki, tuyaning dumi yerga tekkanda.

9. Quyidagi ma’lumotlarni o‘zbek tilida so‘zlab bering va misollar keltiring.

Перифраз – это семантически неделимое, иносказательное выражение, которое описывает содержание другого слова или сочетания слов. Перифраз называет понятие или явление другими словами, сохраняя при этом его смысл, например:

голубая планета (Земля);

черное золото (нефть);

корабль пустыни (верблюды);

вечный город (Рим);

стальное полотно (железная дорога).

В публицистике перифраз используется с целью усиления выразительности высказывания, более интенсивного воздействия на читателя или слушателя.

Publitsistik uslub

Tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya’ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo‘lish, ta’sirchanlik, adabiy til me’yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniyeda ishlatiladigan ko‘rinishi og‘zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta-jurnallarda ishlatiladigan ko‘rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Nutq ta’sirchan bo‘lishi uchun iboralar, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *Azamat paxtakorlarimiz mo‘l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.*

10. Asosan publitsistik uslubda qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini ajratib yozing.

Muxbir, korrupsiya, terrorizm, byurokrat, xrestomatiya, demokratiya, gomeopatiya, jamg'arma, tushuncha, sanoat, partiya, jinoyatchilik, qarz, faollik, separatizm, mudofaa, layoqat, geosiyosat, amaliyot, taktika, globallashuv, san'at.

Partiya a'zolari, sud majlisi, da'vo arizasi, ilg'or qarashlar, davlar muassasasi, yer solig'i, favqulodda holat, uyushmagan yoshlar, ish rejasi, kasallik varaqasi, iqtisodiy o'sish, konservativ partiya, yirik inshoot, suv ombori, badiiy obraz.

Publitsistik uslub yozma hamda og'zaki ko'rinishlarga ega. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan maqolalar, ocherk, reportajlar publitsistik uslubning yozma turdagi janrlaridir. Publitsistik uslubning og'zaki turiga esa notiqlik kiradi. Shuningdek, publitsistik uslubning og'zaki turiga kundalik voqealarga doir maqolalar yoki xalqaro obzor bilan radio va televideniya da chiqayotgan sharhlovchilarning nutqlari kiradi.

Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsa-da, ikkala turida ham publitsistikaga xos siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Publitsistikaga xos umumiy belgilarga muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalanish xususiyati ham kiradi. Shuning uchun publitsistik uslub o'zida yozma nutq uslublariga xos xususiyatlarni ham (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarga oid terminlarning ishlatilishi), badiiy uslubga xos xususiyatlarni ham (obrazli ifodalarni ishlatish, emotsional bo'yoqdorlik) birlashtiradi.

Publitsistik uslubning vazifalari:

- 1) qisqa muddatda yangiliklardan xabardor qilish;
- 2) ta'sir o'tkazish, muammoga e'tiborni qaratish.

11. Matnni o'qing. Uni o'zbek tilining taraqqiyoti haqida bilganlaringiz bilan to'ldirib sharhlang.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilindi.

Mustaqillik sharofati bilan Davlat tiliga e’tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O‘zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1995-yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi Qonuni e’lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo‘lib, uning 1-moddasida asosiy qomusimiz – O‘zbekiston Konstitutsiyasining 4-moddasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib berish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har birimiz o‘zbek tilidagi so‘z boyligimizni oshirishimiz hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishimiz foydalidir. So‘z fikrning quolidir, kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi.

12. Berilgan ta’riflarni o‘z o‘rniga qo‘ying.

<i>Esse</i>	Biror hodisa, fakt haqida xabar va uning muallif talqinidagi tahlili.
<i>Reportaj</i>	Biror shaxs bilan suhbat.
<i>Intervyu</i>	Ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy hodisaning qisqacha tavsifi.
<i>Maqola</i>	Biror qiziq voqea guvohining jonli hikoyasi.
<i>Ocherk</i>	Muayyan masala bo‘yicha shaxsiy taassurotlar va mulohazalarni aks ettiruvchi uncha katta bo‘lmagan hajmdagi erkin tuzilgan nasriy matn.

13. Quyidagilardan birining reklamasini yarating:

sevimli teleko'rsatuvingiz

yaqinda ko'rgan filmingiz

o'qigan kitobingiz

o'zingiz ta'lim oladigan o'quv yurti

O'zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobil

bolalar uchun buyum

oziq-ovqat mahsuloti

kiyim-kechak mahsuloti

Publitsistika keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Publitsistik uslub o'zbek adabiy tilining nutq uslublari tizimida asosan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo'lgan. Bu davrga kelib, ya'ni 1883-yildan boshlab o'zbek tilida ilk gazeta – “Turkiston viloyatining gazetisi” chiqarilgan. XX asr boshida esa nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining yanada kengayishi o'zbek adabiy tilida publitsistik uslubning paydo bo'lishi va shakllanishida katta rol o'ynagan.

14. “O'zbekiston 24” telekanali muxbirining talaba bilan ixtiyoriy mavzudagi suhbatini matnini tuzing.

15. Matnini o'qib, mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering. Matnga sarlavha qo'ying.

Первые газеты как носители информации появились еще в Древнем Риме. Это были деревянные дощечки, которые вывешивали в людных местах и доставлялись домой знатным горожанам. Первая печатная газета вышла в Китае в VIII веке нашей эры.

Называлась первая печатная газета «Столичный вестник», в ней были только самые важные указы императора и обзор значимых событий. Производство газеты было очень хлопотным делом – на специальной доске резчики вырезали иероглифы, которые покрывались тушью и затем на бумаге делали отпечаток.

В Европе первая газета появилась в 1605 году в Страсбурге, но к сожалению, она не сохранилась и до наших дней дошло более позднее издание, газета, которая была напечатана в 1609 году.



В том виде, в котором мы привыкли видеть газету сейчас, она вышла во Франции 30 мая 1631 года. Теофраст Рендо выпустил первый номер издания «La Gazette» тиражом 1200 экземпляров. Газета сразу стала политически значимым

изданием, в ней писал даже сам король Франции Людовик XIII.

В России первая печатная газета вышла при самом главном реформаторе – при Петре Первом. В 1702 году был выпущен первый номер «Ведомостей», но еще задолго до этого события в России ходили рукописные листки под названием «Куранты».

Кстати, название «газета» появилось благодаря венецианцам. В XVI веке в Венеции были в ходу рукописные листки с новостями и стоили они одну монету. Монета называлась *gazetta* – газета.

16. O‘zbekistonda yoki xorijda chop etiladigan ko‘p tirajli gazetalardan birining obzorini tayyorlang.

17. Muammoli topshiriq.

Ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar yordamida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Dunyoda yarmarkalar juda ko'p. Masalan, kitoblar yarmarkasi, sanoat yarmarkasi, samolyotlar, traktorlar yarmarkalari mavjud. Ammo Marokashning Atlas tog'lari etagida har yili kech kuzda uch kungina bo'lib o'tadigan yarmarkada antiqa savdo bo'lib o'tadi. Antiqa yarmarka qay ko'rinishda va nima bilan savdo qiladi?

2. "Bank" so'zi italyanchada kursi degan ma'noni bildiradi. O'sha kursida o'tirgan bankir, deylik, bir savdogardan olgan qarzini vaqtida qaytara olmasa, o'sha savdogar tomonidan u bankrot deb e'lon qilinadi. O'rta asrlarda bankrotlik e'lon qilgan savdogarlar kursida o'tirgan bankirga uni bankrot bo'lganligini qanday ifoda etishgan?

3. Yapon aviakompaniyalari surunkali bir halokat sabab samolyotlar uchiga kattakon, odamning ko'zini chizib qo'ya boshlashdi. Nima sababdan ular bu usulni qo'llashga majbur bo'lishdi?

4. Reklama biznesni harakatlantiruvchi eng katta kuchdir. O'z molini hamma xohlagan yo'l bilan reklama qiladi. Yevropalik Este Lauder degan parfumeriya ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi bir tadbirkor ayol yangi ishlab chiqargan atirining taqdimot marosimida mahsulotini antiqa, kutilmagan yo'l bilan reklama qiladi va hammaga mahsuloti manzur bo'ladi. Este Lauder qanday usulda reklama qilgan?

5. Uni 1930-yilda ommaviy ravishda Germaniyada ishlab chiqara boshlashdi. Dastavval unga atirgul hidi va qizil lavlagi zarur bo'lgan. U nima edi?

6. "REEBOK" krossovkalari dunyoga mashhur. Ular antiqa usulda ishlab chiqarilgan. O'ng tarafi – Tayvanda, chapdagisi – Tailandda. Natijada firma zararlarini qisqartirishga erishgan. Bu qanday zarar?



1. Quyidagi so‘z birikmalarining mazmunini tushuntirib bering.

Axborot resurslari, ta’lim saytlari, samarali foydalanish, Internet foydalanuvchilari, kuchli ehtiyoj, onlayn ta’lim, elektron kutubxona, mustaqil izlanish, masofaviy ta’lim, spam axborot.

2. Savollarga javob bering.

Siz qaysi elektron kutubxonalardan foydalanasiz?

Qaysi ta’lim saytlari ma’lumotlarga boy? Ularning mustaqil ta’lim olishdagi o‘rni qanday?

Siz o‘qiydigan oily ta’lim muassasasining rasmiy saytida yana qanday ma’lumotlar bo‘lishini istardingiz?

Internet orqali ta’lim olishning qanday ijobiy va salbiy jihatlari bor? Misollar keltiring.

3. Quyidagi tushunchalarning mazmunini o‘zbek tilida izohlab bering.

Виртуальная реальность, социальная сеть, Интернет-магазин, троллинг, быстрый интернет, открытый профиль, блог, интернет провайдер, национальный домен, информационная безопасность.

4. Internet haqidagi fikrlar bilan tanishing. Ularning har biriga munosabat bildiring.

SH. Ahmedova, maktab o'quvchisi:

Internet men uchun boshqa bir olam, boshqa bir sayyoraga o'xshaydi. Bu sayyorida faqat kompyuterni tushunadigan, u bilan ishlay oladigan va sayyoraning barcha burchaklariga bir zumda yetib borishni biladigan kishilargina yashaydi. Bu menga ertaklar olamini eslatadi. Chunki kompyuterdagi tugmachalarni bosib, ma'lum soniyalar ichida boshqa mamlakatlarga borib qolganimni, yoki darslarni yaxshi o'zlashtirish uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni kattalar va ustozlar yordamida tezda topib olganimni eslasam, quvonib ketaman.

"TPS" internet provayderi mas'ul xodimi J. Zohidov:

– Bugungi globallashtirish davrida nafaqat yirik ommaviy axborot vositalari, balki turli buzg'unchi g'oyalarni, vahshiylikni behayolikni targ'ib qiluvchi saytlar mashhur ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini yuritmoqda. Marketologlar ham o'zlarining targ'ibot va reklama roliklarini joylashtirish uchun shu yo'ldan samarali foydalanayotir. Internet ommalashgandan keyin ota-onalar farzandiga “yomon bolalar bilan o'ynama”, “yolg'on gapirma”, “o'zingdan kattani hurmat qil”, deb uqtirishi qatoriga “internetga kamroq kir”, “falon saytga kirma” degan so'zlarni ham qo'shishga majbur bo'lmoqda. Yaxshi tarbiya ko'rgan, kitobga qiziqishi bor bola bu gaplarga amal qiladi. Lekin internet borasida ota-onaning og'zaki chekloviga hamma bola ham birdek quloq solmasligi mumkin.

ZiyoNET bo'limi yetakchi mutaxassisi F. Shomurzayev:

– Bugun ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, bu makonga axborot olish, fikrlarini boshqalar bilan bo‘lishish ehtiyoji sabab kiriladi. Ziyonet ta’lim portalida yoshlarning axborot olishga bo‘lgan ana shunday talabi o‘rganilgan holda elektron va audio kitoblar soni muntazam yangilab, ko‘paytirib borilmoqda. Mamlakatimizda Internet tizimi orqali ma’naviy targ‘ibot ishlari, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

M. Mahmudova, bolalar shifokori:

– Ijtimoiy tarmoqda uzoq vaqt o‘tirish inson immun tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘sish gormonining rivojlanishini cheklaydi. Ko‘rish qobiliyatini pasaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish insonning ijtimoiy ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Onlayn-servislar hatto insonning tug‘ma qobiliyatlari pasayishiga ham sabab bo‘ladi.

SH. Qudratxo‘jayev, jurnalist:

– Ba’zilar Internetning zarari haqida gapirganda uni atom quroliga qiyoslaydi. Atom quroli qo‘llansa, tuzatib bo‘lmaydigan oqibatlar ro‘y berishi muqarrar. Ayni paytda u atom elektrostansiyalari ko‘rinishida ulkan naf keltirishi, mamlakatlar iqtisodiyoti va kishilar hayoti uchun zarur ehtiyojlardan biriga aylangan arzon elektr energiyasining manbayi sifatida xizmat qilishi mumkin. Internetning ham bundan farqli jihati yo‘q aslida. Faqat insoniyat undan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishi kerak. Internetning to‘g‘ri maqsadlarda ishlatilishi uning salbiy ta’sirlaridan himoyalaniшни ta’minlaydi.

Internet dunyoning eng mashhur kutubxonalariga, yetakchi universitetlar va tadqiqot markazlarining ilmiy laboratoriyalariga olib kirishini, masofaviy ta’lim, elektron tijorat va boshqa qimmatli vositalar

eshigini ochib berishini inobatga olsak, izlanuvchan inson uchun uning bebaho imkoniyatlar manbayi ekani ayon bo'ladi.

S. Rustamov, bloger:

– So‘nggi yillarda Internet siyosiy kurashlar maydoni, turli xil manfaatlarning kuchli quroliga ham aylanib bormoqda. Har qanday to‘siq, cheklov va ta‘qiqlarni aylanib o‘tishga moslashtirilgan Internet bugungi kunda chinakamiga jilovlab bo‘lmas kuchga aylandi. Hatto Internetni yaratib, unga inson zakosining eng so‘nggi kashfiyotlarini jo aylagan olim-u mutaxassislar ham uni cheklovchi muayyan mukammal mexanizmni ishlab chiqarolganlari yo‘q. Shu bois Internet, uning vorislari bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va turli-tuman saytlar masalasi bugun sog‘lom fikrli har qanday kishini jiddiy mushohada yuritishga chorlaydi.

5. Yuqorida keltirilgan fikrlarni sharhlang. Ularning nima uchun xilma-xil ekanligini izohlab bering. “Internet mening hayotimda” mavzusida insho yozing.

6. Quyidagi fikrlarga e‘tiroz bildiring yoki ma‘qullang. Fikringizni asoslab bering.

1. Oliy ma‘lumot olish qiyin.
2. Yaxshi o‘qish uchun kunu tun dars tayyorlash kerak.
3. Axborot qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi.
4. Qiyinchiliklar insonni chiniqtiradi.

7. Matnni o‘qib, mazmunini kengaytirgan holda gapirib bering.

Internet tarixini sobiq sho‘rolar ittifoqi¹da kosmosga ilk bor insonning parvoz qilgani bilan bog‘lashadi. Bu parvoz amerikaliklarni sarosimaga solgan², atom bombasi hujumi ehtimolini nazarda tutib, yangi himoya vositalarini ixtiro qilishni kuchaytirish haqida bosh qotirishga majbur etgan.

AQSHning ilg‘or mudofaa tadqiqot loyihalari agentligi buning uchun kompyuterlararo tarmoq yaratishni taklif etadi. Ushbu tarmoq ustida ishlash mamlakatdagi to‘rtta eng yirik universiteti: Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti, Stendford tadqiqot markazi, Yuta shtati universiteti va Kaliforniya shtatining Santa-Barbara shahridagi universitetiga topshiriladi. Yangi kompyuter tarmog‘i ARPANET deb nomlangan bo‘lib, 1969-yilda yuqorida sanab o‘tilgan to‘rtta ilmiy muassasani bog‘laydi.

Internet tarmog‘ini yaratish ehtiyoji turli tadqiqot markazlari ishini muvofiqlashtirish, axborot almashish, o‘zaro aloqaga ega bo‘lish uchun ishonchli va mukammal ishlaydigan bir tizim kerakligi bilan bog‘liq edi. Bu tizimda tarmoqning bir “bo‘g‘ini” ishdan chiqsa, boshqa qismlar zarar ko‘rmasligi, ishini davom ettiraverishi kerak edi.

Shu tariqa, axborotni saqlash va aloqada bo‘lishning harbiy vositasi sifatida yuzaga kelgan Internet, 1972-yilga kelib oliy ta‘lim tizimida ham keng qo‘llana boshladi. AQSHning 50ta universiteti va tadqiqot markazlari yangi tarmoqqa ulanib, ilmiy axborot almashinuvida undan unumli foydalanadigan bo‘ldi. 1983-yilga kelib, Internet ijtimoiy muloqot vositasiga aylanib, ko‘lam³i kengayib bordi.

Ikki yirik davlat o‘rtasidagi “qurollanish poygasi”⁴ natijasida yuzaga kelgan Internet XXI asrga kelib, atom bombasidan ham xatarli

¹ sobiq sho‘rolar ittifoqi – бывшее советское государство

² sarosimaga solmoq – привести в замешательство, напугать

³ ko‘lam – масштаб, объем

⁴ “qurollanish poygasi” – «гонка вооружений»

va boshqarish qiyin bo'lgan bir kuchga aylandi. Bugungi kunda Internetdan vaqtichog'lik¹ omili yoki pochta xizmatidan tashqari, turli kuch va manfaatlar kurashida axborot quroli sifatida foydalanilmoqda. Internet orqali har qanday ma'lumot sanoqli daqiqalarda butun insoniyatga oshkor bo'lmoqda.

Shu bilan birga, Internet dunyoning eng mashhur kutubxonalariga, yetakchi universitetlar va tadqiqot markazlarining ilmiy laboratoriyalariga olib kirishini, masofaviy ta'lim, elektron tijorat va boshqa qimmatli vositalar eshigini ochib berishini inobatga olsak, izlanuvchan inson uchun uning bebaho imkoniyatlar manbayi ekani ayon bo'ladi.

8. Matnni o'qib, unga sarlavha qo'ying. Matnning mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.

Интернет все больше и больше внедряется в нашу жизнь. На данный момент число пользователей, регулярно использующих Интернет, составляет около 1,5 млрд человек, это четверть населения Земли. И с каждым днем количество пользователей «всемирной паутины» увеличивается. Вся наша культура становится более зависимой от этой технологии, и неудивительно, что у некоторых людей возникают проблемы в связи с тем, что они слишком много времени проводят в Интернете. Так как в настоящее время технологии развиваются очень быстрыми темпами, то и подключиться к Интернету можно через радиоканалы, спутники связи, кабельное телевидение, телефон, сотовую связь, специальные опτικο-волоконные линии или электропровода. Всемирная сеть стала неотъемлемой частью жизни людей по всему миру.

¹ vaqtichog'lik – развлечения

Для достижения такой популярности, как у Интернета, раньше средствам массовой информации требовалось гораздо больше времени, к примеру, радио потребовалось 38–40 лет, телевидению – 13 лет, а Интернет достиг аудитории свыше 50 миллионов пользователей всего лишь за 5 лет. С возрастанием популярности Интернета проявились и негативные аспекты его применения. В частности, некоторые люди настолько увлекаются виртуальным пространством, что начинают предпочитать Интернет реальности, проводя за компьютером до 18 часов в день. На самом деле, таких людей очень много. Интернет-зависимость сравнивают с наркоманией, где также присутствует психический компонент. Интернет-зависимость определяется, как навязчивое желание подключиться к Интернету и болезненная неспособность вовремя отключиться от Интернета.

Современный Интернет имеет очень много социальных и культурных граней. Интернет предоставляет широчайшие технические возможности для общения. Он является универсальной глобальной информационной средой, так как в Интернете сравнительно легко найти людей со схожими интересами и взглядами на мир, да и общение в сети начать психологически намного проще, чем при личной встрече с человеком, поэтому создаются и активно развиваются веб-сообщества – группы людей, имеющих общие интересы и общающихся преимущественно через Интернет. К примеру, футбольные фанаты создают сайты, фан-клубы, посвященные своей любимой команде, где люди могут знакомиться, общаться, обсуждать игры и т.д. И таких сообществ огромное множество,

поэтому подобные интернет-сообщества постепенно начинают играть важную, осязаемую роль в жизни всего общества.

(А.Красницкая.)

Onlayn muloqot xususiyatlari

Internet – muloqotning alohida muhiti bo‘lib, unda zamonaviy muloqot vositalarining ko‘plab turlari: elektron pochta, forumlar, chatlar, bloglar, qisqa xabarlar dasturlari qo‘llanadi. Tezkor, lo‘nda, so‘zlashuv uslubiga yaqin tildan foydalaniladi. Shu bois so‘zlashuv uslubi faqat og‘zaki nutqda qo‘llanadi, degan fikr endilikda haqiqatga uncha to‘g‘ri kelmaydi. Internet orqali muloqot tili yozma adabiy va og‘zaki so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos qorishmasidan iborat.

Onlayn muloqotda xabarning adresatga bir onda yetib borishi nazarda tutiladi. Uning quyidagi xususiyatlari mavjud:

1) xabarlarda muloqot ishtirokchilariga tushunarli bo‘lgan qisqartmalar va belgilar qo‘llanadi;

2) imlo qoidalariga deyarli rioya etilmaydi;

3) xabar yozuvchining emotsional holati nutqning oldindan tayyorlanmaganligida, ayrim leksik birliklarning yetishmasligi yoki ortiqcha ekanligida, nutqning shoshilinch tuzilishida aks etadi.

Onlayn muloqot ishtirokchilarining his-tuyg‘ulari asosan quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

- emotikonlar (“smayl”lar) mimika va ohangni aks ettiradi;
- matnning ustiga chizish “ichki” fikrlarni, chizilmagan matn “tashqi” fikrlarni bildiradi;
- matni faqat bosh harflar bilan yozish unga e‘tiborni kuchaytiradi yoki muallifning baqirayotganini bildiradi;
- qisqartma nomlar va belgilar matnning shoshilinchligini anglatadi;
- ataydan imlo qoidalarini buzish muallifning istehzo qilayotganidan dalolat beradi.

9. Quyidagi onlayn muloqot dasturlari va ijtimoiy tarmoqlarning o‘ziga xos jihatlari hamda farqlari haqida gapirib bering:

IMO, Telegram, Instagram, Twitter, Facebook, Vkontakte, Linkedin.

10. Matnga kerakli so‘zlarni qo‘yib yozing.

Men institutda o‘qishni boshlaganimdan keyin o‘zimga kompyuter olishim kerakligini Lekin bunga pulim yetmasdi, shuning uchun men uyga qo‘ng‘iroq qilib, buni ota-onamga Bizning suhbatimiz silliq kechmadi, chunki otam meni juda ko‘p sarf-xarajat qiladi, deb Men uzoq vaqt ularga kompyuterning nima uchun zarurligini

Ertasi kuni otam menga qo‘ng‘iroq qildi va biz bir yechimga Otam o‘zining Toshkentda yashaydigan do‘stidan menga arzonroq kompyuter yordam berishni iltimos qildi. Keyin onam qo‘ng‘iroq qilib, menga yana bir oz pul yuborishini, faqat bu haqda otamga aytmagimni so‘radi. Shunday qilib, men shaxsiy kompyuterga

11. Quyidagi holatlardan birida yuz berishi mumkin bo‘lgan suhbat matnini tuzing:

Siz – talabasiz. Ota-onangizdan uzoqda yashaysiz. Sizga zudlik bilan pul kerak bo‘lib qoldi. Vaziyatdan qanday chiqasiz?

Siz yangi noutbuk sotib olmoqchisiz, lekin kompyuter texnikasini yaxshi tushunmaysiz. Sizning harakatlaringiz.

12. www.my.gov.uz Yagona interaktiv xizmat davlat portalidagi barcha sohalar ro‘yxatini yozib chiqing. Ulardan bo‘lajak kasbingizga tegishlisini topib, xizmat turlarini yozib oling. Ushbu ma’lumotlardan kichik matn tuzing.



1. Quyidagi iboralarni eslab qoling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bilmoq (*qayerdan? kimdan? numa haqda?*)

Axborot, ma'lumot izlamoq/topmoq (*qayerda? nima haqda?*)

Axborot, ma'lumot olish uchun murojaat qilmoq (*qayerga? kimga? nima haqda?*)

Axborot, ma'lumot/ni olmoq/ga ega bo'lmoq (*qayerdan, kimdan, nima haqda?*)

Ma'lumotni taqdim etmoq (*kimga? nima haqda?*)

Aniqlamoq (*qayerdan? kimdan? nimani?*)

Ma'lumot yig'imoq (*nima haqda?*)

2. Berilgan tushunchalarning ma'nosini izohlang. Ular ishtirokida mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati haqida matn tuzing.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, uyushmagan yoshlar, tadbirkorlik faoliyati, shijoatli yoshlar, huquqiy poydevor, Yoshlar kuni, mafkuraviy tahdidlar, ijodiy salohiyat, ijtimoiy-maishiy sharoitlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar markazlari.

3. Matnni o‘qing. Unga o‘z munosabatingizni bildirib so‘zlang.

Taniqli italyan adibi Umberto Ekoning nabirasiga yo‘llagan maktubi bugungi kunda barcha o‘quvchi-talabalarga qaratilgan deyish mumkin. Quyida ushbu maktubdan parcha keltiramiz.

“Men sen bilan universitetlarda ta’lim olayotgan tengdoshlaring va sizlardan oldingi avlod duchor bo‘lgan xastalik haqida gaplashmoqchiman. Men xotirani yo‘qotish kasalligini nazarda tutyapman.

Agar sen Buyuk Karl kimligi yoki Kuala-Lumpur qayerdaligini bilmoqchi bo‘lsang, bir zumda hammasini Internetdan topishing mumkin. Buni faqat zarur bo‘lganda qilgin, lekin ma’lumotni olgach, uning mazmunini eslab qolishga harakat qilginki, toki yana kerak bo‘lib qolganda uni ikkinchi marta qidirib yurmagin. Shunisi yomonki, kompyuter istalgan paytda sening savolingga javob berishiga bo‘lgan ishonch axborotni eslab qolish istagini yo‘qotadi. Buni hayotdan olingan quyidagi misolga qiyoslash mumkin: bir ko‘chadan boshqa ko‘chaga shoshilinch damda avtobus yoki metroda yetib borish mumkinligini bilgach, odam piyoda yurishga boshqa ehtiyoj yo‘q degan xulosaga keladi. Biroq sen yurmay qo‘ysang, nogironlar aravachasida harakatlanishga majbur odamga aylanib qolasan.

Albatta, men sport bilan shug‘ullanishingni va tanangni boshqara olishingni bilaman. Biroq gap miya haqida ketmoqda.

Xotira oyoq mushaklari kabidir. Agarda uni mash qildirasang, u shalvirab qoladi va sen ovsar bo‘lib qolasan. Undan tashqari, biz hammamiz qariganda Alsgeymer kasalligiga duchor bo‘lishimiz mumkin, bu ko‘ngilsizlikdan qutulish yo‘llaridan biri esa xotiramizni mudom mashq qildirishdir.

Mening maslahatim bunday: har tong biror qisqa she‘rni yodla, xuddi bolalikda bizga o‘rgatganlaridek. Do‘stlaring bilan eng yaxshi xotira borasida musobaqa uyushtir. Agar senga she‘riyat yoqmasa, futbol jamoalarining tarkibini eslab qolishing mumkin. Biroq sen nainki Rim klubi komandalarini, balki boshqa komandalar o‘yinchilarini, shuningdek ularning avvalgi tarkibini ham bilishing kerak.

Bu o‘yinga o‘xshaydi, ha, bu o‘yinning o‘zi, lekin sen miyang personajlar, voqealar va turli xotiralar bilan to‘lishini sezasan. Miya – bu sen bilan birga yuradigan kompyuter, uning imkoniyatlari mashqlar natijasida kengayib boradi. Stolingdagi kompyuter uzoq foydalanish oqibatida tezligini yo‘qotadi va tezda almashtirishni talab qiladi. Miyang esa senga 90 yoshgacha xizmat qilishi mumkin. Agarda sen miyangni mashq qildirib tursang, 90 yoshingda sen hozirgidan ko‘ra ko‘proq narsani eslaydigan bo‘lasan.

Bir kun kelib, qariysan, biroq o‘zingni minglab hayotlarni kechirgan kabi his qilasan, go‘yo sen Vaterloo jangida ishtirok etgansan, Yuliy Sezarning qatliga guvoh bo‘lgansan, tasodifan poroxni kashf qilib, havoga uchgansan. Xotirasini boyitishga intilmaydigan boshqa do‘stlaring esa faqatgina bitta, zerikarli va yorqin hislarsiz umrni kechiradilar.

Xulosa shuki, xotirangni boyit va ertagayoq she‘r yodla!”

4. Buyuklarning ta'lim haqidagi fikrlarini sharhlang. Ta'lim to'g'risida siz qanday hikmatli so'zlarni bilasiz? Misollar keltiring.

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon. (*Abulqosim Firdavsiy.*)

Baxt belgisi ilm va aqlidir. (*Mahmud Koshg'ariy.*)

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,
Qo'lingdan kelgancha tera olsang, bas. (*Abu Abdullo Rudakiy.*)

Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarur. (*Sharl Monteskye.*)

Bilinga eltuvchi yagona yo'l bu – faoliyatdir. (*Bernard Shou.*)

Kimki hech narsani qiziqib so'ramasa, hech narsani o'rganmaydi ham. (*Tomas Fuller.*)

Bilganlarimizning cheki bor, bilmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q. (*Pyer Laplas.*)

5. Matnni o'qing. Muallifning fikrini qisqacha ifodalab bering.

Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo'lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim. Bilginki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi. Sen suratga boq, u odamga o'xshasada, joni bo'lmaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, uning o'tindan nima farqi bor. Sen abujahl (yovvoyi) tarvuzini ko'r, shirin tarvuzlar kabi chiroylidir, ammo achchiq bo'lgani uchun zarracha qiymati yo'q.

(*Muhammad Javhar Zamindor.*)

6. Mavzuga oid o‘zbek maqol va matallarini qanday tushunishingizni aytib bering.

Olim bo‘lsang, olam seniki.

Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda.

Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, qarilikda bilgani – muzga yozgani.

Yigit kishiga yetmish hunar oz.

Qunt bilan ilm o‘rganish – igna bilan quduq qazish.

Qadam qo‘y asta-asta, qadam yetguncha ilm ista.

Arzon beillat bo‘lmas, qimmat – behikmat.

Bola zamonasiga o‘xshar.

7. Matnning mazmunini o‘zbek tilida ifodalab bering.

Зачем всю жизнь учиться?

Непрерывная учеба – минимальное требование для достижения успеха в любой области.

Деннис Уэйтли

Один хороший человек как-то задал риторический вопрос — ну зачем учиться всю жизнь?? Чему можно учиться всю жизнь? Мне кажется очевидным, что учиться всю жизнь необходимо, и учиться всему, что тебе нужно в каждый конкретный момент времени.

Что значит учиться? Что за глупый вопрос, скажете вы. Вопрос действительно странный, однако давайте все же попробуем на него ответить. Учиться — значит приобретать новые знания, развивать новые навыки. Зачем нужно приобретать новые знания и новые навыки?

Ну, прежде всего, если вы хотите как-то изменить свою жизнь, то вполне логично, что должны узнать что-то новое или научиться чему-то. Если в данный конкретный момент своей жизни ты

имеешь то, что имеешь, то получил ты это благодаря тем знаниям и навыкам, которые у тебя есть. Если ты хочешь достичь чего-то другого, большего, то тебе определенно необходимо чему-то новому научиться. Если ты хочешь стать поваром, то тебе нужно научиться готовить, а если ты хочешь стать лидером, то необходимо приобрести новые навыки, присущие лидеру, которых еще нет. Если ты хочешь просто двигаться дальше и выше в той сфере, которой занимаешься, то необходимо постоянно узнавать что-то новое в данной сфере. Только так можно добиться успеха.

Есть еще один момент. Наш мозг подобен нашим мышцам — его, как и мышцы, можно укрепить постоянной тренировкой. Если не заниматься физическими упражнениями, то мышцы становятся слабыми и вялыми. Если не заниматься умственными упражнениями, то вялым и слабым становится наш ум. Представляете себе дряблый ум?? Зато чем больше вы упражняете ваш ум, чем больше учитесь и узнаете новое, тем острее он становится, и тем больше в состоянии познать. Очень хорошо об этом пишет Брайан Трейси в своей книге «21 секрет успеха миллионеров». Одним из секретов, которые он открывает, как раз и является обучение. «Непрерывное обучение — ключ к успеху в XXI столетии», — пишет Брайан Трейси.

Конечно, приобретенные знания и навыки необходимо применять на практике. Без практики они остаются лежать мертвым грузом. Если не применять знания и навыки, то и изменений в жизни добиться будет трудно.

(Александра Мощенских.)

8. “Наyot mening tasavvurimda” mavzusida esse yozing.

9. Berilgan so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasini lug‘at yordamida yozing. Ularning ma’nosini izohlang.

Ясность, точность, лаконичность, недвусмысленность, первоисточник, изложение, мыслить, первичный, вторичный.

Ilmiy uslub

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar *ilmiy uslubda* yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi:

Yomg'ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos terminlaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

10. So'zlarni ko'rsatilgan guruhlariga ajratib yozing. Har bir qatorni o'z misollaringiz bilan to'ldiring.

Guruhlar	So'zlar
Axloq-odob Iqtisodiyot Madaniyat Psixologiya Insonning ichki kechinmalari	minnatdorchilik, devalvatsiya, olijanoblik, destruktiv, hayajon, bag'rikenglik, qarz, g'urur, kutubxona, xotira, bezovtalik, adolat, ishonch, moda, intiluvchanlik, hissiyotlar, hushyor, film, ekstremizm, xususiy, sivilizatsiya, ko'rgazma, islohot, kompaniya, transmilliy, rahm-shafqat, shartnoma.

11. Quyidagi janrlar qaysi matnlarda qo'llanishini aniqlang va jadvalga kiriting:

dissertatsiya, reja, tezis, referat, ilmiy maqola, ma'ruza, annotatsiya, monografiya, konspekt, taqriz.

Birlamchi matn	Original asar, ilmiy yangiligi bilan ajralib turadi.	
Ikkilamchi matn	Birlamchi ilmiy matnni qayta ishlash natijasida yuzaga keladi, ilmiy yangiligi yo'q.	

12. Jadvalning chap va o'ng ustunlaridagi so'zlardan mosini topib, qo'shma fe'llar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Fikr, xulosa, xato, tasavvur, tadqiq, o'zgarish, e'tiroz, harakat, ta'sir, axborot, yordam, qarshilik, taxmin, tadqiqot, tekshirish, tavsiya, ko'mak, tahlil, qaror, sinov, qabul, bosim, xabar, e'tibor, xato.	bildirmoq ko'rsatmoq qilmoq bermoq o'tkazmoq
---	--

13. Ilmiy uslubga xos nutq qoliplarini eslab qoling. Ularga tayangan holda gaplar tuzing.

- Nima nimani anglatadi
- Nima nimadan iborat
- Nima nimaga (nima bo'lib) xizmat qiladi
- Nima nimani belgilaydi
- Nima o'zida nimani mujassam qiladi
- Nima (nima uchun) nima bo'ladi
- Nima (nima orqali) amalga oshiriladi
- Nima nimaning tarkibiga kiradi
- Nima qanchani tashkil qiladi
- Nima nimaga bo'linadi

14. Berilgan ta'riflar qaysi sohalarga tegishli ekanligini ayting. Ushbu tushunchalar bilan bog'liq terminlarga misollar keltiring.

Momoqaldiraq – chaqmoq chaqib, elektr razryadi – yashin bilan kuzatiladigan, qisqa vaqt davom etadigan atmosfera hodisasi; portlash to'liqini.

Sakura – Uzoq Sharqda, asosan Yaponiyada o'sadigan, gullari seryaproq qizg'ish-pushti, mevasi yeyilmaydigan manzarali daraxt.

Damba – daryo, soy, suv havzasi yoqalariga tuproq, tosh, shag'al, beton va shu kabilardan ko'tarilgan to'siq, ko'tarma.

Inflatsiya – muomaladagi qog‘oz pullar massasining taklif qilinayotgan real tovarlar hajmiga nisbatan haddan tashqari ortib ketishi va pulning qadrsizlanishi, buning natijasida tovar va xizmatlar bahosining ko‘tarilishi, pulning xarid qilish quvvati pasayishi.

Ilmiy uslub adabiy tining funksional uslubi bo‘lib, uning vazifasi mantiqiy axborotni yetkazish va uning haqiqiylikini hissiyotlarsiz dalillab berishdan iborat. Ushbu uslubda nutq grammatik shakllangan, adabiy me‘yor asosida tuzilgan, asosan monologik xususiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy uslub doirasi anchagina keng va xilma-xildir. Chunonchi, bir qator ijtimoiy fanlarga oid tadqiqotlar ko‘proq ommaviyligi bilan tavsiflansa, aniq fanlarga oid tadqiqotlar mutaxassislar doirasida ko‘proq tushuniladi. Shunga ko‘ra ilmiy uslub 3 yo‘nalishga bo‘linadi:

- 1) sof ilmiy yo‘nalish (ilmiy maqola, referat, monografiya);
- 2) oquv-ilmiy yo‘nalish (metodik tavsiyalar, darsliklar, lug‘atlar);
- 3) ilmiy-ommabop yo‘nalish (ocherk, maqola).

Ilmiy uslubning quyidagi asosiy belgilari bor:

- mantiqiylik – matn qismlarining mazmunan o‘zaro bog‘liqligi;
- izchillik – xulosalar matn mazmunidan kelib chiqadi, matn mazmuniga ko‘ra alohida bo‘laklarga ajraladi, ular fikrning xususiydan umumiyga va umumiydan xususiyga qarab harakatlanishini aks ettiradi;

- aniqlik – bayonning tushunarliqligi.

Ilmiy uslub ilmiy faoliyat sohasiga xizmat qiladi. U asosan fan tilidir.

15. So‘zlarning tarjimasini lug‘at yordamida yozib chiqing.

Условие, причина, следствие, результат, отношение, соотношение, связь, анализ, сравнение, изучение, определение, признак, качество, сторона, название, знак, рисунок, схема, график, символ, задача, проблема, вопрос.

Сравнить, сопоставить, зависеть, соответствовать, рассматривать, исследовать, доказать, отметить, характеризовать, предположить, исходить, обосновать, утверждать, считать, резюмировать.

Подобный, сходный, аналогичный, противоположный, следующий, вышеуказанный.

Напротив, обыкновенно, преимущественно, всегда, иногда, редко, относительно, исключительно, возможно, необходимо, вероятно, очевидно.

Ilmiy uslub ilmiy *terminologiya* bilan bog‘liq. Odatda, terminlar ilmiy uslubning leksikasini tashkil qiladi. Lekin ilmiy asarlar tili faqat terminlardangina tashkil topmay, unda abstrakt leksika va ko‘p ma’nodlilik xususiyatiga ega bo‘lgan umumxalq so‘zlari ham keng qo‘llanadi.

Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid simvol va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi.

Ilmiy uslubda shevachilikka yo‘l qo‘yilmaydi.

16. Jadvalni grek va lotin tilidan olingan quyidagi so‘z yasovchi elementlari bor misollar bilan to‘ldiring.

<i>Grek tilidan</i>	<i>Misollar</i>	<i>Lotin tilidan</i>	<i>Misollar</i>
<i>avto</i> – o‘zi	avtomobil ...	<i>avi (a)</i> – qush	
<i>gidr (o)</i> – suv		<i>inter</i> – aro	
<i>giper</i> – o‘ta		<i>intra</i> – ichkari	
<i>kilo</i> – ming		<i>sotsi (o)</i> – jamiyat	
<i>mono</i> – bitta, yagona		<i>tra(ns)</i> – ortida	
<i>texn(o)</i> – san‘at, mahorat		<i>ekstra</i> – tashqari	

17. Quyidagi hikmatli so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

“Ilmiy tilning asosiy fazilati – uning aniqligidir”. (*Dmitriy Lixachev, rus akademigi.*)

“Kim aniq fikrlasa, u aniq bayon qiladi”. (*Protagor, qadimgi grek faylasufi.*)

“Nutq mantiq qonunlariga bo‘ysunishi kerak”. (*Aristotel, qadimgi grek faylasufi.*)



1. Berilgan soʻz birikmalarini lugʻat yordamida tarjima qiling. Ular ishtirokida kichik matn tuzing.

Прикладные науки, высшее образовательное учреждение, научно-исследовательская деятельность, основы научных знаний, область науки, профессиональное образование, послевузовское образование, подготовка и переподготовка специалистов, повышение квалификации.

2. Savollarga javob bering.

Taʼlim jarayoni deganda nimani tushunasiz?

Taʼlimning qanday turlari mavjud?

Taʼlimga xos terminlarni ayting.

Siz nima uchun aynan shu oily taʼlim muassasasini tanladingiz?

Siz taʼlim jarayoniga qanday yangiliklar kiritilishini xohlaysiz?

3. Matnni oʻqib, undagi asosiy fikrni ifodalab bering.

Ta'lim va taraqqiyot

*“Faqat o‘zi yaxshi ko‘radigan narsanigina
chinakamiga o‘rganish mumkin”*

I. Hyote

XXI asrni “tezlik asri”, “integratsiya asri”, “axborot asri” deb atashadi. Shu bilan birga uni “ta’lim asri” deyish ham mumkin. Ta’lim har qanday davlatning eng muhim va ustuvor¹ sohasidir. Shu tufayli ko‘plab rivojlangan va tez taraqqiy qilayotgan mamlakatlar milliy ta’lim tizimini rivojlantirishni eng muhim strategik yo‘nalish sifatida belgilaydilar.

XXI asrda insoniyatning oldida yangi global muammolarni hal qilish vazifasi turibdi. Bu dunyo tabiiy resurslarining cheksiz emasligini anglash, energetik tanglik², ekologik muammolar, insoniyatni zarur resurslar (oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va boshqalar) bilan ta’minlash, inson salomatligi muammolari, qashshoqlik muammosi, sanoat rivojlanishi yo‘nalishlarining o‘zgarishi, inson hayotining ijtimoiy sharoitini tubdan o‘zgartirish, odamlarning yashash muhitini kengaytirish, barcha xalqlar uchun tinchlikni ta’minlash, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining keskin o‘shishini tartibga solish va boshqalardir. XXI asrda ta’lim dunyodagi ushbu global muammolarni hal qilishga xizmat qilishi kerak. Demak, zamonaviy ta’lim shaxsni jamiyat a’zosi sifatida mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Bugun ta’limning muqobil³ usullari kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Bu dunyoning istagan burchagidan turib onlayn tarzda ma’lumot olish imkonini beradi. Biroq oliy ma’lumotli bo‘lishning o‘zi

¹ ustuvor – приоритетный

² tanglik – кризис

³ muqobil – альтернативный

yetarli emas – o‘quv yurtini ham, mutaxassislikni ham to‘g‘ri tanlay bilish kerak. Oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplom avvalgidek yuqori daromad va maqomni ta‘minlab bera olmayapti. Hayot shuni ko‘rsatmoqdaki, ta‘lim davomida kasbiy layoqat¹ga ega bo‘lgan shaxslar tezroq muvaffaqiyatga erishadilar. Kasbiy layoqat esa egallangan bilim, ko‘nikmalarni malakaga aylantirish va asta-sekin malakadan tajribaga, tajribadan mahoratga etishishdir.

Ma‘lumki, oliy ta‘lim muassasasida talabaning zarur bilimlarni egallashi uchun imkoniyat va vaqt real hayotdagidan ko‘ra ko‘proq bo‘ladi. Agarda o‘qish davrida bilim olish sizning juda ko‘p kuch-g‘ayratingizni olayotgan bo‘lsa, siz shu jarayonda o‘z ustingizda ishlash hamda mustaqil ta‘lim olishga vaqtingiz yetmasa, ish faoliyatini boshlaganingizdan keyin bularning hammasiga qayerdan vaqt topasiz? Modomiki siz oliy ta‘lim muassasasida o‘qish davridayoq o‘z ustingizda ishlamas ekansiz, uni tugatgandan keyin bir necha yil o‘tgach, hayotdan butunlay orqada qolib ketganingizni tushunib qolasiz.

Oliy ta‘lim muassasasi bilim bermaydi, u bilimlarni olishga o‘rgatadi, degan fikr ayni haqiqatdir. Oliy ta‘limda talabaga nimani o‘rganish va qanday o‘rganish kerakligi haqida yo‘llanma beriladi. Bilimlar hajmi esa talabaning tirishqoqligi²ga bog‘liq. U o‘zining bo‘lajak kasbini qanchalik sevsa, uning bilim olishga intilishi shunchalik kuchli bo‘ladi.

4. Quyidagi ma‘lumotlatni yozib oling. Oliy ta‘lim muassasalarining farqlarini tushuntirib bering va misollar keltiring.

¹ kasbiy layoqat – профессиональная компетентность

² tirishqoqlik – старание

Universitet – fundamental va ko‘plab amaliy fanlar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlaydigan oily ta‘lim muassasasi. Unda ilmiy tadqiqot ishlari ham amalga oshiriladi. Universitetda bir necha fakultetlar bo‘lib, ularda ilmiy bilimlarning asoslarini tashkil qiluvchi turli fan sohalari jamlangan bo‘ladi.

Akademiya – oily kasbiy ta‘lim dasturlari hamda oily o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturlarini amalga oshiradigan oily ta‘lim muassasasi. Akademiyada ilmiy yoki ilmiy-pedagogik faoliyatning ma‘lum sohasi uchun oily malakali mutaxassislar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va ularning malakasi oshiriladi. Shuningdek, fan va madaniyat sohalaridan biri bo‘yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Akademiya o‘z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Institut – oily kasbiy ta‘lim dasturlari hamda oily o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturlarini amalga oshiradigan oily ta‘lim muassasasi. Institutlarda kasbiy faoliyatning ma‘lum sohasi uchun mutaxassislar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va ularning malakasi oshiriladi. Shuningdek, institutlarda fundamental yoki amaliy ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.

5. Matnni o‘qing. Uni kengaytirib so‘zlab bering.

Mashhur ilm dargohlari

Ilk universitetlar IX asrda tashkil qilingan. 855-yilda ochilgan Konstantinopol universitetida davlat xizmatchilari, diplomatlar, harbiylar tayyorlana boshlagan. Unda tibbiyot, falsafa, notqlik san‘ati va huquq fanlari o‘qitilgan.

Dunyodagi eng keksa universitet Italiyadagi Bolonya universitetidir. U 1088-yilda tashkil etilgan. Kopernik, Ulrix fon Gutten,

Oloander, Franchesko Petrarka, Dante Aligyeri, Parasels, Umberto Eko kabi mashhur insonlar mazkur universitetni bitirganlar.

Hozirgi kunda universitetda 23ta fakultet mavjud bo'lib, ularda 100 mingga yaqin talaba o'qiydi.

Britaniyaning Oksford shahrida jahonning eng keksa va eng mashhur universitetlaridan biri joylashgan. 1117-yilda asos solingan ushbu oily ta'lim muassasasi dunyoga 50 nafardan ziyod Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirib chiqargan. Britaniyaning 25 nafardan ziyod bosh vaziri, 6 nafar qirol, minglab taniqli siyosatchi, iqtisodchilar ushbu ta'lim dargohini bitirganlar.

Ayni paytda universitetda 51ta fakultet, 38ta kollej mavjud bo'lib, ularda 30 mingdan ortiq o'quvchi-talaba bilim olmoqda.

Bugun dunyoda taxminan 200 ming oily ta'lim muassasasi bor. Har yili yirik ekspertlar tomonidan eng yaxshi universitetlar reytingi o'tkaziladi. Ushbu reytingda egallangan o'ringa qarab abituriyentlar qaysi oily ta'lim muassasasiga kirish haqida bosh qotiradilar.

Bugungu kunda axborot texnologiyalari sohasida AQSH, Kanada, Singapur va Malayziya universitetlari, mehmonxona industriyasi sohasida Shveysariya va Buyuk Britaniya ta'lim muassasalari, tibbiyot sohasida Buyuk Britaniya, AQSH va Avstraliya o'quv yurtlari, moda va dizayn sohasida Italiya va Fransiya ta'lim dargohlari yetakchi hisoblanadi.

Talim dargohining nufuzi nimaga bog'liq? Bunda bir qator mezonlar qo'llanadi: ilmiy tadqiqot faoliyati, o'qitish, ish beruvchilarning fikrlari, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari, xorilik talabalar va o'qituvchilarning soni, xalqaro dasturlarda ishtiroki.

Dunyodagi eng mashhur universitetlar qatoriga Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti, Kembridj universiteti, AQSHning

Kaliforniya Texnologiya instituti, Stenford universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti, Garvard universiteti, Prinston universiteti, Shveysariyaning Surix texnologiya instituti, Singapur Milliy universiteti, Kanadaning Toronto universiteti, Shvetsiyaning Karolina instituti, Xitoyning Pekin universiteti, Yaponiyaning Tokio universiteti, Avstriyaning Melburn universiteti, Germaniyaning Munxen universiteti, Koreyaning Seul universiteti, Gollandiyaning Amsterdam universiteti, Rossiyaning Moskva davlat universiteti kabilar kiradi.

6. Savollarga javob bering.

Mamlakatimizda qaysi xorijiy o‘liy ta’lim muassasalarining filiallari faoliyat yuritmoqda?

Ularda ta’lim qanday tizimga asosan olib boriladi?

Ularning bitiruvchilari qaysi sohalarda faoliyat yuritadilar?

7. Berilgan mezonlar bo‘yicha xorijda va mamlakatimizda o‘qiydigan talabalarni taqqoslang.

Xorij talabalari	Bizning talabalarimiz

- mustaqil tarzda bilim olish;
- davomat;
- kiyinish;
- kutubxonada shug‘ullanish;
- madaniy hordiq chiqarish;
- sport bilan shug‘ullanish;
- darsdan tashqari vaqtdagi qiziqishlar;
- sayohat qilish;
- uy ishlari bilan shug‘ullanish;

- oila qurish;
- ta'tillarni o'tkazish.

8. Kasb tanlashda quyidagi mezonlardan qaysilariga tayanish kerak, deb hisoblaysiz? Ularni siz uchun muhim bo'lgan ketma-ketlikda joylashtiring. Tanlovingizni asoslang.

<i>Tartib raqami</i>	<i>Mezonlar</i>
	iste'dod
	yangilik yaratish
	odamlarga kerakli bo'lish
	odamlarning hurmatini qozonish
	layoqatni namoyish qilish
	kasbning ijtimoiy ahamiyati
	moddiy jihatdan mustaqil bo'lish
	muntazam o'z ustida ishlash

9. Qaysi xislatlar quyidagi kasb egalariga zarur, qaysilari esa ular uchun yot bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlaringizni jadvalga yozib chiqing.

<i>Kasb nomi</i>	<i>Ijobiy xislatlar</i>	<i>Salbiy xislatlar</i>
diplomat		
buxgalter		
huquqshunos		
o'qituvchi		
soliqchi		
sudya		
injener		
uchuvchi		
oshpaz		
harbiy		

10. Quyidagi holatlarga doir dialog matnlarini tuzing.

Siz – o‘qituvchisiz.

Sizning vazifangiz – talabalarangiz bilan tanishish. Tanishuvni nimadan boshlaysiz? Talabalardan nimalarni so‘raysiz? O‘zingiz va o‘qitadigan faningiz haqida ularga nimalarni gapirib berasiz?

Siz – talabasiz.

Sizning vazifangiz – o‘qituvchi va u o‘qitadigan fan to‘g‘risida bilib olish. O‘qituvchidan nimalarni so‘ragan bo‘lardingiz, uning fani va o‘tadigan darslari haqida nimalarni bilgingiz kelyapti?

11. Matnni o‘qib, unga sarlavha qo‘ying. Qaysi oily ta’lim dargohi haqida so‘z borayotganini aniqlang. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering.

Каждый студент должен знать историю своего вуза и гордиться им. Мы все знаем, как гордятся своими университетами выпускники и студенты Кембриджа, Оксфорда, Принстона и других всемирно известных университетов. Конечно, мой институт не такой старый и известный, как они, но у него тоже есть своя интересная история.

Наш институт был создан на базе международного факультета Московского государственного университета в октябре 1944 года. В то время заканчивалась вторая мировая война, и уже было понятно, что после войны должна будет измениться вся система международных отношений. Поэтому правительством было принято решение создать специальный институт для подготовки специалистов в области международных отношений, которые будут профессионально защищать интересы страны.

В первом учебном году 200 студентов, прошедших жесткий отбор, начали учиться на трех факультетах: международном, экономическом правовом. Через два года к ним присоединились первые студенты-иностранцы.

В 50-х годах XX века наш институт был объединен с Институтом востоковедения и Институтом внешней торговли. В 1969 году был открыт факультет журналистики, а в 1993 году – факультет международного бизнеса и делового

администрирования. Сейчас это единственный вуз в мире, где преподается более 70 иностранных языков.

За время существования института его окончили 30 тысяч выпускников, среди которых министры, президенты банков и телекомпаний, политики, дипломаты, журналисты, известные предприниматели. В институте часто проходят международные конференции и семинары, приезжают и выступают перед студентами известные люди: президенты и премьер-министры многих стран.

12. Muammoli topshiriqlarni bajaring.

A. Dam olish kunlaridan birini bo'lajak kasbingizga oid ma'lumotlar olish va kasbga doir ko'nikmalarni hosil qilishga bag'ishlamoqchisiz. Ushbi kunning rejasini tuzing va uni asoslab bering.

B. Sizga kun davomida ta'limga oid istalgan saytlardan cheksiz hajmda ma'lumotlar olish imkoniyati berildi. Bu imkoniyatdan qanday foydalangan bo'lardingiz? Fikringizni asoslab bering.

Konspekt yozish bo'yicha tavsiyalar

Konspekt – maqola, paragraf yoki bo'limning qisqa bayoni. Odatda, katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qayta ishlash zaruriyati bo'lganda konspektga ehtiyoj yuzaga keladi. To'g'ri tuzilgan konspektni o'qigandan keyin material xotirada oson tiklanadi.

Konspekt tuzishning asosiy qoidasi qisqa, lo'nda, mantiqiy izchil, qabul qilishga oson bo'lgan ma'lumotni yozishdan iborat. O'zida ko'chirma, tezislar, iqtiboslar, rejani mujassamlashtirgan konspektning sifati yuqori bo'ladi. Uning yordamida manbaning mazmunini hatto uzoq vaqtdan keyin ham xotirada tiklash mumkin.

Konspektni yozishdan oldin matnni to'liq o'qib chiqing. Undagi asosiy tushunchalar, g'oyalar, formulalarni ajrating. Matndagi bosh fikrni ilg'ash, undagi bog'liqliklarni topishga harakat qiling. Matnni aynan ko'chirmang. Fikrlarni o'z so'zingiz bilan, tushunarliroq qilib yozishga harakat qiling, misollar toping, materialning qismlarini qaytadan joylashtiring.

Konspektni yozishda turli sxemalarni qo'llash juda qulay. Ular matnning qismlari orasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishga yordam beradi. Sxemada tayanch so'zlar yoki jumlar vositasida tushunchaning mohiyatini ochib bering.

Konspektning tuzishda axborot oson va tez qabul qilinishi muhim. Buning uchun ko'rgazmali vositalar, shartli belgilar, so'zlarning tagiga chizish, marker bilan matnni ajratish kabi usullarni qo'llash mumkin. Shuningdek, shartli belgilar va qisqartmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

13. Garvard universitetining o'z talabalarini ruhlantiradigan tavsiyalarini o'qib chiqing. Ularni konspekt shaklida yozib oling.

Hozir uxlasang, albatta, orzularingni tushingda ko'rasan. Agar uyquning o'rniga o'qishni tanlasang, orzularingni hayotda ko'rasan.

Qachonki sen juda kech bo'ldi deb o'ylasang, aslida hali erta bo'ladi.

O'qish azobi — vaqtinchalik. Bilmaslik azobi — abadiy.

O'qish — bu vaqt sarflash emas. O'qish — harakat qilish.

Hayot faqat o'qishdan iborat emas. Hayotning mana shu qismini ham bosib o'ta olmasang, nimaga ham qodir bo'la olarding?

Qiyinchilik va tinimsiz harakatdan rohatlan.

Kimki hammasini erta qilsa, o'zining muvaffaqiyatidan haqqoniy rohatlana oladi.

Hammasiga ulgurish imkoniyati barchaga berilmagan, lekin muvaffaqiyat o'z ustida ishlovchi va muammolarni tezda hal qiladiganlarga keladi.

Vaqt uchadi. Hozirgi so'laging ertaga ko'z yoshi bo'ladi.

Agar sen bugun piyoda yurishni xohlamasang, ertaga yugurishga majbur bo'lasan.

Kelajagi uchun nimadir qiladigan odam realistdir.

Sening topadigan puling — olgan bilimning darajasiga proporsional.

Bugungi kun hech qachon qaytib kelmaydi.

Hozir hatto dushmanlaring zo'r berib kitoblarni varaqlamoqda.

Qiyinchiliklarsiz maqsadga yetib bo'lmaydi.

14. Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.



1. Quyidagi nomlarni o‘zbek tilida imlo qoidalariga binoan yozing.

Национальный университет узбекистана, ташкентский государственный аграрный университет, самаркандский институт экономики и сервиса, бухарский инженерно-технологический институт, андижанский машиностроительный институт, каршинский инженерно-экономический институт, ферганский политехнический институт, сингапурский институт развития менежмента в ташкенте, национальный институт художеств и дизайна, международная исламская академия, университет мировой экономики и дипломатии, ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы.

2. Savollarga javob bering.

O‘zbekistonda nechta oily ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda?

Mamlakatimizdagi eng keksa ilm dargohlari qaysilar?

Siz tanlagan soha bo'yicha mutaxassislar qaysi o'quv yurtlarida tayyorlanadi?

Siz o'qiydigan oily ta'lim muassasasi qaysi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi?

3. Berilgan sanalar asosida xorijiy universitetlarning O'zbekistonda ochilgan filiallari haqida ma'lumot tayyorlang.

2001-yil 28-mart

2002-yil 16-yanvar

2006-yil 24-fevral

2007-yil 12-yanvar

2007-yil 5-sentabr

2009-yil 27-aprel

2014-yil 2-oktabr

2018-yil 2-iyul

4. Matnni o'qing. Uning mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar toping. Matnga sarlavha qo'ying.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda oily ta'lim muassasalari soni 37tadan 90taga o'sdi. Ular jumlasiga xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlarining bir qator filiallari ham kiradi.

O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining aksariyati Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga, qolganlari esa tarmoq vazirliklariga qaraydi. Ularda ta'lim o'zbek, ingliz, rus, qoraqalpoq tillarida, ayrim yo'nalishlarda qozoq, tojik, turkman tillarida olib boriladi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul davlat grantlari hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Viloyat markazlarida poytaxtda faoliyat yuritadigan ba'zi oliy ta'lim muassasalarining filiallari mavjud. Ayrim o'quv yurtlarida

kunduzgi ta'lim bilan bir qatorda, sirtqi bo'limlar ham faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Milliy universiteti O'rta Osiyodagi birinchi oliy o'quv yurti bo'lib, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan tashkil qilingan. U 1918-yil 21-aprelda Turkiston xalq universiteti nomi bilan tantanali ochilgan. Ilk o'quv yilida 1200 nafar talaba qabul qilingan. Dastlab universitetda tabiiy-matematika, qishloq xo'jaligi, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, adabiyot-falsafa fakultetlari bilan bir qatorda, turli o'quv kurslari: elektromontyorlar, o'rmon texniklari, yet-suv qo'mitasi instruktorlari, avtomobil ishi, temir yo'l, chizmachilik, kooperatsiya, pedagogika, xorijiy tillar, maktabgacha tarbiya, tikish-bichish, etikdo'zlik kabi kurslar faoliyat ko'rsatgan. Talabalar ixtiyoriy ravishda qabul qilingan. Universitetning birinchi rektori etib G.N. Cherdansev saylangan. Talabalarga 78 nafar professor-o'qituvchilar ta'lim bergan.

1920-yilda ushbu ta'lim dargohi Turkiston davlat universiteti deb nomlanib, fakultetlar soni 8taga yetgan: ishchilar, qishloq xo'jaligi, texnika, tibbiyot, tarix-filologiya, ijtimoiy-iqtisodiy, fizika-matematika va harbiy fakultetlar.

1923-yildan 1959-yilgacha universitet O'rta Osiyo davlat universiteti, 1960-yildan 2000-yilgacha Toshkent davlat universiteti deb nomlangan. 1995-yilda universitetga Mirzo Ulug'bek nomi, 2000-yilda esa Milliy universitet maqomi berilgan. Shu davr mobaynida universitetdan 106 nafar akademik yetishib chiqqan.

O'tgan bir asr mobaynida respublikamizdagi o'nlab universitet va institutlar ushbu oliy dargoh zaminida paydo bo'lgan. Jumladan, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalaridan Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat

iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi va boshqalar O‘rta Osiyodagi birinchi universitetdan ajralib chiqqan fakultetlar negizida tashkil topgan.

5. “Ilm maskanimiz hayotidan” mavzusida matn tuzing.

6. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Образование признано в Узбекистане важнейшим инструментом национального развития. В 1997 году была принята Национальная программа по подготовке кадров – государственный документ, посвящённый кадровой политике в сфере образования. На образование в Узбекистане выделяется значительная часть бюджета.

Безусловно, система образования не существует и не может существовать вне общества. Образование – это своеобразное «зеркало общества», его продолжение и неотъемлемая часть, и, одновременно, основа прогресса и процветания.

Именно образование ответственно за наше будущее, именно образование является своеобразным «агентом будущего в настоящем», оно несёт ответственность за то, что сегодня происходит в обществе и то, что будет происходить в будущем!

7. Matnni o‘qing. Abituriyentlik davringizda oily ta’lim muassasasini qanday tanlaganingizni so‘zlab bering.

Akademik litseyda oxirgi yil o‘qir ekanman, qaysi oliy o‘quv yurtiga kirish haqida jiddiy o‘ylay boshladim. Ota-onam Toshkentda o‘qishimni maslahat berishdi. Men poytaxtimizdagi iqtisodiy

yo'nalislarda ta'lim beruvchi o'quv yurtlari haqida ma'lumot yig'a boshladim. Asosan topshiriladigan imtihonlar, o'tish ballari, mutaxassislarni tayyorlash darajasi haqida ko'proq bilishni xohlardim. Yana meni talabalar yotoqxonasiidagi sharoit qiziqtirardi. Asosiy ma'lumotlarni Internetdan qidirib topdim. Unda har bir oily ta'lim muassasasining sayti mavjud ekan. Bundan tashqari, turli forumlarda talabalar o'zlari o'qiydigan o'quv yurtlari haqida fikrlarini bildirishar ekan.

O'quv yilining oxiriga kelib, men bir qator o'quv yurtlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni bilib oldim va biz ularni oilamiz davrasida muhokama qildik. Uzoq tortishuvlardan keyin nihoyat Toshkent moliya institutiga hujjat topshirishimga qaror qilindi.

Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgach, men talaba bo'ldim. Birinchi ma'ruzadayoq men institutda o'qish oson emasligini his qildim. Bo'lajak kasbimizga oid ko'plab yangi so'z va iboralarni tushunish va eslab qolish, ma'ruzani tez konspekt qilish qiyin edi. Menga matematikani yaxshi bilishim yordam berdi, chunki bizning fakultetimizda matematika – asosiy fanlardan biri.

Yana bir muhim fanlardan biri – informatika. Bu kompyuterni, uning imkoniyatlarini, kompyuter dasturlarini o'rganuvchi fan. Men yoshligimdan kompyuterni yaxshi ko'raman, lekin informatika fanining murakkabligini birinchi semestr yakunida “qoniqarli” baho olganimda bildim.

Kursdoshlarim bilan birgalikda darslarga tayyorlana boshlaganimizdan keyin ish osonlashdi. Bilmagan, tushunmaganlarimizni bir-birimizga o'rgatdik, topgan yangi ma'lumotlarimiz bilan o'rtoqlashdik, darslik va adabiyotlarni topishda bir-birimizga yordam berdik.

Albatta, o‘quv dasturidagi fanlarning barchasi ham menga birdek yoqavermaydi. Menimcha, unda ortiqcha fanlar ham bor. Ba’zida eng yangi xorijiy ma’lumotlar yetishmaydi. Lekin bu muhim emas. Muhimi – men bo‘lajak kasbimni puxta egallash uchun hech qanday qiyinchiliklardan qo‘rqmasligim kerakligini tushundim.

8. “Bo‘lajak kasbim” navzusida insho yozing. Unda quyidagilarni yoritib:

- kasbingizning qisqacha tavsifi;
- kasb tarixi;
- kasbning ijtimoiy ahamiyati;
- kasbning boshqa kasblardan farqi;
- kasbda uchraydigan xavf-xatarlar;
- kasbga o‘rgatadigan o‘quv yurtlari.

Referat – (lot. *reffere* – ma’lum qilmoq) dastlabki manba mazmunining qisqa bayoni.

Referat “matn (maqola, hujjat, kitob)da qanday yangilik bor?” degan savolga javob berishi kerak. Referatning tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

- titul varag‘i,
- mundarija (reja),
- kirish,
- asosiy qism (bir necha bo‘limdan iborat),
- xulosa,
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Referat quyidagi maqsadlarda tayyorlanadi:

- 1) berilgan muammo bo‘yicha bildirilgan turli fikrlarni taqqoslash;
- 2) dastlabki manbada berilgan axborotni tahlil qilish va unga obyektiv baho berish;
- 3) biror-bir asosiy fikrni tasdiqlash yoki inkor qilish.


9. Referat bilan konspekning umumiy jihatlari va farqlarini jadvalda ko‘rsating.

<i>Referat</i>	<i>Konspekt</i>

10. Quyidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga o‘giring. Ularga tayangan holda “Kadrlarni tayyorlash – mamlakatimizning bosh vazifasi” mavzusida referat tayyorlang.

*кардинальное реформирование;
гармонично развитое, высокообразованное, современно
мыслящее подрастающее поколение;
совершенствующаяся система образования;
дошкольное, общее среднее, внешкольное, среднее
специальное, высшее, послевузовское образование;
квалифицированные кадры;
двухступенчатая система высшего образования;
профессиональные навыки;
современные педагогические технологии.*

11. O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilishga va rivojlantirishga xizmat qilgan qonun hujjatlari asosida berilgan klasterni to‘ldiring.





1. Savollarga javob bering.

Fan deganda nimani tushunasiz?

Qanday fanlarni bilasiz?

“Fanlarning onasi” deb nimaga aytiladi?

Ilm-fan qachon paydo bo‘lgan?

2. Berilgan qatorlarni davom ettiring.

Fan sohalari uch katta qismga ajratiladi:

- aniq fanlar:;
- tabiiy fanlar:;
- ijtimoiy fanlar:

3. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring. Fanning rivojlanish bosqichlarini jadval shaklida ifodalab, gapirib bering.

Fan – dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning *mahsuli* – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o‘zining o‘rganish predmeti hisoblangan *voqelik*ning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Fanning ilk *kurtaklari* kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda maydonga kelgan. Dastlabki bilimlar amaliy xarakterga ega bo‘lgan. Tafakkur tizimining kurtaklari *mifologiya* sifatida qadimgi Sharq va Yunonistonda paydo bo‘la boshlagan. Mifologiya fanga o‘tish *bo‘sag‘asida* ma’lum bosqich vazifasini bajargan. Rivojlanish davom etishi bilan mifologiya o‘rnini *naturfalsafa* egalladi. “Avesto”da mifologiya va fan *unsurlari* bor edi. Zenon, Demokrit, Aristotel va boshqa qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni goho birgalikda, goho ayrim-ayrim ravishda bayon etishga urina boshladilar. Dunyoni bir butun deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo‘ldi. *Ellinizm* davrida Yevklid, Arximed, Ptolemey tomonidan geometriya, mexanika, astronomiya sohasida dastlabki nazariy tizimlar yaratildi.

O‘rta asrda Sharq olimlari fanga ulkan hissa qo‘shdilar. Ular qadimgi fan yutuqlarini, ilmiy asarlarni saqlash, tarjima qilish va ularni tarqatish masalasiga katta e’tibor berdilar. Ayni vaqtda fanni yangi yutuqlar bilan boyitdilar, yangi kashfiyotlar qildilar. O‘rta Osiyoning buyuk olimlari ilm-fanning yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonun-qoidalarini kashf etdilar.

Yevropada Uyg‘onish davri arafasida, XII asr boshlaridan Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd va boshqalarning asarlari

lotin tiliga tarjima qilina boshladi. Leonardo da Vinchi, Rodjer Bekon, Tomas Gobbs, Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Iogann Kepler, Rene Dekart kabi olimlar tabiat haqidagi fanlarni rivojlantirdilar. *Astrologiya* o‘rnini astronomiya, *alkimyo* o‘rnini kimyo egalladi.

Yangi davr deb ataluvchi zamonda fanning ijtimoiy roli yanada oshdi. U madaniyatning muhim tarmog‘i va texnikaning nazariy asosiga aylana boshladi. XVI–XVII asrlarda klassik fizikaning *poydevori* qurildi. Fanning nazariya darajasiga ko‘tarilganligi tafakkurning *induktiv* va *deduktiv* rivojlanishiga yo‘l ochib berdi. Mavjud ilmiy faktlar Isaak Nyuton tomonidan dinamikaning asosiy qonuni sifatida ta’riflandi. Bu umumlashtirilgan qonundan XVI–XIX asrlarda xususiy *qonuniyatlar* kashf etildi. Mexanika fani mantiqiy rivojlanib, turli soha olimlari uning isbotlangan qonuniyatlaridan foydalana boshladilar.

Sanoatda tub o‘zgarishlar yuz berishi (XVIII asr oxiri) tufayli fanning taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. XIX asrda fizikada yangi fanlar (termodinamika, klassik elektrodinamika) paydo bo‘ldi, biologiyada evolutsion ta’limot va *hujayra* nazariyasi vujudga keldi, energiyaning saqlanish va o‘zgarish qonuni shakllandi, astronomiya va matematikada yangi konsepsiyalar rivojlandi. Geometriya sohasida inqilobiy ta’limot yaratildi: asrlar davomida hukm surib kelgan Yevklid geometriyasi yagona emasligi, balki noyevklid geometriyalar ham borligi isbotlandi. D. Mendeleyevning davriy tizimi har xil kimyoviy elementlar orasidagi ichki bog‘lanishni ifodaladi.

Matematika va fizikada XX asrda ham katta yutuqlar qo‘lga kiritildi, texnika fanlarida radiotexnika, elektronika kabi sohalar paydo bo‘ldi. *Kibernetika* vujudga keldi. Fizika va kimyo fanlaridagi muvaffaqiyatlar hujayralardagi biologik jarayonlarni yanada chuqurroq

o‘rganishga imkon berdi, bu hol qishloq xo‘jaligi va tibbiyot fanlarining rivojlanishiga olib keldi. Fanning ishlab chiqarish bilan yaqin hamkorligi yuz berib, uning ijtimoiy hayot bilan aloqalari mustahkamlana boshladi.

Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi

Har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri o‘zlashmalardir. Uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot davomida o‘zbek xalqi o‘zga xalq va millatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va lisoniy munosabatlarda bo‘lgan. Bunday aloqalar natijasida o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi yangi tushunchalar hisobiga yanada boyidi va boyib bormoqda. Ijtimoiy-siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar va h.k. natijasida u yoki bu til lug‘at tarkibida o‘zlashmalar paydo bo‘ladi. Terminlar o‘z tarkibiga tilda mavjud tub leksik birliklar, boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar, kalkalar, shuningdek semantik ko‘chish orqali hosil bo‘lgan terminlarni qamrab oladi.

O‘zbek adabiy tiliga kelib chiqishi nuqtayi nazaridan turfa va rang-barang so‘zlar o‘zlashgan. Hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos 81 elementlarning alohida miqdori mavjud. Masalan, *telefon, telegraf, traktor, tank, izotop, indikator, orden, bolt, arfa, ring, xokkey, departament, parlament, mina, import, eksport, antenna, armatura, prokuror, aerobus, avtobus, metro, ampermetr, motor, dizel, astronavi, mexanik, radiotexnik, proton, neytron, elektron* kabi ruscha-baynalmilal terminlar tarkiban o‘ta rang-barang bo‘lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san’atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlanuvchi terminlar qatlami o‘zbek tilining mulkiga aylangan.

Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o‘zlashtirish jarayoni o‘z faolligini saqlab qolmoqda. Ayni chog‘da, o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohalarini terminologiyasi tizimida o‘zbek tili qonunlariga bo‘ysungan holda muayyan qismi o‘zbek tilining so‘z yasovchi elementlari bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi ruscha-baynalmilal terminlar qo‘llanmoqda.

4. Berilgan terminlarni fan sohalari bo'yicha guruhlarga ajratib chiqing.

Antonim, apellatsiya, bedana, bioorganik modda, devalvatsiya, dorivor gilyohlar, ekotizim, element, farmakologiya, flegmatik, gidrotsefaliya, gravitatsiya, hol, hujjat rekviziti, ijtimoiy guruh, ilonbaliq, jarangli undoshlar, jinoyat, kinoya, klaviatura, layoqat, lola, makroiqtisodiyot, mikroorganizm, nikel, nodavlat tashkiloti, oksid, oq akula, partitura, pnevmatik qurol, qo'shma gap, qo'ziqorin, rezident, rele, salto, statistika, taqriz, tromb, ulgurji savdo, uyqu, valentlik, vodorod, xalq ertagi, xom ashyo, yalpiz, yo'lbars, zardushtiylik, zig'ir moyi, o'pka, o'rtacha harorat, g'azal, g'ijjak, shartnoma, shovinizm, chaqmoq, chorvachilik.

5. Matnni o'qing. Uni kengaytirib so'zlab bering.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi



O'zbekiston Fanlar akademiyasi – mamlakatning oliy ilmiy tashkiloti. Akademiya 1943-yil 4-noyabrda tashkil etilgan. T.N. Qori Niyoziy uning birinchi prezidenti etib saylangan. Akademiya tashkil topgan yili uning tarkibida 11 haqiqiy a'zosi, 18 muxbir a'zosi hamda 3 faxriy a'zosi bo'lib, 10ta ilmiy tekshirish institutini birlashtirgan. 210 ilmiy xodim, jumladan, 28 fan doktori va 80ga yaqin fan nomzodi ishlagan.

Akademiya tashkil topgan davrdan beri uning ilmiy tekshirish muassasalari xodimlarining soni, ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘lami va salmog‘i jihatidan katta tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Akademiya olimlari tabiat, jamiyat va insoniyat taraqqiyoti, millatlar, milliy madaniyatlar, davlat va milliy munosabatlarning rivojlanish muammolari, ta’lim va ma’rifat masalalari, liberallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari, mulkiy munosabatlardagi o‘zgarishlar, mehnatni rag‘batlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash muammolari, moliya-kredit, soliq va sug‘urta mexanizmini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati va kuchli demokratik davlatni shakllantirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib boradilar.

Akademiya olimlari fundamental tadqiqotlar ustida ishlash bilan chegaralanibgina qolmay, mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan zamonaviy asbob-uskunalar, tibbiy jihozlar, dori-darmon, foydali o‘simliklarning yangi navlari, qishloq xo‘jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi vositalar, shuningdek yer osti boyliklarini qazib olishning yangi texnologiyalarini yaratmoqdalar.

Fanlar akademiyasida ilm-fan sohasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan olimlar uchun Al-Xorazmiy (1992), Zahiriddin Muhammad Bobur (1993), H.M. Abdullayev (1993) nomida medallar ta’sis etilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidentlari:

T.N. Qori Niyoziy –1943–1947-yillar;

T.A. Sarimsoqov – 1947–1952-yillar;

T.Z. Zohidov – 1952–1956-yillar;

H.M. Abdullayev – 1956–1962-yillar;

U.O. Orifov – 1962–1966-yillar;

O.S. Sodiqov – 1966–1984-yillar;

P.Q. Habibullayev – 1984–1988-yillar;
M.S. Salohiddinov – 1988–1994-yillar;
J.L. Abdullayev – 1994–1995-yillar;
T.J. Jo‘rayev – 1995–2000-yillar;
B.S. Yo‘ldoshev – 2000–2006-yillar;
SH.I. Solihov – 2006–2017-yillar;
B.S. Yo‘ldoshev – 2017-yildan.

6. Quyidagi ta’riflarni o‘zbek tiliga o‘giring va davom ettiring.

Аннотация – краткая характеристика научной статьи или книги с точки зрения ее назначения, содержания, вида, формы и других особенностей.

Диссертация – научная работа, подготовленная с целью ее публичной защиты для получения ученой степени.

Автореферат – краткое изложение основных результатов диссертационной работы, составленное самим автором диссертации.

7. Mashhur shaxslarning fikrlarini o‘qing. Ularga misollar yordamida izoh bering.

“Kitobi yo‘q olim – mevasiz daraxt”. (*Sa’diy, fors mutafakkiri.*)

“Fanning ibtidosi – aql, aqlning ibtidosi esa sabr-toqatdir”. (*Efendi Kapiyev, dog‘istonlik yozuvchi.*)

“Ko‘p bilgan emas, bilimi manfaat keltiruvchigina donodir”. (*Esxil, qadimgi yunon dramaturgi.*)

“Olim qilmoqchi bo‘lgan ishini bajargani hamono unutsin va endi erta-yu kech yana qilishi lozim bo‘lgan ishini o‘ylasin”. (*Iogann Fixte, nemis faylasufi.*)

“Bahs va tortishuvlar uchun, boshqalarni nazarga ilmaslik, manfaat chiqarish, shuhrat, amal orttirish va o‘zga maqsadlar uchun emas, hayotga nimadir naf keltirish uchun ilmga intilmoq lozim”. (*Frensis Bekon, ingliz faylasufi.*)

Soha lug‘atlari

Zamonaviy o‘zbek terminografiyasining taraqqiyoti XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo‘lib, hozirgi kungacha o‘zbek tilida ilm-fan va texnikaning 50dan ortiq turli sohalari va tarmoqlari bo‘yicha 250dan ortiq terminologik lug‘atlar yaratilgan.

O‘zbek terminologik lug‘atlari fan sohaslarining deyarli barchasini qamrab olgan. Aniq fan sohalari kabi, ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida qo‘llanuvchi terminlarning ma‘no-mohiyatni ifodalashga yo‘naltirilgan lug‘atlar yetakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan tuzilgan. Terminologik lug‘atlarning aksariyati rus tilidan o‘zlashgan terminlarning o‘zbek tilida ifodalanishiga bag‘ishlangan. Baynalmilal so‘zlar lug‘atlari, tarix atamaları, yuridik atamalar, harbiy terminlar, iqtisodiy atamalar, soliq va bojxona atamaları, tilshunoslik tetrmnlari, adabiyotshunoslik terminlari, lingvomadaniyatshunoslik terminlari, biologiya atamaları, tibbiy terminlar, anatomik terminlar, harbiy terminlar, jo‘g‘rofiya atamaları va tushunchalari, fizika atamaları, kimyo atamaları, sug‘urta terminlari lug‘atlari shular jumlasidandir.

8. Matnni o‘qib, lug‘at turlari va ularning bir-biridan farqini o‘zbek tilida aytib bering.

Французский писатель Анато́ль Франс назвал словарь «вселенной, расположенной в алфавитном порядке». Словарь необходим, если не знаешь, как пишется то или иное слово. Но это не главное. Словари – это не только справочники, но и элемент национальной культуры: ведь в слове запечатлены многие стороны народной жизни. Всё богатство и разнообразие лексических

запасов языка собрано в словарях. Составление словарей – труд кропотливый и долгий.

Словари многочисленны и разнообразны. *Энциклопедические* словари описывают мир, объясняют понятия, дают биографические справки о знаменитых людях, сведения о странах и городах, о выдающихся событиях (войнах, революциях, открытиях).

Филологические словари содержат информацию о словах. Существуют разные типы филологических словарей. Большинству людей известны *двуязычные словари*: с ними мы имеем дело, изучая иностранные языки, переводя тексты с одного языка на другой.

Особенно разнообразны одноязычные словари. Сведения о правильном написании слов можно получить в *орфографическом словаре*, о том, как слово надо произносить – в словаре *орфоэпическом*.

Этимологические и *исторические* словари описывают происхождение слова, его путь в языке, все изменения, которые произошли с ним на этом пути.

Грамматические словари содержат информацию о морфологических и синтаксических свойствах слова.

Есть словари иностранных слов, терминологические, диалектные, словари языка писателей, словари речевых неправильностей и трудностей. Словарь может описывать не всю лексику языка, а какие либо группы слов: таковы *словари синонимов, антонимов, омонимов* или *паронимов*.

Этот перечень был бы неполон без двух типов словарей, имеющих наиболее давнюю лексикографическую традицию. Это *словари толковые* и *идеографические*. И в тех и других

описывается смысл слов. Но в толковом словаре слова расположены *по алфавиту*, а в идеографическом – *по группам*, которые выделяются на основании некоторых общих свойств вещей и понятий (например, таких: «человек», «животное», «действие», «физическое свойство» и т. д.).

Различные типы словарей разрабатываются в зависимости от того, кому они адресуются. Так, например, есть *словари академические*, которые содержат наиболее полную информацию о слове, и *учебные*, которые преследуют цель научить человека, овладевающего языком, правильно использовать слово. Есть словари, адресованные всем, рассчитанные на любого читателя и *словари-справочники*, предназначенные людям определённых профессий.

(А.Степанова.)

9. Bo‘lajak kasbingiz sohasida yaratilgan lug‘atlarning ro‘yxatini tuzib, jadval shaklida ifodalang.

10. Ilmiy darajalar haqidagi ma’lumotlarni bilib oling.

Bakalavr – dastlabki ilmiy daraja. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa universitetlarida ta’limning birinchi bosqichini tugallagan talabalarga berilgan. O‘zbekistonda 1997-yilda joriy etilgan. Oliy ta’lim muassasasining bakalavriyatini tugatganlarga bakalavr darajasi beriladi. Bakalavr diplomi kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

Magistr – tayanch oily ta’lim kursidan so‘ng qo‘shimcha dastur bajargan, maxsus imtihonlarni topshirgan va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga beriladigan ilmiy daraja. O‘zbekistonda 1997-yilda joriy etilgan. Magistraturani tugatgan shaxslarga Davlat malaka

attestatsiyasi yakunlariga ko‘ra beriladi. Magistr diplomi kasb-hunar va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

Falsafa doktori – barcha ilm sohalarida beriladigan ilmiy daraja. Ilk bor XII–XIII asrlarda Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiyada joriy etilgan. Termindagi “falsafa” so‘zi o‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan universitetlarning ko‘p tarmoqli falsafa fakultetlari nomidan olingan.

O‘zbekistonda sohalar bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasi 2017-yilda joriy qilingan. Ushbu ilmiy daraja turli sohalar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan izlanuvchilarga beriladi.

Fan doktori – yuqori ilmiy daraja. Dastlab Bolonya universitetida joriy etilgan. O‘zbekistonda 1934-yildan buyon mavjud. Hozir fan doktori ilmiy darajasi dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida beriladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda fan doktori ilmiy darajasini magistrlik darajasiga ega bo‘lgan va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslar olishi mumkin.

O‘zbekistonda fan doktori ilmiy darajasi oliy ta‘lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot instituti qoshidagi ilmiy kengash taklifiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosati qaroriga muvofiq falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lgan, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga beriladi.

11. “Soha rivojida fanning o‘rni” mavzusida referat yozing. Unda quyidagi masalalarni aks ettiring:

- bo‘lajak kasbingiz sohasida fanning qanday yutuqlari qo‘llanmoqda;
- sohada qanday ilmiy izlanishlar olib borilmoqda;
- sohaning rivojiga hissa qo‘shayotgan yetakchi va yosh olimlar, ularning faoliyati.



1. Berilgan soʻzlar ishtirokida soʻz birikmalari tuzing.

Futurolog, texnologiya, axborot, mahsulot, resurs, isteʼmolchilar.

2. Quyidagi soʻzlardan soʻz birikmalari yasang. Hosil boʻlgan birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Qishloq + xoʻjalik, nur + rentgen, elektr + yoʻnaltirish + kuch, kanal +kabel, aviatsiya + benzin, kuchaytirmoq + magnit, operatsiya + tizim, taʼlim + masofa.

3. Berilgan soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling. Ularning mazmunini tushuntiring.

Средства связи, система передачи и хранения информации, программно-технические средства, телекоммуникационные средства и системы, средства идентификации, локальные информационные вычислительные сети, информационные технологии, беспилотные летательные аппараты.

4. Matnni o‘qing. Shaxsiy kuzatishlaringizga tayanib, matndagi fikrni davom ettiring. Unga nom bering.

Yaqinda San-Xose shahrida tadbirkor va futurologlar (kelajakshunoslar) ishtirokida an’anaviy futurologik anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjuman yakunlariga ko‘ra, yaqin o‘n yil ichida yuzaga kelishi kutilayotgan texnologik yangiliklar aniqlandi.

Yaqin o‘n yil ichida Internetning yangi avlodi vujudga keladi. Sir emaski, Internet dastlab davlat va tijorat manfaatlaridan xoli bo‘lgan yagona erkin hudud sifatida yuzaga kelgandi. Ammo bugungi kunda Internet hayotimizning barcha jabha¹larini qamrab olgan yagona markazlashgan tizimga aylandi. Bu tizimdan nafaqat ezgu, balki turli qora niyatli kuchlar ham unumli foydalanmoqda. Biroq yaqin yillarda Internetning konsepsiyalari birmuncha o‘zgaradi. Uning xavfsizligini oshirish yuzasidan keng qamrovli ishlar qilinadi.

Ishlab chiqaruvchilar uchun Vikipediya tarmog‘i vujudga keladi. Mazkur onlayn ensiklopediya ma’lum vaqt mobaynida hukm surgan axborot monopoliyasini yo‘qqa chiqardi. Endilikda bugungi kunda mavjud barcha mahsulotlar haqida yagona markazlashgan axborot tizimi vujudga keladi. Shu tariqa monopoliya gigantlari “egardan” tushish²lariga to‘g‘ri keladi. Endi iste’molchi Internet tarmog‘i orqali istalgan korxonaning mahsuloti haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lib, unga buyurtma berishi mumkin.

3D-nashr qurilish tizimida inqilob³ yasaydi. U qurilish va ishlab chiqarishdagi eski qoliplarni butunlay yengib chiqadi. “Printerdan chiqarilgan uylar” mavjud inshootlardan keskin farq qiladi va u fantastik filmlardagi “kelajak uylari” haqidagi orzularni ro‘yobga chiqaradi.

¹ jabha – сфера

² “egardan tushish” – перен. «умерить спесь»

³ inqilob – революция

Penitensiar tizim¹ haqidagi tushunchalar ham o'zgarib ketadi. Mehnat vositasida davolash asosiy yo'nalishga aylanadi. Hatto mahbuslar ham o'z ishini yuritishi, izlanishlar olib borishi mumkin bo'ladi.

Moddiy boyliklar va tabiiy resurslardan foydalanish tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi, ulardan hamkorlikda foydalanish g'oyasi hayotga tatbiq etiladi. Deylik, kimdadir moddiy resurs (mashina, uy kabi) bo'lsa hamda boshqa birov undan vaqtincha foydalanish uchun ma'lum miqdorda to'lov to'lashga rozi bo'lsa, har ikki kishi o'zaro kelishgan holda bu resursdan umumiylikda foydalana oladilar. Bunday tizim orqali ijaraga olingan turar-joylar, avtomashinalar ana shu sohaning ilk ko'rinishlari sanaladi. Tadqiqotlarga ko'ra odamlar ham, tijorat subyektlari ham o'zlaridagi moddiy resurslarning o'rtacha o'n foizidan to'liq foydalanishar ekan.

Jamoatchilik va xayriya munosabatlari oldindan to'lash tizimi hisobiga rivojlanadi. Masalan, ayrim qahvaxonalarda siz o'zingizdan keyin kelishi mumkin bo'lgan notanish mijoz uchun to'laysiz. Sizni esa bu qahvaxonaga sizdan avval kelgan mijoz to'lab ketgan pul evaziga mehmon qilishadi. Bunday usul xayriya maqsadlarini amalga oshirishda ancha qiziq va maqbul ko'rinadi.

Masofadan turib ishlash odatiy ko'rinish kasb etadi. Frilanser (erkin jurnalist)lar soni tobora oshib boradi. Futurologlar fikricha, masofadan turib ish bitirish afzalliklarini insoniyat to'la-to'kis anglab yetadi. Odamlar o'rtasidagi masofaning ahamiyati qolmaydi.

Yer mikroflorasining global xaritasi tuziladi. Shu tariqa bizning ekotizim haqidagi qarashlarimiz ham o'zgaradi. Agar bunday loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, sayyoramiz aholisining turli hayot

¹ penitensiar tizim – пенитенциарная система (система наказаний)

darajasi haqidagi tasavvurlari o'zgaradi. Bakteriyalarni o'rganish darajasi yanada rivojlanadi.

5. Savollarga yozma ravishda javob bering.

Matnda qaysi sohalardagi innovatsiyalar tilga olingan?

So'nggi yillarda ta'lim sohasida qanday innovatsiyalar joriy qilindi?

Sizning bo'lajak kasbingiz sohasida qanday innovatsiyalar kiritilmoqda? Misollar keltiring.

6. Qavs ichidagi so'zlarni o'zbek tiliga o'girib, ta'riflarni to'ldiring.

Novatsiya (lotincha “*novatio*”) – har qanday (новшество) yoki (изменение) bo'lib, (деятельность) ning natijasida aks etadi.

Innovatsiya – (передовой) texnika va texnologiya, (управление) va boshqa sohalardagi (нововведения) va ularning turli sohalarda qo'llanishi. Innovatsiya muayyan (процесс) yoki (продукция) sifatining (требование рынка) bilan o'sishini ta'minlaydi.

7. O'ylab ko'ring va fikringizni bildiring.

XX asrda nimalar ixtiro qilindi?

Bu ixtirolar insoniyat hayotiga qanday ta'sir o'tkazdi?

Siz XXI asr oxiridagi hayotni qanday tasavvur qilasiz?

8. Quyidagi so'zlarning mazmunini izohlang yoki sinonimlarini toping. Ularni kelib chiqishi bo'yicha guruhlang.

Maishiy texnika – ...

Elektron hamyon – ...

Robototexnika – ...

3D printer – ...
Elektromobil – ...
“Aqlli uy” – ...
Virtual sayohat – ...
Biotexnologiya – ...
Quyosh batareyalari – ...
Nanokiyim – ...

Ilmiy-texnikaviy leksika

Fan va ishlab chiqarish sohalarining har biri o‘z terminologiyasiga ega. Ishlab chiqarish, texnika va texnologiyalarga oid terminologiya bir ma’noiligi, sinonimlarning kamligi, uslubiy betarafligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ilmiy-texnikaviy terminlar hamda tushunchalar axborot tashish, aniqlik, obyektivlik, tushunarlilik kabi xususiyatlarga ega.

O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy leksikasi etimologiyasi bo‘yicha quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- 1) kelib chiqishi o‘zbekcha bo‘lgan terminlar (*sanoat, tog‘ tizmasi, butlovchi uskuna* kabi);
- 2) boshqa tillardan o‘zlashtirilgan terminlar (*antenna, kompyuter, magniy sulfat* kabi);
- 3) aralash terminlar (*zanjirli reaksiya, elektr quvvati, axborot texnologiyalari* kabi).

Ilmiy-texnikaviy mazmundagi matnlar maxsus terminlarga boy bo‘ladi. Unda fikr aniq va ravshan bayon etiladi, emotsional-ekspressiv vositalar qo‘llanmaydi. Asosiy urg‘u mantiqiylikka beriladi.

9. Suhbat matnini tuzing.

Tasavvur qiling, sizda o‘tmishda yashab o‘tgan mashhur olim bilan suhbat qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Siz unga bugungi hayot haqida nimalarni gapirib bergan bo‘lar edingiz? Nutqingizda ilmiy-texnikaviy leksika va uning xalq tilidagi muqobillaridan foydalaning.

10. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.

Вещи, изменившие нашу жизнь

Французские ученые опубликовали список изобретений XX века, которые, по их мнению, изменили жизнь человечества. Исследователи подсчитали, что таких изобретений около тридцати. Список открывает самолёт, придуманный американскими братьями Райт в 1903 году. На втором месте – начало серийного производства автомобилей «Форд» в 1908 году. Особо исследователи отметили заслугу перед человечеством Оскара Леви-Страуса, создателя легендарных джинсов. Также к наиболее значительным изобретениям ушедшего века учёные отнесли и кока-колу, массовое производство которой началось в 1915 году, и жевательную резинку – 1917 год.

По мнению социологов, жизнь человека заметно изменилась с появлением в 1919 году домашнего холодильника, а в 1926 году – телевизора.

В 1924 году был начат массовый выпуск сигарет. Сегодня в мире насчитывается 1,2 миллиарда курильщиков, то есть практически каждый третий взрослый страдает никотиновой зависимостью. А от болезней, вызванных курением, каждый год умирает 3 миллиона человек.

Среди изобретений XX века учёные выделяют также виниловую музыкальную пластинку (1928 год), нейлон (1937 год) и шариковую ручку (1940 год). С 1945 года начинается эра компьютерной техники. Изобретением 1947 года исследователи назвали автомат Калашникова. Кроме того, в XX веке были изобретены: детские памперсы, мобильные телефоны, пластиковые кредитные карты, открыт секрет клонирования...

(Ю.А.Кумбашева.)

11. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing va eslab qoling.

Ertalab soat 6dan 7gacha insonning davomli xotirasi yaxshi ishlaydi, olingan barcha axborotlar ushbu vaqt oralig'ida oson o'zlashtiriladi.

Soat 8dan 9gacha mantiqiy fikrlash kuchayadi, bu bir yo'la eslab qolish va tahlil qilish bilan bog'liq har qanday faoliyat uchun eng qulay vaqt.

9dan 10gacha – axborot va statistika bilan ishlash uchun eng maqbul payt.

11dan 12gacha aqliy funksiyalarning samaradorligi pasayadi, bu vaqtda biror nimaga, masalan, musiqaga chalg'ish oson.

11dan 14gacha tushlik uchun eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Bu soatlarda ovqat hazm qilish eng yuqori nuqtasiga chiqadi. Yeyilgan taom tez va yaxshi hazm bo'ladi.

12dan 18gacha – faol mehnat vaqti. Undan keyingi mehnat miyani zo'riqtiradi. Buning birinchi belgisi – uyqusizlik.

Soat 21dan 23gacha miya va asab tizimini dam oldirish uchun eng yaxshi vaqtdir.

Soat 23dan tungi soat 1gacha, uyquda nozik energiya, asab va mushaklar kuchi tez tiklanadi. Yana ayni shu vaqtda serotonin – “baxt gormoni” ishlab chiqiladi. Bu paytda uxlamasa, osongina depressiyaga tushib qolish mumkin.

Tungi soat 1dan 3gacha, uyquda insonning emotsional quvvati tiklanadi.

12. Dunyoda yaratigan so'nggi innovatsiyalar haqida elektron taqdimot tayyorlang.



1. Savollarga javob bering.

Siz o‘zingizning fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?

Qonunlar kim tomonidan va qanday ishlab chiqiladi?

Nima uchun qonunlarga amal qilish kerak?

“Huquqiy madaniyat” deganda nimani tushunasiz?

Qonunlar kim tomonidan targ‘ib qilinadi?

Internetda qonunlarni qaysi saytlardan o‘rganish mumkin?

2. Berilgan so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Демократическое правовое государство, справедливое гражданское общество, правовая система, правовое сознание, правовое образование, реформы правовой системы, правовое воспитание, социальная справедливость, социальная активность, совершенствование законодательства.

3. Ushbu parcha qaysi qonundan olinganini aniqlang. Uning asosoy mazmunini gapirib bering.

11-modda. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashda ta'lim muassasalarining ishtiroki

Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, shuningdek kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shuningdek tarkibida ta'lim muassasalari bo'lgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan huquqiy axborot bilan ta'minlanadi.

Ta'lim muassasalari:

o'z faoliyatining yo'nalishiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi;

ta'lim oluvchilarning huquqiy axborot fondidan foydalanishini ta'minlaydi;

ta'lim oluvchilarning so'rovlariga ko'ra huquqiy axborotni taqdim etadi.

Ta'lim muassasalari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlashda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin.

4. Quyidagi ta'riflarni eslab qoling.

Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha.

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari,

shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosidir.

Qonun – inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.

5. Maqollarning mazmunini tushuntiring.

Adovat emas, adolat yengar.

Adolat qilichi kesgan qo‘l og‘rimas.

Vijdondan kechgan yiqilar.

Noinsofga erk bersang, elni talar.

Odil kishi oyday, oqib turgan soyday.

Pora do‘zax eshigini ochar.

Poraxo‘rning tavbasidan qo‘rq, mug‘ombirning – yig‘isidan.

Poraxo‘rning qo‘li to‘rtta, ko‘zi – beshta.

Xatoning yo‘ldoshi – jazo.

6. Izohli lug‘at yordamida quyidagi tushunchalarning farqini ifodalab bering.

Huquqiy munosabatlar, huquqiy davlat, huquq layoqati, huquq manbalari, huquqiy yordam, huquqiy javobgarlik, huquqiy ong, huquq obykti, huquq subyekti.

7. Matnni o‘qing. Uning mazmuni bo‘yicha reja tuzib, gapirib bering.

O‘zbek xalqida “Huquqini bilgan qoqilmas” degan naql bor. Ayni topib aytilgan bu gap zamirida huquqiy savodxonlik inson hayotida naqadar ahamiyatli ekani, har bir xatti-harakatimiz qonunga bog‘liqligi

aks etgan. Jamiyatda har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetuk bo‘lishi bugungi zamon talabidir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chinakam qonun ustuvor bo‘lgan joydagina inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ta‘minlanadi, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolat qaror topadi.

Ma‘lumki, fuqaro uning ishida, kundalik turmushida va o‘z oilasida huquqiy bilimlarning eng kam qismidan foydalanadi. Bu bilimlar, odatda, konstitutsiya, mehnat, oila, fuqarolik, tadbirkorlik huquqlariga tegishlidir. Fuqarolarning keng yuridik bilimlarga ega bo‘lishlari ham huquqiy madaniyatning yuqori darajasini anglatmaydi.

Huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlarni, balki ularni qo‘llay olish va huquqiy faollikni namoyon qilish mahoratini o‘zida mujassamlashtiradi. Huquqiy madaniyat – bu qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta‘minlash va har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki, shuningdek bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an‘analarga va huquqiy bilimlarga bo‘lgan munosabatlari belgilaydi.

Shaxsning ichki madaniyati uning tashqi odobini ko‘rsatadi.

Huquqiy madaniyat egasi bo‘lgan kishi jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, jamiyatni boshqarishda o‘zining huquqiy malaka va bilimlarini ishga solib, faol qatnashadi.

8. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nosini izohlang.

Sharqda “*odil podsho*” tushunchasi qadim-qadimdan mavjud va xalq ana shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ana shunday podsho bo‘lishga intildi. “*Kuch – adolatda*” so‘zlari Amir Temur uzugiga *o‘yib yozilgan* va davlat muhrida ham aks etgan

edi. “Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, – deb yozgandi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida. Bu – *saltanat shiori*. Sohibqiron bunga qattiq amal qilardi. Adolatning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo‘yib, *mag‘ribdan mashriqqacha* borsa, hech kim unga qo‘l cho‘zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

U har qadamda, xoh o‘zining farzandlari bo‘lsin, xoh boshqa fuqaro – barchaga birday adolat ko‘zi bilan qarardi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o‘zi bozorni tekshirar, agar *qassob-u baqqol*, novvoylar va hokazolar foyda topaman deb narx-navoni oshirib yuborgan bo‘lsalar, *adolat rusumi* buzilganini ko‘rsa, el oldida ayovsiz o‘sha gunohkorning jazosini berardi. Yolg‘on gapni yomon ko‘rardi. *Adolat tamoyillarini* buzgani uchun o‘g‘li amirzoda Mironshoh, nabiralari amirzoda Pirmuhammad, Sulton Husayn Mirzolar jazolanganlari tarix kitoblaridan ma‘lum.

Muarrix¹ Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”da Amir Temurning 1366-yilda, hali davlat taxtiga chiqmasdan to‘rt yil avval aytgan shunday so‘zlarini keltiradi: “Qaysi bir podshoh o‘z ishini g‘addorlik² va bevafoqlik asosiga qursa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi... Biz o‘z *saltanatimizni* odamlarga e‘tibor berish va ularni himoya qilish asosiga qurayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz...”.

Odamlarga, demak xalqqa e‘tibor berish va himoya qilish – Sohibqiron adolatining bosh o‘zagini tashkil qilar edi.

Hamma joyda amalda bo‘lgan “Kuch – adolatda” shiori butun Turon davlati hududida *axloqiy va ma‘naviy mezon*ga aylandi.

(*Muhammad Ali.*)

¹ muarrix – *устар*. историк, летописец

² g‘addorlik – коварство, вероломство

9. “Temur tuzuklari”ni o‘qib, undagi adolat tamoyillari haqida matn tuzing.

Huquqiy terminologiya

Qonun tilining leksikasi o‘ziga xos rang-barangligi bilan o‘zbek tili lug‘at qatlamida salmoqli o‘rin tutadi. Qonunchilikda qo‘llanadigan so‘zlar, terminlar rasmiylik bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. Bunday lug‘aviy qatlam yurisprudensiya tarmoqlariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Jinoyat va jazo tushunchalarini bildiruvchi yuridik terminlar: *bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, retsidiv jinoyat, genotsid, terrorizm, josuslik, qo‘poruvchilik, tuhmat va h.k.*

2. Jinoyat protsessi bilan bog‘liq yuridik terminlar: *yuzlashtirish, ko‘zdan kechirish, eksperiment, ekspertiza, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv, sud tergov, hukm, apellatsiya tartibida ish yuritish, dalillar va h.k.*

3. Fuqarolik huquqiga oid tushunchalarni bildiruvchi yuridik terminlar: *mulkiy munosabatlar, xususiy mulk, mulk huquqi, majburiyat huquqi, intellektual mulk, vorislik huquqi, shartnoma, bitim, vasiylik, homiylik, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, vakillik, kafolat va h.k.*

4. Fuqarolik protsessi bilan bog‘liq yuridik terminlar: *taraf, taraflarning tortishuvi, da‘vo qo‘zg‘atish, kassatsiya tartibida ish ko‘rish, taraflarning o‘zaro kelishuvi, da‘vog‘ar, javobgar, muomala layoqati va h.k.*

5. Davlat qurilishi va boshqaruviga oid yuridik terminlar: *suverenitet, davlat, davlat ramzlari, davlat gerbi, davlat bayrog‘i, davlat madhiyasi, konstitutsiya, respublika, hokim, hokimlik, Vazirlar Mahkamasi, saylov, senator, spiker, qonunchilik palatasi, referendum, parlament va h.k.*

10. Berilgan matndan huquqiy terminlarni ajratib yozing. Ularning izohini keltiring.

Konstitutsiya lotincha “*constitution*” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘rnataman” degan ma‘noni anglatadi. Lotinchadan olinganining sababi, qadimgi Rim imperiyasi davrida davlat boshlig‘i – imperatorlar tomonidan xuddi shu nom bilan ataladigan va qonunga teng bo‘lgan normativ hujjatlar qabul qilingan. Hozirgi kundagi “Konstitutsiya” tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo‘lgan. Dunyoda birinchi

konstitutsiya sifatida 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasi tan olinadi. Konstitutsiya – bu prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy normalarni o‘zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me‘yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo‘lib, unda davlatning qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi – davlat bilan aholi o‘rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir.

Konstitutsiyani qabul qilish tartibi oddiy, joriy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Yangi konstitutsiyalar odatda yangi davlat vujudga kelganda, mamlakat siyosiy tuzumi o‘zgarganda, davlatchilik rivojida jiddiy tub o‘zgarishlar ro‘y berganda qabul qilinadi.

11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi haqida suhbat matnini tuzing. Unda huquqiy terminlardan foydalaning.

12. Berilgan gaplardan bog‘lanishli matn hosil qiling. Huquqiy terminlarning tagiga chizing.

1. Shaxsiy huquqlarga yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, turarjoy daxlsizligi huquqi, erkin ko‘chish huquqi, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqi, vijdon erkinligi huquqi kiradi.

2. Bu huquqlar tabiiy huquqlar va davlat tomonidan qonuniy asosda kafolatlangan huquqlarga bo‘linadi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga mulkdor bo‘lish huquqi, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy ta‘minot xizmatlari, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, bilim olish huquqi kiradi.

4. Inson huquqlari – odamlarning insonlik sha‘n-u sharafiga munosib tarzda yashashi va faoliyat olib borishi uchun lozim bo‘ladigan haq-huquqlar majmuini ifoda etadigan tushuncha.

5. Tabiiy huquqqa yashash huquqini misol qilib keltirish mumkin.

6. Inson huquqlari har bir davlatning Konstitutsiyasi hamda amaldagi qonunlarida belgilanib, ular shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarga bo‘linadi.

7. Siyosiy huquqlarga davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi, mitinglar, yig‘inlar va namoyishlar o‘tkazish, ularda qatnashish huquqi, kasaba uyushmasi, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlarga birlashish huquqi kiradi.

8. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

9. Davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarga saylov huquqi, bilim olish huquqi, nafaqa olish huquqi kabi insoniy huquqlar kiradi.

10. Inson huquqlari insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda orzu-intilishlarini tavsif etadigan tushuncha sifatida ham namoyon bo‘ladi.

13. Matnni o‘qing, uning mazmunini o‘zbek tilida ifodalab bering.

Законы Хаммурапи

В начале XX века французская археологическая экспедиция, производя раскопки в городе Сузы (к востоку от *Вавилона*, одного из крупнейших городов Древнего мира), обнаружила базальтовый столб, со всех сторон покрытый клинописью (*клинопись* – способ письма путём выдавливания на глине комбинаций клиновидных чёрточек. Это наиболее ранняя из известных систем письма.

Самые старые письменные документы, найденные на раскопках древнего города Урук, относятся к 3300 г. до н.э. Эта уникальная находка была открытием древнейшего на земле свода законов Хаммурапи. Он был составлен по приказу вавилонского царя Хаммурапи (ок. 1793–1750 гг. до н.э.) – царя Вавилона, из I Вавилонской (аморейской) династии, в 35-й год его правления и

послужил основой вавилонского права на долгое время. Хаммурапи был искусным политиком и полководцем, с его именем связано возвышение Вавилона.

Законник Хаммурапи состоит из пролога, 282 статей и эпилога. Полностью сохранилось 247 статей.

В законах Хаммурапи уделялось особое внимание укреплению власти рабовладельцев над рабами, частной собственности вообще и охране интересов царских служилых людей. В кодексе Хаммурапи принимается, хотя и не всегда последовательно, принцип вины и злой воли. Например, устанавливается различие в наказании за преднамеренное и нечаянное убийство. Но телесные повреждения карались по восходящему к глубокой древности принципу “око за око, зуб за зуб”.

Защищая бедных от богачей, Законы Хаммурапи установили предельный срок долгового рабства – 3 года. Они запрещали отбирать для покрытия долга не только землю, но и урожай. Каждые 10–15 лет Хаммурапи и его преемники «указами справедливости» освобождали долговых рабов и кассировали часть долгов вообще. Тем не менее, эти Законы отнюдь не устраняли сословной неравноправности. В некоторых статьях законов в определении наказания отчётливо выражен классовый подход. В частности, предусматривались суровые кары для рабов, которые отказывались подчиняться хозяевам. Человек, укравший или укрывший чужого раба, карался смертной казнью. Если врач был виновен в неудачной операции над “сыном мужа”, то он карался отсечением руки, если от такой же операции пострадал раб, необходимо было лишь уплатить хозяину стоимость этого раба.



(<http://www.kraeved-samara.ru>)

14. Huquqiy bilimlaringizni sinash uchun o‘quv guruhingizda quyidagi viktorinani o‘tkazing.

1. Respublikamizning inson huquqlarini kafolatlovchi eng asosiy huquqiy hujjati qaysi?

2. O‘zbekistonning inson huquqlariga doir qanday huquqiy hujjatlari mavjud?

3. Erkinlik nima? Huquq nima?

4. O‘zbekiston fuqarolari necha yoshdan saylash huquqiga ega?

5. Qonunga ko‘ra necha yoshdan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi?

6. 18 yoshga to‘lmagan xodimlarning ish vaqtini aniqlang.

7. Jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar, normalar majmui nima deb ataladi?

8. Mamlakatda davlatni bevosita boshqarib turuvchi, farmon beruvchi va ijro etuvchi oliy organ qaysi?

9. Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar yuzasidan umumxalq fikrini olish uchun nima o‘tkaziladi?

10. Mavjud barcha qabul qilingan qonunlar va me‘yoriy hujjatlarning yig‘indisi bir so‘z bilan nima deb ataladi?

11. Advokat kim?

12. Huquq-tartibot organlarini sanab bering.

13. Sizning bo‘lajak kasbingiz sohasini qaysi qonun hujjatlari tartibga soladi?

14. Detektiv janrda ijod qilgan yozuvchilardan kimlarni bilasiz?

15. Qaysi mashhur detektiv asarlarning qahramonlarini bilasiz?

15. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” haqida taqdimot tayyorlang.



1. Quyidagi ta'rifni eslab qoling.

Iqtisodiyot tushunchasi quyidagi ma'nolarni ifodalashda qo'llanadi:

1) kishilar mehnati vositasida inson uchun zaruriy bo'lgan moddiy ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, shuningdek hayotiy ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan vositalar, obyektlar, jarayonlar majmui. Iqtisodiyot umumiy tarzda ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi;

2) muayyan mamlakatning milliy xalq xo'jaligi yoki uning ma'lum tarmog'i (transport iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqalar);

3) xo'jalikning muayyan tarmog'ini, shuningdek mintaqa xo'jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etishning usul va shakllarini, uni boshqarishni o'rganadigan fanlar yo'nalishlari (sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti va boshqalar).

2. Berilgan so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Банковские операции, балансовая стоимость, облагаемый пошлиной, рыночная стоимость, уполномоченный банк, обменный курс валюты, подоходный налог, экономическая политика, денежный перевод, сертификат качества, налоговая декларация, внешнеторговый товарообмен, компенсационные выплаты, долгосрочный кредит.

3. Quyidagi terminlarning izohini lug‘atdan topib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Daromad, budjet, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, marketing, bandlik, iqtisodiy samaradorlik, konvertatsiya, kriptovaluta, devalvatsiya, ijtimoiy ta’minot, savdo balansi, inflatsiya, iqtisodiy o‘shish, moddiy ehtiyojlar, soliq, barter, rebrending.

4. Matnni o‘qing, unga nom bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’nosini izohlang. Matnga munosabat bildirib so‘zlang.

Ko‘pchilikdan “Iqtisod qanday soha?” deb so‘rasam, “hisob-kitob qiladigan soha”, degan javob olaman. Albatta, iqtisodni hisob-kitobsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin iqtisod – *ijtimoiy fan*. U *jamiyatshunoslikning* bir qismi.

Iqtisod faniga darsliklarda keltirilgan ta’rifni chetda qoldirib, keling, unga oddiy tavsif berishga urinib ko‘ramiz.

Iqtisod – jamiyatning hamma a’zolari uchun farovon hayot yaratish usul va vositalarini o‘rganadigan va amalda qo‘llaydigan soha. Iqtisodning yagona maqsadi – jamiyatning har bir a’zosi uchun yaxshi *turmush tarzini* yaratish. Ana shu asosiy maqsaddan boshqa ikkilamchi

maqsadlar kelib chiqadi: iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish, barchani ish bilan ta'minlash va hokazo.

Ko'pchilik orasida yana bir xato tushuncha bor: iqtisod asosida pul turadi. Yo'q, iqtisod asosida manbalar (resurslar) turadi – pul ularning harakatini ta'minlovchi vosita, xolos. Savdo – iqtisodning katta qismi, lekin u iqtisodning asosi emas. *Ibtidoiy jamoada* savdo bo'lmagan. Odamlar o'z ehtiyojlarini qoplash uchungina mehnat qilishgan. Jamoa orasida shu jamoa ehtiyojlarini qondirish uchun *mehnat taqsimoti* bo'lgan: ayollar nasl tarbiyasi va termachilik¹ bilan shug'ullangan bo'lsa, erkaklar ov va jamoa xavfsizligini ta'minlash bilan band bo'lgan. Bunday iqtisodda pul kerak bo'lmagan va iqtisod tabiiy qonunlar asosida qurilgan. Oziq-ovqat, *boshpana* va yashab *nasl qoldirish* uchun ishlaydigan iqtisod tabiiy iqtisoddir.

Pulga (yoki uning o'rnini bosadigan narsaga) zarurat natijasida topilgan mahsulotlar *birlamchi* ehtiyojlarni qondirib, ortib qolganda paydo bo'lgan. Qishloq xo'jaligi rivojlangan sayin, yetishtirilayotgan mahsulot ko'payib borgan. Bir *qabilada* ortiqcha bug'doy to'planib qolsa, boshqasida ortiqcha meva-sabzavotlar yig'ilgan. Ikki qabila o'rtasida shu mollarni ayirboshlash (barter) boshlangan.

Bu jarayon jamoa o'rtasida ijtimoiy tabaqalanish²ga olib kelgan. Endi savdo orqali boshqalarga nisbatan ko'proq manbaga (resursga) ega bo'ladigan odamlar paydo bo'lgan. Bunda tabiiy resurslar odamlarning nafaqat tabiiy ehtiyojlarini, balki ijtimoiy talablarini ham qondirishga safarbar qilingan. Mana shu bosqichda ijtimoiy iqtisod yuzaga kelgan.

Siz bilan biz o'rganadigan iqtisod – *ijtimoiy iqtisod*. To'g'ri, bugungi iqtisod ibtidoiy tuzum iqtisodidan ancha murakkab. Lekin uning asosida o'sha minglab yillar avvalgi iqtisodni boshqargan *qonuniyatlar* va

¹ termachilik – сбор, добывание фруктов и корнеплодов

² ijtimoiy tabaqalanish – расслоение общества

tamoyillar yotadi. Shunday ekan, iqtisodni tushunish uchun biz juda oddiy tushunchalar va misollardan foydalanamiz. Axir, tabiatan hammamiz iqtisodchimiz.

(*iqtisod.uz.*)

5. Berilgan tahliliy ma'lumotni o'qing. Ular asosida matn tuzing.

Germaniya iqtisodiyoti qanday kuchaygan?

Qanday qilib Germaniya 80 yil ichida ikki marta jahon urushlarida mag'lub bo'lgan holda jahonning eng iqtisodiyoti rivojlangan davlatlaridan biriga aylana oldi?

Keyt Xauzer, siyosatshunos:

– Germaniyada 30 yildan buyon yashayotgan amerikalik sifatida ta'kidlashim mumkinki, nemislarning o'ziga xos fe'l-atvori ularning iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatga erishishlariga sababchi bo'ladi.

1. *Ishni to'g'ri tashkil etish.* Nemislarni qisqa muddatli emas, uzoq muddatli samaradorlik qiziqtiradi. Germaniyada maosh darajasi yuqori bo'lsa-da, aksariyat nemis kompaniyalari jahon miqyosida raqobat qilishga qodir, chunki ular o'ta puxtalik bilan ish olib borishadi.

2. *Maorifga katta e'tibor qaratish.* Bolalarga katta talablar qo'yiladi: Yaponiyadagi singari bu mamlakatda ham farzandlarining maktabda yaxshi o'qishlarini kutishadi, agarda ularning o'zlashtirishi sust bo'lsa, shu zahoti repetitor yollashadi.

3. *O'zaro kelishuvning muhimligi.* Qarorlar chiqarishda rahbarlar bilan birga oddiy xodimlar ham ishtirok etishadi. Nemis rahbarlari qo'l ostidagi xodimlarini erishgan muvaffaqiyati uchun munosib rag'batlantirish orqali ularning mehnat qilishga bo'lgan ishtiyoqlarini

o'shirishadi. Ular bir-birlari bilan xuddi hamkorlardek munosabatda bo'lishadi.

4. *Og'ir vaziyatlarda o'z manfaatlarini jamiyat manfaati uchun qurbon qilishga tayyor turish.* Nemislar oxir-oqibat qurbonliklari jamiyat kelajagi uchun xizmat qilishini yaxshi bilishadi. Mamlakatda korrupsiya va jinoyatchilik darajasi juda past.

Anton Tarasenko, iqtisodchi:

– Yevropaning aksariyat mamlakatlari Ikkinchi jahon urushidan so'ng tez tiklandi. Xususan, Germaniya ham... Qaysi davlatda texnologiyalar va tashkilotlar saqlanib qolgan bo'lsa, urushdan so'ng shu davlat tezda o'ziga kelib olishi mumkin. Bir yil ichida urush davrida vayron bo'lgan zavod-fabrikalarni tiklash mumkin, biroq buni qanday amalga oshirishni bilish lozim. Germaniya esa bilardi. XX asr boshlarida u texnologik rivojlangan davlat edi.

Leit Ishark, makroinvestor:

– Germaniya tavakkal qilishni yaxshi ko'radi. Lekin yana bir qiziqarli holat borki, buni urushda mag'lub bo'lgan va “g'olib davlatlar”ni taqqoslaganda ko'rish mumkin.

Germaniya va Angliyaning madaniyati hamda ma'naviy qadriyatlarini o'zaro taqqoslaganda jamoaviy ruh, jamoatchilik hissi borasida bu ikki mamlakat o'rtasida katta farq borligini ko'rasiz.

Angliyada jamiyat manfaati shaxsiy manfaatdan ustunligi haqida og'iz ochsangiz, kinoyali javob eshitasiz, sizni bu yerda hech kim tushunmaydi. Menimcha, Germaniyada bu g'oyani nafaqat tushunishadi, balki unga amal qilishadi. Ularning futbol jamoasi g'olib bo'lishiga ko'plab sabablar bor, lekin buning sababi, birinchi navbatda, o'yinchilar o'zlarini yagona jamoa sifatida his qilishlari, bir butun bo'lib harakat qilishlari bo'lsa ne ajab? Menimcha, jamiyatdagi har qanday buyuk

muvaffaqiyat zamirida hattoki o‘z mehnati mahsulini ko‘rishga ulgurmaydigan insonlarning ham ma‘lum bir darajadagi qurbonliklari yotadi.

6. Muammoli topshiriq.

Qidiruv tizimlari yordamida quyidagi savollarga javob bering.

1. Hozir qaysi davlatga bormang, pul almashtirish shaxobchasiga duch kelasiz. O‘rta asrlarda pul qog‘oz ko‘rinishidami, tanga shaklidami paydo bo‘lishi bilan pul almashtirish muassasalari bo‘lgan. O‘rta Osiyoda tangalarni almashtirib beruvchilarni kim deb atashgan?

2. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik o‘zbek xalqida azal-azaldan rivoj topgan. O‘zbek savdogarlari, aniqrog‘i, qo‘qonlik savdogarlar XVII asrda shaharlararo, davlatlararo yuk tashishning antiqa yo‘lini topishgan. Qo‘qonda hozir ham mavjud Xitoy banki deb ataluvchi bino bor. U XVII asrda bunyod etilgan. Bu binoning Xitoy banki deb atalishiga sabab barcha g‘ishtlar Xitoydan keltirilgan. Ana shuncha masofadan, 10 minglab g‘ishtlarni ishbilarmon savdogarlar qaysi usulda tashib keltirishgan?

3. “Bank” so‘zi italyanchada kursi degan ma‘noni bildiradi. O‘sha kursida o‘tirgan bankir, deylik, bir savdogardan olgan qarzini vaqtida qaytara olomasa, o‘sha savdogar tomonidan u bankrot deb e‘lon qilinadi. O‘rta asrlarda bankrotlik e‘lon qilgan savdogarlar kursida o‘tirgan bankirga uni bankrot bo‘lganligini qanday ifoda etishgan?

4. Rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning 3 xil ko‘rinishi mavjud: sudraluvchi, o‘rmalovchi, yuguruvchi. Bu uch xil ko‘rinish ostida nima yashiringan?

Iqtisodiy terminologiya

O'zbek iqtisodiyot terminologiyasi asosan ikki manba: o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari (so'z va so'z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi asli o'zbekcha tub leksik qatlam, o'zbek tilida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lug'aviy birliklar hamda ular asosida ona tilining so'z yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi – o'zga tillar, ya'ni fors-tojik, arab va rus tilidan o'zlashtirilgan qatlamdir.

Iqtisodiy terminologiyani boyitishda ona tilining quyidagi imkoniyatlaridan foydalaniladi:

1. Muayyan bir tilda, shuningdek o'zbek tilida ham iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator so'zlar qadim-qadimdan qo'llab kelingan. Bunday so'zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshlangan. Masalan, *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so'm, sug'urta, savdo, omonat, g'amlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyotga aloqasi bo'lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtirilib, iqtisodiy terminlar sifatida ishlatiladi. Masalan, *taklif, sohibkor, o'sish, qoldiq, daraja, palata, yetakchi, yig'im, qaydnoma, baho, xo'jalik* kabi yuzlab so'zlar iqtisodiy terminologik tizimida yakka holda ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida qo'llanadi.

3. Iqtisodiy terminologiyaning boyishida yana bir manba bo'lib iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: *jamg'arma, ijarachi, ishsizlik, uyushma, tejankor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik* kabilar shular jumlasidandir.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha, shuningdek ruscha-baynalmilal leksemalar ham qo'llanib kelinmoqda. Masalan, *sarmoya, savdogar, sarkor, daromad, dastmoya* kabilar.

O'zbek tili iqtisodiy terminologiyasining ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga to'ldirilishi quyidagi misollarda ko'rinadi: *veksel, preyskurant, kredit, tovar, buxgalter, bank, kassir, avans, makler* va boshqalar.

(N. Husanov, filologiya fanlari doktori.)

7. Rus tilidagi qisqartmalar bilan ifodalangan tushunchalarni o‘zbek tilida yozing. Ularni guruhlarga ajrating.

ББ, НДС, ЕБРР, ВВП, ВТО, ЗАО, ВНП, ЕЭС, ООО, АББР, ОАО, МВФ, ВНД, ВЭД.

8. Matnni o‘qing. Undagi ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalang. Iqtisodiy terminlarni ajratib yozing va mazmunini izohlang.

Amir Temur davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o‘ziga xos maktab yaratgandi. Sohibqiron davlatida har bir viloyatda Devon deyiluvchi boshqarma bo‘lgan. U davlatning barcha ishlarini: soliq yig‘ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar – bozorlar, hammomlar, yo‘llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa, toshu-tarozi to‘g‘riligi, odil baho tekshirilgan, qallob va tovlamachilar qat’iy jazolangan, eng muhimi – bu ish to‘ppa-to‘g‘ri bozorda, xalq oldida amalga oshirilgan. Savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo‘yish mumkin bo‘lgan.

Temur saltanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko‘rsatgan. Shunday vazirlardan birinchisiga yer soliqlari, boj, o‘lpon¹-soliq undirish hamda mirshablik yumushlarini boshqarish yuklatilgan. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni hal qilgan, raiyat² ahvolini kuzatgan, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o‘lponlarni taqsimlagan.

Ikkinchi vazir sipoh³ vaziri hisoblanib, sipohiylarning maoshlari va tanho, ya’ni davlatga qilgan xizmatlari evaziga beriladigan in’om⁴larni boshqargan.

¹ o‘lpon – подать, земельный налог

² raiyat – подданные

³ sipoh – войско, армия

⁴ in’om – дар, подарок

Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotganlar, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot¹ va boj²larni, mamlakat chorvasini boshqarib, bularning barchasida to‘plangan daromadlarni omonat tarzida saqlagan. Agar g‘oyib bo‘lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo‘lsa, ularni o‘z merosxo‘r³lariga topshirgan.

To‘rtinchi vazir saltanat⁴ ishlarini yurituvchi vazir bo‘lib, u saltanatdagi jami idoralarning kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan xarajat, hatto otxona va saroydagi boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlardan ogoh bo‘lib borgan. Vazirlar Devonbegi⁵ga bo‘ysungan.

9. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Что такое экономика?

Если рассматривать слово «экономика» так, как оно есть, то выясняется, что составлено оно буквально из двух греческих слов. Первое – это eikos, то есть дом, и второе – nomos, то есть правила или закон. Таким образом, экономика – это ничто иное, как правила ведения домашнего хозяйства. Также под экономикой в более широком понимании этого термина понимается хозяйственная деятельность, которая включает в себя производство, распределение, обмен и потребление товаров. Существенной проблемой при этом является лишь то, что используемые людьми ресурсы для производства товаров обычно ограничены.

Экономика существует везде, где есть человек. Даже на необитаемом острове. Возьмем, к примеру, того же Робинзона Крузо. Была у него экономика? Конечно, была, ведь у него было хозяйство. Земля, которую он обрабатывал, чтобы собрать урожай

¹ zakot – налог с имущества

² boj - пошлина

³ merosxo‘r - наследник

⁴ saltanat – власть, правление

⁵ Devonbegi – главный министр

ячменя, виноградник, где он вялил себе изюм, козы, которых он доил, чтобы получить молоко и сыр. Другое дело, что на начальном этапе у него было лишь производство продуктов питания, одежды и утвари и их потребление. Сколько он мог произвести, столько он и мог потребить, плюс что-то оставить про запас. Не было у него никакого вышестоящего органа, который указывал бы ему, что и в каких количествах следует производить. И ведь, что удивительно, он справлялся. Сам. И успешно. Оказывается, человеку для этого достаточно иметь голову на плечах, а никакое государство, направляющее его сверху, в общем-то для этого и не требуется. Робинзону приходилось думать своей головой, чтобы определить, насколько больше ему нужно произвести продуктов, чтобы иметь достаточный запас на случай неурожая или болезни, и он элементарно справлялся с этой проблемой. Его экономика была предельно простой. Либо он произведет достаточное количество продуктов и выживет, либо нет.

Такая простая экономическая концепция стимулировала его работать на совесть. И заметьте, не было у него на стенах хижины никаких партийных идеологических лозунгов, призывающих его работать на благо или во имя кого-то или чего-то. Оказывается, было достаточно просто объективных законов экономики.

(А. Лежава, «Занимательная экономика».)

10. Darslikning “Mutolaa” bo‘limidan fransuz adibi Gi de Mopassanning “Marjon shodasi” novellasini o‘qing. Asar qahramonlari – Luizellar oilasining oilaviy budjeti haqida gapirib bering. Novelladan chiqargan xulosangiz bilan o‘rtoqlashing.

11. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz bergan eng so‘nggi yangiliklardan ma’lumot tayyorlang.



1. Savollarga javob bering.

Xalqaro tashkilot deganda qanday tashkilotni tushunasiz?

Qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz? Ularning nomlarini ayting.

O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a‘zo?

2. Matnni o‘qing. Undagi ma’lumotlarni konspekt shaklida yozib oling. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

Xalqaro tashkilotlar – davlatlarning yoki hukumat qaramog‘ida bo‘lmagan milliy jamiyatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan *uyushmasi*; davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga kelgan va ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘plab tuzila boshladi.

Hozirgi kunda ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, xalqaro tashkilotlarning soni 8000dan ortiq bo‘lib, 400tasi *hukumatlararo* tashkilotlardir.

Xalqaro tashkilotlar o‘ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan:

- xalqaro tashkilotlarning *tuzilmasi*, asosiy maqsadi va tashkilot faoliyatining yo‘nalishlarini belgilab beruvchi *ta’sis* hujjati (ustavi) bo‘ladi;
- bunday tashkilotlar doimiy yoki vaqti-vaqti bilan faoliyat yuritadi;
- ko‘p tomonlama *muzokaralar* va muammolarni muhokama qilish ular faoliyatining asosiy usuli hisoblanadi;
- qarorlar ovoz berish yoki *konsensus* yo‘li bilan qabul qilinadi;
- qarorlar, odatda, *tavsiyaviy* kuchga ega bo‘ladi.

Xalqaro tashkilotlar aynan tashkilot, *jamg‘arma*, bank, agentlik, markaz va shu kabi nomlar bilan ataladi.

3. Rus tilida berilgan tashkilot hamda uyushmalarning o‘zbek tilidagi nomlarini qisqartma ko‘rinishida va to‘liq yozing.

ООН, СНГ, МВФ, МБ, АБР, ШОС, ВТО, ОБСЕ, ЕС, ЛАГ, ОИС, ВОЗ, ВОТ, ВОИС.

4. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Ulardan kichik matn shakllantiring.

Tinchlik, xavfsizlik, hamkorlik, rivojlanish, muammolar, mintaqa, xalqlar, terrorizm, narkobiznes, munosabatlar.

5. Matnni o‘qing. Uni qisqartirgan holda so‘zlab bering.

“Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, bu mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo‘nalishi etib belgilab olganmiz”.

Islom Karimov

O‘zbekiston istiqlolning ilk kunlaridanoq tashqi siyosat bobida mustaqil strategiyasini ma’lum qildi. Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyat¹idagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Bu tamoyillar, avvalambor, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralar daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan² qoidalariga tayanilgan holda amalga oshirildi. Shunga asoslangan holda, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri mintaqaviy xavfsizlik³ni ta’minlash va uning barqarorligiga xavf solayotgan terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm kabi tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekiston mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida tegishli faoliyatni olib bormoqda. Zero, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli⁴ aloqalarni olib borish nafaqat mintaqada, balki dunyo xavfsizligini ta’minlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizning bu boradagi ilk qadami Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lishi bilan boshlandi. O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTning teng huquqli a’zosi bo‘ldi. Mazkur tashkilot doirasidagi o‘zaro aloqalar Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, barqarorlik va o‘zaro hamkorlikka qaratilgan bo‘lib, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy qurol savdosi kabi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, ijtimoiy-

¹ jahon hamjamiyati – мировое сообщество

² umume’tirof etilgan – общепризнанный

³ mintaqaviy xavfsizlik – региональная безопасность

⁴ o‘zaro manfaatli – взаимовыгодный

iqtisodiy, ekologik muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilmoqda.

BMT doirasida mamlakatimiz Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud deb e'lon qilish yuzasidan faol hamkorlikni amalga oshirdi. Zero, Markaziy Osiyo davlatlari yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar hududiga yaqin joylashgani bois, mintaqada yadroviy xavfsizlikni ta'minlash o'ta dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Bugunga kelib mamlakatimiz Afg'onistonning urushdan keyingi tiklanish jarayoniga ko'maklashish bo'yicha BMT dasturlarida ham faol qatnashmoqda. O'zbekiston qo'shni davlatga gumanitar yordam berish, mamlakatda transport infratuzilmasini, jumladan, yo'l va ko'priklarni qayta tiklash haqida, ta'lim sohasida, qurilish va obodonchilik borasida o'zaro hamkorlik rishtalarini yo'lga qo'ydi.

Mamlakatimizning xalqaro maydondagi hamkorligi, birinchi navbatda, uning boshqa davlatlar bilan o'rnatayotgan munosabatlari tizimida o'z o'rniga ega bo'lish, mintaqada xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, geosiyosiy muvozanatni saqlashga qaratilgan.

6. Matbuotdan O'zbekiston rahbariyatining BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqlari hamda ulardagi asosiy g'oyalar haqidagi ma'lumotlarni toping. Ularni qisqacha so'zlab bering va jadval ko'rinishida ifodalang.

7. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida elektron taqdimot tayyorlang.

Ijtimoiy-siyosiy leksika

Ijtimoiy-siyosiy leksika tilning ulkan qatlamini egallaydi va keng qamrovli vazifalarni bajaradi. Uning rivoji jamiyat shakllanishining tarixiy-siyosiy bosqichlari, mamlakatdagi turli ijtimoiy-siyosiy holatlar, yozma adabiyot va ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi hamda takomillashishi bilan bog'liq.

Har qanday tilning ijtimoiy-siyosiy leksikasini o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy xususiyatlari, tarixiy voqealari bilan bog'liq holda o'rganish mumkin.

XX asr oxiri – XXI asr boshida ijtimoiy-siyosiy leksika tildagi jadal o'zgarishlar, siyosiy hayotda yuz berayotgan voqealarning jamiyat tilida juda tez aks etishi, boshqa tillardan ko'plab so'zlar va tushunchalarning o'zlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlariga tushunarli bo'lganligi uchun ijtimoiy-siyosiy leksika ommaviy axborot vositalarida va publitsistikada keng qo'llanadi.

8. Izohli lug'at yordamida quyidagi so'zlarning ma'nosini tushuntirib bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Spiker, hudud, referendum, pluralizm, separatizm, mentalitet, bunyodkorlik, monitoring, nomenklatura, hamkorlik, ekstremizm, tadbirkor.

Ijtimoiy-siyosiy leksikani quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: etnik turkumlarning nomlari: *millat, fuqarolik, elat*; davlat ramzlari va belgilarining nomlari: *konstitutsiyaviy tizim, respublika, davlat gerbi, parlamentarizm*; siyosiy subyektlarning nomlari: *Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimlik, prezident, vazir, deputat*; ichki siyosatga oid nomlar: *siyosat, istiqolol, islohot, rezolutsiya, saylov* va boshqalar.

9. Matndan ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid soʻzlarni ajratib yozing.

Qisqa davr mobaynida mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish, birinchi navbatda, qishloq joylarida aholi uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, shuningdek islohotlarni amalga oshirishda fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini roʻyobga chiqarishga qaratilgan qator muhim davlat va hududiy dasturlar, qonun hujjatlari qabul qilindi.

Senatorlar va deputatlar korpusi, fuqarolar yigʻinlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini keng jalb etgan holda, joylarda ishlarning haqiqiy ahvolini har tomonlama va chuqur oʻrganish, xalq bilan bevosita muloqotning sifat jihatdan yangi va samarali shakllarini joriy etish boʻyicha aniq maqsadga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarning natijalari mazkur dasturlar hamda hujjatlarning qabul qilinishiga asos boʻldi.

10. Quyidagi terminlar maʼnosi bilan tanishing. Ularning farqlarini tushuntiring.

Elchi – bir suveren davlatning boshqa bir suveren davlatdagi diplomatik vakillarining eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega boʻlgan shaxs.

Konsul – biror davlatning boshqa davlat shaharlaridan birida doimiy vakil etib tayinlangan va oʻz davlati hamda uning fuqarolari manfaatlarini himoya qiladigan lavozimli shaxs.

Diplomat – chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik koʻrgan va shunday ishlar uchun oʻz hukumati tomonidan vakil qilib tayinlangan shaxs.

Rasmiy-diplomatik nutq

Diplomatik nutq – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo‘lib, xalqaro mavqega egaligi bilan xarakterlanadi. Diplomatiya har bir davlatning tashqi siyosatni amalga oshirish, uning chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda u yoki bu davlat nomidan so‘zlanadigan barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy mavzulardagi nutqlarga diplomatik nutq deyiladi.

Diplomatik yozishmalar davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha diplomatik faoliyatining asosiy shakllaridan biridir.

Diplomatik nutqning o‘ziga xos terminlari bor: *elchi, konsul, delegatsiya, bayonot, deklaratsiya, vakil, ultimatum, bitim, shartnoma, nota, konsulxona, elchixonona, doktrina, ahdnoma, konvensiya, ratifikatsiya, memorandum, diplomat, protest, muzokara, uchrashuv, rasmiy tashrif, murojaat, simpozium, rezolutsiya, parlament, kongress* va h.k.

11. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarni izohlang. Zarur hollarda lug‘atdan foydalaning.

Sharqda X–XIX asrlarda *yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznoma, qarznomalar, vasiqa, tilxat* yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo‘lgan: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k.

Bu o‘rinda To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag‘aylaga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda bergan yorlig‘i, Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1779-yil 2-iyunda Peterburgga – Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yorlig‘i va boshqalarni eslab o‘tish mumkin.

12. Quyidagi nutq qoliplarini eslab qoling. Nima uchun nutqda ulardan foydalanish tavsiya etilishini tushuntirib bering.

O'zganing fikriga qo'shilish

Bu borada fikringizga (to'la, qisman, mutlaqo) qo'shilaman.

Bu fikrga, albatta, qo'shilaman.

Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas.

Bu fikrga qo'shilishga to'g'ri keladi.

Bu fikrga qo'shilmaslik qiyin.

Bunga hech qanday e'tirozim yo'q.

Fikringizni qo'llab-quvvatlayman.

Bu borada men Siz bilan hamfikrman.

Siz, shubhasiz, haqsiz.

O'zganing fikriga qo'shilmaslik

Fikringizga (umuman, qisman, mutlaqo) qo'shilmayman.

Fikringizga, afsuski, qo'shila olmayman.

Bu borada mening fikrim (butunlay, umuman) boshqacha.

Fikringiz bahstalab.

Men bu masalaga boshqacha qarayman.

Bu menda shubha tug'diradi.

Mening e'tirozlarim bor.

Men bunga (qat'iy) e'tiroz bildiraman.

Men bunga qarshiman.

13. Biror bahsli masala yuzasidan suhbat matnini tuzing. Unda yuqorida berilgan nutq qoliplaridan foydalaning.

14. Matnni o'qib, mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.

Дипломатический этикет

Дипломатический этикет — это тонкая наука, помогающая поддерживать и устанавливать цивилизованные отношения с людьми, равными себе, разрешать конфликты, преодолевать



противоречия, вести деловые переговоры, играть роль посредника, заключать и подготавливать международно-правовые соглашения, уметь грамотно обмениваться информацией, эффективно ее обрабатывать и использовать на пользу своего дела.

С незапамятных времен человеческий опыт накапливал и отбирал из бесконечных повторений поведения те правила, условности и традиции, которые отвечали интересам поддержания общения. С появлением государств и с развитием связей между ними стали складываться нормы общения, включая протокольные. В процессе исторического развития протокол претерпевал глубокие изменения, но всегда за условностями церемониала стояли вопросы большой политики государств, престижа верховной власти.

От дипломата требовалось тщательное соблюдение всех поведенческих норм своего времени и доскональное знание высшего светского этикета. Так происходило выделение дипломатического корпуса в особое сословие со своими корпоративными правилами.

Правила дипломатического протокола основываются на так называемом принципе «международной вежливости» — совокупности общепринятых в международной практике правил этикета, почтительности и уважения, соблюдаемых в межгосударственных отношениях.

Нормы дипломатического этикета:

- устанавливают формы обращения, переписки, порядок нанесения визитов, проведения встреч и бесед и т. п.;
- устанавливают внешний вид дипломата, его одежду, манеры;
- регламентирует все стороны жизни дипломата, поскольку по официальному представителю судят о его стране.

Соблюдение норм дипломатического этикета диктуется уважением к другой стране. Игнорирование даже мельчайших деталей может быть истолковано как умышленное нанесение ущерба достоинству государства. В частности, этикет предписывает обязательный ответ на послание, использование в официальной переписке вступительного и заключительного комплимента — формулы вежливости.

(<http://www.raut.ru>)

15. Rivoyatni o‘qing. Qavs ichidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga o‘giring. Diplomatik uslubga xos jummalarni yozib oling.

Iskandar Zulqarnayn¹ning qo‘shinlari Ahamoniylar davlati²ning chegarasini bosib o‘tganda, podsho Doro III yosh sarkardaga o‘ta qo‘pol mazmundagi (*нота протеста*) yuboradi. “Hoy sen, bolakay!” – yozadi u, – darhol Makedoniyangga qayt! Yo‘qsa men, Doro Kodoman ...”. Xullas, u yog‘iga tahdid va haqoratlar davom etadi.

Endigina 22 yoshga to‘lgan Iskandar (*ответная нота*)sida shunday yozadi: “Salom senga, Ahamoniylarning (*достолавный победитель*)! Senga shuni ma’lum qilamanki, mening qo‘shinlarim Granik³ga (*благополучно приближаются*). Bizning lashkar⁴imizda shodiyona kayfiyat hukm surmoqda: barcha sening ko‘p sonli muzaffar⁵ qo‘shinlaring bilan uchrashuvni kutmoqda. Senga olamdagi barcha

¹ Iskandar Zulqarnayn – Александр Македонский

² Ahamoniylar davlati – государство Ахеменидов

³ Granik – Turkiyadagi daryo

⁴ lashkar – войско

⁵ muzaffar – победоносный

yaxshiliklar va (*долгих лет жизни*) tilayman. (*Пользуясь случаем*),
sening urug‘-aymoqlar¹ing va yaqinlaringga (*передаю привет*).
Iskandar.”

Shu yerda maktub tugaydi, faqatgina qisqa postskriptumdan keyin:
“Ha, aytgancha, Doro! Agarda menga keyingi safar yozmoqchi
bo‘lsang, yodingda tut: men shunchaki podsho emas, Sening
podshohingman!”.

16. Diplomatik uslubga xos matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Zaruriy qismlar va ularning joylashish o‘rniga diqqat qiling.

Москва, 15 мая 1992 года

Министр иностранных дел
и торговли Австралии

Ваше Превосходительство!

Я имею честь подтвердить Вашему Превосходительству от имени Правительства Австралии понимание, достигнутое между двумя Правительствами о том, что дипломатические отношения устанавливаются между Австралией и Республикой Узбекистан с 26 декабря 1991 года, и обмен дипломатическими представительствами в ранге послов состоится в ближайшее время.

Будучи уверенным в том, что устанавливаемые настоящим отношения между двумя государствами внесут вклад в дальнейшее укрепление дружбы и сотрудничества между двумя нашими странами, я пользуюсь случаем, чтобы возобновить Вашему превосходительству уверения в высочайшем уважении.

Подпись Его Превосходительства
Посла Австралии

17. Ommaviy axborot vositalaridan rasmiy-diplomatik nutqqa doir matnlarni toping. Ulardagi rasmiy so‘z va jumalarni yozib oling.

¹ urug‘-aymoqlar – родные, родственники

22-mavzu DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI



1. Savollarga javob bering.

Sayyoramizning yoshi nechada ekanini bilasizmi?

Yirik tabiiy ofatlar deganda nimani tushunasiz?

Hozirgi davrda insoniyatga xavf solayotgan qaysi muammolarni bilasiz?

2. Quyidagi fan sohalari nimani o‘rganadi? Ushbu terminlarning ma’nosini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ekologiya, atrof-muhit, demografiya, energetika, okeanologiya, sotsiologiya, kosmonavtika, irrigatsiya.

3. Matnni o‘qing. Uni qismlarga ajrating va har bir qismiga sarlavha toping.

XXI asrga kelib insoniyat oldida juda ko‘p va murakkab muammolar paydo bo‘ldiki, ularning asosiy qismi ta’sir doirasining miqyosi¹ va ahamiyatiga ko‘ra global muammolar nomini oldi.

Butun dunyoni qamrab olgan, insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deb ataladi.

Global muammolar aholi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasidir. Ular:

- jami insoniyatga, barcha mamlakatlar, xalqlar, ijtimoiy tabaqlar manfaatlari va taqdiriga ta’sir ko‘rsatuvchi;

- iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta talafotlar²ga, inqirozlarga sabab bo‘luvchi, chuqurlashgan taqdirda esa jahon sivilizatsiyasining mavjudligiga ham xavf soluvchi;

- yechimini topishda umumplanetar miqyosdagi hamkorlikni, barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishini talab etuvchi muammolardir.

Global muammolar, avvalo, jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy³ ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Global muammolarning soni taxminan 10tadan 40-50tagacha boradi. Lekin shularning ichida asosiy, eng muhim muammolarning soni 10tadan oshmaydi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi.

2. Tinchlik va quolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi.

3. Ekologik muammo.

4. Demografik muammo.

¹ miqyos – масштаб

² talafot – бедствие

³ umumbashariy – общечеловеческий

5. Energetik muammo.
6. Xomashyo muammosi.
7. Oziq-ovqat muammosi.
8. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.
9. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish global muammolarning eng muhimidir. Hozirgi vaqtda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30 foizga yaqini qoloq hisoblanadi. Shularning 3/4 qismi Afrikada, Itasi Janubiy Amerikada va qolgani Osiyoda joylashgan. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Urush va tinchlik muammosi XX asr 2-yarmining deyarli 40 yili mobaynida insoniyatning eng muhim muammosi bo‘lib kelgan. 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda dunyo siyosiy xaritasida bo‘lib o‘tgan chuqur va miqyosli o‘zgarishlar G‘arb bilan Sharq o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan global yadro urushi xavfining amalda yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Global ekologik tizimning degradatsiyalanishi ilmiy asoslanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish, inson faoliyati chiqindilari bilan ifloslantirish, atrof-muhitning ushbu chiqindilar bilan “zaharlanishi” oqibatida yuz berdi.

Demografik muammo rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug‘ilish va tabiiy ko‘payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug‘ilish va tabiiy ko‘payish bilan bog‘langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarida aholi va mehnat resurslari soni tez o‘smoqda, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past sur‘atlarda o‘smoqdaki, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Global muammolar jumlasiga, shuningdek, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta‘minlash; ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish; insoniyatni kerakli resurslar —

oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash; fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlariga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Global muammolarga qarshi kurashishda jahon hamjamiyatini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Quyidagi terminlarning ma'nosini eslab qoling.

Ekologiya (yunon tilidan – “uy, turar joy” va “ta'limot”) – birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo'lgan munosabatini, shuningdek, odam va biosfera o'rtasidagi o'zaro munosabat masalalarini o'rganuvchi fan.

Ekologik muvozanat – inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

Ekologik krizis (ekologik tanglik) – ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar; toshqin, yer silkinishi, vulqonlar otilishi, qurg'oqchilik, dovul, chigirtkalar ofati, yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat. Ekologik muvozanatning buzilishi ekologik tanglikka olib keladi.

5. Maqollarni o'qing. Ularning mazmunini tushuntiring.

Toqqa qalin qor tushgani —
Yerning qonib suv ichgani.

Suv — zar, suvchi — zargar.

Suv keldi — nur keldi.

Suv qatrasi — dur qatrasi.

Suvning ko'rinishi muloyim,
Bag'ri — tosh.

Suvning ozi ham bir balo,
Ko'pi ham bir balo.

Suvsiz yer — jonsiz jasad.

El hayoti yer bilan,
Yer hayoti suv bilan.

6. Matnni o‘qing. Undagi asosiy ma’lumotlarni konspekt shaklida ifodalang.



Ma’lumotlarga qaraganda, sayyoramiz aholisining uchdan bir qismi turli mintaqalarda suv resurslariga nisbatan o‘ta og‘ir muhtojlik¹ni boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, Afrika, Osiyo qit’alarida ichimlik suvi juda tanqis va bu qit’alarning ayrim hududlarida qurg‘oqchilik² kuchaygan, u keltirib

chiqarayotgan oziq-ovqat yetishmovchiligi natijasida esa millionlab insonlar aziyat chekmoqda.

2050-yilga kelib yer yuzi aholisi 9 milliardga ko‘payishi bashorat qilinmoqda. Global iqlim o‘zgarishi natijasida tabiatda turli xil xavf-xatar, qurg‘oqchilik yuz berishi mumkin. Hozirgi ilm-fan shuni tan olmoqdaki, kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari, tiklanmaydigan tabiiy resurslar, ular o‘rnini boshqa usullar bilan yaratilgan mahsulotlar egallashi mumkin bo‘lsa-da, suvning o‘rnini boshqa biror bir mahsulot bosa olmaydi. Shu bois sayyoramizda ichimlik suvining kamayib borayotganligi o‘ta og‘ir xavflarni tug‘diradi.

Boz ustiga, bugungi kunda yer yuzidagi daryolarning yarmiga yaqini ifloslangan, ularning resurslari tugab bormoqda. Shuningdek, Yer

¹ muhtojlik – нужда

² qurg‘oqchilik – засуха

sharidagi botqoqliklar maydoni va ichki suv resurslari qisqarmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, har kuni dunyoda 6 ming bola sanitariya-gigiyena qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan suv iste'mol qilganliklari tufayli barvaqt halok bo'lmoqdalar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, yuqumli kasalliklarning 80%dan ortig'i ichimlik suv sifatining pastligi hamda suv ta'minotida sanitariya-gigiyena qoidalarining buzilishlari bilan bog'liq. Bugun dunyo aholisining 3 milliardga yaqini ifloslangan suv iste'mol qilmoqda va buning oqibatida ularning deyarli 2 milliardi turli xastaliklarga chalingan.

Markaziy Osiyoda suv zaxiralarining qisqarishi, ularning sifat ko'rsatkichlari pasayishi ham eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Aholining sog'-salomatligi, kelajagi bevosita toza ichimlik suvi bilan bog'liq. Keyingi yillarda tog'larga qor kam tushmoqda, muzliklar maydoni qisqarmoqda, buning ustiga tog' zonalaridagi suv zaxirasini to'plovchi o'rmonzorlar, archazorlar ayovsiz kesilmoqda. Zero, suv resurslari jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili ekan, istiqboldagi rivojlanish ko'p jihatdan mavjud suv resurslari, ularning miqdori va holati, suvga bo'lgan talab va suvdan foydalanish darajasiga, umuman olganda suvga bo'lgan munosabatimizga bevosita bog'liqdir.

Xalqaro miqyosda va mamlakatimizdagi daryolarni, shu jumladan Zarafshon daryosi suvini ekologik sog'lomlashtirish yuzasidan bir qator aniq tadbirlar ishlab chiqilgan. Daryo qirg'og'ida suv muhofazasi zonasini tashkil etish va jadallik bilan uni amalga oshirish, daryoga tashlanayotgan barcha oqova suvlar¹ini nazoratga olish va ularni keskin qisqartirish, kanalizatsiya tizimlarini mukammallashtirish va

¹ oqova suv – сточная вода

bakteriologik ifloslanishning oldini olish, ularni keskin qisqartirish shular jumlasidandir.

Respublikamizda iste'mol qilinayotgan suv miqdorining 95%i daryo va soylardan olinadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020-yilga borib respublikamizda mavjud suv zaxiralarininig hajmi 15-20%ga kamayishi kutilmoqda. Kelajakda aholi sonining yanada oshishi bilan yer usti va yer osti suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish yanada kuchayadi. Shu sababli yaqin yillarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qoladi. Shaharlardan, dalalardan chiqarilayotgan ifloslangan suvlarni tozalash bo'yicha eng ilg'or va samarali texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish payti keldi.

Suvni tejash, undan oqilona foydalanish va kelgusi avlodga yetkazib berish har birimizning burchimizdir.

(F. Ganiyeva.)

7. Dunyoda ichimlik suvi tanqisligidan aziyat chekayotgan hududlar to'g'risida rasmi taqdimot tayyorlang.

8. "Suv – hayot manbayi" mavzusida esse yozing. Uni quyidagi so'zlar bilan boshlang:

"Suv – seni na ta'ming, na ranging, na hiding bor, seni tassavvur qilish ham qiyin. Sening nimaligingni bilmay turib lazzat olasan kishi. Sen nafaqat yashash uchun zarursan, sen o'zing hayotning o'zisan. Sening ila butun mavjudot bahra olar. Sen kuch va jismimizni qayta tiklaysan. Sening mehribonliging ila so'ngan yurak chashmasi yana qayta eshigin ochar".

(Antuan de Sent Ekzuperi.)

9. Quyidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular yordamida kichik matn tuzing.

Угроза международной безопасности, преступное насилие, террористические акты, мирные граждане, посягательство на жизнь, цивилизованное общество, невинные жертвы, мировой баланс.

10. Matnni o‘qing. Uni hozirgi davrda sodir bo‘layotgan voqealar haqidagi ma’lumotlar bilan davom ettiring.

Dunyo yaralibdiki, tinchlik-osoyishtalik insoniyat uchun tengsiz ne‘mat bo‘lib kelmoqda. Osuda hayot, yaratuvchan mehnat va farovonlik, umuman, barcha ezgu maqsadlarning ro‘yobi, eng avvalo, shu ne‘matga bog‘liq.

Ammo azaldan yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik kabi nisbiy kuchlar bo‘lganidek, inson hayotiga rahna soluvchi¹ ofatlar ham mavjud. Ulardan biri terrorizmdir. Bu ofat XX asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI asrga kelib, o‘zining jirkanch² qiyofasini namoyon eta boshladi.

Terrorizm (lot. terror –“qo‘rqinch, dahshat”) — siyosiy raqiblarni, muxolif³larni yo‘qotish yoki qo‘rqitish, aholi o‘rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo‘ravonlik harakatlari (ta‘qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar).

Terrorizm o‘rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin XX asrning oxirlaridan uning yangi ko‘rinishlari vujudga keldi. Xususan, chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o‘ldirish yoki o‘g‘irlash,

¹ rahna soluvchi – нарушающий, разрушающий

² jirkanch – мерзкий, подлый

³ muxolif – оппонент, противник

elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h.k. Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo‘liga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo‘ldi. Ko‘p hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog‘liqligi, chatishib ketishi¹ kuzatila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har qanday ko‘rinishlariga qarshi qat’iyat bilan kurashib kelmoqda. Mamlakatimiz ko‘plab xalqaro bitimlarning, chunonchi, Xalqaro terrorizm ko‘rinishlariga qarshi kurashga qaratilgan bitimlarning, jumladan, havo kemalarini qonunga xilof ravishda egallab olishga qarshi kurash to‘g‘risidagi 1970-yilgi Gaaga konvensiyasi, Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan qonunga xilof harakatlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi 1971-yilgi Monreal konvensiyasi, Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash



¹ chatishib ketishi – сливаться, сплетаться

to'g'risidagi 1973-yilgi konvensiya, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi va boshqa konvensiyalar ishtirokchisi. 2004-yil 1-yanvardan Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunida terrorizmga quyidagi ta'rif berilgan: "Xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy siyosiy beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organlarini, xalqaro tashkilotlarni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsning biror bir faoliyatini amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar, ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga, ularning faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita¹ har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat".

11. Shanxay hamkorlik tashkilotining Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyati haqida matn tuzing. Unda quyidagilarni yoritib bering:

- tuzilmaga kimning tashsbbusi bilan asos solingan;
- nima uchun tuzilma aynan Toshkentda joylashgan;
- tuzilma tomonidan qanday ishlar amalga oshirilgan;
- tuzilmaning faoliyati bo'yicha qanday xulosaga kelish mumkin.

¹ bevosita yoki bilvosita – непосредственно или посредством чего-то

12. Berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Madaniyat + omma, mentalitet + millat, maʼnaviyat + axloq + gʻoya, axborot + isteʼmol, gʻoya + illat, maʼnaviyat + qadriyat + muhit, mafkura + immunitet.

13. Quyidagi fikrlarni oʻqing. Ularning har biriga munosabat bildiring.

Oksana Qodirova, Ichki ishlar boʻlimi Huquqbuzarlikning oldini olish boʻlinmasi inspektori:

– Mamlakatimizda kompyuter klublari faoliyati, televideniyaedagi turli xil milliy mentalitetimizga yot teleseriallarni maʼlum maʼnoda cheklash hamda 18 yoshga toʻlmagan oʻgʻil-qizlarni koʻngilochar maskanlarga yolgʻiz kiritmaslik borasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, bu borada kompyuter zallari, Internet tarmogʻidan foydalanish xizmatlarini koʻrsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa koʻngilochar joylarning rahbarlari yoxud boshqa masʼul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning oʻrnini bosuvchi shaxsning kuzatuvsiz muassasalarda boʻlishiga yoʻl qoʻyganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilandi. Hozirgi kunda bu kabi samarali ishlar “ommaviy madaniyat” targʻibotchilarining gʻarazli maqsadlariga qarshi kuchli himoya vositasi vazifasini bajarmoqda. Biroq bu xotirjamlikka berilish uchun asos boʻla olmaydi.

Alisher Roʻziyev, OʻzLiDeP vakili:

– Globallashuv davrida yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash bilan birga “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlaridan himoya qilish ham kerak. Bu yovuz kuchlar taʼsirining oldini olish, yoshlarimiz ruhiyatida milliy maʼnaviy-mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini bolalik

davridan shakllantirib borish lozim. Darhaqiqat, bugungi globallashuv jarayonida faqat va faqat ma'naviyatli odamgina o'z milliy qadriyatini, erkin va ozod jamiyatda yashashi, o'z vatanining jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi uchun fidoyilik ko'rsata oladi. Bunday hisdan begona millat oxir-oqibat tanazzulga uchrashi muqarrar. Zero, ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglab yetishi mumkin.

Ozoda Buzrukxo'jayeva, O'z XDP vakili:

– “Ommaviy madaniyat” orqasidan ergashuvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlaridan uzoqlashib, tayyor madaniy mahsulotning iste'molchilariga aylanadilar. Ko'ramizki, “ommaviy madaniyat” asosan hali yetarlicha hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlarni o'ziga jalb qiladi. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqsizlik, beboshlik va zo'ravonlik, xudbinlik va manmanlikning tarqalishi hamda buning hisobiga boyish, azaly qadriyatlar va boshqa xalqlarning an'analarini, ma'naviy ildizlarini mensimaslik, ularni yo'q qilish istagi kabi xavfli tahdidlar borki, xavotirga solmay qolmaydi.

Shohruh Abdurahmonov, Yoshlar ittifoqi vakili:

– Globallashuvning salbiy ta'siri shundaki, yoshlar milliy qadriyatlardan uzoqlashib ketmoqda. Bu ularning tashqi ko'rinishida, kiyinishida, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishida aks etmoqda. Oqibatda xorijda keng tarqalgan ma'naviy hayot standartlari kinofilmlar, moda va turli reklama mahsulotlari orqali ma'lum ma'noda yoshlarimizning ongini zaharlamoqda. Yigit-qizlar kitob o'qish o'rniga kompyuter o'yinlarini o'ynab vaqt o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini ko'z-ko'z qilish, turli janrlardagi yengil-yelpi filmlarni tomosha qilishni afzal ko'rmoqdalar.

14. Berilgan lug'at bilan tanishing. Unga qanday qo'shimchalar kiritgan bo'lardingiz?

“Ommaviy madaniyat” yoshlarga taklif qilayotgan lug'at

Tushuncha	“Ommaviy madaniyat”	Milliy madaniyat
Hayo, ibo	axloqsizlik	axloq-odob belgisi, ijobiy fazilat
Insoflilik	imkoniyatnu boy berish	vijdon bilan ish tutish
Isrofgarchilik	boylik belgisi	resursni befoyda sarflash, inqirozga birinchi qadam
Oila	shaxs erkinligini bo‘g‘uvchi zanjir	mehr-muhabbatga asoslangan eng yaqin kishilar guruhi, oliy qadriyat
Sahovat	resursni maqsadsiz sovurish	o‘zgalarga beminnat yordam, oliyhimmatlik
Vafo, sadoqat	eskilik sarqitlari	komil insonga xos belgilar, ezgu amallar
Xiyonat	erkinlik belgisi, kechirilishi kerak bo‘lgan ish	bevafolik, sotqinlik, xoinlik
Xudbinlik	o‘zi uchun yashab qolish, oila uchun qayg‘urmaslik, yaxshi odat	faqat o‘zinigina o‘ylash, o‘zgalarga hurmatsizlik, e‘tiborsizlik – yomon odat
Yaxshi ota	bola qo‘liga katta pul beruvchi pozitiv sherik	bolasining kasb-hunar o‘rganishi va ilm olishiga ko‘maklashuvchi ota
Yoshlik	tez o‘tb ketadigan, lazzatlanib oladigan vaqt	har bir daqiqasida bilim olish, komillikka intilish vaqti

15. Matnni o‘qib, sarlavha toping. Uni kengaytirib so‘zlab bering.

Globalashuv jarayonlari chuqurlashgan, axborot texnologiyalari takomillashib borgani sayin milliy qadriyatlarni, azaliy an‘analarni saqlab qolish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib boraveradi.

“*Madaniyat*” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat ma’nolarida qo‘llanadi.

Insoniyatning ma’rifat orqali qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui ham madaniyat deb ataladi.

“Ommaviy madaniyat” iborasi XX asrning 2-yarmidan qo‘llana boshlagan bo‘lsa-da, uning tarixiy ildizlari juda uzoqdir. Qadim zamonlarda ham “ommaviy madaniyat”ni tarqatish bilan shug‘ullanilgan. Savdogarlar, sayyohlar, olimlar bu ishga jalb qilingan. Ayrim hollarda “ommaviy madaniyat” urush, bosqinchilik, zo‘ravonlik, majburlash yo‘li bilan o‘zga yurtlarda joriy etilgan.

“Ommaviy madaniyat”:

- 1) muayyan xalqning azaliy qadriyatlarini yo‘qqa chiqarish;
- 2) insonning ruhiy-ma’naviy olamini mayib qilish¹;
- 3) yoshlar ongiga zo‘ravonlik va yovuzlik ruhini singdirish;
- 4) kishilarni atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni anglashdan mahrum qilish;
- 5) maishiy iste’molchilik² (molparastlik)ni avj oldirish;
- 6) axloqsizlikni keng ko‘lamda yoyish kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Garchi “madaniyat” deb atalsa-da, tub mazmuni, maqsadiga ko‘ra “ommaviy madaniyat” aslida madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir.

“Ommaviy madaniyat” shunisi bilan o‘ta xatarliki, yoshlarni qaysi millatga, qaysi qatlamga mansub bo‘lishiga qaramasdan birdek qamrab oladi. “Ommaviy madaniyat”ning ildizida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik³ yotadi. Shu tariqa “ommaviy madaniyat”dan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishni istayotgan kuchlar moddiy foyda olish uchun butun insoniyatning axloqiga va turmush tarziga tajovuz⁴ etmoqda.

Bugungi kunga kelib, muayyan mamlakatni zabt etish, biror xalqni bo‘ysundirish vositalari tubdan o‘zgardi. Ilgari bu maqsadlarga erishish

¹ mayib qilish – искалечить (духовно)

² maishiy iste’molchilik – бытовое потребление

³ moddiy manfaatdorlik – материальная заинтересованность

⁴ tajovuz – вторжение, посягательство

uchun qanchadan-qancha qurol-aslahalar, qimmatbaho texnika, minglab askarlar va ancha-muncha vaqt kerak bo‘lar edi. Hozirda esa biror mamlakat yoki xalqni bo‘ysundirish uchun ommaviy axborot vositalarining o‘zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo‘ravonlik axborot orqali ta‘sir qilish, odamlarni biror bir g‘oyaga ishontirish, ongni boshqarish texnologiyalariga o‘rin bo‘shatyapti.

“Ommaviy madaniyat” niqobi ostida har xil g‘arazga yo‘g‘rilgan¹ noxolis² axborotlar (ko‘ngilochar telekanallar, radio efirlar, gazeta-jurnallar, kino, serial, multfilm va hokazolar orqali) xuruji³ ta‘siridan saqlanish, “san‘at asarlari” zahirida targ‘ib qilinayotgan zo‘ravonlik, axloqsizlikni, egosentrizm g‘oyalarini o‘z vaqtida anglab, ularga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilib, bugun faqat bizning mamlakatda yoki mintaqamizda emas, butun dunyoda eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Taqriz qanday yoziladi

Taqriz (*arab.* “ijobiy baho”) — yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili; adabiy tanqid janri. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma‘lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko‘maklashadi.

Taqriz yozishda quyidagi tartibda ishlash tavsiya qilinadi:

1. Taqriz yoziladigan matn (kitob, asar, maqola, ilmiy ish va h.k.)ni o‘qib chiqing.
2. Matnni o‘qishdan olgan taassurotlaringizni yozib boring.
3. Taqrizingiz qanday savolga javob bo‘lishi kerakligini aniqlab oling.
4. Taqriz hajmini aniqlab oling.

¹ g‘arazga yo‘g‘rilgan – пропитанный корыстью

² noxolis – необъективный

³ xuruj – наступление

5. Taqrizning kirish qismiga asar (ish) nomi, muallifning ism-sharifini yozing.
6. Asar (ish) haqida umumiy ma'lumotlar keltiring.
7. Asar (ish)ning asosiy qismlari bo'yicha xulosalaringizni ifodalang.
8. Asar (ish) bo'yicha umumiy xulosani shakllantiring.
9. Taqriz yakunida muallif sifatida o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni ko'rsating.

16. Quyida berilgan taqriz namunasi bilan tanishing. Uni qismlarga ajrating. Har bir qismni nomlang.

**Nizomiy nomidagi TDPU tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi IV kurs talabasi Vohidova Gulnora Abrorovnaning “Qushlar sinfi” mavzusini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
TAQRIZ**

Bugungi kunda biologiya o‘qitish metodikasining dolzarb muammolaridan biri fanni o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish, umumta’lim maktablari o‘quvchilarini Davlat ta’lim standartlarida me’yorlangan bilimlar bilan qurollantirish bilan bir qatorda, ularda o‘quv, amaliy, mehnat, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

G. Vohidovanning taqriz etilayotgan bitiruv malakaviy ishi biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish muammosini hal etishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishida muammoning dolzarbligi asoslangan. Fanni o‘qitishda, xususan, “Qushlar sinfi” mavzusi misolida axborot

texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari, mazkur jarayonning mazmuni, metodi va vositalari aniqlangan. Axborot texnologiyalaridan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash metodi bilan uyg‘unlashtirilgan holda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar yaratilgan. Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuni va xulosalari berilgan. Talaba tomonidan mavjud adabiyotlar ilmiy-metodik asosda tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan maqsadga erishilgan. Muallifning har bir laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha tavsiya etgan ishlanmalari biologiya o‘qituvchilari uchun amaliy-metodik yordam bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, G.Vohidovanning “Qushlar sinfi” mavzusini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman va u ijobiy bahoga loyiq deb hisoblayman.

Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya,
anatomiya va fiziologiya kafedrasida dotsenti,
biologiya fanlari nomzodi

A. Murodova

17. Maqolani o‘qing. Unga taqriz yozing.

Kitch

“Ommaviy madaniyat” mahsulotlari “kitch” mahsulotlar deyiladi. Kitch (nemischa) “arzonlashtirish”, “arzon narsaga aylantirish”, degani. Sotsiolog German Broxning fikricha, kitch bu — “o‘xshatish, taqlid qilish tizimi”dir (1969-yil.). Olim nimani nimaga o‘xshatish haqida gapirayotir? Albatta, qalbaki narsani asl narsaga. Yomon narsani yaxshi narsaga. Xunuk narsani go‘zal narsaga. Bu — uyida qo‘lbola usulda tikkan kostumga dunyodagi mashhur firma, kompaniyaning belgilarini

yopishtirib qo'yishga o'xshaydi. Demak, kitch — asl narsa emas, uning nusxasi, qimmat narsaning arzonlashtirilgan yasama nusxasi, ya'ni sun'iy narsa yaratish, demakdir. Bu axloqqa ham qo'llanmoqda. Masalan, mehribon bo'lish emas, mehribonga o'xshab ko'rinish, haqiqiy do'st bo'lish emas, haqiqiy do'stga o'xshash va hokazo. Natijada axloq — psevdouxloq bilan almashadi. Yaxshilik o'rnini "yaxshilik" egallaydi. Shakl mazmuni siqib chiqaradi.

Ixtiyorini "ommaviy madaniyat" olib qo'ygan odamdan "Ro'zi Choriyevning "Tong" asari qanday?", deb so'rasangiz, u "Zo'r", deydi. "Nimasi?", desangiz... yelka qisib qo'ya qoladi. Nega deganda, u kartinaga qaraydi, lekin hech narsani sezmaydi. Tuymaydi. Boshqalar nimani "zo'r", desa o'shani "zo'r", deb yuraveradi. Shu tariqa "ommaviy madaniyat" shaxsning didini o'ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o'zligidan, "men"idan judo qiladi.

"Ommaviy madaniyat" bozoridagi tovarlar oddiy va "ko'cha odami"ga mo'ljallangan. Shuning uchun ham "ommaviy madaniyat"ning "eng qiziqarli" va hammaga tushunarli mavzulari — sevgi, jinoyatchilik va xo'rlash, sarguzasht, qo'rqinch. Mavzular ekspluatatsiyasidan uning egalari katta daromadlar olmoqdalar.

Asta-sekin odamlar ularga ko'ngilochar sujetlar, deb emas, balki ishonib qaray boshladilar. Endi ular o'sha ko'ngilochar ko'rsatuvlarda berilgan maslahat, tavsiyalarga tayanib yashay boshlaydilar, chunki o'qishga, o'ylashga vaqt, so'zlashishga hamdam yo'q. Millionlab odamlar orasida tanho odam o'zi bilmagan hikmatlarni bolalariga qanday aytib bersin? Yosh avlodlarga momolari, bobolari bilgan, qo'llagan, tabiatdan, tajribadan foydalanib ish tutish, chora ko'rish haqidagi empirik bilimlar yetib kelmay qoladi. Milliy donishmandlik ajdodlardan avlodlarga o'tmay qoladi. O'ladi. Odamlar televideniye bo'lmasa, o'zlari hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olmay qoladilar.

Biz yemoqchi, kiymoqchi bo‘lgan narsalarimizni obdon tekshirib, keyin olamiz. Lekin ko‘rayotgan, eshitayotgan (iste‘mol qilayotgan) narsalarimizga, ochig‘i, e‘tiborsizmiz. Vaholanki, globallashuv “ommaviy madaniyat”ni yoymoqda. U xalqning tafakkuriga, musiqasiga, didiga, kiyinishiga, imorat qurish, o‘zaro muomala, oilasiga, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda. Rossiya televideniyesida yozuvchi, olim Aleksandr Vladimirov “Badiiy ijodning g‘oyasi” mavzusida ma‘ruza qildi. “Ongimiz pasayib borayotir”, dedi olim tashvish bilan. “Yaqinda bir talabamdan: “Pushkinga zamondosh shoirlardan kimlarni bilasiz?”, deb so‘rasam, “Dzerjinskiyni”, deydi. Hamma narsa pul o‘lchovida baholanaversa, biz ongsiz odamlarga aylanamiz. Ana shunda bizni boshqarish oson bo‘ladi”, — dedi kuyunchak olim. Bu afsusni bevosita “ommaviy madaniyat” yetkazgan jarohatlardan biri, desa bo‘ladi.

*M. Quronov,
pedagogika fanlari doktori, professor*

18. Ilmiy uslubga doir matnga taqriz yozing. Unda quyidagilarni ko‘rsating:

- matn nimaga bag‘ishlangan;
- u qanday qismlardan iborat;
- har bir qismning asosiy mazmuni;
- har bir qism bo‘yicha sizning fikringiz;
- matnning kamchiliklari;
- matnni takomillashtirish bo‘yicha sizning takliflaringiz;
- matn bo‘yicha umumiy xulosa;
- o‘zingiz haqingizdagi ma‘lumotlar.



1. Buyuklarning tabiat haqidagi fikrlarini o‘qing. Ularga bugungi kun nuqtayi nazaridan izoh bering.

“Biz hammamiz bitta sayyorada uchib ketmoqdamiz – biz bir kemaning ekipajimiz”. (*Antuan de Sent Ekzuperi, fransuz adibi.*)

“Tabiat – unsoniyat yashayotgan uy”. (*Dmitriy Lixachev, rus akademigi.*)

“Mehribon tabiat shunchalik g‘amxo‘rki, hamma joyda o‘rganish mumkin bo‘lgan narsa topiladi”. (*Leonardo da Vinchi, buyuk italyan rassomi.*)

“Qoloq mamlakatlarda suv ichish hayot uchun xavfli bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda havodan nafas olish xavfli”. (*Jonatan Reyban, britan yozuvchisi.*)

“Tabiatning barcha jabhalarida ma‘lum bir qonuniyat hukm suradiki, u ongli insoniyatning mavjudligiga bog‘liq emas”. (*Maks Plank, nemis fizigi, Nobel mukofoti laureati.*)

“Tabiat qonunlariga binoan sodir bo‘ladigan narsalardan norozilar axmoqlardir”. (*Epiktet, qadimgi yunon faylasufi.*)

“Tabiat yaratgan asarlar san’at asarlaridan mukammalroqdir”.
(*Mark Siseron, qadimgi rim faylasufi.*)

“Bugungi kunning eng mushkul vazifalaridan biri tirik tabiatni yo‘q qilish jarayonini sekinlatish muammosidir”. (*Archi Karr, amerikalik zoolog.*)

2. Quyidagi terminlarning ma’nosini o‘zbek tilida yozing.

Флора, фауна, популяция, ареал, естественная среда, биосфера, внешняя среда, морозостойкость, зимняя спячка, адаптация.

3. Berilgan gaplarni ketma-ketlikka rioya qilga holda joylashtirib, yaxlit matn hosil qiling. Matnga nom bering.

1. Tabiiy muhitning holati o‘zaro ta’sir etib turuvchi ko‘p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog‘liq, chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya’ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq-yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o‘simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog‘ jinslari, relyef, tuproqlarga bog‘liq.

2. Bu tabiiy omillarning birontasida o‘zgarish ro‘y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

3. Hayvonot va o‘simlik olamidan rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog‘liq boshqa sabablar tufayli XVI asrning oxirlaridan XX asrning 70-yillarigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo‘qolib ketdi, 80-yillardan boshlab esa har yili o‘rtacha 1 ta hayvon turi va 50ga yaqin o‘simlik turi yo‘qolib bormoqda, qush va sut emizuvchilarning 1000dan ortiq turi yo‘qolib ketish arafasida turibdi.

4. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro‘y beradigan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishi qonuniyatlari

haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni hisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas.

5. Yerda odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi, chunki inson mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida tabiatga ta'sir ko'rsatdi, u o'zining tabiat bilan bo'lgan o'zaro ta'siri usullarini takomillashtirib bordi.

6. Tabiatni muhofaza qilish – tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi.

7. Natijada inson yashay oladigan hudud kengaydi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortdi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan ham ko'paydi.

8. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi.

9. Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 mlrd yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va

o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan.

4. Tabiat haqidagi qiziqarli faktlarni o'qing. Ularni davom ettiring.

Har bir delfinning o'z ismi bo'ladi. Shuningdek, ularning har biri takrorlanmas ovozga egadir.

Olmaxonlar yemishini qayerga berkitganini unutib qo'yganlari sabab, yer yuzida yiliga minglab daraxtlar o'sa boshlaydi.

Flamingolarning pushti rangini saqlab qolish uchun hayvonot bog'larida ularni sabzi bilan boqishadi.

Dengiz otchalari bir umrga juftlashadilar. Ular doimo bir-birlarining dumlarini ushlab yurishadi.

Filsimon yerqazarlarning eng yaqin qarindoshi yerqazar emas, balki fillardir.

Tuyaqushning ko'zi uning muyasidan katta.

Echkilarning ham xuddi insonlar kabi ovozlari har xil bo'ladi.

Oddiy mushuklardan sal katta bo'ladigan panda bolasining dumi 45 santimetrغا teng bo'ladi.

Shilliqqurt 3 yil uxlashi mumkin.

Asalarining uchish tezligi – soatiga 18 km, ninachiniki esa – soatiga 96 kmgacha boradi.

Sigirlar orasida ham do'stlik bo'ladi. Ikki do'st bir-biridan uzoqda bo'lsa, ma'yus bo'lisharkan.

Pingvinlar juftligi ham umr bo'yi bir-biridan ajralmaydi.

Qunduzlar oqim turli tomonlarga oqizib ketmasligi uchun bir-birlarining qo'llaridan ushlab uxlaydilar.

Laylaklar uchish vaqtida 10–15 daqiqaga uxlab qoladilar.

5. Maqolani o‘qing. Unga taqriz yozing.

Qizil kitob – yo‘qolib borayotgan yoki yo‘qolish xavfida bo‘lgan noyob o‘simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjati. Qizil kitobda o‘simlik va hayvon turlari sonining kamayishi, areallarining qisqarib borishi sabablari yoritiladi; ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar berib boriladi.

1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo‘qolib ketish xavfida bo‘lgan o‘simlik va hayvon turlarining ro‘yxatini tuzish g‘oyasini amalga oshirishga kirishdi. Turlarni saqlab qolish bo‘yicha maxsus xalqaro komissiya tuzilib, 1966-yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag‘ishlangan nashrlar chop etila boshlandi.

O‘zbekiston Qizil kitobi 1978-yilda ta’sis etildi. Birinchi marta O‘zbekiston Qizil kitobining faunaga bag‘ishlangan qismi 1983-yil nashrdan chiqdi. Unga umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar) ning 63 turi kiritilgan edi. O‘simliklar olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfida bo‘lgan 163 turi haqida ilk bor mukammal ma’lumotlar 1984-yil bosmadan chiqqan Qizil kitobda keltirilgan. Qizil kitob – davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritiladigan o‘simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan 4 guruhga ajratiladi:

1) yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;

2) yo‘qolib borayotgan (areali va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar;

3) kamyob, bevosita yo‘qolish xavfi bo‘lmasa-da, kichik maydonlarda kamdan-kam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar;

4) muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga qo‘ra yoki inson ta‘sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar.

Qizil kitob, unga kirgan turlar maqomining o‘zgarishi, maxsus muhofaza choralari tufayli ba‘zi turlar sonining tiklanishi, aksincha, yashash sharoitining o‘zgarishi va boshqa omillar ta‘sirida sonining kamayishi natijasida boshqa toifaga o‘tkazilishini yoritish maqsadida qayta nashr etiladi.

O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan 301 turining hozirgi holatini tavsiflaydigan Qizil kitob 1998-yilda qayta bosmadan chiqdi. O‘zbekiston faunasiga bag‘ishlangan yangi Qizil kitob 2003-yilda chop etildi. Qizil kitobning so‘nggi nashriga sut emizuvchilarning – 24, qushlarning – 51, sudralib yuruvchilarning – 16, baliqlarning – 18, halqali chuvalchaglarning – 3, molluskalarning – 15, bo‘g‘imoyoqlilar¹ ning – 62 turi kiritilgan.

(O‘. Prатов, E. Shernazarov.)

6. Darslikning “Mutolaa” bo‘limidan yozuvchi Asad Asilning “Tulki bolasi” hikoyasini o‘qing. Unda qishki tabiat manzaralari va tulki bolasining qanday vositalar yordamida tasvirlanganini ko‘rsating. Hikoyadan chiqargan xulosangizni so‘zlab bering.

7. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering.

Наиболее серьезными проблемами в области экологии, представленными в Глобальной экологической сводке Организации Объединенных Наций, признаны:

¹ bo‘g‘imoyoqlilar – членистоногие

- недостаток пресной воды (из которой 63% расходуется в сельском хозяйстве, 23% – в промышленности и только 8% – в быту);
- загрязнение Мирового океана (вплоть до возникновения «мертвых зон»);
- высыхание Арала (уровень снизился на 3 метра, ожидается увеличение солёности в 10 раз);
- катастрофическое загрязнение воздуха, особенно в крупных городах (Париж, Мадрид, Рио-де-Жанейро, Токио, Сидней, Торонто, Лондон, Тегеран, Бангкок, Нью-Йорк и др.);
- эрозия почв (уже безвозвратно потеряно 15% всех почв);
- гибель лесов (ежегодно вырубается 16,8 млн гектаров);
- последствия стихийных бедствий (наводнения, засуха, землетрясения, ураганы, извержения вулканов и т.д.).

8. Quyidagi rasmlarga qarab Orol fojiasi haqida matn tuzing.





9. Ma'lumotlarni o'qing. Ular asosida suhbat matnini tuzing.

Ilgari Orolbo'yi suv havzalarida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan.

Amudaryo va Sirdaryo suvining Orolga quyiladigan umumiy hajmi keyingi 50 yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi esa 14 barobardan ko'proq kamaydi.

Orol dengizi suvining sho'rlanish darajasi 25 marta ortishi baliq va boshqa dengiz mavjudotlarining deyarli butkul yo'qolishiga olib keldi.

Orolbo'yi mintaqasida o'simliklar va yovvoyi hayvonlar turi keskin kamayib, jumladan, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simliklarning 11 turi yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi.

Orolning qurigan qismi o'rnida 5,5 million gektar maydondan ziyod yangi Orolqum sahrosi hosil bo'ldi.

10. Ommaviy axborot vositalaridan Orol dengizini qutqarish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilayotgani to'g'risida ma'lumot tayyorlang.

Tezis – ilmiy asar, maqola, ma'ruzadagi asosiy g'oyalarning qisqa va lo'nda bayoni; haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim bo'lgan hukm, mulohaza, fikr.

11. Quyidagi tavsiyalarni o'qing va eslab qoling. Ular asosida suhbat matnini tuzing.

Tezis – bu ilmiy matn bo'lib, u o'zida ilmiy tadqiqotning asosiy natijalarini va ularni olish usullarini aks ettiradi. Tezislar ilmiy ma'ruzaning qisqartirilgan shakli emas. Tezislarning maqsadi – konferensiyaning boshqa qatnashchilariga tadqiqotingiz mazmunini yanada yaxshiroq tushuntirishdan iborat.

Sarlavha. Tezis ustida ish boshlashdan avval uning sarlavhasini o'ylab ko'ring. Sarlavha tadqiqotingiz mazmunini aks ettirishi lozim, ammo u ilmiy ishingiz mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Siz qisqa vaqt ichida o'z tadqiqotingiz haqida qatnashchilarga to'liq so'zlab berishga ulgurishingiz lozim. Shuning uchun tezis sarlavhasi lo'nda¹ bo'lgani ma'qul, shu bilan birga u sodda va umumiy bo'lmasligi kerak.

Tarkibi. Har qanday matn, bu puxta² o'ylangan tarkibdir. Tezislar 3ta asosiy va muhim jihat: dolzarblik³, muammo va maqsaddan iborat bo'ladi.

Dolzarblik – bu sizning tadqiqotingiz bugungi kunda naqadar muhim va zarur ekanligini ko'rsatuvchi holat. Tadqiq etilayotgan masalaning dolzarbligini xususida yozar ekansiz, bu borada dalil⁴larni keltirishni unutmang. Dolzarblik “Nega aynan mazkur mavzuni tadqiq

¹ lo'nda – лаконично

² puxta – тщательно

³ dolzarblik – актуальность

⁴ dalil – доказательство

etish kerak?” degan savolga javob beradi. Dolzarblikdan kelib chiqqan holda tezislarning muammosi shakllantiriladi.

Muammo – bu bugungi kunda jarayon yoki holat to‘g‘risidagi va real faktlar o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshilikdir. Muammo “Masalaning ilgari o‘rganilmagan qaysi jihatlarini tadqiq etish mumkin?” degan savolga javob beradi. O‘z navbatida tanlangan muammodan kelib chiqqan holda tezis maqsadi shakllantiriladi.

Maqsad – tadqiqotning yakuniy natijasidir. Bu tezisning eng muhim qismidir. Unda “ishlab chiqish”, “aniqlash”, “asoslash”, “hisoblab chiqish” kabi so‘zlar qo‘llanadi; muallifning tadqiq qilayotgan mavzuni ochishga, uning yangi qirralarini ko‘rsatishga qo‘shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar aniq, miqdoriy ko‘rsatkichlarda¹ va tadqiqot maqsadlariga bog‘liq bo‘lishi zarur. Natijalarni ajratib ko‘rsatilgan holda berish maqsadga muvofiq: tartib raqamlarda (1, 2, 3 ..., I, II, III ...), harflar bilan (A, B, C ...), kirish so‘zlar bilan (“Birinchidan, ...”, “Ikkinchidan, ...”) va hokazo.

Tezisni yakunlar ekansiz, albatta xulosa qilishingiz kerak.

Xulosa – bu yuqorida bildirilgan fikrlarni yana bir bor qaytarish emas, balki tadqiqot natijalarining tahlilidir. Xulosa yangi holatlarni olib chiqishi va “Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha...” degan so‘zlardan boshlansa maqsadga muvofiqdir. Xulosa “Tadqiqot o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishdimi?” degan savolga javob beradi. Albatta tezisda boshqa mualliflarning ishlaridan foydalanishingiz, ularning fikrlarini keltirganingizda muallif ishi, asari, maqolasiga havola² berishingiz lozim. Bu ilmiy izlanishlar makonida siz qanchalik to‘g‘ri va erkin harakatlanganingizni ko‘rsatadi.

(N. Qosimova.)

¹ miqdoriy ko‘rsatkichlar – количественные показатели

² havola – ссылка



1. Savollarga javob bering.

Siz o‘zingizga va yaqinlaringizga eng avvalo nimani tilaysiz?

Salomatlik nima?

Inson salomatligi nimalarga bog‘liq?

Zararli odatlar deganda nimani tushunasiz?

Zararli odatlardan saqlanish uchun nima qilish kerak?

2. So‘z va iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Здоровье, лень, стационар, гимнастика, профилакторий, санаторий, больница, врач, лечение, здоровый образ жизни, медицинский персонал, рецепт, оздоровительный комплекс, беговая дорожка.

3. Inson organizmi haqidagi qiziqarli ma’lumotlarni o‘qing. Ularni o‘z so‘zingiz bilan gapirib bering.

1. Insonning yoshi ulgʻaygan sari nafas olish tezligi kamayib boradi.
2. Burun va quloq umr davomida oʻsadi.
3. Miyaning 80%i suvdan iborat.
4. Koʻzning koʻrish darajasi – 576 megapiksel.
5. Har bir odamning barmoq izlaridan tashqari, tilidagi “naqshlar” ham oʻziga xos.
6. Organizmdagi barcha temir yigʻilsa, uzunligi 7,5 santimetrli mix yasasa boʻladi.
7. Ertalab kechga qaraganda odam boʻyi uzunroq boʻladi. (Kun davomida umurtqa pogʻonasi siqiladi.)
8. Tugʻilganda suyaklar soni 350ta, ulgʻayganda 206ta boʻladi (ayrim suyaklar qoʻshilib ketadi).
9. Odam ogʻirligining 10%i bakteriyalarga, 14%i suyaklarga toʻgʻri keladi.
10. Sogʻlom jigar kuniga 720 litr qonni tozaylaydi.
11. Odam boʻyining uzunligi genlar emas, gormonlarga bogʻliq.
12. Aksa urganda chiqayotgan havoning tezligi 166 km/sekund.
13. Ayollarning yuragi erkaklarnikiga nisbatan tezroq uradi.
14. Koʻp ovqat yeganda eshitish qobiliyati zaiflashadi.
15. Sovuqda xotira va diqqat oshadi.
16. Organizmning eng mustahkam aʼzosi – tish emali.
17. Qorongʻida odam oʻzidan nur taratadi, lekin u shunchalik pastki, koʻz buni ilgʻamaydi.
18. Soʻlaksiz taʼmni sezib boʻlmaydi.
19. Kiprik qoqqanda, 200ta mushak harakatga keladi.
20. Yurak urishidagi ovoz – yurak klapanlari yopilayotganda chiqadi.

4. Matnni o‘qing. Uni mavzuga munosabat bildirgan holda kengaytirib so‘zlang.

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko‘chaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, do‘stlarga, o‘qish yoki ish joyiga kiribq hamsaboqlar¹, hamkasblarga, uyga qaytganda esa oila a‘zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma‘nosi, eng avvalo, bir-biriga sog‘liq, tinchlik, omonlik tilashdir. Shundan ham ko‘rinadiki, inson uchun sog‘liq, omonlik, tinchlikdan qimmatroq boylik yo‘qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda “Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog‘liqlaringiz yaxshimi? Sog‘-omonmisiz?” desak, xayrlashayotganda esa, albatta, “Sog‘ bo‘ling! Xayr, salomat bo‘ling!” deymiz.

Salomatlik insonning eng katta boyligidir. Salomatlik inson tomonidan uning biologik va ijtimoiy faoliyatini to‘liq va keng miqyosda bajarishi uchun eng asosiy omildir, o‘zini namoyon qilishdagi poydevordir.

Inson doim sog‘ bo‘lishi mumkinmi? Ha, mumkin.

Buning uchun:

- o‘z vaqtida rejali ovqatlanish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- o‘qish yoki ishni qat‘iy tartib asosida yo‘lga qo‘yish;
- ertalab badantarbiya qilish;
- tanani doim toza saqlash;
- o‘qish yoki ish joyini doim ozoda saqlash;
- asabiylashishdan o‘zini tiyish;
- ko‘proq quvnoq kishilar davrasida bo‘lish;
- o‘z vaqtida dam olish;

¹ hamsaboqlar – одноклассники, сокурсники

- turli meva, sabzavot va ko‘katlardan iste’mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo‘lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to‘g‘ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi. Asabiylashish esa o‘qish yoki ishdagi dilxiralik¹larga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o‘zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o‘zgarishi, o‘qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta’sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o‘zining doimiy muvozanatini saqlab turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo‘lamiz.

Sog‘lig‘ini asrash har kimning o‘z qo‘lidadir. Buning uchun har birimiz uyda, o‘qishda va ishdagi xushmuomala, bir-birimizga mehribon bo‘lishimiz lozim. Shuningdek, chang, tutun va shovqin-suronsiz sharoitda yashash, o‘qish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni to‘g‘ri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omillardan voz kechishimiz, sport bilan shug‘ullanib chiniqishimiz, qisqasi – sog‘lom hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boylıklaridan ham qimmatroq bo‘lgan sog‘lig‘imizni asrab, baxtli hayot kechiramiz.

5. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”da berilgan quyidagi maslahatlarni o‘qing va o‘zbek tilida tushuntirib bering.

Умеренно и своевременно занимающийся физическими упражнениями человек не нуждается ни в каком лечении, направленном на устранение болезни.

Если заниматься физическими упражнениями – нет никакой нужды в употреблении лекарств, принимаемых при разных

¹ dilxiralik – неприятность, плохое настроение

болезнях, если в то же время соблюдать все прочие предписания нормального режима.

Подвижный, быстрый человек
Гордится стройным станом.
Сидящий сиднем целый век
Подвержен всем изъяснам.

Бросивший заниматься физическими упражнениями часто чахнет, ибо сила его органов слабеет вследствие отказа от движений.

С гимнастикой дружи, всегда весёлым будь,
И проживёшь сто лет, а может быть, и боле.
Микстуры, порошки – к здоровью ложный путь.
Природою лечись – в саду и в чистом поле.

6. Donolarning salomatlik haqidagi fikrlarini sharhlang.

“Ko‘p demak birla bo‘lmas il nodon,
Ko‘p yemak birla bo‘lmas il hayvon”. (*Alisher Navoiy.*)

“Men hayotda ikkita baxtsizlikni bilaman: u ham bo‘lsa vijdotsizlik va bemorlikdir”. (*Lev Tolstoy.*)

“Olti narsa kishi yuzini o‘zgartiradi: kutilmagan shodlik, birdan kelgan g‘am, g‘azab, uyqu, mastlik va qarilik”. (*Kaykovus.*)

“Na boylik va na shuhrat insonni baxtli qila oladi. Kasalmand shohdan sog‘lom gado baxtlidir”. (*Artur Shopengauer.*)

“Badan rohati sog‘liqda, aql rohati bilimda”. (*Fales.*)

“Kasal bo‘lmasuncha sog‘liqning qadriga yetmaydilar”. (*Richard Fuller.*)

“Xalq ichida mo‘tabar hech narsa yo‘q davlat kabi,

Bo‘limg‘ay davlat jahonda bir nafas sihat kabi”. (Badriddin Hiloliy.)

“Shoshilib luqmani chaynagan odam,
Me‘daga qoldirar tish ishini ham”. (Abdurahmon Jomiy.)

7. Ommaviy axborot vositalaridan dunyoda bir asrga yaqin va undan ortiq yashayotgan insonlar haqidagi ma‘lumotlarni toping. Ularning salomatlikni asrash bo‘yicha tavsiyalarini yozib oling va gapirib bering.

8. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qilingg.

Главные принципы правильного питания:

- кушать тогда, когда начал испытывать голод;
- хорошо пережевывать каждый кусочек;
- кушать мелкими кусочками;
- кушать в спокойном состоянии;
- концентрироваться во время еды на процессе;
- кушать сидя;
- ограничить меню одного приема 4 блюдами максимум;
- разделить свой дневной рацион на 4-5 маленьких приемов пищи вместо 2-3х больших;
- активно двигаться на протяжении дня;
- не запивать еду и не пить непосредственно после еды;
- главный объем съеденной пищи – за обедом;
- кушать свежеприготовленную пищу;
- кушать натуральную пищу;
- не употреблять или минимизировать употребление вредных продуктов (майонез, кетчуп, «фаст-фуд», алкоголь и прочее.);

• кушать побольше клетчатки – фрукты и овощи в свежем виде.

9. Matnni o‘qing. Undagi fikrlarni tezislar shaklida ifodalang.

“Oq ajal”

Giyohvandlik nima? Kasalikmi yoki jinoyat?

Giyohvandlik – turli xil narkotik moddalar ta’siriga odam organizmining o‘rganib qolishi natijasida yuzaga keladigan og‘ir kasallikdir.

Giyohvandlikning xalqaro atamasi “narkomaniya” deyilib, bu so‘z yunoncha “*narke*” – karaxtlik, harakatsizlik, “*maniya*” – aqldan ozish ma’nosini anglatadi. Chunonchi, narkotik moddani qabul qilgan odam karaxt bo‘lib, harakatsizlanib, fikrlash, aqliy faoliyat qobiliyatlarini yo‘qotadi.

Odam organizmining biologik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u ba’zi moddalarni ketma-ket, bir necha marta qabul qilishi natijasida ularning ta’siriga o‘rganib qoladi. Oqibatda u mazkur moddani muntazam ravishda qabul qilib turishga intiladi, bu moddani qabul qilmagan paytda o‘zini yomon his etadi, ya’ni bu moddaga nisbatan mute bo‘lib qoladi.

Odam organizmining o‘rganib, mute bo‘lib qolish xususiyati ayniqsa narkotik moddalarga nisbatan kuchli bo‘ladi. Oqibatda odamda narkomaniya kasalligi vujudga keladi. Shuningdek, spirtli ichimliklarga o‘rganib qolish tufayli alkogolizm, tamakiga, nosga o‘rganib qolish natijasida kashandalik holatlari yuzaga keladi.

XX asrning oxirgi choragida avj olgan giyohvandlik XXI asrning vabosiga aylanib borayotgani Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e’tirof etildi va bu ijtimoiy illatga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha

qaror qabul qilindi. Shu bois hozirgi kunda jahon mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi keng jamoatchiligi oldiga qo‘yilgan eng dolzarb muammolardan biri giyohvandlikning oldini olishdan iboratdir.

Ilmiy maqola qanday yoziladi

Ilmiy maqola mazmunli va ommabop bo‘lishi uchun aniq xulosani bera olishi lozim. Maqola yozishdan aniq bir maqsadni ko‘zlash kerak.

Maqolalar kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi.

Kirish qismida mavzu asoslanishi, nazariy jihatdan uning foydali jihatlari yoritilishi, bugungi kun talablariga ko‘ra ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qismda mavzu dalillar yordamida ifodalanishi, amaliyotga tatbiqi, foydalanish o‘rinlari asoslanishi lozim. Bunda aniqdan umumiyashtirishga, umumiylikdan batafsil ko‘rib chiqishga o‘tish lozim. Asosiy qismda mavzuga oid bir necha savollar qo‘yish, muammoli vaziyatlarning mantiqiy yechimini tahlil qilish o‘rinlidir.

Xulosada bayon qilingan asosiy fikrlarni ixchamlash, saqlab qo‘yilgan oxirgi fikrni bayon etish o‘rinli bo‘ladi.

Maqola uslubi deganda uning bayon tili tushuniladi. Ommaviy maqolada tuzilayotgan jumlarlar mumkin qadar sodda bo‘lishi lozim. Bir ega va bir kesimli gaplar samarali ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, murakkab qo‘shma gaplar oddiy o‘quvchi uchun zerikarli bo‘lib, aniq fikrni anglash uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Iloji boricha bir so‘zni ikki marta takrorlamaslik, so‘zning sinonimlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchi jumladagi fikr keyingi jumlada to‘ldirilishi, davom etishi lozim. Bir fikrni qayta takrorlash sun’iylikka olib keladi, chunki bu fikrni ham buzadi, fikrning ta’sirchanligiga ham putur yetkazadi.

Maqolani uchinchi shaxs tomonidan yozish tavsiya etiladi. Maqola yozayotganda mantiqiy ketma-ketlikka urg‘u berish, yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish, o‘quvchilar undan ma’naviy ozuqa olishini ta’minlash, zamon talabiga mos bo‘lgan yaxlit asar bo‘lishi kerakligini unutmang.

10. Matndagi ilmiy maqolaga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating. Matndan tibbiyot sohasida qo'llanadigan terminlarni ajratib yozing va ma'nosini izohlang.

Bugungi kunda dunyoda urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi, kamharakatlilik, metabolik sindromlar hamda sog'lom ovqatlanish tartibiga rioya qilmaslik, yuqori energetik qiymatga boy ovqatlar, diyetik polisaxaridlar, yarim tayyor mahsulotlarni ortiqcha iste'mol qilish bolalar va o'smirlarda ortiqcha tana vazni va semizlikning kun sayin ortishiga olib kelmoqda. Buning natijasida jahonda 1,7 mlrd odam ortiqcha tana vazni va semizlikla duchor bo'lganligi aniqlandi.

Turli mamlakatlarda bolalar va o'smirlar semirishining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarning yuqori samaradorligiga erishish maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, ortiqcha vazn va semirishga olib keluvchi ovqatlanish tartibi va ovqat ratsionini, qiymati pasaytirilgan oqsilga boy taomnomani gigiyenik asoslash; ortiqcha vazn va semirishga olib keluvchi tashqi muhit hamda ijtimoiy omillarning ta'sirini asoslash; milliy an'analar va mentalitetni inobatga olgan holda bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishiga ovqat ratsioni ta'siri modelini ishlab chiqish hamda noto'g'ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladigan semizlikning oldini olish samaradorligi va iqtisodiy maqbulligini asoslash; surunkali semirish sababli kasallanishni erta aniqlash, uning tashhislash mezonlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, aholining milliy mentaliteti o'ziga xosligini nazarda tutgan holda, tashkiliy model va usullarni qamrab olgan profilaktik dasturlarni takomillashtirish, surunkali semirish oqibatida yuzaga keladigan metabolik buzilishlarni erta aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan modelni yaratish kabilar

alohida ahamiyat kasb etadi.

(B. Rahimov, tibbiyot fanlari doktori.)

11. “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi” mavzusida maqola yozing. Unda quyidagi ma’lumotlardan foydalaning.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. 2000-yil respublikamizda “Sog‘lom avlod yili”, 2005-yil – “Sihat-salomatlik yili”, 2006-yil – “Homiylar va shifokorlar yili”, 2007-yil – “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilindi. Aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash yo‘lida alohida xizmat ko‘rsatgan kishilar uchun “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilinadi. Ko‘pchilik korxonalarning profilaktoriylari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog‘lig‘ini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o‘nlab sanatoriylar, dam olish uylari yil bo‘yi ishlab turadi.



1. Berilgan soʻzlar yordamida soʻz birikmalari hosil qiling. Ularning bir-biridan farqini tushuntiring.

(Musiqqa, kino, rassomchilik, teatr, oʻymakorlik)ga qiziqish.

(Aqliy, matematik, texnik, gumanitar, musiqiy) qobiliyat(lar).

(Iqtidor, layoqat, qobiliyat, talant)li boʻlish.

(Iqtidor, layoqat, qobiliyat, talant)ni rivojlantirish.

(Aql, iqtidor, layoqat, isteʼdod, zehn, uquv)li talaba.

2. Jadvaldagi tushunchalarni bir-biriga moslashtirib, uni toʻldiring.

<i>nima?</i>	<i>koʻmaklashadi/ xalal beradi</i>	<i>nimaga?</i>
erinchoqlik iroda matonat sabr-toqat tajribasizlik tirishqoqlik qatʼiyat qaysarlik qunt shoshqaloqlik		isteʼdodni rivojlantirish iqtidorni yuzaga chiqarish tafakkurni oʻstirish layoqatni qoʻllash muvaffaqiyatga erishish mashhur boʻlish maqsadga erishish hurmatga sazovor boʻlish mahoratli boʻlish tajribaga ega boʻlish

3. Mashhur insonlarga oid ma'lumotlarni jadvalga kiriting. Ular haqida gapirib bering.

<i>Kim?</i>	<i>Nima degan?</i>	<i>Qachon yashagan?</i>	<i>Nima qilgan?</i>
Pifagor	“Dunyoni raqamlar boshqaradi”		
Aristotel (Arastu)	“Inson ikki yil gapirishni o‘rganadi, qolgan umrida esa – sukut saqlashni”		
Abu Rayhon Beruniy	“Agar odamlar atrofda qancha qulay imkoniyatlar borligini va ularning o‘zlarida qancha ajoyib iqtidorlar yashiringanini bilganlarida edi, ular umidsizlik va erinchoqlikni butkul unutgan bo‘lardilar”		
Leonardo da Vinchi	“Men yashshni o‘rganyapman, deb o‘ylasam, o‘lishni o‘rganayotgan ekanman”		
Rene Dekart	“Men fikrlayapman, demak, men yashayapman”		
Isaak Nyuton	“Daholik ma’lum yo‘nalishdagi fikrning bardoshidir”		
Nikola Tesla	“Sizga imkoniyatlaringiz chegaralangan, deyishdimi? Adashishadi. Inson hamma narsaga qodir”		
Albert Eynshteyn	“Ong, bir marta o‘z chegaralarini kengaytirgach, hech qachon orqaga qaytmaydi”		
Mariya Kyuri	“Fan insoniyat hayotini yengillashtiradigan va qiynoqlarini kamaytiradigan har qanday taraqqiyotning asosidir”		
Sergey Korolyov	“Inson tafakkurining chegarasi yo‘q”		

4. Berilgan tushunchalarning ta'rifini o'qing. Ularning mazmunidagi farqlarni izohlang.

Iqtidor – kuch-qudrat, qodirlik.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. U faoliyat jarayonida namoyon bo'luvchi imkoniyatdir. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi.

Iste'dod, talant – nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. Iste'dod insonning ma'lum faoliyati turida o'zini namoyon etadi.

Daholik – favqulodda kuchli aql, xotira va ijodiy iste'dod; bilim saviyasi, dunyoqarashiga ko'ra o'z davri darajasidan ilgarilab ketish. Daholik buyuk iqtidor va yuksak ijtimoiy ong mahsulidir. Daholar fan-texnika, madaniyat, xususan badiiy ijodiyot sohasida muayyan millat, davlat miqyosida emas, balki umumbashar, jahon miqyosidagi muhim kashfiyotlar qilishga, ilmiy, badiiy asarlar yaratishga qodir bo'ladi.

5. Savollarga javob bering.

Siz dunyoga mashhur qaysi iqtidor egalarini bilasiz?

Ularning iqtidori qanday aniqlangan?

Ular iqtidoridan qanday foydalanmoqdalar?

Iqtidor bilan muvaffaqiyat orasidagi yo'l og'irmi?

6. Matnni o'qib, unga nom bering. Ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Inson hayoti boshdan oyoq rejalashtirilgan holda o'tadi. Inson tug'ilgach, unga, albatta, ism qo'yadilar, yurishga, so'zlashga o'rgatadilar, so'ngra unga ta'lim beradilar, biror kasb-hunar o'rgatadilar va uni mustaqil hayotga yo'llaydilar. Mustaqil yashash davrida ham har

bir inson muayyan maqsad asosida o‘zi tuzgan katta va kichik rejalar bilan ish ko‘radi. Bu davrda kimlardir buyuk ishlarni amalga oshirib, *ulug‘ siymolarga* aylanadi, kimlardir *o‘rtamiyona*, ya’ni “*el qatori*” yashaydi, kimlardir hayotda yashagani ham sezilmay o‘tib ketadi.

Bularning barchasi insonga berilgan iqtidor va uning harakati tufayli yuz beradi. *Zehn* va iqtidor bilimlarni egallashdagi eng muhim *xislat*lardir. Inson umrining 18 yoshidan 25 yoshgacha bo‘lgan davri uning eng *ziyraklik* davri, 30 yoshidan 40 yoshgacha ijodiy iqtidorning *barq urgan* davri, 40 yoshdan 50 yoshgacha kasb mahoratining eng rivojlangan davri hisoblanar ekan. Buyuk allomamiz Abu Ali ibn Sino o‘z tarjimai holida “Men biror kecha oxirigacha uxlamas, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim”, deb qayd etgan. Kishi katta bo‘lgani sari oqil, tajribali, ilmga beriluvchan bo‘lib borar ekan. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlarning ko‘pchiligi o‘z kashfiyotlarini 30 yoshdan keyin yaratganlar.

Iste’dod va har tomonlama rivojlanganlikning cho‘qqisini egallagan buyuk shaxslarni *daholar* deyishadi. Aytishlaricha, insonning daho darajasiga yetishishida iqtidor 1%ni, tirishqoqlik va *shiddatli* mehnat esa 99%ni tashkil qilar ekan. Haqiqatan ham, og‘ir, mashaqqatli, matonat va sabr talab qiladigan mehnat barcha ilmiy kashfiyotlar, ajoyib musiqa asarlari, rassomchilik, arxitektura san’ati mo‘jizalarining paydo bo‘lishida asosiy o‘rinni egallagan. Shu tufayli bunday asarlar insoniyat tarixida ko‘p asrlar davomida yashaydi. Barcha mashhur insonlarning hayoti va faoliyati bundan dalolat beradi. Ularning ichida turli-tuman sohalar vakillari bor.

Har qanday kasbda ham o‘z mehnati bilan tajriba orttirib, tinmay izlanishlar natijasida yuksak mahorat cho‘qqisiga chiqqan mashhur

insonlar bor. Ularning eng muhim fazilati hech qachon o‘shidan to‘xtamaslikdir.

Aksincha, o‘zini ayaydigan, o‘z huzur-halovatini, moddiy ta‘minotini har narsadan ustun qo‘yadigan, “kunim o‘tsa bo‘ldi” qabilida faqat o‘zi uchun qayg‘uradigan odamlar nafaqat tarixda, balki o‘z zamondoshlari xotirasida ham qolmaydi. Demak, hayotimizning qanday kechishi o‘zimizning harakatlarimiz natijasidir.

7. Fikrga munosabat bildiruvchi vositalarning ma‘nolarini bilib oling.

1. Ishonch va tasdiq	<i>albatta, shubhasiz, haqiqatan, haqiqatan ham, darhaqiqat, ha, xo‘p, mayli, bo‘pti</i>
2. Gumon	<i>ehtimol, balki, shekilli, chamasi, hoynahoy</i>
3. Shodlik	<i>baxtinga, shukur, xayriyat</i>
4. Achinish	<i>baxtga qarshi, attang, afsuski, esizgina</i>
5. Fikrning tartibi	<i>birinchidan, ikkinchidan, avvalo, oxiri, nihoyat</i>
6. Fikrning qarashlilik	<i>menimcha, fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, uning so‘ziga ko‘ra, sizningcha, emishki</i>
7. Fikrning avvalgi fikr bilan bog‘liqligi	<i>demak, shunday qilib, xullas, aksincha, umuman, aks holda, ayniqsa, asosan, shuningdek, binobarin, xususan</i>

8. Nuqtalar o‘rniga fikrga munosabat bildiruvchi so‘zlarni qo‘yib, gaplarni to‘ldiring.

..., olimlar buyuk ishlarni amalga oshiradilar. Ular ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilib, jamiyatni rivojlantiradilar. Ayrim kashfiyotlar, ..., bir necha o‘n yillik ishlar mahsuli bo‘lishi mumkin. ..., ilm olish igna bilan quduq qazishdir. ..., ustozning ishini shogirdlar davom ettiradilar. ..., har bir haqiqiy olimning iste‘dodli shogirdlari

bo‘ladi. Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi”, deb bejiz aytilmagan. ..., olim – bog‘bon, shogirdlari esa hayot mevalaridir.

9. Matnni o‘qing. Uning mazmunini kengaytirib gapirib bering.

Fan olamida shunday olimlar ijod qilib o‘tganki, ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblaridan biri Albert Eynshteyndir. Uning nomi zamonaviy fizika sohasida ochilgan ko‘plab qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart kuni Germaniyaning Ulma shahrida tug‘ildi. Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo‘ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig‘ini chulg‘ab oldi. 1896-yilda Surix texnologiya institutiga o‘qishga kirdi. U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsani hech o‘zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

Institutni bitirgandan so‘ng ketma-ket o‘z ilmiy g‘oyalarini bayon etgan ilmiy maqolalarini nashr qildirib boshladi. E‘lon qilgan har bir maqolasi fizika fanida katta kashfiyot bo‘ldi.

1905-yili “Maxsus nisbiylik nazariyasi” deb nomlangan asari orqali fanga nisbiylik nazariyasini olib kirdi.

XX asrning buyuk olimi, Nobel mukofoti sovrindori darajasiga ko‘tarilgan Albert Eynshteyn 1955-yilning 18-aprelida vafot etdi.

(“Nobel mukofoti sohiblari” kitobidan.)

10. Guruhdoshlaringizning o‘qishga bo‘lgan munosabati haqida fikr yuriting. Ularni quyidagi sifatlar bo‘yicha tavsiflang:

- o‘z layoqatidan to‘liq foydalanadi;
- o‘z layoqatidan deyarli foydalanmaydi;
- o‘z layoqatini bilmaydi.

Intervyu

Intervyu (ingl. “suhbat”) – bir shaxsning ikki va undan ortiq shaxs bilan dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni savol-javob ko‘rinishida almashishi. Ushbu dialogda faktlar va izohlar savollarga javob berayotgan shaxs nomidan ifodalanadi. Intervyuning qanday kechishi savol berayotgan (intervyuni olib boruvchi) shaxsning muloqot mahoratiga bog‘liq. Bunda intervyuni o‘quvchi, tinglovchi yoki ko‘ruvchi auditoriyaning qiziqishlari, xohish-istaklari, ehtiyojidan kelib chiqish lozim.

Intervyu o‘tkazish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- intervyu obyektini tanlash, savollarni tuzib chiqish;
- intervyu olish joyi hamda vaqtini belgilab olish;
- intervyuni o‘tkazish;
- ma’lumotlarni qayta ishlash, intervyuni shakllantirish va rasmiylashtirish.

Respondent – ijtimoiy so‘rovda qatnashuvchi shaxs; so‘rovnoma savollariga javob beruvchi kishi.

11. Taniqli tilshunos olim, professor Nizomiddin Mahmudov bilan o‘tkazilgan intervyudan parchani o‘qing. Uning asosiy g‘oyasini ifodalab bering.

–□ *Til har bir inson uchun xuddi “ona” va “Vatan” so‘zlaridek muqaddas tushuncha. Buni boshqa soha vakillaridan ko‘ra tilshunoslar yaxshi anglaydilar...*

–□ Til haqida aytilgan ta’riflar bisyor. Til eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko‘pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to‘g‘ri anglamaslik natijasida paydo bo‘lgan noto‘g‘ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko‘rishi, eshitishi vositasi hamdir.

Odam dunyoni tili bilan ko‘radi, tili bilan eshitadi va tili bilan idrok qiladi. Misol uchun, yer yuzidagi itlar bir xil tovush chiqaradi, lekin uni o‘zbek “vov-vov”□ deb eshitadi, ingliz boshqacha, rus millati vakiliga boshqacha eshitaladi. Butun dunyo tillari orasida har bir tovushning eshitalish tarzi bir-biridan farq qiladi. Bu degani inson dunyoni tili bilan ko‘radi va tili bilan eshitadi. Inson biron narsani

nomlasa, bu nomni o‘zbek yoki rus o‘z tili bilan ataydi, ular nomlash motiviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, “sinchalak” □ so‘zi, chittak qushining yana bir nomlanishi. Rus tilida u “sinitsa” □ deyiladi. Yana bir misol, “ariq jildirayapti” deymiz. Buni ingliz boshqacha ataydi. Eshitish tilga ko‘ra bo‘lgani uchun taqlidiy so‘zlar hamma tilda bir xil emas.

Barchasining asosiy mazmun-mohiyati tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so‘z yuzaga keladi. Tilni mana shu tarzda tasnif qiladigan bo‘lsak, til bu faqatgina aloqa vositasi emas, ko‘rish, eshitish, hattoki anglash vositasi ekanligini bilib olamiz...

Yer yuzida qor ko‘p yoki kam joylar bor yoki o‘t ko‘p bo‘ladigan va bo‘lmaydigan joylar mavjud. O‘zbek tilida qorning to‘rt yoki beshta nomi bordir, ammo qor ko‘p yog‘adigan mamlakatlarda uning 200–400 tagacha nomi mavjud. Birgina shotlandiyaliklar tilida 421ta qorning ma‘nosini bildiradigan so‘z borligi aniqlangan. Bu davlatda qorning ustiga chang tushadimi, yomg‘ir tushadimi, u muzlab qoladimi – ularning har biri alohida nom bilan ataladi. Arab tilida qorning nomi yo‘q. Ular qorni shakarga o‘xshagani uchun shunday nomlashadi. Tilni mana shunday tarzda keng tasavvur qilish kerak.

– □ ***Ko‘pgina ilmiy asarlarda Hazrat Alisher Navoiy o‘z ona tilini asrab qolish uchun muntazam kurashgan buyuk tilshunos olim sifatida tilgan olinadi. Bu haqdagi fikringiz?***

– □ Alisher Navoiyning ulug‘ maqsadi turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini va uning badiiy xususiyatlarini dunyoga ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Shuning uchun ham juda ko‘plab arabcha va forscha so‘zlarni o‘ziniki qilib olgan. Va bu juda katta jasorat ekanligini ta’kidlash lozim. Navoiy o‘zbek tilining asoschisi sifatida tilga olinadi va bu, albatta, to‘g‘ri e’tirof. Haqiqatan ham, Navoiyning asarlarini o‘qiganingizda o‘zbek tilining ildizi qanchalik chuqur ekanligi, bu tilning imkoniyatlari qanchalik katta ekanligini anglaysiz. Uning asarlarida o‘zbek tilining sintaktik, morfologik, leksik xususiyatlari xuddi ko‘rgazmali quroldek ko‘rsatib qo‘yilgan. Tabiiyki, Navoiy davrida ham fors tilini turkiy tildan ustun qo‘yish kabi harakatlar bo‘lgan. Navoiy turkiy tilni qanchalik bilsa, forsiyni ham shu darajada bilgan. O‘sha davrlarda fors tili saroy tili hisoblangan.

Keyinchalik Alisher Navoiyning harakatlari bilan turkiy til saroy tili ekanligi haqida farmon chiqarilgan. Navoiyning muhtasham va benazir ijodi, ko‘lamli faoliyati uning buyuk mutafakkir va ulug‘ shaxs ekanligining shahodatidir.

–□*Ma’lumki, hozirda bir qator xorijiy davlatlarda o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish ortmoqda. Bu esa o‘zbek tilining vatani bo‘lmish O‘zbekiston bilan xalqaro aloqalarni rivojlantiradi. O‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha xalqaro hamkorlik qanday yo‘lga qo‘yilgan?*

–□O‘zbek tili qadimdan mavjud ekanligi, uning shakllanish bosqichlari necha ming yillik tarixni qamrab olishini G‘arbdir, Sharqdir yaxshi tasavvur qilishadi va buni o‘rganayotgan olimlar ancha-munchani tashkil qiladi. Hattoki o‘zbek tilini o‘rganish maqsadida bir qancha millat vakillari O‘zbekistonga tashrif buyurishmoqda. Koreyalik Kim Byong Il O‘zbekistonga kelib, o‘zbek tilini o‘rganib, ilmiy tadqiqot olib borish bilan birga, 2001-yilda “O‘zbekcha-koreyscha so‘zlashuv kitobi”ni nashr qildirdi. Yoki koreyalik tadqiqotchi Inkyong O o‘zbek tilini o‘rganib, taniqli folklorshunos, professor M. Jo‘raev rahbarligida “Alpomish”–“Jumong”□qahramonlik dostonlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib ketdi. Yaqinda Amerika, Yaponiya davlatlaridan vakillar kelib, o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha malaka oshirib ketishdi. O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish katta. Bundan 25 yoki 30 yil oldin buni tasavvur qilish qiyin edi. Bundan tashqari, dunyoning bir qancha mamlakat universitetlarida o‘zbek tili kafedralari ochilgan. 2005-yildan buyon Xitoydagi Pekin millatlar markaziy universitetida o‘zbek tili kafedrasini faoliyat yuritmoqda. 2012-yildan buyon esa Pekin xorijiy tillar universitetida o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. O‘zbek tili qadimiy va boy til, ulkan adabiyot sifatida o‘zini ko‘rsatmoqda.

–□*Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!*

12. Bo‘lajak kasbingiz sohasida yuksak mahorat va muvaffaqiyatga erishgan inson bilan suhbat matnini intervyu ko‘rinishida tuzing.



1. Hikmatli soʻzlarni oʻqib, ularni izohlang. Ularning mualliflari muvaffaqiyatga qanday erishganligi haqida soʻzlab bering.

“Oʻzingiz orzu qilgan kishi boʻlishingiz uchun hech qachon kech emas”. (*Jorj Eliot, ingliz yozuvchisi.*)

“Muvaffaqiyat faqat intiluvchan odamgagina nasib qiladi. Qiyin sharoitda tushkunlikka tushadiganlarni esa juda kam yoʻqlaydi”. (*Javoharlaʼl Neru, hind siyosatchisi.*)

“Buyuk muvaffaqiyatlar qatʼiyat va qunt-matonatning natijasi, xolos”. (*Semuel Jonson, ingliz adabiyotshunosi.*)

“Eng muhimi – muvaffaqiyatga erishish uchun nimadir qilish va bunga hoziroq kirishish. Juda oddiy boʻlishiga qaramay, muvaffaqiyatning eng asosiy sir-sinoati shu. Ajoyib-gʻaroyib gʻoyalar har kimda bor, biroq uni hayotda tatbiq etayotganlar, ayniqsa, ayni damda shu ish bilan shugʻullanayotganlar juda kam. Ertaga yoki keyingi hafta emas, hoziroq ishga kirishish kerak”. (*Nolan Bushnell, mashhur amerikalik tadbirkor.*)

“Agar sen biror narsani oʻylab topa olsang, uni bajarishga ham qodirsan”. (*Uolt Disney, mashhur rejissor, multiplikator.*)

“Hayotdagi eng birinchi va eng muhim narsa o‘zingni o‘zingga bo‘ysundirishga intilishdir”. (*Vilgelm Humboldt, nemis faylasufi.*)

“Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo‘llarini o‘ylab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat‘iy jazm, sabr-chidam ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzog‘ini o‘ylab, ortini esdan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim”. (*“Temur tuzuklari” dan.*)

“Odam mashg‘ulot zallarida chempion bo‘lmaydi. Chempion bo‘lish uchun ishni ruhiyatdan boshlash kerak – istak, orzu va o‘z g‘alabasini aniq-tiniq his qilishgina kishini maqsadiga eltadi”. (*Muhammad Ali, mashhur bokschi.*)

“Obro‘-e‘tiborni shakllantirish va mustahkamlash uchun yigirma yil kerak bo‘ladi. Uni yo‘qqa chiqarish uchun esa besh daqiqa ham yetarli. Agar siz buni jiddiy o‘ylab ko‘radigan bo‘lsangiz, qilayotgan ishingizga munosabatingiz albatta o‘zgaradi”. (*Uorren Baffet, mashhur amerikalik tadbirkor.*)

“Boshqalarga yordam berishga intiladigan odamgina muvaffaqiyatga erishadi. Faqat o‘z foydasini o‘ylaydiganlar esa mag‘lubiyatga uchrayveradi”. (*Brayan Treysi, taniqli psixolog.*)

“Muvaffaqiyat asosiy maqsadingiz ko‘z oldingizda turganda keladi. Maqsadingiz ko‘zdan nari ketishi bilan muvaffaqiyat ham ketadi”. (*Bernard Shou, ingliz yozuvchisi.*)

2. Quyida berilgan tushunchalarni o‘zbek tilida izohlang. Misollar keltiring.

Мотивация, интеллект, целеустремленность, усидчивость, препятствия, неудача, лидер, достижение, провал, стратегия, карьера, предприимчивость, свершения, вдохновение, самосовершенствование, инноватор.

3. Matnni o‘qib, unga munosabat bildirgan holda so‘zlang. Matnning konspektini tuzing. Unga sarlavha qo‘ying.

Hayotda har birimiz baxtli, omadli inson bo‘lishni istaymiz. Buning uchun o‘qiymiz, o‘rganamiz, mehnat qilamiz. Nima deb o‘ylaysiz, muvaffaqiyatga erishishning tilsimi¹ mavjudmikan? Doimiy ravishda yaxshiroq narsalarni orzu qilish va unga erishish insonlargagina xos bo‘lgan xususiyatlardandir. Masalan, bular qatorida mansab pillapoyalari²dan muvaffaqiyatli olg‘a ildamlash, salomatlik, insonlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish va h.k lar shular jumlasidandir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bizdan kuch sarflash va unumdorlik³ka yetaklovchi odatlarni rivojlantirish talab etiladi. Har birimiz o‘z maqsadlarimizga erishishga qodirmiz. Shunday ekan, nima uchun hammamiz muvaffaqiyatga erisha olmaymiz? Buning siri – o‘zimizda ba’zi odatlarni shakllantirishdan iboratdir. Quyida keltirilayotgan 8 xil odat sizni muvaffaqiyat sari yetaklaydi...

1. Sabrli bo‘ling. Nimagadir erishmoqchi ekansiz, ishtiyoq⁴qa ega bo‘lishingiz darkor. Ishtiyoqlilik maqsadlaringizga yetishishingizda sizga kuch baxsh etadi⁵ va unga erishishingizga yordam beradi. Bajarayotgan ishingizni yaxshi ko‘rishingiz – muvaffaqiyatga erishish kalitidir.

2. Kuchingizni haqqoniy baholang. Aytishlaricha, inson kuchi va imkoniyatini boshqalarga qaraganda yaxshi biladi. Shunday ekan, sizdan boshqa kim ham istaklaringizdan xabardor bo‘lmog‘i kerak? Eng yaxshi bajara oladigan ishingizni aniqlang va uni bajaring, muvaffaqiyat sizning ortingizdan o‘zi quvadi.

¹ tilsim – талисман

² mansab pillaroyalari – карьерная лестница

³ unumdorlik – продуктивность

⁴ ishtiyoq – желание, охота

⁵ kuch baxsh etadi – придает силу

3. *Qattiq ishlang...* Hech narsaga osonlikcha erishilmaydi. Astoydil mehnat, davomiylik, o‘zini bajarayotgan ishga baxsh etish – muvaffaqiyatingizning asosiy qismlaridandir. Astoydil¹ mehnat va yutuqlarga erishish uchun ketkazilgan vaqt unumdorlik bilan foydalanilgan hisoblanadi va kelajakda bunga yarasha yutuq bilan taqdirlanasiz. Shuning uchun kutayotgan natijangizni qilayotgan mehnatingiz bilan taqqoslay bilishingiz lozim.

4. *O‘zgalarga ustozlik qiling.* Muvaffaqiyatingizga oid bilimlaringizni boshqalar bilan baham ko‘ring². O‘zingizning bilimingizni boshqalarga ham o‘rgating. O‘zgalarga yordam berish juda muhim. Siz bilan birgalikda faoliyat yurituvchi insonlarga muvaffaqiyatingiz haqida berilgan ma’lumot unumdorlikni oshirishga yordam beradi.

5. *Maqsadlarni faollik bilan belgilab oling.* Maqsadlaringizni belgilab olmas ekansiz, buyuk natijalarga qanday qilib erishasiz? Qadriyatlar va ishtiyoqingiz baland bo‘lgan yo‘nalishlarga qarab maqsadlaringizni belgilab oling. Undan keyin maqsadingizga erishish qo‘lingizda bo‘ladi. Muvaffaqiyatga erishishda aniq reja belgilab oling. Maqsadingizni qadamlarga bo‘lib taqsimlab chiqing.

6. *Aniq muddat belgilab oling.* Muvaffaqiyatga erishishning aniq muddatini belgilab olmasangiz, uning amalga oshish vaqtini qanday belgilaysiz? Haqqoniy bo‘lish bu yerda muhim hisoblanadi. Muvaffaqiyatga erishish jarayoni qancha vaqt oladi? Barcha jarayonlarni amalga oshirish uchun o‘zingizga yetarlicha vaqt bering.

7. *Ustuvor maqsadlarni belgilab oling.* Maqsadlaringiz orasida ustuvorlarini belgilash juda muhim. Bir necha vazifalarni bajarishingiz lozim bo‘lganida, qay birini birinchi yakunlash kerakligini aniqlash

¹ astoydil – серьезный, добросовестный

² baham ko‘rish – делиться

zarur. Vazifalar orasidan birinchi bo‘lib dolzarblarini bajaring. Uni bajarib bo‘lgach, muvaffaqiyatingizga yanada yaqinlashasiz. Dastlab eng murakkab ishni bajarish ham juda muhim. Kun davomida g‘ayratingiz kamayib borishi aniq. Qiyin ishni kun oxiriga qoldirsangiz, u bajarilmay qolib ketishi mumkin.

8. Tavakkalchilikka qo‘l uring. Tavakkalchiliksiz yutuq bo‘lmaydi. Ammo hamma tavakkalchiliklar ham ijobiy natijaga olib bormaydi. Unga qo‘l urar ekansiz, muhim bo‘lgan o‘rganish jarayonida kerakli malakaga ega bo‘lasiz. Demak, muvaffaqiyatga erishish ham ma‘lum odat va ko‘nikmalarni talab etar ekan.

O‘ylaymizki, yuqorida keltirilgan sakkiz xil odat baxt va omadga erishishingizda sizga yordam beradi.

4. Maqollarning mazmunini tushuntiring.

Avval kuzat, keyin tuzat.

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar,
Uzoq bilan yaqinni – yurgan.

Bir sinalgan tajriba
Yetti kitobdan afzal.

Bosh toshga tegsa,
Aql boshga kelar.

Og‘izga solgan oshni yuta bilmoq kerak,
Qo‘lga kiritgan davlatni tuta bilmoq kerak.

So‘zlay-so‘zlay gapchil bo‘larsan,
Ishlay-ishlay epchil bo‘larsan.

Umrim uzun bo‘lsin desang,
O‘z ishingni puxta qil.

Yo‘lni bilgan qoqilmas.

5. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Kompetentlik turlarini lug‘at yordamida izohlang.

Какими компетентностями должен обладать специалист?

Самые главные компетентности, которыми должен обладать специалист – *ключевые*, являющиеся основополагающими в деятельности каждого человека. Ими пользуются и применяют на практике и рабочем месте ежедневно. Их овладение необходимо для достижения различных целей и решения сложных задач в самых разных ситуациях. К ним можно отнести такие способности:

- организовать и упорядочить свои знания,
- уметь извлекать пользу из опыта,
- уметь найти выход из сложной ситуации,
- самообразование,
- самовоспитание,
- самоконтроль.

Специалист также должен искусно владеть профессиональными компетентностями. Прежде всего, умело владеть *коммуникативной* компетентностью. Так как на работе мы вынуждены взаимодействовать со своими коллегами и общаться с клиентами, построение коммуникации – основной приоритет для каждого специалиста.

Практическая компетентность способна помочь применить на практике в необходимый момент умения и навыки.

Так как все мы живем в информационный век, где основным практическим объектом является информация, овладение *информационной* компетентностью дает возможность получать, обрабатывать информацию, применять ее на практике.

Социальная компетентность помогает специалисту осознать себя, свои возможности и значение в обществе.

Психологическая компетентность частично связана и с *валеологической*. Если психологическая компетентность дает знания о человеке, его психологии и психологии клиентов, их потребностях и желаниях, то валеологическая дает знания о самой главной ценности человека – жизни и знания, как ее беречь и ценить.

Таким образом, профессиональная и ключевая компетентности являются основополагающими в формировании компетентного профессионала, обладающего универсальными навыками и знаниями, которые можно применить в жизни при любых обстоятельствах.

6. O‘zingiz tanlagan kasb bo‘yicha mutaxassis ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar ro‘yxatini tuzing. Ularning har birini misollar bilan izohlang.

7. Matnni o‘qing. Inson uchun eng kerakli fazilatlarni bilib oling.

Donishmandlar tubanda aytilgan axloqiy fazilatlarni inson uchun eng kerakli fazilatlar deb topganlar:

Sukut — o‘zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so‘zlarni so‘zlashdan chekin, jim bo‘l.

Intizom — ishlaring tartibli, intizomli bo‘lsin, ishingni o‘z vaqtida bajar, kechiktirma.

Maqsad — bir ishga kirishmoqchi bo‘lsang, eng avval yaxshilab o‘yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qarorga kel. Keyin bu ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash — iqtisod, ya’ni tejamkorlikka rioya qil, o‘zingga va xalqqa foydasi tegmaydigan yerlarga pul va mol sarf qilma, isrofdan saqlan.

Sa’y va shug‘ullanish — vaqt va fursatingni bekordan bekorga o‘tkazma. Doimo foydali ish bilan mashg‘ul bo‘l, kerak bo‘lmagan narsadan chekin.

Matonat — ishingda chidamli, matonatli bo‘l. Hiyla-nayrang ishlatishdan hazar qil, tushunchang pok, sof va haqqoniy bo‘lsin, tushunganing kabi so‘zla va ishla.

8. Matnni o‘qing va unga o‘z munosabatingizni bildiring.

Muvaffaqiyatga erishish uchun o‘ziga berilguvchi 5 savol

Ko‘rinishidan muvaffaqiyatli odamlar, ko‘pincha ich-ichidan norozi bo‘lishadi. Voqelik ularning taxminlariga mos kelmay qolgan paytda, insonlarning hayotida muvozanat buzila boshlaydi. Haqiqatda nima xohlayotganligini tushunmasa, inson baxtni his qila olmaydi. Hayotiy muvozanatni topish va ongli ravishda yashash uchun, o‘zingizga quyidagi savollarni muntazam bering.

1. To‘g‘ri yo‘ldamanmi?

Vaqt boshqaruvi muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar mavjud g‘oyani qisqa vaqt ichida amalga oshirishni tavsiya qiladilar. Shuni unutmangki, xayolga kelgan yumush ikki turga bo‘linadi — zaruriy va nozaruriy. Ko‘p ishlangiz, ko‘p narsaga ulguraman deb o‘ylasizmi? Yo‘q, unumdorlik rejadan va ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri tartiblashdan boshlanadi. Ketma-ket hamma narsaga erishish va o‘zingizni stressdan chiqarish uchun “Hech nimaga ulgurmayapman” deyishdan avval, bu vazifa haqiqatan ham mening e‘tiborimini talab qiladimi, deb o‘zingizga savol bering.

2. Ijobiy narsalar haqida o‘ylayapmanmi?

Hayotning qaysi tarafidasiz, sizda nima bor yoki nima yo‘q? O‘zingizga diqqat bilan quloq tuting va haqiqatni ayting: ongingizda qaynday fikr ko‘proq – salbiymi yoki ijobiy? Bizning miyamiz xuddi radioga o‘xshaydi: agar uni “Hammasi yomon” degan fikrga sozlasak, xuddi shunday bo‘ladi. Agar nimanidir optimisitik kayfiyatda tanlasak, yaxshi tomonga o‘zgarish sodir bo‘ladi. Nimagaki ega bo‘lsangiz, shu ne‘matga rozi bo‘ling. Shukronalik omadga yetaklovchi vositadir.

3. Qiyinchiliklarga qanday munosabatdaman?

O‘ylaringiz o‘ta ijobiy bo‘lsa ham, sizda mumammo bo‘lishi tayin. Bundan qochib qutulib bo‘lmaydi. Barcha jarayonni har doim nazorat qilish imkonsiz. Bu faktni qabul qiling va qiyinchiliklarga qanday qarashingiz haqida mulohaza qiling.

- Hayotda qandaydir baxtsizlik sodir bo‘lsa (kasallik, ishdan bo‘shash, avariya va h.k.), bu siz uchun qiyomatmi yoki hayotning yangi sinovimi?

- Agar sizda raqib paydo bo‘lsa, siz buni shaxsiy haqorat deb bilasizmi yoki o‘shish uchun imkoniyat debmi?

- Katta muammoga duch kelsangiz, “nima uchun bunday bo‘ldi” deb asabiylashasizmi? Yoki duch kelgan to‘siqqa yangi marraga erishtiruvchi trampolin deb qaraysizmi?

Demak, qiyinchiliklarga imkoniyatdan kelib chiqqan holda qarash kerak.

Boy berilgan imkoniyat haqida afsuslanish befoyda. Masalan, otangiz sizga katta miqdorda pul berib, uni aql bilan sarflashni tayinladi. Siz pullarni yangi biznes uchun emas, mashina xaridi uchun sarf qildingiz, u ham yetmagandek, mashinani urib yubordingiz... O‘zingizni qancha koyimang – foydasi yo‘q. O‘tgan ishdan xulosa chiqaring va oldinga intiling.

4. Yuksalish uchun men nima qilayapman?

Sizdagi IQ¹ darajasining yuqoriligi va bir necha diplomingiz borligi muhim emas – intellekt va bilim, agar harakat bo‘lmasa, bir pul.

Qachonlardir bajarilishi ko‘zda tutilgan juda zo‘r rejadan, bugungi ma’qul rejaga amal qilish yaxshiroq. Omadli odamlar qulay vaqtni kutib o‘tirmaydilar. Agar g‘oya tug‘ilsa, ular shu g‘oyani joyida amalga oshirishga harakat qiladilar. Qulay vaqtni kutib o‘tirish – qo‘rquvdan

¹ IQ – «коэффициент интеллекта», общепринятый стандарт по измерению уровня интеллекта

boshqa narsa emas. Nimadir amalga oshmadimi? Juda soz. Tahlil qildim, xulosa chiqardim – endi oldinga olg‘a. Hayot ayni dam, shu yerda davom etmoqda va shunga yarasha harakat qilmoq darkor.

5. Mening muvaffaqiyatimga nima yordam beradi?

Deylik, siz ozishni xohlaysiz, lekin qattiq charchoq tufayli, jismoniy mashqlarni, to‘g‘ri ovqatlanishni orqaga tashlaysizmi? Siz ozolmaysiz. Ishingizni yangi bosqichga olib chiqmoqchisiz, lekin strategik zarur vazifadan ko‘ra, muntazam boshqa ishlar bilan mashg‘ulmisiz? Unda maqsadga erisha olmaysiz.

Hayotda kamdan-kam narsa o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi. O‘zgarishlar mashaqqat talab qiladi. Mehnatlar behuda ketmasligi uchun, keraksiz narsalardan qochish va har doim qo‘yilgan maqsadni o‘z-o‘ziga eslatib turish zarur. Vaqtni boshqarishda elektron qurilmalardan foydalanish mumkin. Ish rejalarini organayzerlar yordamida amalga oshiring. Qog‘oz yoki elektron kundalik tutishga harakat qiling.

Ba‘zi odamlarga, boshlagan ishi yakuniy bosqichiga kelsa-da, marraga erishish uchun turtki yetmaydi. Ularni boshqa odam misoli bilan ilhomlantirish mumkin. Odamlar – ijtimoiy mavjudot va hech narsa ularni “u qila oldimi, men ham qila olaman!” kabi ilhomlantirmaydi.

(maslahatim.uz saytidan.)

9. Berilgan ma’lumotdan foydalanib, matn tuzing.

Muvaffaqiyat yo‘lidagi 15ta to‘siq

1. Hamma narsa bilan bir vaqtda shug‘ullanish.
2. Bemaqsad bo‘lish.
3. Birdaniga juda ko‘p maqsadni ko‘zlash.
4. Ishni ortga surib qo‘yish.

5. Vaqtida ovqatlanishni unutish.
7. Xarajatlarni nazorat qilmaslik.
8. Muhim narsalarni yozib olmaslik.
9. Kunni tartiblamaslik.
10. Tanaffuslarsiz mehnat qilish.
11. Qaror qabul qilishdan qoshish.
12. Keraksiz axborotni olish.
13. Sog‘liqqa e‘tibor bermaslik.
14. Ishni yarim yo‘lda tashlab ketish.
15. Xatolarni tan olmaslik.

10. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering.

ОБРАЗОВАНИЕ И КУЛЬТУРНОСТЬ

Каким должен быть культурный человек? Определяется ли подлинная культура человека, его внутренняя интеллигентность, его общее развитие, скажем, дипломом, которым он владеет, получив образование в том или ином учебном заведении?

У нас иногда путают два понятия: образование и культурность. Конечно, в наше время человек, не имеющий никакого образования, не может стать и поистине культурным. Систематическое образование лучше всего получить в том или ином учебном заведении. Но, помимо образования, нужно ещё и самообразование, то есть постоянное накопление знаний, общекультурных навыков, развитие определённой способности восприятия, умения разбираться во всех тех областях духовной и материальной жизни, с которыми, может быть, и не связана непосредственно работа человека.

Люди ленивые, малознающие, плохо работающие, не понимающие истинно прекрасного, нарушающие правила общественной жизни не могут по-настоящему испытывать радость труда, радость творчества, радость общения с людьми.

11. “Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?” mavzusida esse yozing.

Reportaj tayyorlash

Reportaj (fran. *reportage* – “xabar bermoq”) – sodir bo‘layotgan voqealar tafsiloti haqidagi axborot bo‘lib, ommaviy axborot vositalarida chop etish yoki radio va televideniye orqali uzatishga mo‘ljallangan. Reportaj voqea guvohi nomidan bayon qilinib, uning maqsadi o‘quvchi (tinglovchi, tomoshabin)da shu voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek taassurot qoldirish, uning qarashlarini shakllantirish, harakatga undashdan iborat.

Reportajning tili sodda va lo‘nda bo‘lishi, shu bilan birga so‘zlashuv uslubida bo‘lmashligi kerak, shunda o‘quvchi muallifning kompetentligi va til madaniyatiga baho bera oladi.

Reportajning tarkibiy qismlari quyidagilar:

- sarlavha e‘tiborni tortadigan bo‘lishi kerak;
- kirish qismi o‘quvchini mavzuga olib kiradi;
- asosiy qism voqeaning mohiyatini ochib beradi;
- yakuniy qism muallifning voqega munosabatini aks ettiradi.


Reportajni bayon qilish uslubi voqeaning qandayligiga bog‘liq. Masalan, ilmiy konferensiyadan tayyorlangan reportajda rasmiy va ilmiy uslublarga xos leksik birliklar, ommaviy tadbirdan tayyorlangan reportajda publitsistik va badiiy uslub vositalaridan foydalaniladi. Shu bois reportaj o‘zida bir necha janrlarni mujassam qiladi. Xususan, reportaj davomida voqea talqinining obyektivligini bo‘rttirish uchun ko‘pincha intervyu ham olinadi. Bunda respondentga mumkin qadar sodda va hamma uchun tushunarli savollar berish maqsadga muvofiq.

Reportaj tayyorlashdan oldin muallif uning mavzusi bo‘yicha mumkin qadar ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lish uchun tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Reportaj aniq hodisaning aniq faktlarga asoslangan tasviridir. Bunda reportaj obyektining mayda detallari ham muhim hisoblanadi. Muallif o‘zining nuqtayi nazarini bildirishi, biroq shu bilan birga o‘ta subyektiv fikrlardan qochishi kerak, aks holda reportaj ishonarsiz bo‘lib qoladi.

12. O‘qing. Shevaga xos so‘zlarni topib, mazmunini tushuntiring.

“Avesto” muzeyidan reportaj



Xorazm — sir-sinoat o‘lkasi. Aynan shu vohaga borganda moziyning inson tafakkuri yetmagan qatlari ochila boshlaydi. “Avesto” muzeyi esa aynan ana shu sirlar, mingyillik qa’ridagi tarixdan so‘zlaydi.

Urganch shahrining qoq markazida “Avesto” amfiteatri joylashgan. Aynan shu maydonga ajratilgan bino muzeyga aylantirilgan. Bu yerdagi bir-biridan antiqa va sirli, turli davrlarga oid eksponatlar, Yura davriga oid toshga aylangan daraxtdan to kechagina “Lazgi”si bilan barchani xushnud etgan O‘zbekiston xalq artisti Olmaxon Hayitovagacha so‘zlaydi.

Ichkarilar ekansiz, vohaning cho‘girmali bobosi va lachakli momosi sizni “Galing, meyman”, deya kutib oladi. Bu chol-kampirning qadimiy libosiga, xorazmliklarga xos tavoze-yu samimiyatiga mahliyo bo‘lib turganingizda ichkaridan muzey rahbari Komiljon Nurjonov peshvoz chiqadi.

— *Muzey 1997-yilda tashkil topgan bo'lsa-da, aslida muzeyga ancha oldin eksponatlar to'plana boshlangan, — deydi muzey rahbari. — Hozir bu yerda ikki mingga yaqin eksponat bor: 850tasi moddiy, qolgani hujjatlar, foto-suratlar, turli davrga oid kitoblar, nodir qo'lyozmalar. Yaqinda 43 noyob kitobni Ma'mun akademiyasiga taqdim etdik. Muzeyimiz Xorazmning to qadimgi davridan bugungi kunigacha ma'lumot beradi.*

Kiraverishdagi xonada Islomxo'ja minorasining maketi. Aytishlaricha, Islomxo'janing to'rt o'g'li bo'lib, hech biriga meros qoldirmagan, bor boyligini shu minora qurilishiga sarflagan. Minora asosan kuzatuv va namozga chaqirish vazifasini o'tagan. Xonada yana makedoniyalik Aleksandr va Xorazm podshosi Farasmanning sulh jarayonidagi bo'rtma tasvirini ko'rasiz. Keyingi xona sizni xorazmliklarning yuz yil oldingi maishiy hayoti sari chorlaydi. Uy anjomlari — quramishdan tikilgan ko'rpacha-yostiq, kiyimlarning barchasiga guvoh bo'lasiz. Qadimiy chiroq, patefon, krujka, kiyimlar esa rus madaniyatidan so'zlaydi.

Uchinchi xonada Chilpiqqal'adan topilgan million yillik eksponat — toshga aylangan daraxtga duch kelasiz. Bo'yi 1 metr-u 240 santimetr, og'irligi 250 kilogramm, belbog'i 96 santimetr bo'lgan bu tosh daraxtni germaniyalik tadqiqotchilar tekshirganda, uning Yura davriga oidligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, Amudaryo bilan Nukusning o'rtalig'idan arxeolog Tolstov topgan chayla maketi, 350 yillik islom diniga xos bo'lgan qabr, Sulton Uvays tog'idagi qabrdan topilgan Qur'onning teriga yozilgan oyati, qadimiy sopol buyumlar sizni xayolga toldiradi. Qoraqalpog'istondagi Yonboshqal'a atrofidan topilgan ostadonlar (*mayit suyaklari solinadigan idish*)ni ko'rganingizda esa ajdodlar xoki oldida turganingizni his etasiz. So'ng ro'parangizda Zardo'shtning Pavel Klichko yaratgan portreti paydo bo'ladi. 12 ming mol terisiga yozilgan Avestoning omon qolgan bir parchasiga ham ko'zingiz tushadi.

— *Avesto aynan Xorazmda yaratilganini ko‘plab manbalar isbotlaydi, — deydi muzey rahbari. — Chunki xalqimizda 18 xil urf-odat borki, bularning hammasi Avestodan qolgan. Masalan, Xorazmda kelin kelganida uni olov ustidan hatlatish, kech tushganida qo‘shniga qatiq bermoqchi bo‘lsa, qatiq ustiga gugurt yoqib tashlash, bola yig‘lasa, beshik atrofini gugurt yoqib aylantirish kabi odatlar hozirgacha bor.*

Muzeyni aylanar ekanmiz, qo‘y, it, ot, baliq kabi jonzotlar haykalchalari diqqatimizni tortdi. Ha, bejiz qo‘y yuvvoshlik, it vafodorlik, ot davlat, baliq halollik ramzi sifatida qadrlanmas ekan. Ko‘zimiz jildi sarg‘ayib ketgan katta kitobga tushadi. So‘z sultoni, bobokalonimiz Alisher Navoiyning “Xamsa”si. Muzey rahbari Komiljon Nurjonov yana hikoyasini boshlaydi:

...O‘tgan asrning 30-yillari. Kimning xonadonidan arab yozuvidagi kitob topilsa, qatag‘on qilinayotgan payt. Odamlar bu yovuz xabardan qo‘rqib qolgan. Chunki kun ora kimnidir xonadonida aza ochiladi. Shu sabab Xivaning ziyoli bir qo‘ningohidan tun yarmida katta kitobni qo‘ltiqlaganicha sharpalar chiqadi. Ular Ichanqal‘aning janubi-g‘arbiy tomoniga o‘tishadi va devor tagini kavlashadi. Sharpalarning bittasi oldin kitobni mehr bilan silaydi, keyin aziz insonidan ayrilayotgandek unsiz yig‘laydi. Ikkinchi sharpa kitobni apil-tapil olib, katta ko‘rpa, ustidan jun po‘stinga o‘raydi. So‘ng uni kavlangan o‘raga ko‘mishadi. Oradan yillar, davrlar o‘tdi. Otabobolaridan qolgan sirni xonadon egalari aytadigan vaqt keldi. Matkarim Xudoyberganov “Xamsa”ning Hirotda ko‘chirilgan qadimiy nusxasini kavlab oldi. Kitobning jildi, tashqi sahifalari chirib, sarg‘ayib ketgan, ammo ichki sahifalari to‘liq saqlangan edi...

Yana muzeydagi sayohatimizga qaytamiz. Uzun yo‘laksimon xonada portretlar qatorlashtirilgan. Ulardagi qiyofalarga qarab, boqib turgan siymolarning turli taqdirlari ko‘z oldimizga keladi. Mana, Anna German,

Xorazmda tug‘ilgan mashhur qo‘shiqchi. Rahmat Majidiy — O‘zbekistonda Yozuvchilar uyushmasini ilk bor tashkil etgan, ijodkorlarning boshini bir joyda qovushtirgan inson. Xorazmni ardoqlagan kishilar — Madrahim Sheroziy, arxeolog Tolstov, Rajab Jumaniyozov, rassom Lola Abdullayeva... Besh yoshida Hindistonning Shankar mukofotini qo‘lga kiritgan Yorqinoy Sapayevaning kulib turgan suratiga ko‘zimiz tushadi. Hali bolaligidayoq barchani o‘zining asarlari bilan lol qoldirgan yosh rassom 18 yoshida vafot etadi. Muzei rahbari bu haqda afsus bilan gapirarkan, biroz jim qoladi. So‘ng esa birdan yuzlari yorishadi. Bizni qo‘lyozmalar saqlanadigan xonaga boshlaydi. Bu yerda u XIV asrga mansub bo‘lgan “Ilmun qutub” asari va Xorazm tarixidan so‘zlaydigan qo‘lyozmalarni ko‘rsatadi! “Aksariyat qo‘lyozmalarni Ma‘mun akademiyasiga berdik, — deydi u, — ular hozir o‘rganilmoqda...”

Har bir eksponat haqida ma‘lumot olar ekansiz, hech qaysi kitobda hali yozilmagan hikoyalarini tinglab, o‘zingizni o‘sha davrda yashayotgandek his etasiz. Goh Najmiddin Kubro haqida ma‘lumotlar, goh shoh Feruz, 13 yoshida zaharlab o‘ldirilgan Temurg‘ozi to‘ra haqida qiziq hikoyalarni eshitasiz.

Muzeidan bir olam taassurotlar bilan chiqar ekanmiz, Komiljon Nurjonov “shoshmang” ishorasini qiladi:

“Ko‘rganlaringiz hali hammasi emas. Joyimiz tor bo‘lgani uchun eksponatlarning hammasini ko‘rgazmaga qo‘yganimiz yo‘q. Yaqinda muzeyimiz moslashtirilgan binoga ko‘chib o‘tadi. Ana o‘shanda siz Turkmaniston chegarasidagi Darxonotadan Orol dengizigacha, Qizilqumdan Qoraqumgacha bo‘lgan hududda ikki yil mobaynida o‘tkazilgan ekspeditsiya jarayonida topilgan eng noyob eksponatlarni ko‘rasiz. Yana kelinglar, kutamiz!..”

(Go‘zaloy Matyoqubova, “Oila davrasida” muxbiri.)

II BO‘LIM

27-mavzu

ISH YURITISH TILI VA USLUBI

Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar *rasmiy-idoraviy uslub*da yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubda jumlar bir qolipda, bir xil shaklda bo‘ladi. So‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos terminlaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi.

1. Ma’lumotni o‘qing va konspekt tuzing.

Har qanday tashkilot, muassasa, korxonada ish faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uni to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq. Ish yuritish esa boshqaruv jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ish yuritish amaliyoti yillar mobaynida shakllanib, tashkilot faoliyatining tezkorligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Boshqaruv tizimida hujjatlar bilan ishlash normalari, qoidalari va talablariga amal qilmaslik muhim ma’lumotlarning yo‘qolishiga, ma’muriyat qarorlarining ijrochilarga o‘z vaqtida yetib bormasligiga, tashkiliy-boshqaruv aloqalari tizimida salbiy ko‘rsatkichlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ish yuritish, hujjatlar bilan ishlash har bir tashkilot, muassasa, korxonada ish faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat

ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatlar *normativ-huquqiy hujjatlar* deyiladi. Ushbu Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari belgilangan:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ hujjat deb faoliyatning har xil turlari yoki ularning natijalariga doir qoidalar, umumiy tamoyillar va xususiyatlarni belgilab beruvchi hujjatga aytiladi.

<p><i>Hujjat</i> (arab. "guvohnoma, isbot, dalil") – axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt.</p>
--

Hujjatlar tarixiy manba, dalillovchi yoki guvohlik beruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ish hujjatlari uchun alohida uslub – rasmiy uslub ishlab chiqilgan, u qonunchilikka va ish yuritishga xizmat qiladi. Shu bois ish yuritish uslubi asosan ma'muriy-huquqiy faoliyatda qo'llanadi.

Rasmiy uslubning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari mavjud bo'lib, unda so'zlar faqat o'z ma'nosida qo'llanadi, hissiy bo'yoqdor ifodalar ishlatilmaydi, sohaga oid qisqartma nomlardan

foydalaniladi, sohaviy terminlar qo‘llanadi va hokazo. Hujjatlarning matni qisqa, aniq va lo‘nda bo‘lishi kerak. Ular asosan darak gaplardan, farmoyish hujjatlari esa buyruq gaplardan tashkil topadi.

Hujjatlarni to‘g‘ri va bexato yozish savodxonlik hamda yozma nutq madaniyati ko‘rsatkichidir. Bu xislatlar mutaxassisning ish faoliyatida juda muhim sanaladi, chunki har qanday tashkilotda hujjatlar aylanishi mavjud.

Hujjat aylanishi – hujjatlarning muassasada ularning yaratilishi yoki qabul qilinishidan boshlab ijrosi yakunlangunga yoki jo‘natilgunga qadar harakatlanishi demakdir. Hujjatlarning qayta ishlanishi va harakatlanishi jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- tashkilotga kelib tushadigan hujjatlarni qabul qilish, ularni dastlabki ko‘zdan kechirish va ro‘yxatga olish;
- hujjat ijrochisini aniqlash va ko‘rsatish, hujjat mazmuni va u bilan ishlash bosqichlarini belgilash;
- hujjatni o‘z muddatida ijro qilish, javob xatlarini tuzish va rasmiylashtirish;
- hujjat ijrosini nazorat qilish;
- hujjat ijrosi yakunlangach, uni hujjatlar yig‘majildiga tikish.

Ushbu bosqichlarning har biri an’anaviy tarzda, shuningdek elektron tarzda ham bajarilishi mumkin. Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan hujjat aylanishi elektron hujjat aylanishi deyiladi.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va hujjatni identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuniga

ko‘ra elektron hujjat qog‘oz hujjatga tenglashtirilgan va u bilan teng huquqiy kuchga ega.

2. Maqollarning mazmunini sharhlab bering. Ularning bo‘lajak kasbingizga qanday aloqadorligini ayting.

Intizomli lashkar yengilmas.

Narvonga chiqsang, shoshmay chiq,

O‘z haddingdan oshmay chiq.

Og‘iz – bir, quloq – ikki,

Bir so‘zlab, tingla qirq ikki.

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

Yo‘qolgan oltin topilar,

Yo‘qolgan vaqt topilmas.

Tashkilot, muassasa va korxonalarda hujjat aylanish jarayonini quyidagilar tashkil qiladi:

- *kirish hujjatlari* – tashkilotga kelib tushadigan hujjatlar, jumladan, yuqori tashkilotlarning farmoyish hujjatlari, turli vazirlik va mahkamalarning xatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning arizalari;

- *ichki hujjatlar* – tashkilotda tuzilgan hujjatlar: bildirgi, ma’lumotnoma, hisobot, bayonnoma va sh.k.;

- *chiqish hujjatlari* – boshqa tashkilotlarga jo‘natiladigan hujjatlar (so‘rov xatlariga javoblar, ma’lumotnomalar, tashabbus xatlari va b.).


3. Berilgan jumlar qaysi hujjatlarda uchraydi?

1. O‘z xohishiga ko‘ra egallab turgan lavozimidan bo‘shatilsin.
2. Xatingizga javoban shuni ma’lum qilamizki... .
3. Ushbu masalani o‘rganib chiqib taklif kiriting.

4. Qaror ijrosi ustidan nazorat boshliq o‘rinbosari B. Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

5. Betobligim sababli darslardan ozod qilishingizni so‘rayman.

4. Quyidagi nutq qoliplaridan gaplar tuzing va shu gaplar yordamida bog‘lanishli matn yarating.



5. So‘zlarni zarur shakllarga qo‘yib, rasmiy uslubga xos gaplar tuzing.

Ruxsat bermoq, eshitmoq, qaror qilmoq, ma’lumot bermoq, bo‘lim boshliqlari, tavsiya qilmoq, faol ishtirok etmoq, hurmatli, guruh rahbari, tashrif buyurmoq, qonunga binoan, ilova qilmoq, nazorat qilmoq, kasaba uyushmasi, javob yozmoq, moliya bo‘limi, taklif kiritmoq.

6. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘ying va gapni to‘g‘ri tuzing.

huquqiy boshqa aks muassasa hujjatlar mazmunan huquqiy tashkilot kabi va maqomi tashkilotlar ettiradi masalalarni bilan aloqalarning tashkiliy tomonlari korxonalarining.

7. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Внёс предложение, утвердил, возложить на инспектора Валиева, объявить выговор, выступить на заседании Учёного совета, рассмотреть состав комиссии, установить контроль за исполнением.

2. Прошу выделить путёвку в санаторий-профилакторий университета. Прилагается больничный лист за №170632. Прошу выдать новый студенческий билет. Прошу принять соответствующие меры.

8. Birinchi va uchinchi shaxs nomidan yozilgan rasmiy uslubga xos gaplarni ikki ustunga ajratib yozing.

1. Sizning ko‘rsatmangizga binoan, men o‘quv bo‘limi uslubchisi S. Olimov bilan kurs talabalarining mart oyidagi davomatini tahlil qildim.

2. Ma’lumotnoma tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limiga taqdim etish uchun berildi.

3. Ushbu da’vo bo‘yicha sud qarorini tezlik bilan ijro ettirish haqida qaror qabul qilishingizni so‘rayman.

4. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

5. Ushbu bitim yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

6. Guruh rahbari T. Qosimovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Arizaga nikoh guvohnomasining nusxasini ilova qilaman.

9. Matndan rasmiy uslubga xos xususiyatlarni toping. Uning mazmunini qisqacha ifodalab bering.

Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining elektron shakllari ularni qabul qilgan organlarning rasmiy veb-saytlariga belgilangan tartibda majburiy tarzda joylashtirilishi shart.

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga huquqiy axborot davlat tilida joylashtirilishi kerak. Rasmiy veb-saytning boshqa tillardagi shakllari ham bo‘lishi mumkin.

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirilgan huquqiy axborot ishonchli bo‘lishi va u ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadigan axborot bilan bir xil kuchga ega bo‘lishi lozim.

10. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

В управленческой деятельности государственных органов осуществляется комплекс мероприятий. Создание и оформление управленческих документов, а также работа с ними включает в себя следующие этапы:

- приём документов,
- их обработка,
- контроль их исполнения,
- их систематизация,
- поиск нужных документов,
- их хранение.

11. Hujjatshunoslik tarixiga oid ma’lumotlarni topib, “Dastlabki hujjatlar” mavzusida matn tuzing.

28-mavzu H U J J A T T U R L A R I V A X U S U S I Y A T L A R I

1. Ma'lumotni o'qing va konspekt tuzing.

Hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasniflanadi.

Mazmun bayonining shakliga ko'ra hujjatlar xususiy, namunaviy va qolipli hujjatlarga bo'linadi.

Xususiy hujjatlarga fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ularning asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo'ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

Namunaviy hujjatlar sirasiga ish yuritish sohasiga oid hujjatlarning aksariyati, ya'ni har bir tashkilot va uning bo'linmalari uchun zaruriy bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnoma, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.


Davlat idoralarida *qolipli* hujjatlarning ko'plab turlari qo'llanadi, ular ish faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

Mazmuniga ko'ra hujjatlar sodda va murakkab bo'ladi.

Sodda hujjatlar, odatda, bir masalani o'z ichiga oladi (tilxat, ishonchnoma kabi).

Murakkab hujjatlarda ikki yoki undan ortiq masala aks ettiriladi. Ularga majlis bayoni, hisobotning ayrim turlari misol bo'ladi.

Shuningdek, hujjatlar xizmat mavqeyiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:



Hujjatning birinchi yoki yagona nusxasi *asl (rasmiy) nusxa* deyiladi. Uning aynan qayta ko‘chirilgan shakli *nusxa* deb yuritiladi. Hujjatning bir qismiga ehtiyoj tug‘ilsa, undan *ko‘chirma* olinadi (masalan, bayonnomadan ko‘chirma, buyruqdan ko‘chirma).

2. So‘zlarning ma’nolaridagi farqlarni tushuntiring. Fikringizni asoslash uchun ulardan so‘z birikmalari tuzing.

- Maqom – maqol
- malakali – malakaviy
- daromad – kirim
- davr – bosqich
- barqarorlik – beqarorlik
- himoya qilish – himoyalanish
- tartib – intizom
- tizim – tuzum
- qo‘llamoq – foydalanmoq
- takomillashtirish – rivojlantirish
- joriy qilish – tatbiq qilish
- mas’uliyat – javobgarlik

3. Berilgan nutq qoliplari hujjat guruhlarining qaysi turlarida qo‘llanishini ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

...lavozimga tayinlansin

...ga ruxsat berishingizni so‘rayman
...shuni ma’lum qilamizki...
buyruq ijrosini nazorat qilish ... zimmasiga yuklatilsin
fursatdan foydalanib, yana bir bor ...muborakbod etamiz
hurmat va ehtirom bilan
...ga tavsiya etiladi
... yilda ... ni tamomladim
ma’lumotnoma ilova qilinadi
... imzosini tasdiqlayman

4. Quyidagi so‘zlar va jumlar ishtirokida gaplar tuzing:

topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo‘shatilsin, tayinlansin;
eshitildi, qaror qilindi, ko‘rib chiqildi, ko‘rsatib o‘tildi.

5. Birinchi va uchinchi shaxs nomidan yozilgan rasmiy uslubga xos gaplarni ikki ustunga ajratib yozing.

1. Sizning ko‘rsatmangizga binoan, men o‘quv bo‘limi uslubchisi N. Abdullayev bilan I kurs talabalarining bahorgi semestr davomida fanlarni o‘zlashtirish darajasini tahlil qildim.

2. Ma’lumotnoma akademik litseyga taqdim etish uchun berildi.

3. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatleri, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

4. Ushbu bitim yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

5. Bo‘lim mudiri B. Abrorovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Shifoxonadan berilgan ma’lumotnoma ilova qilinadi.

6. Gaplarni davom ettiring.

1. Biz shu narsaning guvohi bo‘ldikki,
2. Normativ hujjatlarni sinchiklab o‘rganish maqsadida
3. Qayerda tartib-intizom bo‘lsa,
4. Xodimlar ichki normativ hujjatlarni mukammal bilishlari zarur, chunki .
5. Har bir hujjatlarning o‘ziga xos zaruriy qismlari bo‘lib,

Har bir hujjatning maqsadi va turiga qarab undagi zaruriy qismlar miqdori, ularning joylashish o‘rni va tartibi belgilangan bo‘ladi. *Rekvizit* deb hujjatni rasmiylashtirishning majburiy elementiga aytiladi. *Rekvizitlar* hujjatda qat’iy tartibda joylashtiriladi. Bu hujjatning huquqiy kuchini ta’minlaydi.

Hujjat rekvizitlarining asosiy turlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik yoki idoraning nomi.
3. Tashkilot yoki muassasa nomi.
4. Tarkibiy tarmoqning nomi.
5. Aloqa muassasasining shartli raqami (*indeksi*), tashkilot manzili, telefon raqami, faks raqami.
6. Elektron pochta manzili.
7. Matn sarlavhasi.
8. Sana.
9. Hujjatga beriladigan shartli raqam (*indeks*).
10. Kelgan hujjatning sanasi va shartli raqamiga havola.
11. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
12. Hujjat loyihasini tayyorlagan bo‘linmaning shartli raqami.
13. Hujjatni oluvchi (*adresat*).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (*rezolutsiya*).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.

18. Matn.
19. Hovva mavjudligi haqida qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (*viza*).
23. Muhr.
24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni uning hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborotning elektron shakli joylashtirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd¹.

7. Gaplarni so'z birikmalariga hamda jumlalarga ajratib, o'zbek tiliga tarjima qiling.

Документ, зафиксировав (отобразив) информацию, тем самым обеспечивает её сохранение и накопление, возможность передачи другому лицу, многократное использование, возвращение к информации во времени.

Организация делопроизводства условно делится на две части: обеспечение своевременного и грамотного создания документов (документирование);

организация работы с документами: получение, передача, обработка, учёт, регистрация, контроль, хранение, подготовка в архив, уничтожение.

8. Quyidagi ish yuritish terminlarining izohlarini yozib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

¹ Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш / Амалий қўлланма (6-нашри). – Тошкент, 2014.

<i>Indeks (shartli raqam)</i>	qaydlov raqami, har bir kelayotgan yoki chiqayotgan hujjat rasmiy indekslash tizimiga muvofiq ro'yxatga olinganda qo'yiladi
<i>Kelishuv ustxati</i>	hujjat loyihasini dastlabki ko'rib chiqish va baholash usuli bo'lib, loyihadagi masalalarga o'z vakolatlariga muvofiq bevosita munosabati bo'lgan mansabdor shaxslarning ro'yxati va imzolarini aks ettiradi
<i>Rezolutsiya (munosabat belgisi)</i>	xizmat hujjatlari ustiga mansabdor shaxslar tomonidan muayyan fikr bildirib yoziladigan qaydlar
<i>Tasdiqlash ustxati</i>	mansabdor shaxs tomonidan hujjatdagi ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi yozuv. Hujjatning yuqori o'ng burchagiga qo'yiladi
<i>Viza (rozilik belgisi)</i>	mansabdor shaxsning muayyan hujjatdagi fikrga (iltimos yoki talabga) roziligini anglatadi

9. Matnni o'qing. Undagi tavsiyalarni o'z so'zingiz bilan gapirib bering.

Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. Hujjatlarning aksariyati A4 formatdagi qog'ozda tayyorlanadi, umumiy tarzda qabul qilingan shaklda va ma'lum tartibda tuziladi.

2. Hujjatning yaxlit va uzluksiz matni uni tushunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun matnni mazmun jihatdan abzas (xatboshi) larga bo'lish maqsadga muvofiq.

3. Ish hujjatlarida yakka shaxsga murojaat qilinganda "Siz" olmoshi bosh harf bilan yoziladi.

4. Sonlar ish hujjatlarida raqamlar bilan yoziladi. Pul bilan bog'liq hujjatlarda (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat) – raqamlar va qavs ichida so'zlar bilan ifodalanadi.

5. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda *-nchi (-inchi)* qo'shimchasi o'rnida chiziqcha qo'yiladi: *2-kurs, 3-chorak*. Tartib sonni rim raqami yordamida ifodalashda chiziqcha qo'yilmaydi, biroq o'qilganda *-nchi (-inchi)* tarzida talaffuz qilinadi: *II kurs, III chorak*.

6. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanib, sanani bildirsa, imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha qo'yiladi: *2017-yil 6-sentabr*. Shuningdek, hujjatning sanasini 06.09.17. tarzida ifodalash ham mumkin.

7. Hujjatlarni imzolashda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilish lozim: avval hujjatni imzolaydigan mansabdor shaxsning lavozimi, so'ngra ismi va familiyasi yoziladi hamda imzo qo'yiladi.

8. Hujjatlarda qisqartmalarni qo'llash ularning hajmi qisqarishiga va ulardagi ma'lumotlarni qabul qilishni tezlashtirishga yordam beradi. Bunda faqat umumiy tarzda qabul qilingan qisqartmalardan foydalanish mumkin: BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti).

10. Hujjatlarning mavjud turlarini klaster shaklida ifodalang.

1. Ma'lumotni o'qing va konspekt tuzing.

Har qanday tashkilotning faoliyati hujjatlarning turli ko'rinishlarida o'z aksini topadi. Tashkiliy hujjatlar o'zaro bog'liq hujjatlar majmui bo'lib, quyidagilarni qat'iy belgilab beradi:

– tashkilot, muassasa yoki korxonaning strukturasi (tuzilishi) va vazifalari;

– ularning ish faoliyatini qanday tashkil qilish;

– ularning rahbariyati hamda xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

Tashkiliy hujjatlarda, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalar ham aks etadi.

Tashkiliy hujjatlarning turlariga nizom, ustav, shartnoma, ta'sis shartnomasi, yo'riqnoma, lavozim yo'riqnomasi, shtat jadvali, mehnat tartiboti qoidalari, xizmat guvohnomasi, xizmat safari guvohnomasi va boshqalar kiradi.

Guvohnoma

Guvohnoma xodimning shaxsi, ish joyi va lavozimini, talabning shaxsini va o'qish joyini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, ishga yoki o'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq asosida kadrlar bo'limi tomonidan beriladi.

Guvohnomaning zaruriy qismlari:

– hujjat nomi (Guvohnoma);

– O'zbekiston Respublikasining gerbi;

– guvohnoma beruvchi tashkilotning nomi;

– xodim (talaba)ning surati;

– muhr (bir qismi suratga ham bosilishi kerak);

– hujjatning amal qilish muddati;

– guvohnoma seriyasi va raqami;

- guvohnoma berilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- lavozimi;
- tashkilot rahbarining imzosi;
- berilgan vaqti.

2. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Выдать удостоверение, ответственность за хранение, предъявить документ, утеря личного удостоверения, реквизиты удостоверения, подпись руководителя.

3. Talabalik guvohnomasini saqlash va undan foydalanish qoidalari haqida so‘zlab bering.

Shartnoma

Ikki va undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o‘zgartirish yoki to‘xtatish yo‘lidagi kelishuv *shartnoma* deyiladi. Shartnoma davlat yoki nodavlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek fuqarolar o‘rtasida tuzilishi mumkin. Unda hujjatni imzolagan tomonlar bajarishi lozim bo‘lgan shartlar va boshqa majburiyatlar ko‘rsatiladi.

Mazmuniga ko‘ra shartnomalar ko‘plab turlarga ega: mahsulotni yetkazib berish haqida, moddiy javobgarlik haqida, ijara shartnomalari, oldi-sotdi, hadya qilish shartnomalari va boshqalar.


4. Shartnoma matnida qo‘llanadigan quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini yozib oling va yodda tuting.

Shartnoma, muassasa, bajaruvchi, ijrochi, xodim, munosabat oʻrnatmoq, majburiyatlarni oladi, amalga oshiriladi, moddiy javobgar shaxs, mehnat bitimi, zimmasiga oladi, hal qiladi, amal qiladi.

5. Soʻz va soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Устанавливать отношения, обеспечить сохранность, материальная ответственность, срок действия, инвентаризация имущества, обязанности администрации, сохранность материальных ценностей, предотвращение ущерба, обязанности сторон.

6. Quyidagi nutq qoliplari asosida gaplar tuzing.



Nizom

Nizom – tashkilot yoki uning tarkibiy bo‘linmalari tuzilishi, huquqlari, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilish tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Shu bilan birga, nizom tashkilot yoki muassasaning huquqiy maqomini, uning boshqa organlar, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolar bilan munosabatlarini belgilaydi.

Nizom muassasa tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilot buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va uyushmalarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Nizomning zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Tasdiqlash ustxati.
2. Muassasa (tarkibiy qism) nomi.
3. Hujjat nomi (Nizom).
4. Hujjat matni:
 - 1) muassasa tuzilishining maqsad va asoslari;
 - 2) asosiy vazifalari;
 - 3) muassasa tuzilishi (strukturasi);
 - 4) muassasaning huquqlari;
 - 5) muassasada ishni tashkil qilish tartiboti.
5. Sana va joy.

7. Hikmatli so‘zlarni o‘qib, mazmunini sharhlab bering. Fikringizni bo‘lajak kasbingizdan misollar keltirgan holda asoslang.

“Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan voz kechishni talab qiladi”. (*Viktor Gyugo.*)

“Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo‘ldir”. (*Bernard Shou.*)

“Yarim yo‘lda ishni chala tashlab, bundan nima chiqarkin, deb bir chekkada og‘zini ochib turgan odam tentakdir”. (*Fridrix Shiller.*)

“Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari orqasidan ergashadilar”. (*Jon Irving.*)

8. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan aniqlang. O‘zingiz biladigan baynalmilal terminlardan misollar keltiring.

Aksiz, balans, deklaratsiya, kartina, konteyner, litsenziya, penya, plomba, statistika, tarif, tovar, faktura, shtamp, ekspertiza, eksport.

9. Siz o‘qiydigan oliy ta’lim muassasasining nizomi bilan tanishib chiqing. Uning tarkibi haqida gapirib bering.

Yo‘riqnoma

Yo‘riqnoma qonun yoki boshqa normativ hujjatlarni tushuntirish maqsadida tuziladigan huquqiy hujjat bo‘lib, davlat organlari tomonidan chiqariladi.

Yo‘riqnomaning zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tasdiqlash ustxati.
2. Yo‘riqnoma tuzilgan vaqt va uning tartib raqami, shartli raqami.
3. Hujjatning sarlavhasi, nomi (Yo‘riqnoma).
4. Matn:
 - 1) kirish qismi;
 - 2) bo‘limlar va kichik bo‘limlar;
 - 3) yakuniy qism.
5. Yo‘riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, familiyasi, imzosi.

10. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga muvofiq keluvchi hujjat turlarini “+” bilan belgilang.

Hujjat turlari Hujjat haqida ma'lumot	Guvoh- noma	Nizom	Yo'riq- noma	Shart- noma
Tashkilotning strukturasi (tuzilishi)ni belgilaydi				
Xodimlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi				
Tashkilotning vazifalarini belgilaydi				
Xodimlarning ish faoliyatini qanday tashkil qilishni belgilaydi				
Xodimning shaxsi va lavozimini tasdiqlaydi				
Bo'lim, bo'linma yoki tarkibiy tuzilma rahbari tomonidan ishlab chiqiladi				
Tomonlarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi				
Xodimga tashkilot hududiga kirish huquqini beradi				
Amal qilish muddati tugaganda almashtiriladi				
Tashkilotning kadrlar bo'limi tomonidan beriladi				

1. O‘qing va eslab qoling.

Farmoyish hujjatlarida vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma’muriy va tashkiliy masalalarning yechilishi belgilab beriladi. Bunday hujjatlar tashkilot faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishni ta’minlash imkonini beradi.

Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo‘yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan boshqariladigan organga, tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo‘llanadigan qarorlarni o‘z ichiga oladi.

Buyruq

Buyruq – muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llanadigan hujjat bo‘lib, muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi muovin tomonidan imzolanadi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo‘limlari faoliyatini tartibga solishda qo‘llanadi. Ularda yuqori tashkilotlardan kelgan ko‘rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, ularning ijrosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, mas’ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi. Asosiy faoliyatga oid buyruqlarda ularning mazmunidan kelib chiqib sarlavha qo‘yiladi.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko‘rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi).

Buyruqning farmoyish qismi “BUYURAMAN” so‘zi bilan boshlanadi. Farmoyish qismida kim qanday vazifani, qaysi muddatda bajarilishi ko‘rsatiladi (“Amalga oshirilsin”, “Ta’minlansin”, “Yuklatilsin”, “Hisoblansin” va h.k). Bajaruvchilar – muassasa yoki uning tarkibiy qismlari (bo‘limlari), mansabdor shaxslar qayd qilinadi.

Buyruq farmoyish qismining oxirida mazkur buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilganligi ko‘rsatiladi: *“Buyruq ijrosini nazorat qilishga yuklatiladi”*.

2. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gapni to‘g‘ri tuzing.

davlat qo‘llanadi huquqiy oldida hal organi kundalik yakka buyruq, muayyan asoslangan boshqaruv turgan va hokimligiga muassasa vazifalarni rahbarlarining asosiy hujjat qilish maqsadida.

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Утвердить положение, организовать изучение приказа, обеспечить исполнение, усилить контроль и требовательность, возложить на заведующего отделом Валиева, объявить выговор, принять все необходимые меры, представить на утверждение Совета университета, утвердить состав комиссии в следующем порядке, контроль за исполнением возложить на

Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar biror xodim ishga qabul qilinganda yoki bo‘shatilganda, boshqa bo‘limga o‘tkazilganda, shuningdek muayyan xodimga nisbatan rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo‘llanganda, xodimga mehnat ta‘tili berilganda va shu kabi hollarda beriladi. Bunday buyruqlarda kirish qismi bo‘lmasligi mumkin. Farmoyish qismi esa bandlarga bo‘linadi. Buyruq qismidagi “QABUL QILINSIN”, “TAYINLANSIN”, “O‘TKAZILSIN”, “TASHAKKUR BILDIRILSIN”, “BO‘SHATILSIN” kabi so‘zlar bosh harflar bilan yoziladi.

Buyruqning rekvizitlari:

1. Blank qismlari.
2. Buyruq raqami.
3. Buyruq loyihasini tayyorlagan tarkibiy tuzilma raqami.
4. Sarlavha (hujjat mazmunidan kelib chiqib nomlanadi).
5. Buyruq matni.
6. Ilovalar haqida qayd (agar bo‘lsa).
7. Rahbar yoki muovin imzosi.

Buyruq quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

- hujjat loyihasi tayyorlanadi;
- loyiha tegishli xodimlar va bo‘limlar, huquqiy xizmat, zarur hollarda moliya bo‘limi bilan kelishiladi;
- hujjat tashkilot rahbari tomonidan imzolanadi va shu vaqtdan kuchga kiradi.

4. Berilgan nutq qoliplaridan foydalanib, buyruq matniga oid gaplar tuzing.

(kim?) ... lavozimidan ... lavozimiga o'tkazilsin.

(kim?) egallab turgan lavozimidan bo'shatilsin.

(kinga?) ...-yil ...dan ... kunga navbatdagi mehnat ta'tili berilsun.

Xizmatda yuqori ko'rsatkichlarga erishgani, yoshlarga murabbiylik qilgani va 50 yoshga to'lishi munosabati bilan (kim?) ... (nima?) ... bilan mukofotlansin.

Farmoyish

Farmoyish – muassasa ma'muriyati (boshliq, uning muovnlari) tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib, ular biror-bir bo'lim, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyish matni, xuddi buyruqdagi kabi rekvizitlardan tarkib topadi, faqat uning asos qismida "BUYURAMAN" so'zi o'rniga "TALAB QILAMAN", "TAVSIYA QILAMAN", "RUXSAT BERAMAN" kabi iboralar ishlatiladi.

5. Hujjat rekvizitlarini to'g'ri joylashtiring. Hujjatning nomini ayting.

Tartib raqami	Hujjatning zaruriy qismlari
	Hujjat raqami, joy nomi
	Hujjat matni
	Hujjat imzolangan sana
	Hujjatning blank qismlari
	Hujjatning sarlavhasi
	Ilovalar
	Rahbar imzosi
	Hujjatning shartli raqami (indeksi)
	Hujjatning nomi

6. Yuqorida berilgan jummalarga asos bo'la oladigan hujjatlar nomlarini keltiring.

Ko'rsatma

Ko'rsatma – axborot-metodik tUSDagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat. Ko'rsatmalarga birinchi rahbar, ularning o'rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko'rsatma muassasaning blankiga bosiladi. U ham buyruq kabi sarlavha bilan yoziladi, asos (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asos (kirish) qismida “falon buyruqning talablarini bajarish maqsadida” kabi iboralar qo'llaniladi va farmoyish qismi boshlanadi. Ko'rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o'xshash bo'ladi.

7. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, jummalarni to'ldiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. Bunday jumlar qo'llanadigan buyruqlarga misollar keltiring.

(...) ga muvofiq tasdiqlansin, (...) ning doimiy hisobi olib borilishi ta'minlansin, (...) yuzasidan nazorat kuchaytirilsin, (...) ga yuborilsin, (...) zimmasiga yuklatilsin, (...) dan amaliyotga kiritilsin, (...) ga qat'iy rioya qilinsin, (...) ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

8. Quyidagi mazmundagi buyruqlarning farmoyish qismini tayyorlang:

1) talabalar guruhini xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan birida o'tkazilayotgan konferensiyada ishtirok etish uchun yuborish;

2) barcha fakultetlarda yangi normativ hujjatlarning o'rganilishi va tatbiq etilishini ta'minlash;

3) oliy ta'lim muassasasida uzoq yillar ishlagan xodimni bayram munosabati bilan taqdirlash.

Tarjimayi hol**1. O'qing va eslab qoling.**

Ma'lumot-axborot hujjatlari muayyan qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi. Bu bilan boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga, boshqaruv ta'sirining u yoki bu usuli tanlanishiga olib keladi. Bunday hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim rahbaridan muassasa rahbariga, quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi.

Ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirgi, dalolatnoma, e'lon, faksogramma, hisobot, ishonchnoma, ma'lumotnoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tavsifnoma, tavsiyanoma, tushuntirish xati ba boshqalar kiradi.

2. Berilgan sinonimlarning uslubiy farqini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tavallud topmoq – tug'ilmoq

Tahsil olmoq – o'qimoq

Tamomlamoq – tugatmoq

Istiqomat qilmoq – yashamoq

Faoliyat yuritmoq – ishlamoq

Ado etmoq – bajarmoq

Taqdirlanmoq – mukofot olmoq

Ishtirok etmoq – qatnashmoq

2. Quyidagi nutq qoliplari ishtirokida gaplar tuzing.

... oilasida tug'ildim, ... ga o'qishga kirdim, ... ni tamomladim, ... lavozimida ishladim, ... bilan shug'ullanganman, ... da o'qiyapman, ... bilan taqdirlanganman, ... da xizmat qildim

Tarjimayi hol

Tarjimayi hol – muallif tomonidan uning shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan rasmiy hujjat. Tarjimayi hol bir xil andozada yozilishi shart emas. U mustaqil, erkin (ixtiyoriy) shaklda tuzilsa-da, unda ayrim rekvizitlarning bo‘lishi shart. Hujjat matni “men” so‘zi bilan boshlanadi. Tarjimayi holda o‘tgan va hozirgi zamon fe’llari ishlatiladi.

Tarjimayi holda quyidagi zaruriy qismlar aks ettiriladi:

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol).
2. Muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi.
3. Tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi, millati.
4. Qaysi tillarni qay darajada bilishi haqida ma’lumot.
5. Ma’lumoti (qayerda, qaysi o‘quv yurtlarini tugatganligi va ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi).
6. Mehnat faoliyati (qayerda, qachondan qachongacha, qaysi lavozimlarda ishlagan).
7. Oxirgi ish joyi va lavozimi.
8. Mukofot va rag‘batlantirishlar.
9. Jamoat tashkilotlaridagi ishtiroki.
10. Oilaviy ahvoli.
11. Harbiy xizmatga munosabati.
12. Yashash manzili va telefon raqamlari.
13. Hujjat tuzilgan sana.
14. Shaxsiy imzo.

4. Keltirilgan so‘z birikmalaridan foydalanib, bajarayotgan jamoat ishlaringiz haqida ma’lumot tuzing.

Talabalar ilmiy jamiyati a‘zosi, guruh sardori, institut futbol jamoasi sardori, institut ansambli sozandasi, institut devoriy gazetasi tahririyati a‘zosi, “Yosh mutaxassis” klubi a‘zosi, yotoqxona uchun mas’ul.

5. Gaplarni to‘ldiring.

1. Men ... tug‘ilganman. 2. Otam ... ishlaydi. 3. Akam ... yashaydi. 4. ... maktabni tamomladim. 5. ... o‘qishga kirdim. 6. Hozirgi vaqtda 7. Singlim ... o‘qiydi. 8. ... mukofotlandim. 9. ... da yashayman. 10. ... tillarini bilaman.

6. Matnni o‘qing. Tarjimayi hol yozishda qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganligini tushuntirib bering.

Men afsonaviy tarixiy shahar – Samarqandda tavallud topdim. Mening otam, Abror Olimovich Musayev – bank xodimi. Onam, Yulduz Tohirovna Isayeva bilan 1985-yilda filarmoniyada konsertda tanishib qolgan. 1986-yilda ular turmush qurishgan, bir yildan keyin esa men tug‘ilganman. Yoshim uchga to‘lganda ota-onam menda san’atga iqtidor borligini payqashgan. Olti yoshimda meni musiqa maktabiga berishgan. Oddiy maktabga, hamma qatori, yetti yoshda bordim. A’lo baholarga bo‘lmasa-da, uni muvaffaqiyatli tugatdim. Bu menga universitetning xorijiy tillar fakultetiga o‘qishga kirishimga yordam berdi. Oliygo’ni 2009-yilda bitirdim. Hozir men maktabda fransuz tilidan dars beraman, menga bu juda yoqadi. Men umuman bolalar bilan ishlashni yaxshi ko‘raman.

Dadam va oyim bilan Samarqand shahar Mustaqillik ko‘chasi 25-uyda istiqomat qilaman.

7. Tarjimayi hol namunasini o‘qing. Hujjatda berilgan ma’lumotlarni shartli ravishda qismlarga ajrating.

Men, Rahmatullayev Ziyodulla Habibullayevich, 1980-yil 19-sentabrda Toshkent shahrida shifokor oilasida tug‘ildim. Otam, Rahmatullayev Habibulla Fayzullayevich 1955-yil tug‘ilgan. Yurak xuruji tufayli 1993-yil olamdan o‘tgan. Onam, Rahmatullayeva Ma’rufa Yo‘ldosheva 1957-yil 1-martda tug‘ilgan. Toshkent viloyati sil kasalliklari dispanserida shifokor bo‘lib ishlaydi. Oilada uch farzandimiz. Ikkita ukam bor: Rahmatullayev Abdulla Habibullayevich 1982-yil 16-oktabrda tug‘ilgan. Toshkent shahar 3-son avtobus saroyida haydovchi bo‘lib ishlaydi. Keyingi ukam Rahmatullayev Sherzod Habibullayevich 1989-yil 22-noyabrda tug‘ilgan. Xususiy firmada sotuvchi bo‘lib ishlaydi.

Uylanganman, turmush o‘rtog‘im Rahmatullayeva Vazira Turg‘unovna 1984-yil 12-martda tug‘ilgan, ikki farzandimizning onasi. Toshkent shahar 7-son bolalar bog‘chasida tarbiyachi bo‘lib ishlaydi.

Qizim Rahmatullayeva Barno Ziyodulla qizi 2008-yil 18-mayda tug‘ilgan. Kichik qizim Rahmatullayeva Shahlo Ziyodulla qizi 2011-yil 2-dekabrda tug‘ilgan.

1987-yil Toshkent shahridagi 245-maktabga 1-sinfga bordim. 1995-yil shu maktabning 9-sinfini bitirganimdan so‘ng O‘zbek-Turk o‘g‘il bolalar litseyida 1995–1998-yillar davomida tahsil oldim.

2001–2005-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida namunali o‘qidim. O‘qishning 4-bosqichiga kelib umumta’lim maktabida mutaxassisligim bo‘yicha dars berishni boshlab yubordim. 2004–2008-yillar davomida Toshkent shahridagi 143-maktabda o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi bo‘lib ishladim. 2008-yildan beri Shayhontohur tumanidagi 34-maktabda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinbosari vazifasida ishlab kelmoqdaman.

Turar joyim: Toshkent shahar Yunusobod tumani, 19-mavze, 4-uy, 35-xonadon. Tel.: 223-52-00.

8. 7-topshiriqda keltirilgan tarjimai hol mazmuni bo‘yicha savollarga javob bering.

1. Tarjimai holning zariruy qismlari tartibiga rioya qilinganmi?
2. Hujjatda qanday ma’lumotlar yetishmaydi? Ularni yozib chiqing.
3. Muallif haqida sizda qanday tasavvur hosil bo‘ldi?

9. Ikki kichik guruhga bo‘lining. Har bir guruh boshqa guruhga ham tanish bo‘lgan shaxsning tarjimai holiga oid ba’zi ma’lumotlarni yozadi va boshqa guruhga o‘qib beradi. Ushbu ma’lumotlar bo‘yicha tarjimai hol kimga tegishli ekanligi aniqlanadi.

10. Tarjimai holingizni yozing.

1. So‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushuntiring.

Ilova qilindi, iltimos qilaman, ma’lum qilaman, mehnat ta’tili, munosabati bilan, Sizning ko‘rsatmangizga binoan, zarur deb hisoblayman, chora ko‘rishingizni so‘rayman, tekshirib chiqildi.

Bildirgi

*Bildirgi*¹ – muayyan muassasa yoki bo‘lim rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug‘ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

Ichki bildirgi – bevosita rahbar yoki bo‘lim mudiri nomiga yo‘llanadi. Hujjat uni yozgan xodim tomonidan imzolanadi.

Tashqi bildirgi – mansabdor shaxs tomonidan yuqori idora rahbarlaridan biri nomiga yoziladigan hujjat bo‘lib, uning ikkinchi nusxasi muassasaning o‘zida qoladi.

Bildirgining mazmuniga ko‘ra uch turi mavjud: tashabbus, axborot va hisobot bildirgisi.

Tashabbus bildirgisining matnida tegishli masala yuzasidan umumiy yoki aniq takliflar ilgari surilib, rahbarni ularni hal qilishga undaydi.

Axborot bildirgisida umumiy holati rahbarga ma’lum bo‘lgan muayyan jarayon to‘g‘risida xabar beriladi.

Hisobot bildirgisida ma’lum bir topshiriqning bajarilishi, ishning tugallanishi yoki biron-bir ko‘rsatma, tavsiya, rejaning ijrosi to‘g‘risida rahbarga xabar beriladi.

Bildirgining zaruriy qismlari:

1. Bildirgi yo‘llangan rahbarning lavozimi, maxsus unvoni, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo‘nalish kelishigidagi familiyasi.
2. Hujjat turining nomi (Bildirgi).
3. Bildirgi matni (mazmuni).
4. Ilovalar (agar bo‘lsa) ro‘yxati – qancha varaqligi ko‘rsatiladi.
5. Bildirgi tayyorlagan xodimning lavozimi, imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda familiyasi.
6. Bildirgi taqdim etilgan sana (bildirgi imzolanayotgan paytda qo‘yiladi).

Bildirgida voqea-hodisalarni qayd etish bilan birga ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinadi va tegishli xulosalar qilinib, takliflar beriladi.

¹ Ish yuritishga oid adabiyotlarda ushbu hujjat “bildirishnoma”, “bildirish” deb nomlanadi.

2. Qavs ichidagi so‘zlarga tegishli kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring.

(O‘z vaqti) bajarildi, (muammolar) duch kelindi, (ushbu masala) o‘rganib chiqdim, (yotoqxon) tekshirdik, (muhokama qilinishi) so‘raymiz, (ijobiy hal qilinishi) so‘raymiz, (ishga tushganligim) ma’lum qilaman.

3. Quyidagi nutq qoliplari ishtirokida gaplar tuzing.

... qabul qilishingizni so‘rayman, ... ta’minlashingizni so‘rayman, ... ozod etishingizni so‘rayman, ... ruxsat berishingizni so‘rayman, ... topshirig‘ingizga binoan, ... buyruqqa asosan, betobligim tufayli, ... rejasiga muvofiq, ... muddatini uzaytirib berishingizni so‘rayman.

4. Hujjatning rekvizitlarini ko‘rsating.

O‘zbekiston Milliy universiteti rektori

K.D. Sharipovga

B I L D I R G I

Berilgan topshiriqqa binoan bo‘limning 2017-yilda olib borgan faoliyati bo‘yicha hisobot tayyorlandi.

Ilova: 6 varaqda.

O‘quv bo‘limi mudiri

(imzo)

S. Mahmudov

02.01.2018-y.

5. Nuqtalar o‘rniga ilovadagi so‘zlardan mosini qo‘yib, iltimos yoki taklifingizni bildirgi shaklida ifodalang.

Bitiruv malaka ishi yuzasidan qo‘shimcha materiallar yig‘ish uchun ... so‘rayman. Moddiy jihatdan qiynalganligim tufayli ...

so‘rayman. Ma‘naviy tadbirlar rejasiga binoan talabalarni ... taklif qilaman. Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlab ... taklif qilaman. Akamning nikoh to‘yi munosabati bilan ... so‘rayman.

Hova: Temuriylar tarixi davlat muzeyiga olib borishni, Farg‘ona viloyatiga borib kelishga ruxsat berishingizni, Milliy kutubxonada shug‘ullanishga ruxsat berishingizni, institut miqyosida sport musobaqalari o‘tkazishni, moddiy yordam ajratishingizni.

6. Quyidagi vaziyatlar yuzasidan bildirgining bir nechta turini yozing.

1. Ish rejasida belgilangan, ijrosi sizga yuklatilgan tadbir o‘z muddatida bajarilmadi.

2. Talabalar yotoqxonasini tekshirish bo‘yicha rahbariyat tomonidan berilgan topshiriq bajarildi.

3. Kuzgi semestr yakunlari tahlil qilindi.

Tavsifnoma

Tavsifnoma – shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o‘ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat. Unda shaxsning mehnat faoliyati qisqa bayon qilinib, jamoat ishlarida ishtiroki, mehnat jamoasidagi o‘rni, lavozim vazifalarini ado etish sifati, tashkilotchilik qobiliyati, axloqiy sifatlari va boshqa jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Tavsifnoma muassasa ma‘muriyati tomonidan o‘z xodimiga bir qancha maqsadlar uchun (o‘quv yurtiga kirishda, lavozimga tayinlashda) beriladi.

Tavsifnomaning rekvizitlari quyidagilardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma‘lumotlar:

- a) ismi, otasining ismi va familiyasi;
- b) tug‘ilgan yili;
- d) millati;
- e) ma‘lumoti;
- f) qaysi o‘quv yurtini qachon qaysi yo‘nalish (mutaxassislik) bo‘yicha tugallaganligi;
- g) lavozimi;
- h) ilmiy darajasi va unvoni (agar bo‘lsa).

2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).
3. Matn.
4. Imzolar.
5. Sana.
6. Muhr.

7. So‘z va so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Общественный, выдвижение на должность, заверяется, функциональные обязанности, награда, поощрение, морально-деловые качества, личная инициатива, основательно, эффективно, старательно, небрежность, недобросовестный, безответственно, работоспособность, выносливый, сохраняет присутствие духа, нагрузки, высокое чувство ответственности.

Tavsifnoma matnini shartli ravishda to‘rt qismga ajratish mumkin.

Birinchi qismda xodimning mehnat faoliyati to‘g‘risida, ya’ni uning mutaxassisligi, tashkilotda qachondan buyon ishlashi, xizmat vazifasidagi o‘zgarishlar va boshqalar haqida ma’lumot beriladi.

Ikkinchi qismda uning xodim sifatida tavsifi, ya’ni ishga munosabati, mutaxassislik bo‘yicha mahorati, intizomi, berilgan vazifalarni qay darajada bajarishi, ishga ijodiy yondashuvi, tashabbuskorligi, jamoat ishlarida ishtiroki kabi jihatlar aks ettiriladi.

Uchinchi qismda shaxsning ijobiy yoki salbiy sifatlari, xulq-atvori, jamoada o‘zini tutishi, hamkasblariga munosabati, shuningdek qanday davlat mukofotlariga sazovor bo‘lganligi, rag‘batlantirilganligi yoki unga berilgan ma’muriy jazolar qayd etiladi.

To‘rtinchi qismda yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda berilayotganligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, tavsifnoma so‘ngida xodimga berilgan tavsiyalar aks ettiriladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Tavsifnoma tashkilot rahbariga taqdim qilinsa, uni xodimning bevosita rahbari imzolaydi. Boshqa tashkilot yoki yuqori tashkilotga yo‘llanadigan tavsifnomalar tashkilot rahbari tomonidan imzolanadi va imzo tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi.

8. Gaplarni tugallang.

1. Anvar Soliyev 1995-yilda 2. 2011-yilda umumta'lim maktabini tugatib, ... o'qishga kirdi. 3. Hozirgi kunda ... o'qiydi. 4. O'qish davrida u o'zini ... talaba sifatida ko'rsatdi. 5. Tavsifnoma ... taqdim etish uchun berildi. 6. A'lo o'qiganligi uchun 7. ... vazifasida ishlab kelmoqda. 8. U institutning jamoat ishlarida

9. Shaxsni tavsiflash vositalari yordamida do'stingizning faoliyatiga tavsif bering.

Ishga munosabatini ifodalovchi sifatlar: vijdonli, mehnatsevar, intizomli, tashabbuskor, berilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajaradi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan, tashkilotchi, bilimlarini muntazam oshirib boradigan, yangilikka intiluvchan, ongli, ma'naviy yetuk, sog'lom fikrlaydi, savodxonligi yuqori, mas'uliyatli.

1. Insoniy fazilatlarini ifodalovchi sifatlar: halol, sofdil, vazmin, xushmuomala, kamtar, samimiy, adolatli, mehribon, xushchaqchaq, olijanob, g'amxo'r, to'g'riso'z.

2. Salbiy baholar: qo'pol, dangasa, yolg'onchi, jamoat ishlarida sust, jamoaga aralashmaydi, mas'uliyatdan qochadi, bilimi sayoz, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarmaydi, o'z ustida ishlaymaydi, intizomga rioya qilmaydi.

10. So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va gapni to'g'ri tuzing.

muassasa rasmiy xizmat nomidan sohasidagi muayyan hamda lavozimda uning mazkur ishonchnomalar tashkilotda tomonidan ish shaxsga yuritishga vakil tashkilot bildirish qilinganini bilan beriladi uchun imzolanadi rahbari tasdiqlanadi va muhr ishlaydigan yoki tashkilot

Ishonchnoma

Ishonchnoma orqali muayyan muassasa yoki shaxs ikkinchi bir shaxsga o'z nomidan ish ko'rish uchun ishonch bildiradi. Ishonchnomalar yordamida mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy buyum, boyliklarini olish, sud idoralarida ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirish mumkin. Ushbu ish-harakatlarni bajarishga vakolat kim tomonidan berilsa (muassasa tomonidan yoki ayrim shaxs tomonidan), shunga ko'ra ishonchnomalar *rasmiy* (xizmat) va *shaxsiy* turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnoma davlat muassasasi, tashkilot tomonidan muayyan lavozimdagi shaxsga uning mazkur tashkilot nomidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. U muassasa rahbari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Rasmiy ishonchnomalarda ularning amal qilish muddati ko'rsatilgan bo'ladi. Ular bir necha kundan bir necha yilgacha bo'lgan (lekin uch yildan ortiq bo'lmagan) muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada uning amal qilish muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday hollarda u berilgan kundan boshlab bir yil davomida amal qiladi.

Rasmiy ishonchnomalar blankda rasmiylashtiriladi. Unda ishonchnomaning barcha rekvizitlarini to'g'ri va aniq rasmiylashtirish (to'ldirish) uchun maxsus o'rin va ko'rsatmalar mavjud. Blank bo'lmagan chog'da ishonchnomalar oq qog'ozga yoziladi va uning yuqori chap burchagiga ishonchnoma beruvchi muassasaning to'rtburchak muhri qo'yiladi. Ular faqat shu korxonaga xodimlariga berilishi mumkin.

Rasmiy ishonchnomaning zaruriy qismlari:

- ishonchnoma beruvchi muassasa nomi;
- ishonchnoma tartib raqami va berilgan vaqti (sanasi);
- ishonchnoma berilayotgan (ishonch bildirilayotgan) shaxsning lavozimi va to'liq nomi (ismi, ota ismi, familiyasi);
- qimmatdor buyumlar olinadigan (beradigan) muassasa nomi;
- ishonchnomaning berilishi sababi;
- ishonchnomaning amal qilish muddati;
- ishonchnoma berilayotgan shaxs imzosining namunasi;
- moddiy buyum-boyliklarni oluvchining shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjatning nomi (pasport, guvohnoma).

1. Quyidagi jummlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Доверенность от имени юридического лица, доверенность на заключение договора, наименование и местонахождение организации, уполномочить сотрудника, действовать на основании устава организации, заключать договоры, выполнять все необходимые действия.

2. So‘z va so‘z birikmalarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular yordamida ishonchnomaga oid jummlar tuzing.

Доверяю, получить в кассе института, получить деньги (заработную плату), почтовый перевод на имя, подпись, подпись заверяю.

3. Berilgan birikmalar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

... olishga ishonchnoma, ishonch bildirmoq, shartnoma tuzishga ishonchnoma, ishonchnoma bo‘yicha olmoq, ishonchnoma taqdim etmoq, ishonchnoma tuzmoq, imzoni tasdiqlamoq.

Shaxsiy ishonchnomaning zaruriy qismlari:

- hujjat nomi (Ishonchnoma);
- ishonch bildiruvchining ismi, ota ismi, familiyasi;
- ishonchli shaxs (ishonchnoma berilgan shaxs) ning ismi, ota ismi, familiyasi.
- ishonchnoma mazmuni;
- ishonch bildiruvchining imzosi;
- berilgan (yozilgan) vaqti;
- ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi va imzosi;
- ishonch bildiruvchining imzosi tasdiqlangan sana va dumaloq muhr.

4. Do‘stingiz betob bo‘lib qolganligi tufayli uning o‘rniga bir oylik stipendiyasini institut kassasidan olishga huquq beruvchi ishonchnoma tuzing.

Tuzilishi shakliga ko‘ra *qo‘lda yoziladigan* hamda *notarial idora tomonidan tasdiqlanadigan* ishonchnomalar bo‘ladi.

Mazmun hamda vakolatning hajmiga ko‘ra ishonchnomalar bir necha turlarga bo‘linadi.

Bir martalik ishonchnoma muayyan bir ishni amalga oshirish, vazifani bajarish uchun (masalan, faqat bir martagina pul yoki qimmatbaho buyumni olish uchun) beriladi.

Muayyan davr davomida bir qancha bir turdagi vazifalarni bajarish vakolatini beruvchi ishonchnomalar *maxsus ishonchnoma* hisoblanadi (masalan, yil davomida sud hakamlik idoralarida korxonada nomidan vakillik qilish uchun berilgan ishonchnoma).

Umumiy ishonchnoma mulkni boshqarish bilan aloqador turli-tuman ishlarni amalga oshirish huquqini beradi.

5. Hujjat matnini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Uni tuzishda qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganini tushuntiring.

ДОВЕРЕННОСТЬ

Я, Рустамова Азиза Алиевна, паспорт: серия 1599 номер 838123, выдан 16.11.2012 г., выдан ОВД г. Ташкента, проживающая по адресу: г. Ташкент, ул. Сайрам, д. 5, кв. 25, доверяю моей родной сестре, Рустамовой Лоле Алиевне, 1994 г. рождения, получить в страховой компании «Alfa Sug‘urta» причитающиеся мне выплаты в размере трёхсот тысяч сум в связи с несчастным случаем 12.10. 2017 г. согласно условиям страхового договора.

Срок действия доверенности – один год.

02.11.2017 г.

А.А. Рустамова (подпись)

Подпись Рустамовой А.А. удостоверяю.

Мать Рустамовой А.А.

Рустамова В.И. (пенсионерка)

В.И. Рустамова (подпись)

02.11.2017 г.

6. Quyida berilgan holatlardan biri bo'yicha ishonchnoma tuzing. Tuzgan ishonchnomangizning turini ayting.

1. Muassasa tomonidan ushbu tashkilotning direktori o'rinbosariga "Sharq" nashriyot-matbaa konsernidan tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnoma berildi. Ishonchnoma tashkilot direktori tomonidan imzolangan.

2. Ota ishonchnomada o'ziga tegishli uyni sotish uchun qiziga vakolat beradi. Qizi, shuningdek oldi-sotdi uchun zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va hujjatlarni olish, shartnoma tuzish hamda uyni sotishdan tushgan pulni olish huquqiga ega bo'ladi.

3. Xodim hamkasbiga korxonada kassasidan o'zining sentabr oyi uchun oylik maoshini olishga ishonch bildiradi.

Tilxat

Tilxat – pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligi, shuningdek ma'lum bir majburiyatlarning bajarilishini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat. Tilxatlarning aksariyati qarzga pul olishda, mol-mulkni saqlashga topshirishda, oldi-sotdi ishlarini rasmiylashtirishda tuziladi. Yuridik jihatdan to'g'ri tuzilgan tilxatdan zarur hollarda sud jarayonida foydalanish mumkin.

Tilxat qo'lda yoziladi, bir nusxada tayyorlanadi va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi. Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Tilxatning matni va muallifning imzosi oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda hujjatning haqiqiyliги shubha tug'dirishi mumkin.

Tilxat notarial idorada tasdiqlanishi shart emas, shu bois uni tuzish jarayonida bir necha guvoh ishtirok etadi. Zarur hollarda guvohlar tilxatda qayd etilganlarni sudda tasdiqlashlari mumkin. Agarda tilxat o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lsa, tilxatni tuzgan shaxsning imzosi u ishlaydigan tashkilotda yoki notarial idorada tasdiqlanadi.

7. Quyidagi so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

... kitoblarni oldim, ... keltirib topshiraman, zimmamga olaman, o‘z vaqtida, ... dars tugagach.

8. Hujjatning rekvizitlarini tartib bilan yozing. Natijada tilxat namunasi hosil bo‘lsin.

Talabalar ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilishi munosabati bilan ... Tilxat. Men, “Xorijiy tillar” fakulteti talabasi Vahobov Rustam, ... Kitoblarni anjuman tugagandan so‘ng keltirib topshirish majburiyatini zimmamga olaman. (imzo). ... institut kutubxonasi... R. Vahobov. Institut hayoti va faoliyatini yorituvchi burchak tashkil etish maqsadida... Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan chop etilgan 30 (o‘ttiz) dona kitob oldim. (Ro‘yxat ilova qilinadi).

Tilxatning rekvizitlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat).
2. Matn:
 - a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;
 - b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo‘lganda muassasa nomi);
 - d) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo‘lganda bahosi);
 - e) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh. k. bo‘lsa).
3. Tilxat berilgan sana.
4. Tilxat muallifining imzosi.
5. Guvohlarning familiyasi, ismi, otasining ismi; yashash manzili va imzosi.

9. Tilxat matnini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Unda qaysi rekvizitlar yetmasligini aniqlang.

Я, Валиев Равшан Рустамович, проживающий по адресу: г. Ташкент, ул. Тинчлик, дом 5, кв. 57, паспорт АА №345678, получил 3000000 (три миллиона) сум от Хасанова Музаффара Азимовича, проживающего по адресу: г.Ташкент, ул. Тинчлик дом 1 кв. 4.

Сумма займа должна быть возвращена до 10 апреля 2017 года.

10. O‘qing. Hujjatning qaysi rekvizitlardan tashkil topganini aniqlang va ularning nomlarini yozing.

Tilxat

Men, “Fan va texnologiya” nashriyoti hisob-kitob bo‘limi mudiri Botirova Dilorom Aliyevna, firma omboridan 1 (bir) dona “Samsung” rusumli televizorni 1 oy muddatga bo‘limda foydalanish uchun oldim.

D. Botirova (imzo)

2017-yil 15-noyabr

11. Quyidagi buyumlarning olinganligini tasdiqlovchi tilxatlar tuzing:

- 1) talabalar ilmiy konferensiyasini o‘tkazish uchun multimedia proyektori;
- 2) ochiq ma’ruzani o‘tkazish uchun muzey eksponatlari;
- 3) musobaqa o‘tkazish uchun sport inventari.

1. Qavs ichida berilgan soʻzlar yordamida soʻz birikmalari tuzing.

Kechikib kelmoq (ish, oʻqish, dars, maʼruza, majlis, tadbir).

Orqada qolmoq (oʻqish, dastur).

Maʼlumotnoma olmoq (kadrlar boʻlimi, shifoxona, pasport berish boʻlimi, tibbiyot boʻlimi).

Xabardor qilmoq (navbatchi, guruh sardori, boʻlim mudiri, oʻqituvchi, fakultet dekani).

Tushuntirish xati

Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa yoki boʻlim rahbariga yoxud yuqori tashkilotga yoʻllanuvchi hujjat *tushuntirish xati* deb ataladi. Tushuntirish xati ichki va tashqi xususiyatga ega.

Ichki (shaxsiy) tushuntirish xati asosan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish yoki oʻqish jarayonida sodir etilgan baʼzi xatti-harakatlar (masalan, ish yoki oʻqishga kech qolib kelish, kelmay qolish, reja yoki topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Hujjat bevosita muallif tomonidan imzolanadi.

Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim yoki talaba haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qoʻllash yoki dalillar asosli (uzrli) boʻlsa, qoʻllamaslik uchun asos vazifasini oʻtashi mumkin.

Tashqi tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuboriladi va koʻpincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar) ga ilova tarzida boʻlib, mazkur hujjatni umuman yoki uning baʼzi oʻrinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek muassasada boʻlib oʻtgan voqea-hodisaga, rahbarning muayyan xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi.

2. Quyidagi iboralar ishtirokida gaplar tuzing.

Nosozligi tufayli, joriy etilganligi munosabati bilan, zaruriyat tufayli, yo‘qligi tufayli, ob-havo noqulayligi tufayli, betoblighi tufayli, kasalligim sababli, o‘zgarganligi munosabati bilan.

Tushuntirish xatining zaruriy qismlari:

1. Hujjat yo‘llanayotgan mansabdor shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, ismi va ota ismining bosh harflari hamda familiyasi (jo‘nalish kelishigida).
2. Hujjat muallifining lavozimi, imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda familiyasi (qaratqich kelishigida).
3. Hujjat turining nomi (Tushuntirish xati).
4. Hujjat matni (mazmuni).
5. Imzo.
6. Ilovalar ro‘yxati (agar bo‘lsa) – qancha varaqligi ko‘rsatiladi.
7. Hujjat muallifining imzosi, familiyasi.
8. Sana (hujjat yozilgan vaqt).

3. Hujjatning rekvizitlarini tartib bilan yozing. Natijada tushuntirish xati hosil bo‘lsin.

1-kurs 178-guruh talabasi Davronov Azamatning. 2017-yil 10-sentabr. 2017-yil 9-sentabrda ingliz tili darsida qatnashmadim. A. Davronov. Fizika fakulteti dekani A. Sobirovga. Berilgan vazifani bajarmaganligim sababli. Tushuntirish xati.

4. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Нарушить трудовую дисциплину, пропустить лекцию по высшей математике, опоздать на работу, не выполнить задание в срок, заснуть во время семинара, выйти с занятия без разрешения, не прийти на работу, потерять студенческий билет.

5. Jadvalni quyidagi belgilar yordamida to‘ldiring:

“ + ” – hujjatda bunday rekvizit mavjud;

“+/-” – bunday rekvizit bor, lekin bo‘lishi shart emas;

“ – ” – hujjatda bunday rekvizit yo‘q.

Hujjat nomi	Bildirgi	Ishonch-noma	Tilxat	Tushuntirish xati
Adresatning lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi				
Tuzuvchining familiyasi, ismi, sharifi				
Ishonchli vakilning familiyasi, ismi, sharifi, pasport ma’lumotlari				
Hujjat sarlavhasi				
Hujjat matni: rahbar nomiga iltimos				
ishonchli vakilga berilgan vakolatlar				
tovar yoki buyumni taqdim etgan muassasa yoxud shaxs nomi				
olingan buyumning aniq nomi, miqdori va qiymati (narxi)				
ishlab chiqarish jarayoni buzilishi sabablari izohi				
ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati				
hujjat muallifining imzosi				
imzoni tasdiqlovchi shaxs lavozimi, imzosi, hujjatni tasdiqlash sanasi				

6. Hujjat bilan tanishing. Uning rekvizitlarini belgilang.

Andijon davlat universiteti
Matematika fakulteti dekani
A. Akmalovga
2-kurs 216-guruh talabasi
D. Obidovning

TUSHUNTIRISH XATI

Singlimni oilaviy poliklinikaga shifokor ko'rigiga olib borganligim sababli bugun 1-juftlik darsga yarim soat kechikib keldim.

Ilova: 2-oilaviy poliklinikadan berilgan ma'lumotnoma.

12.12.2017.

(imzo)

D. Obidov

7. Quyidagi vaziyatlar asosida tushuntirish xatlari yozing.

1. Siz 10 kun davomida betobligingiz tufayli 60 soat dars qoldirdingiz. Oilaviy shifoxonadan ma'lumotnomangiz bor.

2. Do'stingiz harbiy xizmatdan kelganligi sababli darslarga kelmadingiz.

3. Siz darsga 10 daqiqaga kechikib kirdingiz, chunki daftaringizni yotoqxonada unutib qoldirdingiz.

4. Siz qishki ta'tildan 2 kunga kechikib keldingiz, chunki ob-havo yomon bo'ldi.

5. Siz seminar mashg'ulotiga tayyorlanmadingiz.

8. Berilgan so'z va birikmalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Акт, копия, провести инвентаризацию, согласно приказу, материальное имущество, составлен, указать, взыскать с заработной платы.

Dalolatnoma

Dalolatnoma – tashkilot yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog‘liq biron-bir bo‘lib o‘tgan (sodir bo‘lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi yoki komissiya tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishdan asosiy maqsad – sodir bo‘lgan voqea-hodisani yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoxud tasdiqlashdan iborat.

Dalolatnoma asosan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarga bog‘liq bo‘lib, quyidagi holatlarda tuziladi:

- tashkilot yoki bo‘linma rahbari ko‘rsatmasiga binoan tegishli taftish o‘tkazilgandan keyin;
- rahbarlik almashinayotganda;
- moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o‘tkazishda;
- qurib tugallangan yoki ta‘mirlangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin;
- qimmatdor buyumlarni hisobdan o‘tkazish yoki hisobdan chiqarishda;
- tovarlarni miqdor va sifat bo‘yicha qabul qilib olishda;
- baxtsiz hodisalar va tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda;
- xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o‘rganishda va boshqa hollarda.

Moliyaviy faoliyat sohasida tuziladigan dalolatnomalar tegishli (qayd etuvchi, rag‘batlantiruvchi, jazolovchi) buyruqlarni e‘lon qilish uchun asos bo‘ladi.

Aksariyat hollarda dalolatnomalar oldindan belgilangan namuna asosida tuziladi.

9. Dalolatnomada qo‘llanadigan so‘z va so‘z birikmalarini eslab qoling.

Tuzildi, ishtirok etganlar, dalolatnoma, asos, ishtirokida tuzildi, tomonidan, qabul qilib oldi, aniqlandi, 3 nusxada, tekshirildi, (jihazlar) yetishmasligi qayd etildi, ko‘rsatib o‘tilsin, moddiy javobgar, hisobdan chiqarish, yo‘qlama qilish, maqsadga muvofiq.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot, muassasa va tarkibiy bo‘linmaning nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavhasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (tashkilot rahbarining buyrug‘i, idoraning qarori yoki ko‘rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (raisi va a‘zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning necha betligi ko‘rsatiladi).
11. Dalolatnomani tuzgan va ishtirok etgan shaxslarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

10. Berilgan ta‘riflarni o‘qing. A ustundagi hujjat nomlarini B ustundagi ta‘riflar bilan taqqoslab, to‘g‘ri javoblarni tanlang.

A	B
dalolatnoma	tashkilot yoki tarkibiy qism rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoxud yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish maqsadida taqdim etiladigan yozma axborot;
tushuntirish xati	tashkilot yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog‘liq biron-bir sodir bo‘lgan voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat;
bildirgi	xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va tashkilot rahbariga yoki yuqori tashkilotga yo‘llanuvchi hujjat.

11. Quyidagi nutq qoliplari ishtirokida gaplar tuzing.

(nimani?) tuzmoq

(nimada?) ishtirok etmoq

(nimaga asosan?) tekshirmoq

(nimani?) qayd qilmoq

(nimani?) aniqlamoq

Dalolatnoma matni murakkab tuzilishga ega bo‘lib, *kirish* va *ta’kid* (qayd, tasdiq) qismlaridan tashkil topadi.

Kirish qismida asos, kim tomonidan tuzilganligi, ishtirok etganlar ko‘rsatiladi. *Ta’kid qismida* maqsad va vazifalar, asos bo‘lgan hujjatlar, aniqlangan holatlar, xulosalar va takliflar qayd etiladi.

Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda va umuman dalolatnoma yakka shaxs tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo‘lishi shart.

Dalolatnoma sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni aniqlashda va mavjud holatlarni tasdiqlashda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaga avval komissiya raisi, keyin a‘zolari, eng oxirida uni tuzishda ishtirok etganlar imzo qo‘yadi. Komissiya a‘zolari va ishtirokchilarning familiyalari alifbo tartibida keltiriladi. Tuzuvchilardan birortasi dalolatnoma mazmuniga yoki uning biror bandiga qo‘shilmagan chog‘da, bu haqda imzolaridan so‘ng ko‘rsatiladi.

Dalolatnoma uch nusxada tuzilib, birinchisi yuqori idoraga, ikkinchisi tashkilot rahbariga jo‘natiladi, uchinchi esa hujjatlar yig‘majildiga tikiladi. Nusxalar soni hujjatning asosiy matni bilan ilovalar yoki imzolar oralig‘ida ko‘rsatiladi.

12. Talabalar yotoqxonasi yoki o‘quv auditoriyasidagi tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish natijalari bo‘yicha dalolatnoma tuzing.

1. “Ma'lumotnoma” so'ziga quyidagi so'zlarni qo'shib gaplar tuzing.

Berildi, taqdim etish uchun, ko'rsatish uchun, topshirish uchun, lavozimida ishlaydi, ... kursda o'qiydi, istiqomat qiladi, qabul qilindi, ... da yashagan, shifokor qabulida bo'ldi, ...kurslarini tugatdi.

Ma'lumotnoma

Ma'lumotnomada bo'lgan voqea yoki mavjud holatlar bildirish-axborot berish mazmunida ifodalanadi. Ma'lumotnomalar yuqori idora, mansabdor, xususiy va yuridik shaxslar hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladi. Ularda so'ralgan axborot va ma'lumotlar aks ettiriladi.

Ma'lumotnomalar xususiyati va mazmuniga ko'ra ikki turda bo'ladi – xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnoma.

Shaxsiy ma'lumotnoma – tashkilotlar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi voqea-hodisalar, holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjat.

Shaxsiy ma'lumotnoma quyidagi rekvizitlardan iborat:


1. Ma'lumotnoma beruvchi tashkilotning nomi.
 2. Ma'lumotnomaning tartib raqami va berilgan sanasi.
 3. Hujjat turining nomi (Ma'lumotnoma).
 4. Ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi.
 5. Ma'lumotnoma matni (u tasdiqlayotgan voqea yoki holat bayoni).
 6. Ma'lumotnomaning maqsadi (ma'lumotnoma ko'rsatiladigan, taqdim etiladigan joy nomi).
 7. Mansabdor shaxs (yoki shaxslar) ning lavozimi, imzosi va familiyasi.
 8. Muhr.
- Dastlabki uch qism blankda yoki to'rtburchak muhrda aks ettirilgan bo'ladi.

Moliyaviy masalalarga oid ma'lumotnomalarga tashkilot bosh buxgalterining imzosi va muhr qo'yiladi.

2. Soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Составить служебную справку, выдать личную справку, список документов прилагается, справка выдана по месту требования, согласно утверждённому плану, в соответствии с распоряжением руководства, дата выдачи, подпись должностного лица.

3. Quyidagi nutq qoliplari asosida gaplar tuzing.



Xizmat ma'lumotnomasi tashkilot yoki boʻlinma faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axboriy xususiyatga ega boʻlgan xilma-xil ma'lumotlarni oʻz ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar koʻrinishida tayyorlanadi. *Xizmat ma'lumotnomasi* oʻz navbatida ikkiga – ichki xizmat va tashqi xizmat ma'lumotnomalariga boʻlinadi.


Xizmat ma'lumotnomasida hujjatning nomi (turi) yozilmaydi.

Ma'lumotnoma sanasi u imzolangan va yoʻllangan kuni qoʻyiladi, chunki u chiqish hujjatlari daftarida qayd etiladi.

Xizmat ma'lumotnomasining rekvizitlari:

1. Hujjat joʻnatiladigan yuqori idora yoki mansabdor shaxsning nomi.
2. Soʻrov hujjatining sanasi va raqami.
3. Asosiy matn (ma'lumotnoma mazmuni).
4. Mansabdor shaxs (tuzuvchi yoki tashkilot rahbari) yoxud shaxslarning lavozimi, imzosi, ismi va familiyasi.
5. Ma'lumotnoma tuzilgan sana.

4. Quyida berilgan shaxsiy ma'lumotnoma chizmasi bilan tanishing. Unga asosan talabaga dekanatdan beriladigan ma'lumotnomaga misol yozing.



5. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nolarini yozing.

Hisobot, davr, topshiriq, vazifa, reja, rejalashtirilgan, xizmat safari, rahbarlik qilmoq, topshiriqqa binoan, rejaga asosan, buyruqqa binoan, muassasa qarori bilan, joriy yilda.

6. Qavs ichidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, ulardan so‘z birikmalari hosil qiling.

(Наука) ish, (месяц) hisobot, (план) ish, (служба) safari.

Hisobot

Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat *hisobot* deb ataladi.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday muammolar yoki yetishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish ushun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar beriladi.

Har qanday vazirlik, idora va uning qoshidagi tashkilot, muassasa va korxonalar faoliyatida rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Bunday hisobotlar ish smenasi, hafta, o'n kunlik, oy, chorak, yarim yillik, yil yakunlari bo'yicha tuziladi, ular *davriy hisobotlar* deb ataladi. Bunday hisobotlar rahbar organ yoki shaxs nomiga yo'llanadi.

7. Berilgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

O'zaro yordam, ma'naviyat mashg'uloti, xizmat vazifasi, davriy hisobot, o'quv amaliyoti, tadbirlar rejasi.

8. Quyidagi holatlarda hujjatlarning qaysi turlarini tuzishingizni ko'rsating.

1. Siz ishga kechikib keldingiz.
2. Siz imtihonni belgilangan vaqtdan oldin topshirishingiz zarur.
3. Siz tashkilotda o'tkaziladigan tadbirga mehmonlar taklif qilmoqchisiz.
4. Siz stipendiyangizni olish uchun ukangizni institutga yubormoqchisiz.
5. Siz tadbir o'tkazish uchun 5ta mikrofon oldingiz.
6. Do'stingiz o'zining mashinasini haydash uchun sizga ruxsat berdi.

7. Siz imtihonga kelmadingiz.

8. Siz shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajarishingizga kafolat berasiz.

Hisobotning zaruriy qismlari:

1. Hisobot yo'llanayotgan rahbar organ nomi yoki mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi.
2. Hujjatning sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.
3. Hujjatning nomi (Hisobot).
4. Hisobot matni.
5. Hisobotni tuzuvchining lavozimi, ismi va familiyasi, imzosi.
6. Sana.
7. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

Xizmat safari va rahbarning muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar davriy hisobotdan qisman farq qiladi.

Hujjatning zaruriy qismlari:

1. Hisobot yo'llanayotgan rahbar organ nomi yoki mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi.
2. Hujjatning sarlavhasi: kim tomonidan hisobot berilyapti.
3. Hujjatning nomi (Hisobot).
4. Hisobot matni.
5. Ilovalar (agar bo'lsa) haqida belgi.
6. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va familiyasi, imzo.
7. Sana.

9. Berilgan iboralardan foydalanib, o'quv amaliyotining hisobotini yozing.

(kimning?) rahbarligida, (qayerda, qachondan qachongacha?) amaliyotda bo'ldim, (kim tomonidan?) berilgan topshiriqlarni bajardim, (nimani?) o'rgandim, (qaysi sohada?) tajriba orttirdim, (qanday?) malakalarni egalladim.

Majlis bayonidan ko‘chirma.

1. So‘z va so‘z birikmalarning ma’nosini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Majlis bayoni, eshitildi, so‘zga chiqdilar, qaror qilindi, qatnashdilar, muhokama qilindi, axborot berdi, ma’ruza qildi, axboroti tinglandi, fikr-mulohazalarini bildirdi, muhokamaga chiqdi.

Majlis bayoni

Turli majlis, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, yig‘ilish qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat *majlis bayoni* deb ataladi. Majlis bayoni turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko‘ruvchi organlar majlislarida esa bu vazifani yig‘ilish jarayonida tayinlangan kotib bajaradi.

Majlis bayonining zaruriy qismlari:

- tashkilot nomi;
- hujjat nomi (Majlis bayoni) va shartli raqami;
- majlis o‘tkazilgan sana;
- majlis o‘tkazilgan joy;
- tasdiqlash ustxati (agar hujjat tasdiqlanishi zarur bo‘lsa);
- majlis raisi va kotibining familiyalari;
- qatnashuvchilar ro‘yxati yoki soni;
- matn:

1) KUN TARTIBI,

2) ESHITILDI,

3) SO‘ZGA CHIQQILAR,

4) QAROR QILINDI;

- ilovalar (agar bo‘lsa);
- majlis raisi va kotibining imzolari.

2. Otlarga mos sifatlarni topib yozing.


Matn, ma'ruza, yig'ilish, rais, kotib, mas'ul, muddat.

3. Nuqtalar o'rniga ilovadan mos so'z va so'z birikmalarini qo'yib, ko'chiring.

Kun tartibi ..., majlis raisi ..., so'z navbati ..., ma'ruza yuzasidan ..., masala bo'yicha ..., qaror ijrosini nazorat qilish ..., navbatdagi masala, topshiriqni bajarish muddati ...

Ilova: so'zga chiqdi, belgilab berildi, asosiy ma'ruzachiga berildi, o'qib eshittirildi, yuklatildi, savollar berildi, qaror qabul qilindi, muhokama qilindi.

4. Quyidagi nutq qoliplari asosida gaplar tuzing.



5. Berilgan so'z va birikmalar yordamida majlis bayonining qaror qismini tayyorlang.

Eshitildi, so'zga chiqdi, qaror qilindi, topshirilsin, tasdiqlansin, yuklatilsin, bajarilsin, muhokama qilinsin, tayinlansin, tasdiqlansin, jonlantirilsin, ogohlantirilsin.

6. Quyidagi ta'riflarni o'zbek tilida sharhlang. Ularning har biriga misol keltiring.

<i>Протокол</i>	документ, содержащий запись всего, что было сказано, сделано и решено на собрании, заседании, допросе
	документ, которым удостоверяется какой-нибудь факт
	акт о нарушении общественного порядка или закона, составленный с целью привлечения виновных к ответственности
	акт решений международной конференции, имеющий силу международного договора

Majlis bayonidan ko'chirma

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, majlis bayonidan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko'chirma quyidagi rekvizitlardan iborat:

- tashkilot nomi;
- hujjat nomi (majlis bayonidan ko'chirma) va shartli raqami;
- majlis o'tkazilgan sana;
- majlis bayoni tuzilgan joy;
- matn:

1) KUN TARTIBI;

2) ESHITILDI;

3) QAROR QILINDI;

- majlis raisi va kotibining imzolari;
- nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi, muhr.

Ba'zan majlis bayonidan olingan ko'chirmada majlisda qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek ko'rilgan masala bo'yicha muhokamada ishtirok etganlar familiyalari ham ko'rsatib o'tiladi.

Bayonning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan qismlargina olinadi, ya'ni majlis bayonida ko'rsatilgan qaysi masala bo'yicha qaror so'ralsa, aynan shu masala alohida ko'chiriladi.

7. Siz ta'lim olayotgan o'quv guruhida o'tkazilgan majlis bayonini tuzing. Ushbu bayondan ko'chirma oling.

1. O‘qing va eslab qoling.

Xizmat yozishmalari muassasa faoliyatiga oid turli masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan talab, iltimos, taklif, kafolat mazmunida amalga oshiriladi. Ularga telefonogrammalar, faksogrammalar, taklifnomalar, xatlar, diplomatik yozishmalar, tijorat yozishmalari kiradi. Xizmat yozishmalarining eng ko‘p tarqalgan turi xatlardir.

Xatlar vazirlik, idora, tashkilot va muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ular vositasida turli ko‘rsatmalar, so‘rovlar, javoblar, tushintirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Bu hujjatlar umumlashtirilgan holda *xizmat xatlari* deb yuritiladi. Bajaradigan vazifasiga qarab xizmat xatlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) javob xatni talab qiluvchi xatlar (*da’vo xat, so‘rov xat, iltimos xat*);

2) javob xatni talab qilmaydigan xatlar (*ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat, farmoyish xat, taklif xat* va boshqalar).

Shuningdek, mazmunida bir necha (kafolat berish, iltimos, eslatish) ma’no ifodalanadigan xatlar ham bo‘ladi.

Xizmat xatlari asosan xatlar blanklariga, blank bo‘lmagan hollarda oq qog‘ozga yoziladi. Xat oddiy varaqqa yozilsa, uning yuqori chap burchagiga xatni jo‘natayotgan muassasa nomi ko‘rsatilgan to‘rtburchak muhr qo‘yiladi.

Xizmat xatlarining matnini uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi (kirish) qismda xat bilan murojaat qilishga asos yoki sabab ko‘rsatiladi. Ikkinchi qismda xatda qo‘yilayotgan masalani hal qilish zarurligi

asoslab beriladi. Uchinchi (xulosa) qismda xat yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bayon etiladi.

2. Berilgan so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Yordam berishingizni so‘raydi, ijobiy hal etilishini so‘raydi, ta‘minlaydi, kafolat beradi, eslatib o‘tamiz, ruxsat berishingizni so‘raydi, ilova qilinadi, ma‘lum qiladi.


3. Quyidagi xatda tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘ying.


“Sharq ziyokori” do‘koni direktori A.S. Jalilovga		
Biz... institutimiz... ajratilgan umumiy qiymati... to‘lab olish sharti bilan “O‘zbekiston” nashriyoti... chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ... 10 (o‘n) nusxa jo‘natishingiz... so‘raymiz.		
Rektor	(imzo)	A. Rahmatov
Bosh buxgalter	(imzo)	S. Qodirov

4. Xatning matnini o‘qing. Uning tushirib qoldirilgan rekvizitlarni to‘ldiring. Xatning turini ayting.

Shuni eslatib o‘tmoqchimizki, institutingiz tomonidan 2017-yil 12-fevralda tuzilgan 126-raqamli shartnomaning 2-bandiga binoan yilning birinchi yarmida talabalar shaharchasining bosh loyihasini tayyorlashingiz kerak. Shunga ko‘ra, loyihani tayyorlash ishlari qanday borayotganligi haqida bizni xabardor qilishingizni so‘raymiz.

5. Quyidagi nutq qoliplaridan gaplar tuzing.





Xizmat xatlarining rekvizitlari:

1. O'zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik, idora nomi.
3. Tashkilot nomi.
4. Bo'lim nomi.
5. Reyestr bo'yicha hujjatning xos raqami.
6. Tashkilotning xos raqami.
7. Pochta manzili, telefon va faks raqamlari, bankdagi hisob raqami, elektron manzil.
8. Sana.
9. Shartli raqam (indeks).
10. Kelgan hujjatning shartli raqami.
11. Hujjatning kelish sanasi.
12. Hujjat jo'natiladigan manzil (xatni oluvchi maussasaning nomi).
13. Munosabat belgisi (rezolutsiya).
14. Nazorat haqida belgi.
15. Matn sarlavhasi (xatning qisqacha mazmuni).
16. Matn.
17. Ilovalar haqida belgi.
18. Imzo.
19. Rozilik belgisi (viza).
20. Kelishuv haqida belgi.
21. Bajaruvchi haqida belgi va uning telefon raqami.
22. Bajarilganlik haqida belgi.

6. Matnni o‘qing. Undagi asosiy g‘oyani ifodalab bering.

Maktublarning tarixi ming yillar avvalgi davrlarga borib taqaladi. Xatlarning paydo bo‘lishi insonlar orasida axborot almashish ehtiyoji yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Ilk maktublar asosan harbiy maqsadlarda jo‘natilib, qadimgi Assuriya, Eron va Misrda keng tarqalgan. U davrlarda piyoda yoki otliq xabarchi (chopar)lardan foydalanilgan bo‘lib, bugungi kunda ularni “kuryer” deb ataymiz. Masalan, Yunonistonda choparlar bir soatda taxminan 10 km masofani bosib o‘tishgan. Biroq, Qadimgi Rim maktublari tarixi eng mashhur va yuqori darajada tashkillashtirilgan edi. Yuliy Sezar tomonidan davlat pochta yaratilgan va xatlarni tashish tartibga solingan: yirik va mayda pochta



bekatlari qurilib, xat tashuvchilar ularda dam olib, otlarni almashtirish imkoniyatidan foydalanganlar.

XVI–XVII asrlarda Yevropada haqiqiy pochta muassasalari vujudga kelgan. XIX

asrda temir yo‘llar va parovozlar paydo bo‘lgach, xatlarni tashish tezligi oshgan va uzoq mamlakatlar bilan xabarlashish imkoniyati yaratilgan.

Hozir xatlarning tarixi so‘nggi kunlarini boshidan kechirmoqda. Ko‘pchilik elektron xatlarga o‘tib olgan, uyali telefonlardan qisqa xabarlar yuborish ommalashib ketdi. Biroq elektron xat bilan qo‘lda ushlab va ko‘p yillar esdalik sifatida saqlash mumkin bo‘lgan xatlarning farqi katta. XXI sarda ham insonlar konvertdagi xatni o‘qish jarayonidagi quvonch tuyg‘ularini unutmaydilar, deb umid qilamiz.

Xizmat xatlarining matni imkon qadar qisqa bo'lishi, shu bilan birga aniq va ravshan tushunilishi kerak. Ularning matnida ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni qo'llamaslik tavsiya etiladi. Xizmat xatlarining asl nusxasi jo'natilib, ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida saqlanadi. Da'vo xatlari uch nusxada tayyorlanib, 1-nusxasi aybdorga, 2-nusxasi da'vogarga beriladi, 3-nusxasi esa sud idoralariga topshiriladi.

Xizmat xatlarining turiga qarab ularni rasmiylashtirishda ba'zi farqlar bo'ladi. Masalan, axborot va da'vo xatlariga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda sarlavha qo'yiladi. Ilova xat, iltimos xat, ba'zi kafolat xatlarining matnida adresatga uning ismi va otasining ismi bilan murojaat qilinadi. Murojaat "hurmatli", "muhtaram" so'zlaridan boshlanadi, "Siz" olmoshi bosh harf bilan yoziladi. Farmoyish xatlari bir necha rahbar, muassasa va bo'linmalarga yo'llanadi va ularning adresatlari odatda ko'plik shaklida yoziladi. Xizmat xatlarida ularning mazmuniga ko'ra turli jumlar ishlatiladi. Chunonchi, ilova xatida "yo'llaymiz", "yo'llanadi", iltimos va so'rov xatlarida "so'raymiz", "so'raydi", kafolat xatida "kafolat beradi", "o'z zimmasiga oladi", tasdiq xatida "tasdiqlaymiz", "oldik", eslatma xatda "eslatib o'tamiz", "yana bir bor iltimos qilamiz" kabi so'zlar qo'llanadi.

Xizmat xatlari muassasa rahbari tomonidan imzolanadi. Rahbar bo'lmagan hollarda shunday vakolatga ega bo'lgan shaxs, ya'ni uning vazifasini bajaruvchi yoki o'rinbosari, lavozimi aniq ko'rsatilgan holda imzo chekadi.

7. Quyidagi xatni shartli ravishda qismlarga bo'ling. Undagi xizmat xatlariga xos xususiyatlarni ko'rsating. Xatning turini aniqlang.

Ilmiy-amaliy seminar o'tkazish haqida

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2017-yil avgust oyida "Hujjatlar tili va uslubi" mavzusida ilmiy-amaliy seminar o'tkazishni rejalashtirmoqda.

Seminardan ko'zlangan maqsad hujjatlar tilining nazariy va amaliy tomonlariga bag'ishlangan masalalarni muhokama qilishdan iborat. Seminar hujjatshunoslarga, ish yurituvchilarga, shuningdek

tilshunoslarga mo'ljallangan bo'lib, unda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

– hujjatlar tilini tartibga solish va ish yuritish terminlarini birxillashtirish;

– ish yuritish terminlarini tartibga solishning yangi axborot texnologiyasi sharoitidagi samadadorligi;

– hujjatlarni tasniflash va hujjatlar tizimi;

– hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishning umumiy qoidalari.

Sizni ilmiy-amaliy seminarda o'z ma'ruzangiz bilan qatnashishga taklif etamiz. Ma'ruzalarni maxsus to'plam shaklida 2017-yilda nashr qilish rejalashtirilgan.

Ilmiy-amaliy seminarda ishtirok etish va ma'ruza mavzusi haqida 2017-yil 1-avgustgacha quyidagi manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz:

Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 5-uy. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

Ma'lumot uchun telefon: *****.

8. Xizmat xatlari haqida olgan ma'lumotlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Hujjat haqida ma'lumotlar	V	+	–	?
Xizmat xatlari				

- *V – bilar edim*
- *(+) – men uchun yangi axborot*
- *(–) – men bilganlarimdan farq qiladi*
- *(?) – tushunmadim, savollarim bor*

9. Xizmat xatlarining bir necha turini tuzing.

M U T O L A A

ADABIYOT NADIR?

Abdulhamid Cho'lpon

Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir.

Har sinf, xalqning o'ziga maxsus ohangi, o'ziga ta'sir qiladurg'on zori bo'lur. Mana shul muhit bo'shligida bo'lgan qat'iy to'lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko'b achchiq ta'sir etmagidan odamning ko'nglida o'zi bilmasdan o'rnashub qolg'on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg'on qayg'ulanmak va yo ko'krak kerib qo'b dam olurday oh urmaklar — hamasi ko'ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to'lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba'zi vaqtda shodlikdan kulur va ba'zi vaqtda ko'z yoshin to'kub yig'lar, oh tortar. Odamning mundog' har xil kayfiyatga kirub turmog'i o'z ixtiyori nla bo'lmay, balki maishati yo'lida har vaqt uchrab turadurg'on falokatning anga ba'zi vaqtda zulm ko'rsatmog'i va ba'zi vaqtda bir yaxshilik ko'rsatub suyundirmog'idin kelub — yaxshi ko'rganda suyunib, yomonliq ko'rganda yig'lab — shundog' bo'lub ikki turli o'zgarub turar, ba'zi vaqtda falak bir odamni qayg'uga solar, ul o'zi tushunib, o'ylab turub, oh tortub yig'lar. Bu hasratlarni o'z ichiga sig'dirolmas. Birovga aytsa, "Voy bechora" deyurmukin, deb o'z qayg'usini birovga aytmakka tilar. To'p to'g'ri aytganda u qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta'sir qilar. Mening bir oshnamning o'ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda

maktub kelar, maktubda alarning ko‘rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila pok qayg‘uli mahzun boqurdi

Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay tun-kun oqurdi.

Mana shuni o‘qub albatta bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘shulurmiz. Bir bola uxlamasa alla aytarlar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qulur. Eski bobolarining bir ma’shuqa uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va yo‘lda o‘g‘rilar tarafidan o‘lturulgani g‘oyat yaxshi ohang bilan aytilur. Ul vaqtda bola ta’sirindan uxlab ketar. Shunga o‘xshash o‘zining shavkat va g‘ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor¹ va dahshatga solg‘on jahongirlarning o‘tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko‘rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo‘linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g‘ayrat — barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur.

Bizdan boshqa millatlarga ko‘z solsak ko‘ramizki, alarning olti yoshdan oltmish yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o‘qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur.

¹ havor — asoratga solmoq, ezmoq.

Mana shuning uchundirki, Ovro‘poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o‘qilur, nutq so‘ylanub xalq ko‘b kirub ta’sirlanurlar. Mana totor qardoshlarimiz yilda bir daf’a bo‘lsa ham shahar va qishloqlarida “Adabiyot kechalari” qilub xalqg‘a ruh berub ko‘b olqishlar, ofarinlar oldigini g‘azetalardan o‘qub turmakdamiz. Bizlar esak adabiyotdan lazzat olmak bir tarafda tursun, hatto bobolarimiz va bolxosa¹ “Islom madaniyati” zamoninda katta ro‘l o‘ynag‘on va alarning maishatlarin ko‘rsatgan ta’rix umumiyarlarni o‘qub anglamoqdin ham ko‘b yiroq turamiz.

Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziyolilarimiz esa Ovro‘po kiyumlilaridan va qiymatlik papiro‘slaridan lazzat olurlarki, “adabiyot nima?” desang, javobida yuqorida aytilgan cha “ya’ni, masalan”dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirdg‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘lmagani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q — fikrlar chochilub, aqlarimiz parishon bo‘lub ketar.

Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirdg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, “adabiyot kechalari” yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk,

¹ bolxosa — xususan

bilayluk. Agarda “bayoz”¹ va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda “Oyina” va “Sado”larimizga² tarixiy va adabiy maqola va she’rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot...

(1914-yil 4-iyun, «Sadoyi Turkiston» gazetasi)

ESKI TELEFON

(Hikoya)

Pol Villard

Hali juda yosh bola paytim edi. Dadam uyimizga telefon o‘rnattirdi. Qo‘ni-qo‘shnilarimiz orasidagi eng birinchi telefonlardan biri edi u. Uyimiz devoriga mahkamlab qo‘yilgan, yuzasi silliq sayqallangan o‘sha apparat hali-hamon yodimda. Nafis ishlangan go‘shagi uning bir chetiga ilib qo‘yilardi. Bo‘yim hali juda kichik bo‘lganligidan bu ajib matohga qo‘lim yetmasdi, ammo har gal onam u bilan gaplashganda o‘zgacha bir entikish va hayrat bilan quloq solib turardim. Keyinroq esa, bu matoh ichida g‘aroyib mitti bir ayol yashashligini bilib oldim. Uning ismi Ma’lumot Markazi edi. U ayol bilmagan hech narsa yo‘q edi dunyoda. Aniq vaqtdan tortib, qo‘shnilarimizning telefon raqamlarigacha bilardi.

Bir kuni onam qo‘shnimiznikiga chiqib ketib, uyda o‘zim yolg‘iz qolgan paytim birinchi marotaba o‘sha ayol – “chiroq ichidagi jin” bilan

¹ bayoz — asrimiz boshlarida yurtimizda keng tarqalgan she’riy majmualar nazarda tutilyapti. Bayoz — biror shoir tomonidan tarkib berilgan she’riy to‘plamlarning bir turi. Masalan, “Bayozi Haziniy”, “Bayozi Kamiy”...

² “Oyina va sadolarimizga” — 1913—1917 yillar orasida Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida chiqib turgan “Oyina” jurnali va “Sadoyi Turkiston” hamda “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari nazarda tutilmoqda.

suhbatlashdim. Yerto'lada, asbob-anjomlar saqlanadigan joyda o'ynayotgandim. Tasodifan, qo'limni bolg'a bilan urib oldim. Og'riq kuchli edi, ammo yig'lashning ham mavridi emasdi. Chunki yig'lasam meni yupatadigan, ovutadigan hech kim yo'q edi yonimda.

Lo'qillab og'riyotgan qo'limni nafasim bilan kuf-kuflagancha uyning u yog'idan bu yog'iga yugura boshladim. Zina yoniga yetganimda esa ko'zimga bir nima yaraq etib tashlandi: telefon! Xonadagi kursichani uning tagiga surdim va bir amallab go'shakni ko'tarib, qulog'imga tutdim.

— Ma'lumot markazi, iltimos, — dedim go'shakka qarata. Avvaliga bir oz shig'irlagan tovush, keyin esa tiniq va yoqimli ovoz keldi go'shakdan:

— Ma'lumot markazi, eshitaman!

— Qo'limni urib oldiim.., — ana endi ho'ngrab yig'lay boshladim, chunki yig'imni eshitadigan odam topilgandi.

— Onajoning uydami?

— Mendan boshqa hech kim yo'q uyda, — piqilladim men.

— Qonayaptimi? — so'radi ovoz.

— Yo'q, — javob qaytardim men. — Barmog'imni bolg'a bilan urib oldim, qattiq og'riyapti.

— Uyingda muz solingan idish bormi? Uni ocha olasanmi?

— Ha.

— O'sha idishdan bir oz muz olgin-da, barmog'ingga bos, — maslahat berdi yoqimli ovoz.

Shu voqeadan so'ng Ma'lumot Markazi ismli ayolga har qanday muammoimni aytib qo'ng'iroq qilaveradigan bo'ldim. Bir safar, geografiya fanidan yordam so'rab qo'ng'iroq qilganimda, Filadelfiya qayerda joylashganini aytib bergan bo'lsa, yana bir safar esa

matematikadan uy vazifasini qilishimga yordam berdi. Boshqa safar esa bog‘da tutib olgan olasichqonimni meva va yong‘oqlar berib boqishim kerakligini aytdi.

Bir kuni uyimizdagi kanareyka o‘lib qoldi. Bundan qattiq qayg‘uga tushdim va noxush xabarni darhol Ma‘lumot Markaziga yetkazdim. U esa kattalar yosh bolalarni yupatish uchun aytadigan odatiy gaplarni gapirdi. Bu meni ovuntirmadi va unga savol berdim:

— Nega shunchalik chiroyli sayraydigan, hamma oilalarga xursandchilik olib keladigan qush o‘lishi, qafasning bir chetidagi bir uyum patga aylanib qolishi kerak?

U mening qanchalik qayg‘uda ekanimni tushundi shekilli, ohista javob berdi:

— Yodingda tut, Pol, qushlar sayraydigan boshqa dunyolar ham bor. Qushing o‘sha dunyolarga ketgan.

Uning bu javobi menga bir oz taskin berdi. Qayg‘u hissi bir oz chekingandek bo‘ldi. Bir-ikki kundan so‘ng yana unga qo‘ng‘iroq qilishga majbur bo‘ldim:

— Ma‘lumot Markazi, “fix” so‘zi qanday yoziladi?

Bu voqealarning barchasi Amerikaning shimoli-g‘arbidagi kichik bir shaharchada bo‘lib o‘tgandi. 9 yoshga kirganimda esa Bostonga ko‘chib o‘tdik. Bolalarcha xayolimda Ma‘lumot Markazi oldingi uyimizdagi o‘sha eski telefonda yashardi hamon. Shuning uchun yangi uyimizdagi zamonaviyroq telefonda u bilan gaplashishni xayolimga ham keltirmadim.

Ulg‘aydim. Ana endi o‘smir yigitga aylanib, hayotga qarashlarim ham o‘zgara boshlagandi. Ammo beg‘ubor bolaligimdagi o‘sha suhbatlar xotirasi hech ham meni tark etmasdi. Ba‘zan o‘sha notanish ayolning kichkina bir bolaning go‘daklarcha gaplarini sabr bilan

eshitganidan, vaqtini qizg‘onmay mehribonlik bilan suhbatlashganidan minnatdor bo‘lardim.

Oradan yana bir necha yillar o‘tdi. Kollejda o‘qish uchun boshqa shaharga parvoz qilayotganimda, samolyotim Sietl shahri aeroportiga qo‘nib o‘tdi. Parvoz davom etishiga yarim soatcha vaqt bor edi. O‘sha shaharda yashaydigan singlim bilan 15 minutcha telefonda gaplashdim. Keyin esa, o‘ylab o‘tirmay o‘z ona shahrimdagi operator raqamini terdim. Shunda men kutmagan mo‘jiza ro‘y berdi. Go‘shakdan o‘sha tanish, yoqimli ovoz keldi:

— Ma’lumot markazi, eshitaman.

Bunday bo‘lishini kutmagandim. Nima deyishimni bilmay:

— “Fix” so‘zi qanday yozilishini aytib berolmaysizmi? — dedim. Oraga uzoq jimlik cho‘kdi. Va nihoyat narigi tomondan mayin ohangda javob eshitildi:

— Barmog‘ing ham allaqachonlar yaxshi bo‘lib ketgandir?

— Bu rostdan ham sizmisiz? – xursandligimdan kulib yubordim. – O‘sha yillari men uchun naqadar qadrdon insonga aylanganingizni bilganingizda edi.

— Sen ham o‘sha yillari qilgan qo‘ng‘iroqlaring men uchun qanchalik ahamiyatli bo‘lganini bilganingda edi. Mening hech qachon farzandim bo‘lmagan. Shuning uchun qo‘ng‘iroq qilishingni har safar intizor bo‘lib kutardim.

Men ham u ayolga uni shuncha yillardan beri unutmaganimni, har doim eslab yurganimni aytdim. Keyingi gal kelganimda yana qo‘ng‘iroq qilishimni ta’kidladim.

— Bajonidil qilaver, — dedi u. — Ismim Selli. Aytsang chaqirib berishadi.

Oradan 3 oy o‘tgach, yana Sietlga qaytdim va va’da berganimdek operatorga qo‘ng‘iroq qildim. Bu safar notanish ovoz javob berdi:

— Ma’lumot markazi, eshitaman.

Darhol Sellini so‘radim.

— Do‘stimisiz? — so‘radi u.

— Ha, juda ham eski do‘stiman.

— Buni aytayotganimdan afsusdaman, — dedi operator. — Selli kasallanib qolgani uchun oxirgi bir necha yil faqat yarim kundan ishladi. Besh hafta oldin esa vafot etdi.

Nima qilishimni bilmay, endi go‘shakni qo‘ymoqchi bo‘lganimda operator dedi:

— Shoshmang, ismingiz mabodo Pol emasmi?

— Ha!

— Unday bo‘lsa Selli sizga bir xat qoldirgandi. O‘qib beraymi? Eshiting: “Qushlar sayraydigan boshqa dunyolar ham bor. Men o‘sha dunyolarga ketdim”.

Ko‘zlarimda yosh bilan go‘shakni qo‘ydim.

(Ingliz tilidan A. Saidalixonov tarjimasi)

SO‘NGGI YO‘LOVCHI

(Voqeiy hikoya)

7-auditoriyaga tibbiyot fanlari doktori (ayol) kirib keldi.

Talabalar bir ovozda salom berdilar.

Domla javob berdi:

— Vaalaykum assalom. Barchangizni yangi o‘quv yili bilan tabriklayman. Ushbu semestr davomida men sizlar bilan birga bo‘laman. O‘zimni tanishtirishimdan avval esa sizlarga muhim bir narsani aytib qo‘ymoqchi edim. Orangizda kitobimni sotib olishga qurbi

yetmaydiganlar bo'lsa, xullas, sharoiti ko'tarmasa, marhamat, darsdan so'ng ism-sharifini qog'ozchaga yozib, xonamga keltirsin. Men unga yordam beraman.

Talabalardan biri dedi:

— Qanaqasiga, domla... Sizdan avval kirgan domlarning bari bizga “kitoblarni olmagan talabaga yillik natijalar qo'yilmaydi” deb aytishgan edi-ku.

Domla iliq tabassum bilan:

— Mening birov bilan ishim yo'q. Gap mening kitoblarim haqida ketyapti.

Shunda bir talaba kulimsirab dedi:

— Bunaqada, domla, hammaning sharoiti og'irlashib, hech kim kitob sotib olmaydigan bo'ladi.

Domla javob berdi:

— Hechqisi yo'q. Men kechirimliman.

Bugun darsimizning birinchi kuni ekan, kelinglar, yaxshisi, sizlarga go'zal bir voqea aytib beraman, chunki men birinchi kundan talabalarim bilan yaqindan tanishib olgim keladi.

So'ngra domla voqeani so'zlay boshladi...

“Bundan chamamda 20 yil avval mikroavtobus haydovchisi bo'lgan ekan. Ismi Ahmad Abdu Tavvab. Uning sizlar tengi bir qizi bo'lib, u universitetda birinchi kurs talabasi ekan.

Mikroavtobus haydovchisi Ahmad amaki tong saharlab qiziga eslatdi:

— Fotima qizim, buterbrodingni olishni unutmagin, o'qishda nonushta qilib olarsan.

Fotima kulib dedi:

— Maktabda o‘qiganimdan beri menga “buterbrodingni ol” deb aytasiz. Olishga olaman-ku, oxiri yana o‘zim bilan qaytib keladi-da. Maktab o‘quvchisimidim, o‘zim bilan buterbrod olib ketaman. Axir universitetda birinchi kurs talabasi bo‘lsam.

— Talaba bo‘lsang nima qilibdi? O‘zing bilan ovolgin-da, nonushtangni qilib ol.

— Dada, dadajonim o‘zimni, to‘g‘ri tushunsangiz-chi axir, dugonalarim ko‘rib qolsa, meni mazax qilishadi axir.

— Unday bo‘lsa, mana bu 50 junayhni olgin-da, nonushtangni qilib ol. Qaytishingda kechki ovqatga u-bu narsa sotib olarsan.

— Xo‘p bo‘ladi, o‘zimning mehribon dadajonim. Bilaman, onam rahmatli vafotlaridan so‘ng faqat mening qo‘limdan ovqatlanasiz.

Ahmad amaki dedi:

— Rahmatli 5 yoshligingda senga hech nima o‘rgatmay olamdan o‘tgan bo‘lsa ham, sen pishirgan taomlar onangning taomlariga judayam o‘xshab ketadi.

— O‘zingiz aytmaganmidingiz, onang tayyorlashni bilmagani uchun o‘zim unga o‘rgatganman deb. Xuddi shunday menga ham o‘zingiz o‘rgatgansiz-ku. Demak, pishirgan taomlarim ham onamniki kabi shirin va mazali bo‘lishi shart.

Ahmad amaki kulib dedi:

— Hech kim onangchalik bo‘lolmaydi. Men sen uchun shunday deyapman xolos.

— Albatta, albatta, axir ular ancha yillardan beri qalbingizdan joy olib kelganlar.

Ahmad amaki xo‘rsinib chuqur nafas oldi va dedi:

— Bo‘laqol, qizim. Mashinamning motori allaqachon qizigan bo‘lsa kerak. Seni o‘qishingga tashlab o‘taman.

Fotima dadasi bilan uning mashinasi tomon yo‘l oldi, so‘ngra minib dedi:

— Dada, esingizdami, har yili meni maktabim eshigiga qadar kuzatib qo‘yar edingiz. Bu yildan esa universitetga kuzatib qo‘ya boshladingiz. Allohga shukr, onam ikkovingizning orzularingizni amalga oshira oldim.

Ahmad amaki so‘radi:

— Qizim, seni olib ketgani soat nechida kelay?

— Qachon darsdan bo‘shashimni bilmayman hali, dada, qanday darslarim borligidan ham xabarim yo‘q. Bo‘lmasam, darslarim tugagach, to‘g‘ri siz turadigan bekat tomon o‘taman.

— Yaxshi, qizim, seni kutaman.

Fotima o‘qishiga kirib ketdi, dadasi Ahmad amaki esa o‘zining eski mikroavtobusida navbat olish uchun Aleksandriyadagi Damanhur bekati tomon ketdi.

Bekatda navbatda turgan Jalol amaki Ahmad amaki bilan so‘rashdi:

— Bo‘lajak professorning dadasi, qalaysiz endi?

Ahmad amaki kulib javob berdi:

— Allohga shukur, yaxshi, Jalol aka. Mening navbatim nechanchi ekan?

Jalol amaki:

— Siz beshinchi bo‘lasiz, – deb javob berdi. Shundan so‘ng: — Bugun ob-havo yaxshi emas. Yomg‘ir yog‘adi deyishyapti. Marshrutlar ham kam bo‘ladi endi, — deb qo‘ydi.

— Ha mayli, yog‘aversin. Yomg‘ir bu rizq. Bugun men fursatdan foydalanib, ko‘proq ishlashga harakat qilaman.

Oradan ancha vaqt o'tgach, Fotimaning darslari tugadi. U yo'lovchilar bilan Damanhurdagi kichik uyiga yetib olish maqsadida dadasi turgan bekat tomon yo'l oldi. Yo'l-yo'lakay Fotima dadasi bilan suhbatini davomida:

— Dada, ertaga 350 junayh olib borishim kerak ekan. Ba'zi bir kitoblar, qon bosimini o'lchash uchun tonometr va oq xalat sotib olishimiz kerak ekan, — dedi.

Ahmad amaki so'radi:

— Ertaga olishing shartmi, qizim?

— Ha, dada, professorlar shunday deb aytishdi.

Mablag'ni qayerdan olishni bilmay o'ylanib qolgan Ahmad amaki dedi:

— Mushkulimiz oson bo'lsin, qizim... Yetib keldik. Tushlik qilib bo'lgach, darslaringni qilgin. Mendan xavotir olma. Bugun kechgacha ishlayman.

Fotima xavotir olib dedi:

— Dada, ob-havoga qarang, yaxshi emas. Bugun uyga ertaroq qayta qoling.

Ahmad amaki javob berdi:

— Panohida asrovchi Alloh, qizim. Xavotir olma.

Ahmad amaki qizini uyida tushirib qoldirgach, yana bekat tomon yo'lovchilarni olish uchun qaytib ketdi.

Damanhur bekatidan Aleksandriya bekatiga qadar boruvchi mikroavtobuslar soni kam, yo'lovchilar esa juda ko'p edi. Ahmad amaki yo'lovchilarni ortib, Aleksandriya bekati tomon yo'l oldi. Ob-havo yomon bo'lganligi bois, u yerda ham marshrutlar juda kam edi.

Shunday qilib, Ahmad amaki ob-havoning yomonligiga qaramay, yo'lovchilarni to soat tungi ikkiga qadar tashidi. Oxiri yo'lovchilarning

soni ham tugadi. Ahmad amaki 200 junayh to‘plab, bo‘sh mashinasida Aleksandriya bekatidan qaytayotsa, yo‘lda egniga oq ko‘ylak, qora kostum-shim kiyib, bo‘yinbog‘ taqqan odam Ahmad amakining mashinasiga qarshi chiqib, ikki qo‘lini ko‘tarib to‘xtata boshladi. Ahmad amaki to‘xtagach, yo‘lovchi dedi:

— Iltimos, meni Damanhurgacha eltib qo‘ying. Aytgan narxingizni beraman.

Ahmad amaki shoshib dedi:

— Tezroq chiqing. Yomg‘irda ivib ketibsiz-ku.

Yo‘lovchi Ahmad amaki oldidagi o‘rindiqdan joy olib, dedi:

— Meni kechiring, ammo yonimda pulim yo‘q edi. Iltimos, meni uyimgacha eltib qo‘ying, keyin uydan olib beraman.

Ahmad amaki uning bashang kiyimiga ham e‘tibor qilmadi, “qanday qilib shunday qimmatbaho kiyimlarni kiygan odamda pul bo‘lmasin” deb ham o‘ylamadi.

Balki:

— Qo‘ysangiz-chi aka, qanaqa pul? Xudo xohlasa uyingizgacha eltib qo‘yaman, ammo bir tiyiningizni ham olmayman, — dedi.

Yo‘lovchi Ahmad amakiga hayron nazari bilan boqib, dedi:

— Uyga qaytayotganimda, yo‘limdan bir nechta bezorilar to‘xtatib, mashinamni o‘g‘irlab qochib ketishdi. O‘zimni esa siz to‘xtagan joyda tashlab ketishdi.

— Nahotki... unday bo‘lsa militsiyaga borib, mashinangizni o‘g‘irlaganlari to‘g‘risida ariza tashlab kelamiz.

Yo‘lovchi dedi:

— Avval uyga borib, kiyimlarimni almashtiray. Ayolim va farzandlarimga xabar qilib, keyin militsiyaga o‘tib kelarmiz.

— Mashinani o‘g‘irlashgani muhim emas. Muhimi, o‘zingiz sog‘-
salomat ekansiz.

Ahmad amaki shunday deb yo‘lovchiga taskin berib kelayotganida,
yo‘lidan bir qancha yo‘lovchilar chiqib, mashinani qo‘llari bilan to‘xtata
boshladilar. Ahmad amaki yonidagi yo‘lovchiga dedi:

— Kechirasiz, to‘xtamasam bo‘lmaydi. Xudo biladi, ularning
vaziyati qanday ekan.

Yo‘lovchilardan biri Ahmad amakiga dedi:

— Alloh hamrohingiz bo‘lsin, aka, iltimos, bizni o‘zingiz bilan
Kafr al-davvorgacha ola keting. Ayollar va bolalar bilan jalada qolib
ketdik.

Ahmad amaki mashinasidan tushib qarasa, kursilar soniga nisbatan
yo‘lovchilar soni anchagina ko‘proq ekan. Avval ayol va bolalarni
chiqarib, ularga yana qo‘shimcha 3ta kursicha berdi. So‘ngra erkaklarga
orqadan ikkita joy ajratib berdi va mashinaga minib, yo‘lida davom etdi.
Yo‘l-yo‘lakay ulardan so‘radi:

— Shunday kunda, kimsasiz joylarda nima qilib yuribsizlar?

Ulardan biri dedi:

— Aleksandriya bekatida edik. Birorta ham mashina yo‘q edi.
Oxiri bittasi kelib, hammamizni sizga o‘xshab mashinasiga ortdi.
So‘ngra yo‘lkira haqi 3 junayh bo‘lsa, bizga har bir yo‘lovchi uchun 10
junayhdan narx qo‘ydi. “Narxi yoqmasa chiqmanglar” deb shart ham
qo‘ydi. Ko‘rib turganingizdek, ob-havo yomon, jala quyib yotibdi.
Ayollar va bolalar qiynalmasin deb majbur minib oldik. Yo‘lning
yarmiga ham yetishga ulgurmasimizdan mashinasi buzilib qolsa
bo‘ladimi. Egasi u qildi, bu qildi, xullas, tuzata olmadi. Biz ham tushib,
boshqa mashina o‘tib qolar degan umid bilan turgan edik. Alloh bizga
sizni yubordi.

Ahmad amaki xafa bo‘lib:

— Nega endi bunday qiladi? Mana, mashinasi ham buzilib qolibdi. Endi tongga qadar yomg‘irda, kimsasiz yerlarda, yolg‘iz o‘zi qolib ketdi.

Shunday qilib, Ahmad amaki yo‘lovchilarni Kafr al-davvor bekatiga eltib qo‘ydi va yo‘lkira haqini olishdan bosh tortib, dedi:

— Sizlardan faqat professor qizim Fotimaning haqqiga duo qilishingizni so‘rab qolaman.

Yo‘lovchilar xursand bo‘lib tushib ketishgach, Ahmad amakining oldida o‘tirgan yo‘lovchi mashina oynasining tagida osilib turgan suratchaga ko‘zi tushdi va Ahmad amakidan so‘radi:

— Shu qizingiz Fotima professorning suratimi?

Ahmad amaki dedi:

— Ha, aka, mana shu mening qizim.

Yo‘lovchi hayron bo‘ldi:

— Hali juda yosh emasmi?

Ahmad amaki:

— Ha, u aslida hozir tibbiyot fakultetida birinchi kurs talabasi, — dedi g‘urur bilan.

So‘ngra Ahmad amaki ko‘chalarga qo‘yilgan ehson suvlaridan birining oldida to‘xtadi-da, tushib suvidan ichdi va yana mashinasiga minib, yo‘lida davom etdi.

Yo‘lovchi unga qarab:

— Nimaga bu yerdan suv ichdingiz, axir yoningizda suvingiz bor edi-ku?! – deb so‘radi.

Ahmad amaki javob berdi:

— Bu ehson suvini bundan 3 yil avval ayolimga sadaqayi joriya bo‘lsin deb qo‘ydirgan edim. Har safar yonidan o‘tganimda suvdan ichib, duo qilib, keyin ketaman.

Yo‘lovchi Ahmad amakiga ehtirom nazari ila boqib:

— Alloh rahmat qilsin, — deb qo‘ydi.

Damanhur shaharchasiga yetib kelishgandan so‘ng, yo‘lovchini uyigacha eltib qo‘ydi.

Yo‘lovchi unga dedi:

— Ahmad aka, Alloh rozi bo‘lsin sizdan. Meni bir ozgina shu yerda kutib turing. Kiyimlarimni o‘zgartirib chiqaman. Keyin militsiyaga birga o‘tib kelamiz.

Ahmad amaki:

— Xo‘p, men shu yerda kutaman, — deb qoldi.

Yo‘lovchi uyiga kirib ketgach, oradan bir daqiqa ham o‘tar-o‘tmas ichkaridan “Ahmad aka, qutqaring, tezroq keling” deb qichqirib, Ahmad amakini yordamga chaqirdi. Ahmad amaki yugurib bordi:

— Ha, nima bo‘ldi? Tinchlikmi?

Yo‘lovchi qaltiragan ovozda dedi:

— Gaz balloni ochilib qolganmi, bilmadim, hamma yer gaz hidi, kirsam, ayolim va bolalarim hushsiz yotishibdi. Ahmad aka, zudlik bilan ularni kasalxonaga olib borishimiz kerak.

Shunday qilib, Ahmad amaki ikki bolani, yo‘lovchi esa ayolini ko‘tarib, tezda mashinaga o‘tirishdi va Damanhur kasalxonasi tomon yo‘l olishib, ayol va bolalarni qutqarib qolishdi.

Yo‘lovchi tashqariga chiqqach, Ahmad amakiga:

— Men sizga hayotim bilan qarzdorman. Men bundan keyin hamisha sizning xizmatigingizdaman, — deb cho‘ntagidan pul chiqardi.

Ahmad amaki buni inkor etib dedi:

— Sizdan hech narsa olmayman. Mashinangiz o‘g‘irlangan bo‘lmaganida ham yoki mana bu holatlar sodir bo‘lmaganda ham baribir sizdan haq olmagan bo‘lar edim. Bilasizmi nimaga?

Yo‘lovchi hayratlanib so‘radi:

— Nima uchun, Ahmad amaki?

Ahmad amaki dedi:

— Men bu mashinamni bundan 20 yil avval sotib olgan edim. Rahmatli ayolim o‘shanda juda xursand bo‘lgandi va menga: “Alloh yo‘lida, bizni hamisha O‘z panohida asrashi va haromni bizdan yiroq etishi uchun har kuni so‘nggi yo‘lovchingizni tekinga eltib qo‘yasiz” degandi. Men “nega endi so‘nggi yo‘lovchimni?” deb so‘raganimda: “Chunki tun yo‘lovchi uchun juda qiyin va og‘ir bo‘lgan vaqt hisoblanadi” deb aytgan edi rahmatli. Bilasizmi, ba‘zi odamlar mashinamni ko‘rganida eskiligidan minishga ikkilanib, “bu hattoki bekatdan nariga o‘tmaydi-ku” deb aytishar edi. Sizga ochig‘ini aytsam, mashinamni olganimdan beri mana 20 yil bo‘libdiki, bir-ikkitasini hisobga olmasak, hali biron marta jiddiy buzilib, ustaxonaga tuzatish uchun olib borgan emasman.

Yo‘lovchi hayratlanib dedi:

— Ha-a, Ahmad aka, siz judayam yaxshi inson ekansiz. Hech bo‘lmasa menga ismingizni to‘lig‘ini aytarsiz. Pulimni olishdan-ku bosh tortdingiz. Endi aka-uka tutinsak, bunga yo‘q demassiz.

Ahmad amaki javob berdi:

— Albatta, bu men uchun sharaf bo‘lgan bo‘lar edi. Ismim Ahmad Abdu Tavvab.

Yo‘lovchi tabassum bilan dedi:

— Demak, suratdagi qizingizning ismi Fotima.

— Ha, shunday.

Yo‘lovchi so‘radi:

— Boshqa farzandlaringiz ham bormi?

— Yo‘q, aka.

Yo‘lovchi dedi:

— Mana endi qarindosh tutindik, Ahmad aka, sizni va qizingizni kutamiz. Uyimning qayerdaligini bilib oldingiz.

— Xudo xohlasa, ayolingiz va farzandlaringizdan hol-ahvol so‘rab, ko‘rgani kelamiz.

— Albatta kutaman, keling.

So‘ngra Ahmad amaki uyiga qaytgach, qizi Fotimaga bo‘lgan voqealar haqida so‘zlab beradi.

Fotima dedi:

— Dada, bo‘lishi mumkin emas. Alloh sizga shuncha rizq va nasiba yuborgan ekan, nega “yo‘q, kerak emas” deb aytdingiz. Yana shuncha fursat bo‘la turib, bor-yo‘g‘i 200 junayh ishlabsiz. Men bunaqada ertaga yiqilaman-ku. Meni qabul qilishmaydi endi.

Ahmad amaki bosiqlik bilan dedi:

— Qizim, quloq tut menga. Senga talabalik unvonini bergan va seni men uchun asrab-avaylab kelayotgan narsa – bu so‘nggi yo‘lovchimni tunda Alloh uchun eltib qo‘yganim bo‘ladi. Bu “rizqim ko‘p kelgani uchun foydalanib qolishim kerak” degani emas. Albatta, bu yaxshiliklarim menga ikki hissa bo‘lib qaytgay.

Fotima xato qilganini bilgach, dedi:

— Meni kechiring, dada. Ammo men ertangi kunimdan juda ham qo‘rqib ketyapman. Mening muvaffaqiyatlarimni va “professor” degan unvonga sazovor bo‘lganimni ko‘rib, quvonishingizni juda ham istar edim.

— Alloh shu kunlarga yetkazsin. Ertaga o‘qishingga borib, 200 junayhni bergin. Qolganini o‘ylama.

— Xo‘p bo‘ladi, dada.

Ertasi kuni Fotima o‘qishiga bordi. Birinchi para. Domla darsni sharhlab turganida, kotiba qiz auditoriyaga kirib, izn so‘rab dedi:

— Orangizda Fotima Ahmad Abdu Tavvab bormi?

Fotima o‘rnidan cho‘chib turib, qaltiragan ovozda “ha, menman” dedi.

— Men bilan yuring, sizni dekan chaqiryapti.

Fotima dekanning xonasi tomon qo‘rqib yo‘l olar ekan, ichida “nega endi dekan meni chaqirtirdi ekan?” der va to yetib borgunga qadar yuragining gupillashini eshitib borar edi.

Xonaga kirgach, dekan so‘radi:

— Siz Fotima Ahmad Abdu Tavvabmisiz?

— Ha, menman.

Dekan unga tabassum qilib dedi:

— Men bilaman, dadangiz Damanhur bekatida mikroavtobus haydovchisi bo‘lib ishlaydi.

Fotima hayron bo‘ldi:

— Shunday, ammo siz buni qayerdan bildingiz? Otamga biron nima bo‘ldimi?

— Yo‘q, otangiz yaxshi. Ammo kecha mashinamni o‘g‘irlatib qo‘yganimdan so‘ng otangizni uchratmaganimda, ayolim va farzandlarimdan ayrilib qolgan bo‘lar edim.

Fotima hayratda qolib dedi:

— Kecha dadamning mashinasiga mingan, ayoli va farzandlari gaz hididan hushidan ketgan odam siz edingizmi?

Dekan tabassum bilan:

— Ha, men edim. Dadangiz bilan bugun uyimizga kelinglar. Sizlarni kutib qolamiz, — dedi.

Fotima quvonchi ichiga sig‘may, “xo‘p bo‘ladi” dedi. Darsga borishini aytib, izn so‘rab, xonadan chiqib ketayotganida dekan chaqirdi:

— Fotima, bir lahza.

Fotima “labbay” deb qaradi.

Dekan:

— Mana bularni o‘zingiz bilan ola keting, — deb stolida turgan oq xalat, tonometr va kitoblarga qarab ishora qildi. — Bularning hammasini oling. Agar yana u-bu narsaga ehtiyojningiz bo‘lsa, bemalol otangizga murojaat qilganingiz kabi menga murojaat qilavering.

Fotima juda xijolat bo‘lib, kitoblarni rad etdi. Ammo fakultet dekani olmaganiga qo‘ymadi.”

Domla auditoriyada o‘tirgan talabalarga mikroavtobus haydovchisining qizi haqidagi qissani so‘zlab bo‘lgach, ularga dedi:

— Kelinglar, endi yaqindan tanishib olsak. Mening ismim Fotima Ahmad Abdu Tavvab... mikroavtobus haydovchisining qizi!

(Arab tilidan tarjima qilingan)

URUSHNING SO‘NGGI QURBONI

(Hikoya)

O‘tkir Hoshimov

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i qotgan quroq dasturxon ham hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko‘zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong‘oq shoxlari bir guvillab qo‘ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. “Ziqna bo‘lmay o‘l! — deb o‘yladi xotinini so‘kib. — Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”.

Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘irchillagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rosladi.

— Ovozini o‘chir, Xadicha!

Ichkaridan xotining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

— Ovozi o‘chsa koshkiydi! To‘qqiz kechasida jin tekkan bunga!

“Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, — deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. — Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi”.

Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi, yo o‘zi yaxshi ishlarmidi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urush boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo‘ldi-yu, zamon o‘zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo‘lsa, yonidan o‘tib ketsa ham boshqorongi bo‘laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo‘larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug‘ib berdi.

Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shnikida aza ochiladi, hali bu qo‘shnikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylanganidan keyin otadan qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa o‘zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone‘mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq “musulmon” g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi.

— Hali uxlamovmidig? — dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab.

— Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O‘zim itday charchaganman.

— Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, — dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. — Yotaver, bolam. — U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynana-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib, dasturxon ustiga qo‘ydi.

— Choy o‘chib qopti, — dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpachaga o‘tirdi.

— Ol o‘zing ham, — dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan, sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi.

— Ovqatingdan qolmadimi? — dedi u cho‘kkalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi:

— Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir...

— Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, — dedi Umri xola shoshilib. — Xayol surib yotib uyqum o‘chib ketdi... — U bir lahza jim qoldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi. — Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi.

— Hozir qo‘y suti qatta, — dedi Xadicha. — Sigir suti otliqqa yog‘-u... shu paytda sigirimiz tuqqan bo‘lardi-ya.

Shoikrom xotining gapini eshitmadi. Birdan uning ko‘z o‘ngida pastak deraza ostida shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o‘n kundan buyon holini so‘ramaganiga afsuslanib, ichidan xo‘rsiniq keldi. Shone‘mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi.

Shoikrom o‘n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so‘ragan edi. O‘shanda Shone‘matning qoq suyak bo‘lib qolganini,

katta-katta ko‘zlari nimagadir chuqur ma’no bilan o‘ziga tikilganini ko‘rgan edi.

“Yaqinda o‘ladi, — deb o‘yladi u onasining ko‘ziga qaramaslikka harakat qilib, — baribir o‘ladi”.

— Tuzukmi? — dedi u hammasi uchun o‘zi aybdorday qovog‘ini solib.

— Shukur, — Umri xola qult etib yutindi. — Hozir uxladi. — Onasi shu topda chiqib ovora bo‘lmagin, degan ma’noda gapirganini Shoikrom tushundi.

— Ertalab xabar olaman, — dedi u onasi o‘rnidan turganida.

— Sendan nega gina qilarkan, bolam, — dedi Umri xola ayvon labida to‘xtab. — Ko‘rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo‘lib ketadi, bolam. — Zinaga yechgan kalishining bir poyi to‘nkarilib qolgan ekan, umri xola oyog‘ining uchi bilan to‘g‘rilayman deb, ancha ovora bo‘ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g‘iyqillab ochilib yopildi.

— Padariga la’nat shunaqa turmushning! — dedi Shoikrom bo‘g‘ilib. Keyin dasturxonni yigi’shtirayotgan xotiniga o‘shqirdi. — Seniyam padaringga la’nat! Tumshug‘ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o‘tirsang.

— Nega menga o‘dag‘aylaysiz? — Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig‘lamsiradi. — Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so‘yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo‘lsangiz. Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o‘girib, tishini g‘ijirlatdi.

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko‘paydi. Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi. O‘sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong-saharda bir nimani sezganday ko‘ngli g‘ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, bolalari, onasi dod solib o‘tirishibdi. Xadicha og‘iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib bilolmay qolibdi. Ertalab tursa ko‘cha eshik lang ochiq, yong‘oqqa bog‘loqliq sigir yo‘q.

“Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, — deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. — Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”.

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, baribir mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib, xotin sho‘rlik dod solibdi. Eri chyxonada ekan. Yugurib borib echkining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo‘ni-qo‘shnilar qora qoniga belanib yotganini ko‘rishibdi.

— Shu kunda yana o‘g‘ri oralab qoldi, — dedi Xadicha ko‘rpachani qoqib tancha chetiga solarkan. — Qulupnay qizarmasidan bitta qo‘ymay terib ketyapti.

— Vahima qilma! — dedi Shoikrom qovog‘ini u‘yib. — Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

— Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini opchiqib sotsa bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi!

— Vahima qilma! — dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko‘nglida paydo bo‘lgan g‘ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib,

qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

“Rost-da, — deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, — bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...”

Bultur xotini xuddi shu qulupnay tufayli onasini ham qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekanmiz, norastalarning nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi.

Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana o‘sha gap xayoliga keldi. “Xadicha anoyi emas, qurumsoq...”

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko‘cha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo‘ralab turganday bo‘ldi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarini o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjga chiqar, hovlidagi yong‘oq barglari shovillab, shoxlari g‘irchillar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘lardi.

Xadicha rost aytadi. U kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... “Vijdonsiz! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak”.

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetrishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o‘sha xudo bexabarlardan.

U o‘rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitilmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash‘aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

“Menga desa otib yubormaydimi! — deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘qqayib o‘tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. — Harna bitta haromxo‘rni o‘ldirganim. Bittasi o‘lsa, boshqalari adabini yeydi”.

U chaqqon harakat qilar, a‘zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o‘zi payqamas, faqat bir so‘zni takrorlardi: “Menga desa otib yubormaydimi!”

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon tagidan olib

o‘tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo‘ydi. Keyin birdan bolalar kechasi hovliga tushsa nima bo‘ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko‘tardi.

— Ha?

— Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi! — dedi Shoikrom ko‘zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, “xo‘p” dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o‘tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog‘ini o‘chirib, yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshu shundoq eshik tagiga, namatga ko‘ndalang yotib oldi.

“Menga desa otib tashlamaydimi?” deb o‘yladi yana o‘shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o‘yladi. Shone‘mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom uni har kuni maktabdan o‘zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o‘tirardi. Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o‘qirdi. O‘shanda Shone‘mat yig‘lamagan, ammo ichikib kasal bo‘lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo‘lsa, besh kunligi qoldimi yo‘qmi, aka bo‘lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxlamadimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi, yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. “Boshqalari qochdi” degan fikr lip etib xayolidan o‘tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog‘i botib ketayotganini payqadi. Keyin g‘ujanak bo‘lib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to‘xtadi-yu, birdan cho‘kkalab qoldi. Bir lahza ko‘zlari

olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

— Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

— Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog'iga tekkanida yulib olmoqchi bo'lgan-u, qo'lga o'ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o'zini onasining quchog'iga otdi.

— Oyijon, oching ko'zingizni! — dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib.

U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida cho'nqayib o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi.

— Nima qilib qo'ydim, ukam! — dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasining ustiga o'zini tashladi. U onasini ko'tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

— Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, — dedi Shone‘mat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

— Zahar ichsam bo‘lmasmidi, — dedi Shone‘mat yana o‘sha ohangda. Aftidan, u yig‘lay olmas, yig‘lashga madori yetmasdi. — Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yo‘q edi.

* * *

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi.

— Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

OSSURIYA SHOHI ASARXADON

(Hikoya)

Lev Tolstoy

Ossuriya shohi Asarxadon shoh Lailie mamlakatini bosib oldi, shahar-qishloqlarini beomon talab, yoppasiga o‘t qo‘ydi, aholisini qul qilib, mulkiga haydab keldi, qo‘shinini yakson etib, Lailiening o‘zini qafasga soldi.

Shoh Asarxadon kechasi xobxonada yotgancha, Lailieni qatl etish yo‘lini qidirar ekan, bexos shitir etgan ovozni eshitdi va ko‘zini ochib, ustida oppoq soqoli ko‘ksiga tushgan, ko‘zlari beozor boqib turgan bir cholni ko‘rdi.

— Lailieni qatl etmoqchimisan? — deb so‘radi chol.

— Ha, — deb javob berdi shoh, — shu topda uni qanday qatl etsam ekan, deb o‘ylab turgan edim, o‘zi-a.

— Lailie, axir, o‘zingsan-ku, — so‘z qotdi chol.

— Bekor gap, — dedi shoh, — men – menman, Lailie esa – Lailie.

— Lailie bilan sen asli bir odamsizlar, — dedi chol, — faqat sening ko‘zingga boshqa-boshqa bo‘lib ko‘rinyapsizlar, xolos.

— Ko‘zingga shunday ko‘rinyapti, xolos, deganing nimasi?! — dedi shoh. — Men, mana, parqu ko‘rpada huzur qilib yotibman, sodiq g‘ulomu joriyalarim amringa muntazir, ertaga ham bugungidek do‘st-yorlar bilan yana kayf-safo qilaman, Lailie bo‘lsa, ana, tutqin qushga o‘xshab qafasda o‘tiribdi, ertaga qoziqqa o‘tqazilsa, tili og‘zidan osilib tushadi va tanasi og‘riqdan ming bor burishib-tirishadi, oxiri esa o‘ligi itlar oldiga tashlanib, tilka-pora qilinadi.

— Sen Lailieni hayotidan mahrum etolmaysan, — dedi chol qat’iyat bilan.

— O‘n to‘rt ming askarni halok qilganim va jasadlaridan qo‘rg‘on tiklaganim-chi? — dedi shoh. — Mana, men – borman, ular – yo‘q. Demak, Lailieni ham hayotidan mahrum eta olaman.

— O‘sha askarlar yo‘q ekanini sen qayoqdan bilasan?

— Agar ular bor bo‘lsa, nega ko‘zingga ko‘rinmaydi?! Xullasi kalom, ular azob tortdi, men esa huzur qildim, ularga yomon-u, menga yaxshi bo‘ldi.

— Buyam senga shunday tuyulyapti, xolos. Sen ularga emas, o‘zingga azob bergansan.

— O‘lay agar, gapingga tushungan bo‘lsam, — dedi shoh.

— Tushuntiraymi bo‘lmasa?

— Ha-da!

— Unda bu yoqqa kel, — dedi chol suvga limmo-lim kattakon jomni ko‘rsatib.

Shoh jom yoniga keldi.

— Ust-boshingni yech-da, unga tush.

Asarxadon chol aytgandek qildi.

— Ustingdan quya boshlashim hamono, — dedi chol qo‘lidagi cho‘michni suvga to‘ldirib, — darhol jomga boshingni tiq!

Chol uning boshi ustida cho‘michni engashtirdi, shoh ham shu ondayoq jomga bosh tiqdi.

U ana shu lahzadayoq o‘zini Asarxadon emas, boshqa odam deya his etdi. Va shuning barobarida o‘zini xobxonada go‘zal bir ayol bilan birga ko‘rdi. Bu ayolni u hech qachon ko‘rmagan emish-u, ammo o‘zining xotini ekanini bilarmish. Ayol tavoze-la o‘rnidan qo‘zg‘alar emish-da, “Aziz hojam Lailie, sen kecha saltanat ishlaridan horib-charchab, har kungidan uzoqroq uxlab qolding, men esa hech kim uyqungni buzmasin, deya tepangda qo‘riqchi bo‘lib o‘tirdim. Saroy a‘yonlari devonxonada senga muntazir turibdi. Shohona libosingni ustingga il-da, ularning yoniga chiq”, deyar emish.

Asarxadon shu so‘zlardan o‘zining Lailie ekanini bilibdi-yu, ammo nega bunday bo‘lib qolganidan ajablanish o‘rniga, aksincha, nega o‘zining Lailie ekanini shu vaqtgacha bilmaganidan hayron bo‘libdi, o‘rnidan turib kiyinibdi-yu, vazir va mulozimlari ilhaq kutayotgan devonxonaga chiqibdi.

A‘yonlar shoh Lailiega ikki bukilib ta‘zim etibdi, so‘ngra uning ijozati bilan joylariga cho‘kibdi. Mulozimlardan eng ulug‘i, bu yog‘iga yovuz tojdor Asarxadon haqoratlariga chidab bo‘lmaydi, unga qarshi urush ochish kerak, deya shohga maslahat solibdi. Biroq Lailie keksa a‘yon fikrini ma‘qullamabdi va Asarxadon huzuriga elchi jo‘natib, uni insofga chaqirmoq kerak, deya qaror chiqaribdi-da, ahli mashvaratga ijozat beribdi. Shundan keyin eng boobro‘ zotlardan elchilar saylabdi va

Asarxadonga borib aytajak gaplarini ipidan-ignasigacha quloqlariga quyibdi.

Shu ishlarni oyoqlatgach, Asarxadon o'zini yana Lailie deya his etaroq arxar ovlagani toqqa chiqib ketibdi. Ov degani, o'ziyam, baroridan kelibdi. U bir juft arxar otibdi va saroyga qaytib, do'st-yorlari bilan bazmga sho'ng'ibdi, mashshoqlar nag'masi-yu raqqosalar raqsidan huzur olibdi.

Lailie ertasiga, odati bo'yicha, arzgo'ylar, sudlanuvchi va dovlashuvchilarni qabul etibdi – har bir ish o'ziga munosib ajri oliy olibdi. Bu vazifani yakuniga yetkazib, yana xush ko'rgan ermagi – shikorga ravona bo'libdi. O'sha kuni shohga qari ona sherni otib o'ldirish va bir juft shervachchani o'lja olish nasib etibdi. Shikordan so'ng yana nag'ma va raqslar bilan ko'ngil yozib, do'st-yorlar ila bazm quribdi.

U Asarxadon huzuriga yuborilgan elchilarning qaytishini kutib, shu zaylda kunlar va haftalarni o'tkazibdi. Elchilar bir oydan so'nggina qaytibdi: ularning burun va quloqlari kesilgan emish.

Shoh Asarxadon elchilardan Lailiega shuni aytib yuboribdiki, agar u tez fursatda oltin, kumush va sarv og'ochida katta o'lpon to'lamasa, shuningdek, o'zi ham Asarxadon saroyida hozir bo'lib, unga ta'zim bajo keltirmasa, elchilarni nima ko'yga solgan bo'lsa, Lailieni ham shu ko'yga solar emish.

Ilgari Asarxadon bo'lgan Lailie yana a'yonlarni to'plabdi va bu yog'iga qanday yo'l tutish xususida mashvarat qilibdi. Vazir va mulozimlarning hammasi bilittifoq, Asarxadon bostirib kelmay turib o'zimiz unga qarshi urush ochishimiz kerak, deya fikr bildiribdi. Shoh bu safar maslahatga rozi bo'libdi va Asarxadon ustiga cherik tortibdi. Lashkar yetti kun yo'l bosib, sakkizinchi kun deganda daryo yoqasidagi

keng-mo‘l vodiya dushman qo‘shini bilan to‘qnashibdi. Lailie lashkari mardona jang qilar va bu shoh qalbiga taskin berar emish-u, ammo Asarxadon qo‘shini tog‘dan mo‘r-malaxdek yopirilib tushib, butun vodiyni qoplab olgani va shu tariqa uning askarlarini tang ahvolga solib qo‘yganidan betoqat bo‘lar emish. U o‘z aravasida janggohning qoq o‘rtasiga otilibdi va sanchib-chopib boraveribdi. Ammo, taassufki, Lailie askarlari yuzlab bo‘lsa, Asarxadon jangchilari minglab emish. Lailie shu asnoda avval yaralangani, so‘ng asir olinganini payqabdi.

U barcha asirlar bilan birga, Asarxadon askarlari qurshovida, to‘qqiz kun qo‘li bog‘liq yo‘l bosibdi. O‘ninchi kun deganda uni Nineviyaga olib kelishib, qafasga bandi etishibdi.

Lailie ochlik va jarohatdan azob tortmas emish-u, lekin g‘animdan qasos olishga ojiz qolganidan uyat olovida qovrilar emish. “Bu vaziyatda qo‘limdan faqat bir ish keladi, u ham bo‘lsa – meni har qancha azoblashmasin, sira oh-voh qilmay, mardona chidab berish”, deya o‘z-o‘ziga ont ichibdi shoh.

Lailie qatl soatini kutib yigirma kun qafasda o‘tiribdi. Boyoqish qarindosh-urug‘ va do‘st-birodarlarini qatl etgani olib ketishayotganini ko‘rib va ularning qatlgohdan kelayotgan dod-faryodini eshitib turar emish: jallodlar mahkumlardan birining oyoq va qo‘llarini chopsa, boshqasining tirikligicha terisini shilib olar emish-u, ammo bundan na behuzur bo‘lar, na achinish tuyar va na dahshatga tushar emish. Lailiening ko‘zi haram kanizaklari qo‘lini bog‘lab olib ketayotgan o‘z xotiniga tushibdi. “Shoh Asarxadonga joriya qilib berishmoqchi”, degan alamli o‘ydan yuragi uvishibdi uning. Ammo boyoqish bu isnodga ham tishini tishiga qo‘yib chidab beribdi.

Nihoyat, ikki jallod qafas eshigini ochib, uni tashqariga chiqaribdi-da, qo‘lini qayish bilan bog‘lab, qon halqob bo‘lib yotgan qatlgohga olib

kelibdi. Lailie ro‘parasida qonga belangan o‘tkir qoziqni ko‘ribdi. Undan endigina sodiq bir do‘stining jasadini sug‘urib olgan ekanlar. Lailie anglab yetibdiki, bu qoziqni, hoynahoy, o‘zi uchun bo‘shatishgan.

Lailiening ustidan kiyimini yechib olishibdi. Shunda u bir vaqtlar kuch-quvvat yog‘ilib turgan ko‘rkam tanasi endi suyakka yopishgan qoq teri bo‘lib qolganidan qo‘rqib ketibdi. Ikki jallod abgor tanani oriq sonlaridan tutib azot ko‘taribdi va qoziqqa o‘tqazmoqchi bo‘libdi.

“Endi o‘lim meni domiga tortadi”, deb o‘ylabdi Lailie va har qanday azobga miq etmay chidab berish haqidagi ontini unutib, shafqat so‘rab dodlay boshlabdi. Lekin uning dod-faryodiga hech kim parvo qilmas emish.

“Axir, bunday bo‘lishi mumkin emas, — deb o‘ylabdi u talvasa ichida, — men, hoynahoy, uxlayotgan bo‘lsam kerak. Ha, bu – tush”. U shunday deya jon-jahdi bilan uyg‘onishga harakat qila ketibdi. “Axir, men Lailie emas, Asarxadonman”, deb o‘ylarmish u nuqul.

— Sen ham Lailie, ham Asarxadonsan. — U judayam olisdan kelayotgan ana shu sasni eshitar emish-u, ayni choqda, qatl boshlanayotganini ham sezib turar emish...

...Shu on u tomog‘i yorilgudek chinqirib yubordi-da, jonholatda boshini jomdan ko‘tardi. Bu payt chol uning ustidan cho‘mich tubidagi oxirgi suvni quymoqda edi.

— Azob shunchalik ham og‘ir bo‘ladimi! Shunchalik ham uzoqqa cho‘ziladimi! — dedi Asarxadon nafasi og‘ziga tiqilib.

— Shunchalik ham uzoqqa cho‘ziladimi, deysanmi? — taajjublandi chol. — Boshingni hozirgina suvga tiqding-u, darrov chiqarib olding; mana qara, hali cho‘michdagi suvning barini quyib bo‘lganim yo‘q. Hoynahoy, so‘zimning ma’nosini anglagandirsan endi?

Asarxadon churq etmadi, faqat cholga qo‘rqib qarab qo‘ydi, xolos.

— Endi anglagandirsan, — deya so‘zini takrorladi chol va bunday deb qo‘shib qo‘ydi: — Lailie sening o‘zing ekaning-u sen qatl etgan askarlar ham o‘zing ekaningni. Nafaqat askarlar, sen shikorda otib o‘ldirgan va bazm dasturxoniga tortilgan jonivorlar ham sen o‘zing eding. Sen nuqul hayot mening dastimda deb kibrlanib yurarding, biroq men ko‘zingdan yolg‘on pardasini ko‘tardim va shunda ayon ko‘rdingki, sen o‘zgalarga yomonlik qilaman deb o‘zingga yomonlik qilibsən. Hayot barcha uchun yagona, sening hayoting esa shu yagona hayotning birgina zarrasi. Hayotning shu bir zarrasini yaxshiroq yoki yomonroq, uzunroq yoki qisqaroq qilishgina sening izmingda, xolos. Uni ham faqat bir yo‘l bilan yaxshiroq qila olasan: o‘z hayotingni o‘zgalarnikidan ajratib turgan to‘siqlarni buzib tashlaysan-da, barcha insonlaru jonivorlarni o‘zing deb bilasan – ularga muhabbat qo‘yasan. Hech zog‘ni hayotdan mahrum etish sening qo‘lingda emas. Sen joniga qasd qilganlar hayoti atigi ko‘zingdan panalandi, butkul yo‘qolgani yo‘q. Sen o‘z hayotingni uzaytirib, o‘zgalar hayotini qisqartirmoqchi bo‘lding, lekin, bilib qo‘y, bu muddaoga hech qachon yetolmaysan. Hayot uchun na zamon, na makon darkor. Bir soniyaligu bir asrlik hayot ham, sening hayoting-u boshqa jonzotlar hayoti ham barobar. Hayotga barham berish yoki uni o‘zga izga solish ilojsiz, chunki u biru bordir. Qolgani esa sarobu ro‘yodir, xolos.

Chol shularni aytdi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Ertasiga shoh Asarxadon Lailie va boshqa hamma asirlarni ozod etishga farmon berdi – qatlni bekor qildi.

Indiniga o‘g‘li Ashurbanipalni huzuriga chorlab, podsholikni unga topshirdi, o‘zi esa avval bo‘lib o‘tmish ushbu voqea haqida obdon o‘ylab olish uchun sahroga chekindi, so‘ng shahar va qishloqlarni yayov

kezib, hayot yagona ekani va kimki boshqalarga yomonlik tilasa, o‘ziga jabr etajagi haqida odamlarga pand so‘ylab yashab o‘tdi.

(Rus tilidan M. Rahimova tarjimasi)

BADAL

(Hikoya)

Umar Sayfiddin

Faqatgina tor eshigidan zo‘r-bazo‘r yorug‘lik kiradigan ustaxonada kecha-yu kunduz uchqunlar sachratib ishlaydigan Xo‘ja Ali inidan chiqmaydigan xonanishin arslonni eslatadi. U uzun bo‘yli, keng yelkali, pahlavon kelbatli odam. O‘n yillarki, ustaning mana shu nimqorong‘i do‘konida yasalgan qilichu tig‘lar Onado‘li va Rumeli osha qo‘shni yurtlarda ham mashhur bo‘lgan. Hatto Istambulda yanicharlar¹ ham o‘zlari sotib olayotgan yarog‘u shamshirlaridan “Ali Usta” degan tamg‘ani qidirishadi.

Usta po‘lat toblashning hadisini olgandi. U yasagan uzun qilichlar, dudama xanjarlar toshni kesgudek o‘tkir edi. Po‘lat toblash san‘atining faqat ustaning o‘zi biladigan siri bor edi. U shogird olmas, kishilar bilan ko‘p gaplashmas, do‘konidan tashqariga chiqmas, tinimsiz ishlardi. Uylanmagan, qarindoshi, yaqinlari yo‘q. Shaharning ajnabiysi edi u. Usta go‘yo qilich, “temir”, “po‘lat”, “otash”dan boshqa so‘zni bilmasdi. Savdolashmas, mijozlari berganini olardi. Faqatgina urush paytlari o‘chog‘ini so‘ndirib, do‘konini qulflar va ko‘rinmay qolardi. Urush tugagandan so‘ng yana paydo bo‘lardi. Shaharda u haqda turli mish-mishlar yurardi. Kimdir uni “jallod qo‘lidan qochgan olim” deb atasa, yana kimdir “sevgilisi o‘lgani uchun dunyodan qo‘l siltagan majnun” deb ta‘riflardi. Tim qora ko‘zlarining mag‘rur boqishidan, aslzodalarga

¹ yanichar — usmonli turklarning saralangan harbiy bo‘linmasi askari

xos mulozamatidan, kamgap-u, ammo ravon va chiroyli so‘zlashidan u oddiy odamlardan emasligini taxmin qilish mumkin edi. Ammo u kim, qayerdan kelib qolgan? Bu savolga javob bera oladigan oqil yo‘q edi. Shunga qaramay, xalq uni sevardi. Shaharda bunday mashhur ustaning borligi hamma uchun faxr edi.

— Bizning Ali...

— Buyuk usta...

— Dunyoda tengi yo‘q...

— Zulfiqor sirining sohibi...

Shunday maqtovlar aytib charchashmasdi odamlar u haqda.

Ali qalin va qattiq temirni ham makkajo‘xori yaprog‘i kabi yupqa, qog‘ozdek yumshoq qiladigan san‘atini hech kimdan o‘rganmagan, o‘zi kashf qilgandek edi go‘yo ...

O‘n ikki yoshidayoq amaldor otasining boshi olinib, u yetim qolgandi. Tog‘asi juda boy, ammo qalbi qashshoq, qabih fe‘lli vazir edi. Uni yoniga oldi. O‘qitishni istadi. Balki yetim jiyanini o‘z qaramog‘iga olib, katta-katta mansablarga chiqarishni rejalashtirgandir. Ammo Alining tabiatiga boshqalarga tobe bo‘lish mutlaqo yot edi.

“Men hech kimga yalinmayman”, derdi u o‘z-o‘ziga. Bir kecha tog‘asining hovlisidan qochdi. Kimsasiz yetimcha tog‘lar oshdi, adirlar, daralarni ortda qoldirdi. Nomini bilmaydigan o‘lkalarda kezdi. Axiyri, Erzurumda qari bir temirchiga shogird tushdi. O‘ttiz yoshiga qadar Onado‘lida u kezmagan shahar qolmadi. Hech kimga bo‘yin egmadi, birovdan ta‘ma etmadi. Nonini toshdan chiqardi. Peshona teri bilan tirikchilik qildi, pul uchun emas, san‘at zavqi uchun ishladi. Po‘latni toblash uning sevgan mashg‘uloti edi. Ko‘ngilli ravishda janglarga borgan paytlari yanicharlar, sipohiyalar, sakbonlar¹ qo‘lida o‘zi yasagan

¹ sakbon — chegara qo‘shinlari jangchisi

yarogʻlarni koʻrib, til bilan anglab boʻlmas ajib baxtni his qilardi. To hayot ekan, tinmasdan ishlab, yana necha ming gʻoziy uchun sinmas qilichlar, oʻq oʻtmas qalqonlar, toshni kesadigan shamshirlar, zirhlar yasashni maqsad qilgandi. Buni oʻylaganda kulimsirar, yuragi shodon urar, qalbidagi harorat sandondan sachrayotgan uchqunlarga koʻchardi.

— Taq-taq!.. Taq-taq!.. Taq-taq!..

Bugun ham bomdod namozidan soʻng berilib ishlay boshladi. Yasayotgan egri tigʻli qilichini sandon yonidagi suvdonga tiqdi. Soʻna boshlagan otashga qaradi. Bolgʻasini tashlab, peshona terisini artdi. Shu mahal uyi yaqinidagi masjiddan maftunkor shom azoni eshitila boshladi, muazzinning chaqirigʻiga moʻri tepasidagi uyadan panoh topgan laylaklarning shovqini qoʻshildi. Asrdan beri tahoratli edi. Faqatgina qoʻllarini yuvdi. Quritdi. Hullasini ustiga tashladi. Tashqariga chiqdi. Eshikni yaxshilab yopdi. Qulflashni lozim topmadi. Uzun maydon boʻylab toʻgʻri masjid tomon yurdi...

Shahar chetidagi bu koʻrimsiz ibodatgohga koʻpincha yoʻqsillar kelishardi. Masjid minorasi koʻchaga qaragan, muazzin har kuni besh mahal minora oynasidan boshini chiqargancha najotga chaqirardi.

Xoʻja Ali masjidga kirarkan, jamoat har qachongidan ham koʻp ekanini sezdi. Har doim faqat uchta chiroq yoqilgani holda, bugun xuddi Ramazondagidek hamma chiroqlar porlab turardi. Hali namozga saflanilmagan edi. Eshik yoniga oʻtirdi. Yonida past ovoz bilan gaplashayotgan kishilarning suhbatiga beixtiyor quloq tutdi. Koʻnyadan ikki gʻarib darveshning kelganini, xufton namoziga qadar “Masnaviy” oʻqishlarini eshitdi.

Namoz oʻqilganidan keyin jamoatning bir qismi chiqib ketdi. Xoʻja Ali joyidan qimirlamadi. Biroz boshi ogʻriyotgandi. “Zora, “Masnaviy”ni tinglab, dardim arisa” — deb oʻyladi. Ikki darveshning

o‘qigan masnaviyalaridan ko‘ngli rohatlandi, qalbiga sokinlik indi. Har bir oshiq kabi uning ham yuragida o‘zidan kechish darajasida shavqu zavq bor edi. Kichik bir sababdan-da jo‘shardi. Ma’nosini ta’riflab berolmaydigan so‘zning sirli uyg‘unligi turg‘un qonini buloq suvidek qaynatardi. Vujudi sababsiz tebranish bilan titrar, hiqichoq tutib, bo‘g‘ziga yopishib qolgandek edi.

Xufton namozini o‘qib, masjidan chiqqach, to‘g‘ri do‘koniga qaytmadi. Sayr qildi. Uyqusi kelmayotgandi. Iliq, yulduzli yoz kechasi edi. Somonyo‘li sariq oltin kabi ko‘zni olar, bulut kabi ko‘kning u tomonidan bu tomoniga suzardi. Uzoq yurdi. Shahar tashqarisiga olib chiqadigan yo‘ldagi taxta ko‘prikda to‘xtadi. Ko‘prik chetiga suyandi. Keng daryo sathida akslangan yulduzlar nur taratib porlar, atrofdan qushlar sayragani eshitilardi. O‘yga botdi. Uzoq turib keldi. Yaqindagina tinglagan masnaviy ohanglari ta’siridan chiqa olmas, o‘zidan ketadigandek alfozda edi. Birdan orqasidan baland ovozda kimdir baqirgani eshitildi:

— Hoy, menga qara, kimsan?

Usta shirin uyqudan uyg‘ongandek cho‘chib o‘ziga keldi. Orqaga qaradi. Ko‘prikning narigi tomonida ikki-uch kishining sharpasini ko‘rdi. Ulardan biri savolini takrorladi:

— Hoy, kimsan o‘zi?

— Ali...

Sharpalar yaqinlashdi. Bir qadam qolganda uni kiyimidan tanidilar:

— Sizmisiz, Usta Ali?

— Ha, menman.

— Bemahalda bu yerda nima qidiriyapsiz?

— Hech narsa...

— Hech narsa? Suvga bolg‘angizni tushirib yubordingizmi?..

Bular shaharning tungi qo‘riqchilari edi. Usta nima deyishini bilmay gangib qoldi. Kechalari ko‘knori chekib yuradigan bu daydilar uning ko‘ziga o‘g‘ri, kazzoblardan-da qo‘rqinchli ko‘rinib ketdi. Ular kechasi o‘zlaridan boshqa biror kimsaning yurganini ko‘rsalar, tutib olib, do‘pposlashdan ham toymas edi. Lekin ustaga tegmadilar. Qo‘riqchilar boshlig‘i:

— Usta Ali, sen telba bo‘lib qolmadingmi? — dedi bepisandlarcha.

— Yo‘q...

— Yarim kechasi, xuftondan so‘ng biror kimsaning daydib yurishiga xo‘jayinimiz izn bermasligini bilasanmi?

— Bilaman.

Qo‘riqchilar uning nomusli odam ekanligini bilardilar. Qattiq muomala qilishmadi. Faqatgina:

— Endi uyingga bor, bu yerlarda daydib yurma, — dedi.

Usta kelgan yo‘lidan tez-tez yurib uyiga qaytarkan, tinglagan masnaviy ohanglarini takrorlab bordi. Uzoqdan itlarning bezovta vovillashi tun sukunatini buzardi. Yo‘lda hech kim uchramadi. Do‘koni yoniga kelib to‘xtadi. Usta sharpa kabi uzoq turib qoldi. Eshigi qiya ochiq edi. Uydan chiqarkan, eshikni yaxshilab yopganini esladi:

“Qiziq... Balki shamol ochgandir”, — xayoldan o‘tkazdi u.

Qo‘lga ilingulik nimasiyam bor ediki, uyiga o‘g‘ri tushsa.

Ichkaridan eshikni yopdi. Qo‘riqchilarning ishidan qalbi ranjigan edi. Bu shaharda yashamoq ham tutqunlikdek gap. Hatto tog‘ning narigi tomonidagi qishloqda ham ishlay olmasang! Jismida og‘ir charchoqni sezdi. Chiroqni yoqishga ham erindi. O‘chog‘i yonidagi supaga chiqdi. Ayiq po‘stinidan bo‘lgan ko‘rpasini yopindi, behol oyoq uzatdi.

Qancha fursat uxlaganini bilmaydi, shovqindan seskanib uygʻondi. Eshik taqillayotgandi.

— Kim u? — dedi u uyqu aralash.

— Och eshikni tezroq!

Tong otgandi. Eshik tirqishlaridan oppoq nurlar sizib kirardi. U hech bunaqa uxlab qolmas, doim quyosh chiqmasidan avval uygʻonardi. Erinibgina turdi. Supadan sakrab tushdi. Oyoq kiyimini topolmay kuymalandi. Keyin shoshib eshik yoniga keldi. Koʻnglida ming bir gumon bilan eshikni ochdi. Birdan doʻkon eshigidan tushgan nur oydinligida moʻylovdor, salla kiygan qoʻriqchilar boshligʻini koʻrdi. Uning orqasida kigiz kulohli, qoʻsh xanjarli yosh shotirlari ham turardi. Usta “Nima kerak sizlarga?” degandek chaqirilmagan mehmonlarga boqdi. Qoʻriqchiboshi:

— Usta Ali, doʻkoningni tintuv qilamiz! — dedi qatʻiy.

U hayron boʻlib soʻradi:

— Nima uchun?

— Tunda Budak Beyning ogʻilxonasida oʻgʻrilik boʻlgan. Shuning uchun!

— Oʻgʻrilik sodir boʻlsa menga nima?

— Oʻgʻrilangan bir qoʻzini koʻprikning oldida soʻyganlar. Charm hamyon ichidagi pullarni olib, bir donasini u yerda qoldirganlar.

— Xoʻsh, menga nima?..

— Oʻsha tangalardan birini tongda doʻkoning yonidan topdik. Keyin... Ostonaga qara. Qon izlari bor!

Xoʻja Ali uyqu arimagan koʻzlari bilan eshigi ostonasiga boqdi. Haqiqatan qon dogʻlari bor edi. U qon izlariga parishon kuzatarkan, moʻylovdor qoʻriqchi:

— Kechasi seni ko‘prik ustida ko‘rgandik, nima qidirayotganding u yerda? — deya savolga tutdi.

Xo‘ja Ali yana indamadi. Qo‘riqchiboshi:

— Do‘konni tintib chiqinglar! — deb yordamchilariga buyruq berdi.

Sandonning yonidan o‘tayotgan qo‘riqchilardan biri baqirib yubordi:

— Bu yoqqa qaranglar! Mana, mana!

Xo‘ja Ali qo‘riqchining qo‘lidagi yangi shilingan terini ko‘rdi-yu hayron qotdi. Qo‘riqchi tanga topgan gadoydek mamnun qiyofada terining ichini ochdi. U hali qurimagan ham edi. Bir og‘asining, bir aybdorning yuziga qaradi.

Qo‘riqchiboshi darg‘azab ohangda ustani tergov qilishga tushdi:

— O‘g‘rilagan pullarni qayerga yashirding?

— Men o‘g‘rilik qilmadim.

— Bo‘lmasa mana bu teri do‘koningga qayerdan kelib qoldi? Men so‘yib tashlab qo‘yibman-da!

Usta Ali karaxt holda javobsiz turardi.

Ustani suvboshining¹ yoniga olib borishganida ham kecha ko‘prikning ustida nima qidirganini aytmadi. Topilgan barcha dalillar uning zarariga ishladi. O‘sha tunda Budak Beyning besh yuzta qo‘yga yetgulik puli ham o‘g‘rilangan edi. Ikki baquvvat o‘g‘ri cho‘ponni bog‘lab, do‘pposlab ketgandi. Ertasi kuni qozining yonida kaltak zarbidan hali ham o‘ziga kelolmagan cho‘pon o‘g‘rilardan biri Xo‘ja Aliga o‘xshashiga shohidlik berdi. Tunda allamahalgacha ko‘prik yon-atrofida yurgani, ashyoviy dalil — qo‘zi terisining do‘konidan, tangalardan birining eshigi yonidan topilgani Xo‘ja Alini aybdor deb

¹ suvboshi — Usmonli turk davlatida shahar mudofaasiga mas‘ul bo‘lgan amaldor

e'lon qilish uchun yetarli bo'ldi. Qancha inkor etsa ham, dalillar unga qarshi so'ylardi.

Ustaning o'ng qo'lini kesishga qaror qildilar.

Bu qarorni eshitib Alining rangi o'chib ketdi. Beixtiyor lablarini qattiq tishladi. Alhol, qarorga bo'yin egishdan boshqa chorasi yo'q edi. Qoqinib-turtinib o'rnidan turdi. Ammo shunda ham mag'rur ovoz bilan qozidan qo'li emas, boshi kesilishini iltimos qildi. Ehtimol, bu uning umri davomidagi birinchi iltimosi edi. Biroq qozi adolatli kishi edi.

— Yo'q, o'g'lim, — dedi u vazminlik bilan. — Sen odam o'ldirmading. Agar cho'ponning joniga qasd qilganingda, unda seni o'linga hukm qilardik. Bu jazo aybingga ko'radir. O'g'rilik uchun qo'ling kesiladi. Haqning qonuni shudir. Qonunlar buzilgan yer ko'karmaydi...

Xo'ja Alining qo'li boshidan ham kerakli edi. Mana shu qo'llari bilan harb maydonida kurashgan minglarcha g'oziyga po'lat qalqonlarni parchalaydigan, og'ir zirhlarni buzadigan, temir dubulg'alarni ikkiga bo'ladigan paxtadek yengil qilichlar yasagan edi.

Uni qo'riqchixonaning yerto'lasiga qamadilar. Jazo kuni kelgunicha o'sha yerda yashadi. Hech ovozini chiqarmas, endi sandon yonida bolg'asini urolmasligini o'ylab, qo'li hozirdan shol bo'lib qolgandek edi. Qo'lining badalini to'lagani puli ham yo'q edi. Shu kunga qadar dunyo yig'ish uchun ishlamagandi u.

Ahli shahar Xo'ja Ali kabi buyuk ustaning qo'li kesilishini eshitib mutaassir bo'ldi. Bu qadar istarasi issiq, mard, mehnatsevar, kuchli bir insonning umr bo'yi nogiron bo'lib o'tishiga tuyg'usiz ko'ngillar ham toqat qilolmasdi.

Sipohiyalar o'zlariga bebaho qilichlar yasab bergan ustani qutqarishga kelishib olishdi. Shaharning eng katta boyi Hoji Mehmetga

murojaat qilishdi. Bu odam Qorundek mol sohibi bo'lsa ham, o'ta baxil edi. Dunyosi ko'p bo'lsa-da, hali ham bozordagi kichik bir do'konda qassoblik qilardi. Hoji Mehmet har galgidek o'zini taroziga soldi, injiqlik qildi. Ensasi qotdi. Boshini tebratdi. Ammo sipohiyalar bilan kelishmasa bo'lmasdi.

— Uning qo'li uchun badal to'layman. Ammo bir shartim bor, — dedi u majburiyat ostida ko'ngan odam qiyofasida.

— Qanday shart?

— Boring, o'zi bilan gaplashing. Agar menga o'lgunimcha pul olmasdan shogirdlik... xizmatkorlik qilishga rozi bo'lsa...

Sipohiyalar Hoji qassobning shartini Xo'ja Aliga yetkazdilar. U qassoblikdan butkul bexabarligini bahona qildi. Bunday yoqimsiz shartni qabul etishni istamas edi. Sipohiyalar:

— Qassoblik ham ishmi? Po'latni mumdek eritib, qilichlar yasagan odam bog'langan qo'yni so'ya olmaydimi?

Usta uchun qulga qul bo'lish, besh kunlik dunyoda birovning ko'ngliga qarab yashash eng og'ir kulfat edi. O'smirlik paytidayoq vazir tog'asining hotamtoyligidan voz kechib, birovning qaramog'ida qolmaslik uchun g'urbatli hayotga ham rozi bo'lgan edi-ku! Endi bu ko'r taqdir uni kimga qul etmoqda?!

Sipohiyalar:

— Hojining yoshi yetmishdan oshgan. Endi yana qancha yashardi? U o'lgandan so'ng sen yana ozod bo'lib, bizga qilich yasayverasan. Ko'p o'ylanma usta, o'ylanma! — deya unga tasalli berishardi.

Hoji qassob kesiladigan qo'l badalini qoziga to'lab, Xo'ja Alini do'koniga ergashtirib keldi. Qassob juda ham injiq, mijg'ov odam edi. Xasisligidan hozirga qadar bir xizmatkor yoki shogird olmagan edi.

Do‘konining burchagiga yangi xizmatchisi uchun joy qilib berdi. Saxovat ko‘rsatib, ustaning qo‘liga bir to‘shak tutqazdi.

Shu kundan jamiki yumushlarni unga qildirishni boshladi. Bomdod namozidan oldinroq shahardan ikki soat uzoqlikdagi og‘ilxonasidan qo‘ylarni olib kelishni buyurar, so‘ydirar, nimalatar va Alining o‘ziga sotdirar edi. To shomga qadar tinmasdan ish buyurardi. Har kuni yedirib-ichirgani esa yanchilgan bug‘doy sho‘rvasi edi. Ba’zida o‘zidan ortganlarini itga otgan kabi unga berardi. Kechqurun do‘konni yog‘ tushsa yalagudek tozalatar, ko‘zi ilinar-ilinmas, uyg‘otib ertangi kun uchun qo‘y olib kelishga yuborardi. O‘rmondan o‘tin kesib kelish ham uning vazifasi edi. Suv tashir, hovlidagi chiqindilar qudug‘ini tozalardi.

Xo‘ja Ali boyning yovg‘on sho‘rvasi-yu turfa qiyinchiliklarga yillarcha toqat qila olardi. Ammo Hoji qassob ikki gapning birida:

— Lapashang Ali! Qo‘lingning badalini men berdim. Yo‘qsa nogiron bo‘lib qolarding, — deb minnat qilishiga chidolmasdi. Bir necha kun tishini tishiga qo‘ydi. Tinmay ishladi. Qush uyqusiga qanoat qildi. Kunduzlari ham yugurib-yelib xizmat qildi. Xo‘jayinning qarshisida ta‘zimda bo‘ldi. Ammo minnat deganlari miyaga tushgan qurtdek tinchlik bermasdi:

— Qo‘ling uchun badalni men to‘ladim.

— ...

— Yo‘qsa qo‘lsiz qolarding!

— ...

— Mening soyayi davlatimda to‘rt muchang sog‘.

— ...

Hoji qassob minnatli so‘zlarni xuddi salom kabi tiliga yopishtirib olgandi. Har buyrug‘i bajarib bo‘linganidan so‘ng kir soqolli, chirkin va qotma yuzini burishtirib, ko‘k ko‘zlari bilan unga boshdan oyoq razm

solib, “Yodingda tut, sen mening asirimsan!” deya yana badalni eslatardi. Xo‘ja Ali indamas, ammo uning yuragi parchalangan, ko‘ksini achchiq-achchiq alamlar kemirardi. Kechalari uxlamasdan, kunduzlari ishlab, kushxonada qo‘ylarni so‘yib, xaridorlarga go‘sht sotarkan, “Nima ham qila olardim?” deb o‘ylar, dadil qarorga kelolmasdi. Qochishga g‘ururi yo‘l qo‘ymasdi. Shunday yo‘l tutsa, haqiqatan o‘g‘rilik qilgan bo‘lib qolardi. Ammo uning boshiga tushganlari o‘limdan ham mudhish, o‘limdan ham og‘ir edi...

Hoji qassobga qul bo‘lganining birinchi haftasi o‘tgandi. Juma kuni edi. Odatdagidek, tong yorishmasdan qo‘ylarni so‘yib, do‘kondagi ilgaklarga osgan edi. Usta Ali qassobxonada rastasining chap tomonidagi katta qora toshda pichoq o‘tkirlardi. Hali xo‘jayin kelmagandi. “Nima qilaman? Qanday yo‘l tutish kerak?” deya cheki yo‘q o‘y-xayollarga berilib, qassobning kelganini ham bilmay qoldi. Unga tanish noxush bo‘g‘iq ovoz hushiga keltirdi:

— Nima qilyapsan, hey?

Xo‘jayin tamakisini tutatgancha Aliga o‘dag‘aylay ketdi:

— Tanbal, landovur! Ertalabdan beri nima qilding o‘zi?

Indamadi. Bu mitti, xoin ko‘zlarga tik qaradi. Qariya kutilmagan o‘tli qarashdan bir zum o‘zini yo‘qotdi:

— Nega bunday qarab qilding?

— ...

Xo‘ja Ali sas chiqarmas, besh yillik, balki o‘n yillik mehnatni bir haftada bajargan odamni tanballikda ayblashdan uyalmagan bu razil kimsaga nafrat ila qarardi. Ustaning ko‘ksini yana alam tilar, asabi qaqshardi. U butun tanasiga yoyilgan qahru g‘azabni so‘ndirish uchun bir on ko‘zlarini yumdi. Titroqlar bosilgandek bo‘ldi. Hoji qassob

tamakisini tashlab, xizmatchisining og‘ir nigohlaridan qutulish uchun ming‘irladi:

— Qo‘ling badalini berganimni unutding, chog‘i. Men bo‘lmaganimda hozir hech ishga yaramaydigan nogiron bo‘lib qolarding...

Xo‘ja Ali achchiq kulimsiradi. U qassobning xayoliga ham kelmagan qarorni qabul qilib bo‘lgandi. Ortiga o‘girildi. Hozirgina o‘tkirlagan pichoqlarining eng kattasini oldi. Qo‘lini go‘sh t nimalanadigan katta to‘nka ustiga qo‘ydi. Ko‘zini chirt yumganicha pichoqni qo‘liga shunday tushirdiki... Xo‘ja Ali qat‘iyat va sovuqqonlik bilan kesilgan qo‘lini tutdi. Ko‘rganlaridan dahshatga tushib qaltirayotgan Hoji qassobning oldiga bordi:

— Sen mana shu uchun badal berganmiding?! Ol, mana senga badalini to‘lagan narsang!..

Xo‘ja Ali choponining qo‘lsiz qolgan yengini bog‘lab, tugun qilib oldi. Shaxt bilan do‘kondan chiqdi...

Ustaning bir zamonlar kelgan joyi kabi ketgan yerini ham hech kim bilolmadi.

(Turk tilidan D. Tojialiyev tarjimasi)

MENING O‘G‘RIGINA BOLAM

(Hikoya)

G‘afur G‘ulom

Otamizning o‘lganiga anchagina yil o‘tib ketdi. Bu yil — o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik. Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam — onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab “qora buvi” deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto‘da ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib, bittagina O‘ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz. Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so‘nggi bo‘lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo‘roz o‘tgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo‘lib, to‘rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda bog‘ga ko‘chib ketardilar. Hozir ular tomon bo‘sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda? Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da: “Bizning uyga o‘g‘ri keldi”. G‘urur bilan aytilsa bo‘ladi. Lekin ishonisharmikan?

O‘g‘ri o‘sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to‘g‘rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko‘kraklariga qo‘yib, til tagidagi nos bilan o‘ylab yotar ekanlar. Buvim “tuf” deb nosni tuflab, tomga qarab:

— O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, — debdilar.

O‘g‘ri tomdan turib:

— Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? — debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg‘onib ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

— Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo‘ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o‘tib mizg‘iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

— Nimalarni xayol surasiz, buvijon? — bu gapdan keyin ustidagi to‘nini turmuchlab bo‘g‘otning ustiga yostiq qilib qo‘yib, o‘g‘ri ham yonboshlab oldi.

— Nimalarning xayolini surardim. Shu to‘rtta yetimning ertasini o‘ylayman-da, bolam. Zamoni o‘zing ko‘rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko‘ziday non anqoga shapig‘. Hali bularning qo‘lidan ish kelmaydi. So‘qqaboshgina aravakash tog‘alarining topgani o‘zining ro‘zg‘oridan ortib, bularga qut-loyamut bo‘lishi qiyin. Ro‘zg‘orda bo‘lsa, ko‘z ko‘rib, qo‘l tutguday arzigulik buyum qolgani yo‘q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. “Turib yeganga turumtog‘ chidamas”, deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi! Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag‘in bu yetimlarning bittaginasini o‘g‘il, uchtasi qiz. Endi o‘n to‘rt dan o‘n beshga o‘tdi. Qizlari qurg‘ur qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O‘zi o‘rab, o‘zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko‘zi uchi turibdi deysan. Zamon qattiq, o‘g‘rigina bolam, zamon qattiq!

— To‘g‘ri aytasiz, buvijon, — dedi o‘g‘ri, — mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham

suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To‘rtta chavati non topish uchun o‘zimni o‘tga, cho‘g‘ga, Alining qilichiga uraman. Bo‘lmasa, ishlay desam bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o‘g‘rilik kasbi yoqadi, deysizmi. Tuppatuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo‘lgandan keyin urush to‘xtaydi, degan edilar. Hali-beri to‘xtaydigan ko‘rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o‘sha iligi to‘qlarniki.

— Biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi, bolam, — dedi kampir.

— Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbim kavushdo‘zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig‘ining o‘zi bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g‘alla, qoplab sabzi-sholg‘om oladigan badavlatning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo‘zlaridan Buvamat ota butun qolip-u shon-u so‘zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo‘xori unga movoza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to‘ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib: “Amaki, non bering”, deydi. Non-a, o‘zimmikiga topolmayman-u! Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo‘zchilar ham, ko‘nchilar ham, boringki, maktab domlalari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg‘onga zor. Sanqib yuribdi.

— Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o‘g‘rigina bolam-a. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshanasiga yozgani bordir. Xo‘sh, endi o‘zingdan so‘ray. Axir,

noilojlikdan-ku, shu harom yo‘lga qadam bosibsang, o‘ziga to‘qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi? Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo‘jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko‘nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo‘lmaydimi?

— Ey, buvim tushmagur, soddasiz-da, sodda, — dedi o‘g‘ri. — Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘ldirmaganda ham sibir qilib yuboradi.

— Bu gaping ham to‘g‘ri, o‘g‘rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin, — dedi bizning kampir.

— Gapingiz to‘g‘ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to‘rtta tovuq, bitta xo‘roz o‘margan edim.

— Tovuq, xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

— Hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

— Shunaqa degin, voy tavba-yey. Hamma hunarning ham o‘zining murt gardoni bo‘lar ekan-da.

— Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m pul jamg‘arib: “Topganimiz shu, ellikboshi ota”, deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

— Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko‘rsin. Endi buyoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana, yorug‘ yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush, o‘tinimiz yo‘q. Oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘oradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

— Yo‘g‘-e, buvi, — dedi o‘g‘ri, — to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

— Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

— Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin.

To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog‘ tomon ham yorishib qoldi.

— Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

— Xo‘p, ona, xo‘p...

Men o‘sha o‘g‘ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

MARJON SHODASI

(*Novella*)

Gi de Mopassan

Falakning gardishi bilan, bu go‘zal va maftunkor qiz Matilda Luizel xizmatkorlar oilasida tug‘ilgan. U shunday qashshoq oilada tug‘ilgani bilan ancha-muncha zeb-ziynatga o‘ch qizlardan biri edi. Ammo yoshi o‘tib qolgan bu qizga hech bir yigit sevgi izhor qilmay qo‘ygandi. Shunday bo‘lgan taqdirda ham unda baribir sep-sidirg‘a yig‘ishga oilaviy sharoiti yo‘q edi. Uning o‘zi ham na birovni tushunishga uringan, na sevgan. Ilojsizlikdan kichik kotibga turmushga chiqishga rozi bo‘lgan.

Qashshoqlik uning joniga tekkan edi. Lekin eri ham oyligiga kun ko‘radiganlar xilidan bo‘lib, imkoniyati boricha Matildaning ko‘ngliga qarashga harakat qilardi. U faqat go‘zallik, nazokat, jozibali ko‘rinish dardida yurardi. Tabiiy nafislik, xushbichimlik, aql-idrokli bo‘lish oliy tabaqa belgisi hisoblanib, aslzoda xonimlardek yurishni xayol qilishdan to‘xtamasdi.

U o‘zi xohlaganidek yasholmayotganidan tinmay azob chekar, buning ustiga uyining faqironaligi, devorlarning g‘arib ko‘rinishi, eskirgan stullar, pardalarning aft-angori uning nafasini bo‘g‘ardi. Unga o‘xshagan boshqa bir ayol bu narsalarni hattoki aqliga ham

sig‘dirolmasligini o‘ylab qiynalar, asablarini tarang qilardi. Kichkina Breton¹ dehqoni kabi kundalik uy yumushlari uni afsus-nadomatlar domiga tashlab, chorasiz va ushalmas orzular girdobiga uloqtirardi.

Matilda sharqona naqshlar bilan bezatilgan devoriy gilamlar, bronza qandillar, nur taratib turgan sokin xonani, katta kresloda yonboshlab olgancha etik-shim kiygan baquvvat inson haqida o‘y surganicha oshxona plitasidan anqiyotgan issiq havodan og‘irlashib, lanj bo‘ldi. U ipaklar bilan bezatilgan uzun zallarni, ko‘zni quvontiradigan hashamdor mebellarni, muattar atirlarga burkangancha kechki bazmlarda yaqin dugonalari bilan gurung quruvchi fransuz ayollari va taniqli odamlar bilan suhbatlashishni, barcha ayollarning hasadini qo‘zg‘ab, ularning diqqat markazida bo‘lish xayolida suzib yurardi.

Juvon aylana stolga yozilgan dasturxon oldiga tushlik qilish uchun o‘tirdi. Sho‘rva idishining qopqog‘ini ochib qo‘ygan turmush o‘rtog‘i quvonch bilan xitob qildi:

— O, mazali rot-au-feu²! Bundan ortig‘i bo‘lmasa kerak!

Ayoli esa lazzatli tushliklar, yaraqlayotgan kumush idishlar, qadimiy odamlarning rasmi tushirilgan devoriy gilamlar, ertaksimon o‘rmon o‘rtasida parvoz qilayotgan g‘aroyib qushlarni xayol qilardi. Shuningdek, u jimjimador likopchalar, mazali taomlar, gulmohining qizg‘ishrang go‘шти yoki bedana go‘шти yeyish davomida quloqqa kulgi aralash chalinadigan muloyim shivir-shivirlarni orzu qilardi.

Ming afsuski, bu uning xayoli edi. Matilda bazmlarga chiqishga xohishi boru, ammo imkoniyati bo‘lmaganidan keyin uyda qamalib o‘tirishdan o‘zga chorasi yo‘q edi. Uning ko‘ziga faqat rango-rang ko‘ylaklar, taqinchoqlardan boshqa narsa ko‘rinmas edi. Matilda shulardan boshqa narsani sevmasdi, o‘zini shu matohlar uchun yaralgan

¹ Breton – quyi Normandiyadagi g‘arbiy Fransiyaning yarim oroli

² pot-au-feu – qaynatma sho‘rva

deb bilardi. U ko'ngilxushlik qilish, boshqalarning hasadini keltirish, maftunkor bo'lish va hammani o'ziga qaratishni yoqtirardi.

Matildaning ayollar ibodatxonasida birga tahsil olgan sobiq sinfdosh dugonasi bo'lib, u juda boy edi. U ushbu dugonasinikiga borishni, ko'rishni yoqtirmas, sababi, doim ortiga qaytganidan so'ng azob chekardi.

Bir kuni kechqurun turmush o'rtog'i xursand qiyofada uyga kirib keldi va qo'lidagi katta konvertni uzatdi.

— Bu yerda, — dedi u, — senga atalgan bir nima bor.

Ayol konvertni keskin tarzda yirtib tashladi-yu quyidagi so'zlar tushirilgan tamg'ali taklifnomani sug'urib oldi:

“Xalq ta'limi vazirligi va madam Jorjes Ramponnau hurmatli mister va madam Luizellarni 18-yanvar, dushanba kungi bazm kechasi uchun Vazirlik saroyiga lutfan taklif qiladi”.

Ayol eri kutganidek quvonish o'rniga, taklifnomani nafrat bilan stol ustiga irg'itib, to'ng'illadi:

— Bu bilan nima qilishimni istagandingiz?

— Azizam, seni xursand qilmoqchi edim. Tashqariga hech chiqmaganing uchun yaxshi imkoniyat deb o'ylagandim. Buni qo'lga kiritish oson kechmadi. Qancha odam u yerga borishni orzu qiladi. U yerga saralab chaqirishgan. Ayniqsa, kotiblarni aytishlari g'oyat dargumon. Bazmga faqat zodagonlar yig'iladi.

Juvon eriga darg'azab tikilib, betoqatlik bilan so'zladi:

— Axir bazmga nima kiyib boraman?

Eri bu haqda o'ylab ko'rmagandi.

— Nimaga, teatrga tushganda kiygan ko'ylaging-chi?! O'sha menga juda yoqqandi, — dedi u.

So‘ngra gapirishdan to‘xtab qoldi. Xotining yig‘layotganini ko‘rib, yomon ahvolga tushdi. Ayolning ko‘z qirralaridan ikkita katta tomchi yosh sekingina lablari tomon yumaladi.

Kotib tutilib-tutilib xotiniga gapirdi:

— Nima bo‘ldi? Nima bo‘ldi?

Ayol jizzakilik bilan uning rahmini keltirgandi. So‘ng esa yonoqlarini artib, bosiq ovozda javob berdi.

— Hech narsa. Faqatgina u bazmga mos ko‘ylagim yo‘q, shuning uchun o‘sha kechaga borolmayman. Taklifnomani esa xotini mendan ko‘ra yaxshiroq kiyingan hamkasblaringizga olib borib bering.

Er ilojsiz dedi:

— Kel, Matilda, o‘ylab ko‘raylik, — davom etdi u. — Bejirim va boshqa tadbirlarga ham kiysa bo‘ladigan yarashqli ko‘ylak qancha turadi?

Juvon bir necha daqiqa chuqur o‘yga toldi, hisob-kitob qildi, miqdordan taajjublanib, tejamkor kotibning gaplaridan cho‘chib, o‘zicha nimalardandir voz kechdi.

Va nihoyat, ikkilana-ikkilana javob berdi:

— Anig‘ini bilmayman-u, o‘ylashimcha, to‘rt yuz frank bilan nimadir qilsa bo‘ladi.

Erning rangi oqarib ketdi. Chunki bu miqdordagi pul bilan u qurol sotib olishni va yakshanba kuni birga to‘rg‘ay ovlagan do‘stlari bilan kelasi yozda shahar chetidagi Nanterra¹ yaylovlarida ov qilib, dam olishni mo‘ljallagan edi.

Ammo bu haqda indamadi.

— Yaxshi, senga to‘rt yuz frank berganim bo‘lsin. Chiroyli ko‘ylak sotib ol.

¹ Nanterra – Parijning g‘arbiy chekkasi

Bazm kuni tobora yaqinlashar, ko‘ylagi tayyor bo‘lganiga qaramay, madam Luizel g‘amgin, behalovat va behuzur ko‘rinardi.

Bir kuni oqshom mahali turmush o‘rtog‘i undan so‘rab qoldi:

— Nima bo‘ldi? Keyingi uch kun ichida g‘alatiroq bo‘lib qolgansan.

Ayoli javob berdi:

— Bir dona ham taqinchog‘im, bir dona ham toshlarim, umuman taqishga hech narsam yo‘qligidan xo‘rligim kelyapti. Nihoyatda baxtsizman. Yaxshisi, bormay qo‘ya qolganim ma’qul.

— Tabiiy gullarni taqishning mumkin, — dalda berdi mister Luizel.
— Hozirda bu uslub juda urfga kirgan. O‘n frank evaziga ikki yoki uchta chiroyli atirgul sotib olasan.

Matilda ishonqiramadi.

— Yo‘q, boyvachcha xonimlar orasida bechora qiyofada ko‘rinib, g‘ururim poymol bo‘lishini xohlamayman.

Shu payt bir nima esiga tushgandek birdan chinqirib yubordi:

— Qanchalar ahmoqsan-a? Dugonang madam Forestierni yo‘qlab borib, taqinchoqlarini so‘rab tur. Axir u bilan juda ham qalin o‘rtoqsizlar-ku.

Xotini xursandchilikdan qiyqirdi.

— To‘ppa-to‘g‘ri! Bu xayolimga ham kelmagan ekan.

Ertasi kuni u dugonasinikiga kelib, dardini bayon qildi.

Madam Forestier oynali eshik bilan qoplangan kiyim javonidan katta taqinchoqlar qutisini olib keldi. Uni ochib, dugonasiga dedi:

— Azizim, tanlab ol!

U dastavval bilakuzuklarni, keyin marvarid marjon shodasini, so‘ng Venetsiya xochini, usta zargarning tilla va qimmatbaho toshlarini

ko‘zdan kechirdi. U ko‘zgu oldida o‘ziga oro berdi, ikkilandi, bulardan to‘la qoniqish hosil qilmagach, joyiga qaytarib qo‘ydi.

— Hammasi shumi? — so‘radi u.

— Nega ekan, yana bor, albatta. Qarab ko‘r. Nimani yoqtirishingni bilmayman-ku.

Birdaniga uning ko‘zlari qora duxoba qutidagi olmosli serhasham marjon shodasiga tushdi. Yuragi qinidan chiqayozdi. Uni ushlaganida qo‘llari titrab ketdi. Taqinchoqni keng yoqali ko‘ylagiga moslab, bo‘yni atrofiga ildi va tovlanishidan o‘zini yo‘qotdi.

Keyin esa qo‘rquv, iztirob aralash so‘radi.

— Menga xuddi shuni berib tura olasanmi, faqat shuning o‘zini?

— Ha, albatta.

U dugonasining bag‘riga o‘zini otib, xursandligidan o‘pib qo‘ydi. So‘ngra xazinasini bilan jo‘nab ketdi.

Bazm kuni yetib keldi. Madam Luizel katta muvaffaqiyatga erishdi. U barchadan go‘zal, xushbichim, po‘rim, quvnoq va baxtiyor edi. Barcha erkaklarning ko‘zi unda, uning ismini so‘rashar, tanishishga harakat qilishardi. Vazirlar Mahkamasining barcha vakillari u bilan birga vals tushishni istashardi. Shaxsan uning o‘zi vazirning nazariga tushdi.

U sarxushlik va ehtiros bilan raqsga tushar, ichimlik ta‘sirida rohatlanib, go‘zalligi zafarida, muvaffaqiyat shohsupasida, baxt osmonida suzgan barchasini unutib, o‘ziga bo‘lgan izzat-ikrom, hayrat, yoniq istaklar va mutlaqo muzaffarlik hislari qalbini chulg‘ab olgandi.

Tonggi soat to‘rtga yaqin u ketish taraddudiga tushdi. Turmush o‘rtog‘i yarim tundan buyon qarovsiz xonada, xotinlari bayramni ajoyib nishonlayotgan uch erkak bilan uxlab yotardi.

U xotining yelkasiga bazm ko‘ylagining husniga dog‘ tushiradigan sharfni tashlab qo‘ydi. Juvon buni sezgach, qimmatbaho mo‘ynaga burkangan boshqa bir ayolning nazariga tushib qolmaslik uchun uni yulqib oldi.

Luizel uni to‘xtatdi.

— Bir oz kutib tur, tashqarida shamollab qolasan. Men borib, arava ushlayman.

Lekin Matilda uni eshitmadi. Chaqqonlik bilan zinalardan pastladi. Ko‘chaga chiqib, birorta ham fayton topisholmadi. Ular qidirishni boshlagach, uzoqroqdan o‘tib ketgan taksichiga ko‘zlari tushib, baqirib qolaverishdi.

Chorasiz qolganicha sovuqdan qaltirab, Senaga tomon yurishardi. Va nihoyat, kunduzlari umuman uchratib bo‘lmaydigan, faqat yarim kechasi Parij atrofida paydo bo‘ladigan eski aravani daryo bo‘yida uchratishdi.

Rue des Martirsdagi uyi eshigi oldida tushib, g‘amgin yurishda davom etishdi. Matilda uchun hammasi tamom bo‘lgandi. Erining soat o‘nda vazirlikda bo‘lishi kerakligini xayolidan o‘tkazdi.

U yana bir marta shuhrat og‘ushida ko‘zgu orqali o‘ziga tikilib, yelkalarini yopib turgan sharfni oldi. Biroq kutilmaganda chinqirib yubordi. Bo‘ynidagi marjon shodasi yo‘q edi!

Eri yarim yechingan ahvolda so‘z qotdi:

— Senga nima bo‘ldi?

U jinninamo o‘girildi.

— Men... men... men madam Forestierning marjon shodasini yo‘qotib qo‘ydim.

Luizel joyida qotib qoldi.

— Nima?! Qanday qilib? Bo‘lishi mumkinmas!

Ular ko‘ylakning qatlarini, plashning taxlamlariniyu cho‘ntagini, hamma joyni qarab chiqishdi. Ammo marjon topilmadi.

— Bazmdan chiqqanida u aniq bo‘yningda turganmidi? — so‘radi Luizel.

— Ha, saroy dahlizida turganimda u bo‘ynimda edi.

— Agar ko‘chada tushirganida ovozini eshitgan bo‘lardik. Balki aravada qolgandir.

— Ha, ehtimol. Raqamini olganmidangiz?

— Yo‘q, sen-chi, eslolmaysanmi?

— Yo‘q.

Ular hayratomuz tikilib turishardi. Oxiri, Luizel kiyimlarini kiydi.

— Men piyoda ortga qaytaman, — dedi u. — Bosib o‘tgan yo‘nalish bo‘ylab yurib, topishga urinib ko‘raman.

U chiqib ketdi. Matilda bazm ko‘ylagida kresloda o‘tirib, ko‘ziga uyqu kelmay, olovni ham yoqmay, xayoliga bir fikr kelmay, uni kutardi. Soat yettilar atrofida izlaganini topolmay, eri quruq qaytib keldi.

Luizel politsiya boshqarmasiga, gazeta idoralariga borib, mukofotlar e‘lon qildi. U barcha taksi kompaniyalarini umid ilinjida aylanib chiqdi.

Falokatga yo‘liqqan ayol kunbo‘yi vahima ichida kutdi. Tunda Luizel siniqqan, umidsiz yuz bilan qaytdi. Hech qanday yangilik yo‘q edi.

— Dugonangga, — dedi u, — taqinchog‘ining ilgagini buzib qo‘yganing, uni tuzatish uchun bir oz vaqt kerakligini yozib yubor.

U birma-bir hammasini xatga tushirdi.

Hafta oxirida ular umidini butunlay uzishdi.

Naq besh yoshga qarigan Luizel siniq ohangda so‘zladi.

— Endi taqinchoqni qanday qaytarish haqida bosh qotirishimiz lozim.

Keyingi kun ular qutini olib, dong‘i chiqqan zargarnikiga borishdi. Luizel uning kitobini qarab chiqdi.

— Madam, men marjon shodasi sotadigan sotuvchi emasman. Shunchaki, qutilarga bezak beraman, xolos.

Shundan so‘ng ular zargarma-zargar yurib, o‘sha marjon shodasiga o‘xshashini izlashdi, ulardan maslahat olishdi. Ikkalovi ham alam va iztirobda qaytishdi.

Palais Royaldagi do‘konda ular qidirayotgan taqinchoqqa juda o‘xshash marjon shodasiga duch kelishdi. Narxi qirq ming frank turar ekan. Zargar o‘ttiz olti ming frankka sotishga ko‘ndi. Er-xotin zargarga uch kungacha uni sotmasligini so‘rab yolvorishdi. Har ehtimolga qarshi, ular fevral oxirida yana boshqasini ham topib qo‘yishdi.

Luizelda otasi unga qoldirgan o‘n sakkiz ming frank bo‘lib, qolganini qarz oldi.

Birovdan ming frank, boshqasidan besh yuz, besh luisni u yerdan, uch luisni bu yerdan so‘rab, qarz yig‘di. U barchasini qayd etib qo‘ydi. Xonavayron qiladigan va‘dalar berdi, sudxo‘rlar va barcha qarz beruvchi zoti bilan bitim tuzdi. U qolgan umrini xavf ostiga qo‘yib, hattoki xarajatlarni to‘lay olish yoki olmasligini bilmay turib, tavakkal imzo qo‘ydi. U hali boshidan o‘tkazmagan uqubatlar, uni yiqitishi mumkin bo‘lgan o‘ta qashshoqlik, moddiy muhtojlikning kelajagi va unga azob beradigan ruhiy qiynoqlardan vahimada edi. U marjon shodasini olish uchun keldi va savdogarning rastasiga o‘ttiz olti ming frankni tashladi.

Madam Luizel marjon shodasini qaytarish uchun kelganida, madam Forestier unga sovuq ohangda gapirdi.

— Buni tezroq qaytarishing lozim edi. O‘zimga zarur bo‘lib qoldi.

U qo‘rqqanidek, dugonasi qutini ochmadi. Agar taqinchoq boshqa ekanini bilib qolganida nimani o‘ylagan, nimalar degan bo‘lardi? Madam Luizelni o‘g‘irlikda ayblarmidi?

Madam Luizel hozir yo‘qchilikda yashashni qo‘rqinch bilan his qildi. Tasodifiy hodisada qahramonlarcha ishtirok etdi. Endi esa dahshatli qarzdorlikdan qutulmoq lozim. Ayol buni to‘laydi. Ular xizmatkorini ishdan bo‘shatishdi; turar joyini o‘zgartirishdi; tom ustidagi cherdakni ijaraga olishdi.

U uy yumushlarining naqadar og‘irligini, oshxona tashvishlarining yoqimsizligini anglab yetib, yog‘li qozon va tovani yuvish uchun pushti tirnoqlarini ishlatardi. U kir polotnoni, erining ko‘ylagini va idish artadigan sochiqlarni yuvaradi. Har kuni ertalab yuvindilarni ko‘chaga olib chiqib, zinapoyalarda to‘xtab nafas rostlagancha suv olib chiqardi. Odamlarning xotiniga o‘xshab kiyinar, qo‘lida savat bilan meva, baqqollik, go‘sht do‘koniga borar, savdolashar, haqorat qilar, mayda pullarini tiyinigacha hisoblardi.

Har oy qarzning bir oz miqdorini uzishsa, qolganini uzaytirishardi.

Turmush o‘rtog‘i kechqurunlari savdogarning hisob-kitoblaridan nusxa yozar, tunga borib, varag‘i uchun 5 luis evaziga qadimiy qo‘lyozmalardan namuna ko‘chirardi.

Bu turmush tarzi o‘n yil davom etdi.

O‘n yildan so‘nggina ular hamma narsani, hamma-hammasini – sudxo‘rlarga nisbati va qo‘shma foizlari bilan to‘lab bo‘lishdi.

Madam Luizel endilikda qarimsiq ko‘rinardi. Kambag‘allashgan ayol kuchli, qattiqqo‘l va qo‘rs bo‘lib qolgandi. Sochlari to‘zg‘igan, afti bujmaygan, qizargan qo‘llari bilan polni artib, atrofdagilarga baqirib

gapirardi. Ba'zan, eri idorada bo'lgan vaqtlarda, u derazaga yaqin o'tirgancha o'n yillar oldingi farahbaxsh kechani, u nihoyatda latofatli va go'zal bo'lgan bal haqida xayol surardi.

Agar u marjon shodasini yo'qotmaganida nima bo'lardi? Kim biladi deysiz? Hayot qanchalar g'aroyib va o'zgaruvchan! Kichkinagina voqea ba'zan yashash yoki hayotdan umid uzishga yetarli bo'ladi!

Yakshanba kuni edi. Haftalik mehnatlarning hordig'ini chiqarish maqsadida Champs Elyseesda sayr qilib yurib, to'satdan bola yetaklagan ayolga duch keldi. Hanuz yosh, hanuz go'zal, hanuz maftunkor bo'lgan madam Forestier edi.

Madam Luizel hayajonlandi. U bilan gaplashsinmi? Ha, albatta. Axir hammasini to'lab bo'lgan, endi bor gapni aytaversa ham bo'ladi.

U tepaga ko'tarildi.

— Xayrli kun, Tentak!

Unga tanishidek murojaat qilgan oddiy yoqimtoy juvondan taajjublandi-yu, ammo uni mutlaqo tanimadi.

— Lekin... madam! – tutilib gapirdi u. — Sizni tanimadim... Adashgan bo'lsangiz kerak.

— Yo'q. Men Matilda Luizelman.

Dugonasi qichqirib yubordi:

— O, bechora Matilda! Qanchalar o'zgarib ketibsani!

— Ha, seni oxirgi bor ko'rganimdan buyon qancha og'ir kunlarni boshdan kechirdim... qancha musibatli kunlarni... Hammasi sen tufayli bo'ldi!

— Meni deb! Qanday qilib?

— Saroydagi bazmga taqib turish uchun menga bergan marjon shodalarini eslaysanmi?

— Ha, xo'sh?

— Men uni yo‘qotib qo‘ygandim.

— Nimani nazarda tutyapsan? Uni keltirib berganding-ku.

— Senga xuddi o‘xshashini olib kelib bergandim. So‘ngra buning to‘lovini o‘n yil davomida uzdik. Tushunyapsanmi, hech vaqosi yo‘q kimsa uchun bu qanchalar mushkul edi. Va nihoyat, hammasi tugadi. Bundan juda xursandman.

Madam Forestier yurishdan to‘xtadi.

— Aytmoqchisanki, menikini o‘rniga qaytarish uchun yangi marjon shodasini sotib olgansan?

— Ha! Sen buni sezmading ham! Ular juda o‘xshash edi.

Matilda mamnun kuldi.

Madam Forestier qattiq titrab ketdi, uning qo‘llarini ushlab, dedi:

— O, bechoraginam Matilda! Nima uchun, mening taqinchog‘im oddiy toshlardan yasalgan edi-ku!

(Fransuz tilidan G. Mamarasulova tarjimasi)

SO‘NGGI BARG

(Hikoya)

O‘Genri

Syu va Jonsi — dugonalar. Ular Nyu-Yorkda katta uyda yashashadi. Syu Meyn shtatidan, Jonsi Kaliforniya shtatidan kelishgan. Syu Jonsiga qaraganda qoruvli. Jonsining jussasi kichkina, qarashlari o‘ychan, ko‘zlari katta, sochlari uzun, qorachadan kelgan qiz. Ular san‘at va musiqaning, she‘riyatning shaydosi, orzu qilishni, xayol surishni yoqtirishadi. Biri rasm chizishga, biri esa mashhur artist bo‘lishga qaror qilishgan. Pullari ko‘p bo‘lmasa-da, lekin o‘zlari yosh va orzulari bisyor.

Kuz kunlarining birida Jonsi kasal bo‘lib qoldi. Uni goh isitma zaptiga olar, goh sovuqdan “qalt-qalt” titrardi. U tez orada cho‘pday ozib ketdi. Bir hafta o‘rnidan turmadi.

Bir kuni doktor Syuga: “Men sen bilan gaplashmoqchiman. Dahlizga chiqib tur”, dedi. Syu dahlizga chiqqach, doktor unga dedi: “Syu, dugonangning ahvoli yomon. Bu dori-darmonlar yordam bermayapti. U tushkunlikka tushib ketgan. Sening yordaming kerak”.

Shunday deb doktor ketdi.

Syu xonaga kirdi. Jonsi derazadan tashqariga, kulrang devorli uyga qarab yotardi. Uni hech narsa qiziqtirmas, “churq” etib og‘iz ochmas, kun sayin ko‘zlaridagi umid so‘nib borayotgandi.

— Doktor ko‘proq sho‘rva, iliq sut ichishing, mevalardan yeyishing kerakligini aytdi, — dedi Suye.

Lekin Jonsi uni eshitmadi. U sanardi: “O‘n ikki”. Birozdan so‘ng “O‘n bir”, dedi. Keyin: “O‘n, to‘qqiz...”.

Syu Jonsi nimanidir sanayotganini angladi. U derazadan tashqariga qaradi, lekin tashqarida sanaladigan hech narsani ko‘rmadi. Tashqarida bog‘ va tosh devor bor, xolos. Daraxtlarda esa sariq va jigarrang barglar diydirab turibdi.

— Sakkiz, — dedi Jonsi. — Uch kun ilgari yuztacha edi, men ularni sanay olmasdim. Ammo hozir men ularni ko‘rayapman. Sakkizta qoldi.

— Sakkizta nima, azizim? Ayt menga!

— Barglar. Pechakgulniki. Qachon so‘nggi barg uzilsa, mening jonim ham uziladi.

— Lekin sen tezda tuzalib ketasan. Jonsi, kel, iltimos, shu barglar haqida o‘ylamaslikka harakat qil. Men rasmingni chizib tugatdim. Agar sota olsam, senga yaxshi mevalar olib kelaman.

— Yo‘q, meva sotib olma, men ularni yeyishni xohlamayman, — dedi Jonsi. — O‘ylashni ham, kutishni ham xohlamayman, faqat o‘lishni istayman.

— Jonsi, iltimos, unday dema.

— Ha, Syu, bilaman. Men qachon so‘nggi barg uzilsa, jonim ham uzilishini bilaman.

Syu hech narsa demadi. U nima deb javob berishini bilmasdi. U unsiz yig‘lardi. Keyin dahlizga chiqdi va ovozini chiqarib yig‘lab yubordi. Uning yig‘laganini qari Berman ko‘rib qoldi. Qiz Bermanga Jonsi haqida so‘zlay ketdi. Berman ham kambag‘al edi. U mashhur rassom bo‘lish orzusida yurar, ammo qirq yil o‘tibdiki, orzusi ushalmadi. Hozir yoshi oltmishda. Ba’zida rasmlarini sotib kun ko‘radi, hech biri ikki bo‘lmagan. U Syu va Jonsini yaxshi ko‘rardi. Ularga yordam bergisi keldi.

“Men unga shoh asarimni tuhfa etaman”, dedi ichida Berman va kichkina xonaga, Jonsining oldiga kirib ketdi...

— U betob, — dedi Syu. — Hali o‘ziga kelgani yo‘q, ahvoli og‘ir. U tugab borayotgan pechakgul barglarini sanayapti. Qachon so‘nggi barg uzilsa, mening ham jonim uziladi, deb o‘ylayapti.

Syu va Berman xonaga kirganlarida Jonsi uxlab yotardi. Berman pechakgulga tikilib qoldi va hech narsa demay chiqib ketdi.

Tun bo‘yi yomg‘ir yog‘di, kuchli shamol turdi. Syu uxlayotgan Jonsiga yaqinroq o‘tirdi, u tongga qadar uxlamadi. Jonsi uyg‘onib, tashqariga qaradi. U ham derazadan tashqariga boqdi. Bittagina pechakgul bargi qolganini ko‘rdi.

— Bu eng so‘nggisi, — dedi Jonsi. — Men kechasi qattiq shamol bo‘lganini sezdim, lekin nimaga uzilib ketmaganiga hayronman. Buni hozir tushundim, mening umrim tugashiga ozroq vaqt bor hali.

— Oh, Jonsi, — dedi Syu. — Men sensiz nima qilaman?

Ammo Jonsi hech narsa demadi.

Kun sekin o‘tardi. Har daqiqa bir soatdek. Kun botgach, yana shamol turdi, sovuq kuz yomg‘iri yog‘a boshladi. Tun bo‘yi yomg‘ir yog‘di, ertalab ikkala qiz derazadan tashqariga qarashdi. Barg bor edi!

Jonsi uzoq tikildi.

— Men tuni bilan shamol bo‘lganini sezdim, ammo bu mittigina jasur barg shamol bilan kurashdi. Syu, meni kechir. Bu so‘nggi barg mening hayotim uchun kurashganga o‘xshaydi, — dedi Jonsi.

Peshindan so‘ng doktor keldi: “Jonsi, agar qattiq kurashsang, albatta, dardni yengasan. Men hozir bir rassomning oldidan kelayapman. Uning ismi Berman, u keksayib qolgan, lekin tetik ekan“, dedi doktor. Bir necha kundan keyin Syu Jonsining yotog‘iga kirdi va yoniga borib o‘tirdi.

— Men senga hozir bir narsa aytaman, azizim, — dedi u. — Janob Berman bugun kasalxonada vafot etibdi. Xonasida uning sariq va yashil rangda chizgan rasmlarini ko‘rdim. O‘sha qorong‘i tunda Berman devorning orqasiga pechakgul rasmini chizgan ekan. Bu so‘nggi barg — uning shoh asari!

(Ingliz tilidan Z. Asqarova tarjimasi)

TULKI BOLASI

(Hikoya)

Asad Asil

O‘rmon mergan ko‘zi ilindimi-yo‘qmi, tong bo‘zara boshlaganini ko‘ra solib o‘rnidan turib ketdi. O‘g‘ilchasining harorati baland, tuni bilan ingrab chiqqan edi. Uyguga qonmagan ovchining boshi sirqirab og‘riydi, ko‘ngli g‘ash. Buning ustiga, kech kuz havosi emasmi, qibladan izg‘irin aralash sovuq tuman yopirilib kelmoqda.

Shunaqa mijg'ov havoda issiq o'rnini tashlab, izg'iringa chiqadigan odam kamdan-kam topilsa kerak. O'rmon polvon esa, ko'ngliga bir niyat tugdimi, tamom, osmon uzilib yerga tushsa ham ahdidan qaytmaydiganlardan.

Hamyurtlari unga ikkita nom qo'ygan. Norg'ulligi uchun polvon, chumchuqni ko'zidan urishi tufayli mergan deyishadi.

Shunday qilib, mergan qarg'a "qag'" demasdan hovliga tushdi. Ammo havo ov uchun nobop edi. Buni ko'rgan O'rmonning oyog'i toqqa tortmadi. O'ringa tappa tashlab, kuni bilan uxlamoqchi, bir galgina ahdidan qaytmoqchi bo'ldi-yu, darhol o'z-o'zini koyidi: "Shu vaqtgacha qilmagan nomardlikni endi bo'yninga olamanmi? Shaytonning vasvasasiga bir gal yursam, umrbod undan qutulib bo'lmaydi. Yo'q, uyqu – g'aflat, hech bo'lmaganda qopqonlardan xabar olishim kerak". U suv o'tmas kamzulini yelkasiga tashlab, yopg'ichini boshiga ko'tardi. Uydagilarni, ayniqsa bemor o'g'lini uyg'otib yubormaslik uchun ehtiyotkorlik bilan, ammo tez harakat qilib zalvorli so'yili, chilvir, ov pichog'ini oldi, qo'shtig'ni yelkasiga osdi-da, ko'chaga qarab uch-to'rt odim tashladi. Keyin birdan to'xtab, shart ortiga burildi va o'g'ilchasi yotgan xonaga asta mo'raladi. Tuni bilan o'g'lining ikkala yuzi naqshdek qizargan edi. Xotini esa o'g'il tepasida hamon mudrab o'tirardi. Rahima ko'zini arang ochib, g'amgin yuzini eriga burdi-da:

— Bugungi ovingizni qo'ya qolsangiz bo'lmaydimi? Axir tuni bilan ko'z yummadigiz-ku, ustiga-ustak o'g'limiz... — dedi hazin tovush bilan.

Ovchi xotiniga o'qrayib qaradi. U o'zini "yo'ldan uradigan"larni yomon ko'rardi.

Ota sharpasigami yoki oyisining shivirini eshitibmi... o'g'ilchani ko'zlari ochildi. Bola har doim otasiga ko'zi tushganda nimagadir dadillanib ketardi. Tili biyronlashib qolgan bolakayning tovushi zo'r-bazo'r chiqayotgan bo'lsa ham, "sir bermay", chiranib so'radi:

— Menga nima optelasiz, ada?

O'g'ilchasi arang nafas olayotganidan burun kataklari kerilib, harorat zo'ridan ko'z qorachilari cho'g'dek yonib turardi. Buni ko'rib yuragi uvishib ketgan mergan:

— Senga tulki bolasi obkeb beraman, o'g'lim! — dedi shoshapisha uni yupatish ilinjida.

— Tirigini obteling, adajon, xo'pmi?

— Ha, ha, albatta tirigini... — deya ovchi darhol eshikni yopdi. U o'g'li yonida yana bir oz tursa, bu yerdan chiqib keta olmasligiga ko'zi yetgan edi.

Merganning ishi ovda ham hadeganda yurishavermadi. U changalzorlar oralab ketgan yon yo'llar osha bir qopqondan ikkinchisiga o'tardi-yu, hafsalasi pir bo'lardi: ular qanday qo'yilgan bo'lsa shundayligicha turgan edi. Keyingi ikkitasi ov o'rniga tuproqni ko'tarib turgan kigiz parchalarini qisib qolganligi O'rmonning ko'nglini battar g'ash qildi.

Havoning avzoyi betinim aynib bormoqda edi. Izg'irinning achchiq zahri yetmagandek, birdan qor bo'ralay boshladi. Atrofdagi tuman quyushib, besh qadam nari ko'rinmay qoldi. Pastdagi soy shovqini allaqanday noxush nola kabi eshitiladi quloqqa. "Bugun ovga chiqmasam bo'lar ekan, — afsuslandi mergan. — Mayli, oxirgi qopqonni ham borib ko'rayin-chi..."

Tog' yonbag'ridagi barcha mayda yo'llarni birlashtirgan joyga qo'yilgani uchun polvonning so'nggi ilinji shu qopqondan edi. Chindan

ham qopqon qo'yilgan joyida ko'rinmasdi. Chuqurcha ochilib yotar, tezaklar aralash tuproq ichida kigiz parchasi qolgandi, xolos.

Qopqonga boylangan qo'ra shoxi izlari ovchini soy tomon boshladi. O'rmon hovliqib, yugurgancha pastlikka tushib bordi. Katta sharshara qoshidagi olcha daraxti panasida ancha yetilib qolgan tulki bolasini ko'rib, yuragi taskin topdi. "Tiriklay olib borib, o'g'limni sevintiraman", degan quvonchli fikr o'tdi xayolidan. Odam sharpasini sezgan jonivor tez o'girilib qaradi. U ajal muqarrar ekanligiga iqror bo'libmi yoki shafqat kutibmi... dam O'rmonga, dam uning qo'lidagi so'yilga termilardi. Odatda, qopqonga tushgan hayvon odamni ko'rdi deguncha talpinib, yulqinaverguvchi edi. Bu tulki bolasi esa shumshaygancha o'tiraverdi. O'rmon tulkining miltirayotgan ko'zlariga qarab, yuragi jiz etdi. Bu ko'zlar, nimagadir, o'g'ilchasining azongi boqishlarini eslatib yuborgan edi.

Shu payt tulki oyog'ining qopqonga qisilgan joyiga ovchining ko'zi tushdi. Oyoq suyagi cho'rt uzilib ketgan, uch-to'rtta paygina ovni ushlab turardi. Bir-ikki yulqilansa, paylar uzilib, tulki qutulib ketadigandek.

O'rmon har ehtimolga qarshi so'yilni o'nqlab oldi.

Ovchining ko'nqlidagi shum niyatini sezdimi, tulkicha qopqondan qutulib ketish uchun urina boshladi. Ovchining nazarida tulkini qopqonga bog'lab turgan paylar uzilib ketgandek bo'ldi. U beixtiyor so'yil bilan bir urdi. Urishga urdi-yu, tulki bolasini tirik saqlab qolishi kerakligi shu zahoti lop etib esiga tushdi. Ammo... g'isht qolipdan ko'chgan, bitta zarbaning o'zidayoq jonivor til tortmay qolgandi. Ovchi holsiz odimlar bilan hovlisiga kirdi-yu, yolg'iz bolasini "tez yordam" kasalxonaga olib ketganini eshitdi.

...Ota nafasini sezgach, yarim behush bolaning kipriklari ohista pirpiradi-da, bir-biridan ajraldi. Tim qora ko‘zlari jovdiradi. Go‘dak jilmaymoqchi bo‘ldi, qo‘lchalarini arang ko‘tarib, otasiga cho‘zdi. O‘rmon toqat qilolmadi, bolasini dast ko‘tarib bag‘riga bosdi. Uning qulog‘i ostida o‘g‘ilchasining holsiz shiviri eshitildi:

— Ada, tirik tulki bolasi obteldiyzmi?

Ertasi, tong mahali ovchi jahd bilan yana toqqa jo‘nadi. Kun ochilib ketgan, ulug‘vor cho‘qqilar orasidan mo‘ralayotgan quyoshning zarrin nurlari ostida oppoq qor ko‘zni qamashtirardi. Tuni bilan sovuqda ochiqib qolgan kakliklar buloq bo‘ylaridagi shivarlarda timirskilanib yurishibdi. Kaptarlar qirov ketishini kutib, toshlarning ustilarida g‘uj-g‘uj bo‘lib tumshayishib o‘tirishibdi.

O‘rmon merganning avvalgi paytlari bo‘lganda-ku, ovi zap baror olardi-ya! Ammo u hozir hech qayoqqa boqmay, qopqonlari tomon shasht bilan borardi. Bugun birinchi qopqondayoq ishi yurisha boshladi: unga katta bo‘rsiq ilinibdi. Ovchini ko‘rgan jonivor bir amallab qutulib ketish uchun jon-jahdi bilan yulqinishga tushdi. Buni ko‘rgan O‘rmon do‘stlarining “topshirig‘i”ni esladi. “Bo‘rsiq ilintirsang, go‘shini qaynatma qilamiz, yog‘iga osh damlaymiz”, deyishgandi ular. Ovchining tishlari beixtiyor g‘ichirlab ketdi, sovuqdanmi, boshqa sababdanmi, ko‘zlaridan chiqqan yoshni uvushib titrayotgan mushti bilan artdi. So‘ng o‘ng qo‘li bilan bo‘rsiqning bo‘ynidan ushlab turdi-da, oyog‘ini qopqondan chiqarib qo‘yib yubordi. Bo‘rsiq ozod bo‘lganiga ishonmagandek, ovchiga birpas serryib qarab turdi, keyin uch oyoqlab chopganicha o‘zini changalzorga urdi. Ovchi hamma o‘ljalarni qopqonlardan shu alfozda ozod etdi. Orqalab olgan qopqonlarini esa... kecha tulki bolasini o‘ldirgan joyga olib tushib, katta toshlar bilan urib sindira boshladi. U xunuk ovozda baralla yig‘lab, qopqon siniqlarini har

tomonga uloqtirardi. Parranda-yu darrandalar bu telba odamning xatti-harakatlariga hayron qolgandek, kavak-kavaklardan, tosh va shox-shabbalarning panalaridan bo‘yinlarini cho‘zib qarab turardilar.

CHUMOLI BILAN CHIGIRTKA

(Hikoya)

Somerset Moem

Siz chumoli bilan chigirtka haqidagi hikoyani eshitganmisiz? Men bolaligimda maktabda shuni o‘rganishga majbur bo‘lganman. Bu oddiygina hikoya bo‘lib, yosh o‘quvchilarga ibrat bo‘lishi kerak edi. Hikoya mehnatsevarlik g‘oyasini targ‘ib qilardi. Unga ko‘ra kimki mehnatkash bo‘lsa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin-u, kimki mehnat qilmasa, biror narsaga erisha olmaydi.

Hikoyada chumoli yoz bo‘yi tinimsiz mehnat qiladi. U har kuni uyiga don tashiydi. Yoz oxiriga borib u qishga yetarli ozuqa g‘amlab qo‘yadi. Chigirtka esa umuman mehnat qilmasdan, oftobda toblanib qo‘shiq aytishdan bo‘shamaydi.

Keyin qish keladi. Chigirtkaning ovqati bo‘lmaydi. U chumolinikiga borib biror yegulik berishini so‘raydi.

“Sen yozda nima qilding?” — deya qarshi oladi uni chumoli.

“Qo‘shiq aytdim” — deydi chigirtka. — Quyoshda toblanib qo‘shiq aytdim”.

“Endi yana borib raqs tushishing mumkin”, — deydi chumoli.

O‘shanda bu hikoyani jinim suymagandi. U meni mehnatsevarlikka chorlay olmadi. U menda chumolilar berahm ekan, degan tasavvur uyg‘onishiga va chumolilardan nafratlanishimga sabab bo‘ldi. Men qayerda chumoli ko‘rsam uni bosib-yanchib, ezib o‘tib

ketadigan bo‘ldim. “Bu sening chigirtkaga rahmsizlik qilganing uchun jazo”, derdim.

Bundan bir necha kun ilgari menga chumoli bilan chigirtka hikoyasini yana eslatgan bir voqea sodir bo‘ldi. Men restoranga tushlik qilgani borgandim. U yerda do‘stim Jorj Ramseyni ko‘rib qoldim. U stolda yolg‘iz o‘tirar va juda g‘amgin ko‘rinardi.

— Salom, Jorj, — dedim unga. — Ahvollaring yaxshimi?

— Unchalik emas, — javob qildi u.

— Nima bo‘ldi? – so‘radim stolga o‘tirayotib. — Yana ukang Tommi? Yana u tufayli muammomi?

— Ha, — dedi u. — Yana Tom.

Keling, sizga avvalo Tom haqida so‘zlab beray. Har qanday yaxshi oilaning bitta nomunosib a‘zosi bo‘lganidek, Jorjning oilasida o‘sha odam – ukasi Tom edi.

Boshda Tomning ishlari juda yaxshi edi. Uning yaxshigina biznesi, xotini va ikki bolasi bor edi. Kunlarning birida u ortiq ishlashni xohlamasligini aytib qoldi. U dam olishni, rohatlanib yashashni istab qolgandi.

U oilasi va ishini tashlab, Yevropaga jo‘nab ketdi. Uning mablag‘i juda oz bo‘lib, o‘ylamasdan pullarini sovurardi. U hashamatli mehmonxonalarda turar, eng qimmat restoranlarda ovqatlanar, turli bazmlarga go‘zal ayollar bilan borardi. Qisqasi, u vaqtini juda xush o‘tkazar edi.

Uning oilasidagilar bu gaplardan xabar topishgach, afsus bilan bosh chayqashdi.

“Pullari tugagach, u qanday qilarkan?” — degan savol qiynardi ularni.

Tez orada bu savolga javob topildi. Tom hammaning yoqimtoyi edi. U juda xushchaqchaq bo‘lib, do‘stlari ham juda ko‘p edi. Puli tugagach, u do‘stlaridan qarz olardi.

Uning oladigan qarzi unchalik ko‘p miqdorda bo‘lmagani uchun do‘stlari odatda qarzni so‘rab ham o‘tirishmasdi. Men uni tez-tez uchratib turardim, u bilan hamsuhbat bo‘lish menga yoqardi va har gal uni kayfiyati chog‘ holda ko‘rardim. Lekin har ko‘rishganimizda u mendan qarz olardi.

Tom o‘zining odatiy xarajatlariga pulni do‘stlaridan olardi-yu, mabodo ko‘proq pul kerak bo‘lib qolsa, akasi Jorjning oldiga kelardi.

Jorj juda obro‘-e‘tiborli edi. U ko‘p ishlar, pulni ham o‘ylab sarflardi. U ukasining ham obro‘li odam bo‘lishini xohlardi.

Tom akasiga hayotini o‘zgartirishga va agarda Jorj unga yetarli mablag‘ bersa, ishini qaytadan boshlashga va‘da berdi.

Birinchi marta u akasidan olgan pullarni qimmatbaho mashina sotib olishga, ikkinchi safar Parijdagi mehmonxona maishatiga sarflab yubordi.

Jorj unga mutlaqo ishonmaydigan bo‘ldi. U Tomga pul berishdan bosh tortdi. Shundan so‘ng o‘ta dahshatli voqea yuz berdi. Tom qamoqxonaga tushib qolishi ma‘lum bo‘ldi. Jorj bu voqeani eshitib, juda xafa bo‘ldi. Agar Tom qamoqqa olinsa, u va uning oilasi uchun bu narsa sharmandalik hisoblanardi.

Tom Kronshav ismli kishini katta miqdordagi pulga chuv tushirgan edi. Kronshav uni sudga bergan bo‘lib, agar puli qaytarib to‘lanmasa,

Tomning qamoqqa tushishi muqarrar edi. Turgan gapki, Tom uni to‘lolmasdi. Shuning uchun Jorjning 500 funt-sterling to‘lashdan boshqa iloji qolmadi.

Jorj pulni to‘lab bo‘lgan kuniyoq, Kronshav bilan Tom Monte-Karloga jo‘nab ketishdi. Ular Monte-Karloda Jorjning pullariga kayfu safo qilib birga yurishganini ko‘rishibdi. Jorjning fig‘oni falakka chiqdi. Men uni hech ham bunchalik jahldor holatda ko‘rmagandim.

Shunday qilib yigirma yil davomida Tom baxtli hayot kechirdi. Yigirma yil davomida u go‘zal ayollar davrasida davron surdi. U qirq besh yoshga to‘lgan bo‘lsa-da, anchagina yosh ko‘rinardi. Uning do‘stlari ko‘p edi.

Jorj butun umr mehnat qildi. U har kuni saharlab ishxonasiga borardi. U ishxonasini qorong‘u tushmasdan tark etgan kunini eslay olmaydi. U topganini yig‘ib oilasi uchun sarfladi. Uning ko‘ngil yozish, hordiq chiqarishga mutlaqo vaqti bo‘lmadi. Uning yoshi atigi qirq yettida bo‘lsa-da, oltmish yoshli qariyaga o‘xshardi.

Jorj qariyotganidan mamnun edi.

“Tom ham qariyapti”, degandi u bir kuni menga. “U yosh va chiroyliligida do‘st orttirishi oson edi. To‘rt yildan so‘ng u ellikka to‘ladi. O‘shanda nima qilarkan? Men ellikka to‘lganimda o‘ttiz ming funt sterling miqdoridagi jamg‘armam bo‘ladi. Tomda esa hech vaqo bo‘lmaydi. Ko‘ramiz, umrni mehnat qilib o‘tkazgan yaxshimi yoki o‘ynab?”

Men stulga o‘tirdim. Bechora Jorj. Unga ichim achishib ketdi.

— Bu gal nima bo‘libdi? — so‘radim undan.

Men Tom yana qanday xatolikka yo‘l qo‘ydi ekan, deb o‘ylardim. Uni politsiya ushladimikan yo yana qamoqqa tushdimikan?

— Men butun umr tinimsiz mehnat qildim, to‘g‘rimi? — asta gap boshladi Jorj.

— Bilaman, — dedim men.

— Tom oxirgi yigirma yil davomida biror-bir ishning boshini tutmay, bekor yurgani uchun qolgan umrini qashshoqlik va nadomatda o‘tkazishi kerak, to‘g‘rimi?

Tasdiqlashdan o‘zga ilojim yo‘q edi. Jorj g‘azabdan bo‘g‘riqib ketdi. Uning shunchalik jahli chiqqandiki, hatto gapirolmay qoldi.

— Bir necha hafta ilgari Tom va bir qari kampirning unashtiruv marosimi bo‘lib o‘tgandi, — dedi u nihoyat. — Kampirning yoshi shunchalik katta ediki, Tom uni bemalol oyi deb chaqiraverishi mumkin edi. Bugun u o‘libdi. Tomga esa o‘zining bor mulkini qoldiribdi. Tomga uning yarim million funt-sterlingi, Londonda va qishloqda joylashgan hashamatli uyi meros bo‘lib o‘tibdi, — dedi Jorj stolni alam bilan mushtlarkan.

Men bu vaziyatda o‘zimni kulgidan to‘xtata olmasdim. Baland ovozda kulib yubordim. Yaqin orada bunchalik kulgili voqeani eshitmagandim. Chigirtka chumolidan ko‘ra omadliroq chiqqandi.

Jorj meni o‘sha kungi kulgim uchun kechirmadi. U men bilan umuman gaplashmay qo‘ydi. Tom esa meni tez-tez Londonning eng qimmat kvartalida joylashgan hashamatli uyiga tushlikka taklif qilib turadi.

Lekin u o‘zgarmagan. Hali ham uyidan chiqayotganimda mendan qarz so‘rab turadi.

(Ingliz tilidan Oygul Asilbek qizi tarjimasi)

O'RGIMCHAK UYASINING TOLASI

(Hikoya)

Akutagava Ryunoske

1

Kunlarning birida Buddha jannat hovuzining bo'yida tanho kezib yurardi. Hovuz yuzasi marvariddek oq nilufarlar bilan qoplangan, ularning gulkosalaridan chor atrofga zarif va muattar bo'y taralar edi. Jannatda tong pallasi edi.

Xayollar og'ushiga cho'mgan Buddha to'xtadi-yu, ko'zi birdan nilufar gullarining enli yaproqlari aro jilvalanayotgan suv oyinasiga tushdi.

Nilufar hovuzining tubida g'alati manzara namoyon edi.

Jannat hovuzining chuqurligi do'zaxgacha borib yetgandi. Shaffof suvda Igna tog'i va Sandzu daryosi xuddi zarrabin ko'zchasidagidek, yaqqol, ochiq-oydin ko'rinib turardi.

Tubsiz do'zax osiy bandalar bilan to'lib-toshgandi. Buddaning nigohi Kandata ismli bir osiy¹ga tushdi.

Kandata ashaddiy qaroqchilardan edi. Qarangki, juda ko'plab qabihliklar qilgan — o'ldirgan, talagan, odamlarning xonumonini kuydirgan shu bandaning nomayi a'molida ham bittagina xayrli ish bor ekan.

Kunlardan bir kun Kandata o'rmon oralab yurganida, so'qmoq ustida pildirab ketayotgan o'rgimchakka ko'zi tushadi. Kandata uni bosish uchun oyog'ini ko'taradi-yu, o'ylanib qoladi: "Yo'q, kichik bo'lsa ham, baribir tirik jonzot-ku. Bekordan-bekorga o'ldirib savob topmayman". O'rgimchakka tegmaydi.

¹ osiy – gunohkor banda

Do‘zax tasvirlarini tomosha qilarkan, Budda qaroqchi Kandataning o‘rgimchakka rahm qilganini eslab, ilojini topsa, birgina shu xayrli ishi uchun bu osiy bandani do‘zax changalidan qutqarmoqchi bo‘ldi. Tasodifni qarangki, shu payt yonida jannat o‘rgimchagini ko‘rib qoldi. O‘rgimchakdan chiqqan ajoyib kumush tola chashma toshlaridek yam-yashil nilufar yaprog‘iga ilinar edi.

Budda ehtiyotkorlik bilan tohani qo‘lga olib, uning bir uchini marvariddek oq nilufarlar orasidan suvga tushirdi. Tola eshila-cho‘zila, axiyri do‘zax tubiga yetib bordi.

2

Kandata do‘zax tubidagi Qon ko‘lida boshqa gunohkorlar qatori goh yuqoriga suzib, goh girdobga cho‘kib, ayanchli qiynoqlarga chidashga majbur edi.

Qayoqqa boqmang, hammayoqni zim-ziyo qorong‘ulik qamrab olgan. Gohi-gohida nimadir qorong‘ulikda milt-milt yorishib ko‘rinardi, xolos. Bu — dahshatli Igna tog‘ining ignalari edi. Mazkur ko‘rinishning butun dahshatini tasvirlashga so‘z topish amri-mahol. Atrof go‘yo qabristondagidek jimjit. Faqat ora-sira osiylarning unsiz xo‘rsinishi quloqqa chalinadi.

Do‘zax tubida ko‘plab azob-uqubatlarga duchor bo‘layotgan bu gunohkor bandalarning ingrash-u oh-voh qilishga ham majollari qolmagan edi. Qon ko‘lining qonida cho‘milib nafasi qaytayotgan buyuk qaroqchi Kandata ham joni uzilayotgan qurbaqadek unsiz tipirchilab qo‘yardi, xolos. U tuyqus boshini ko‘tarib, Qon ko‘lining ustidagi qorong‘ulikka qaradi. Bu timqora bo‘shliq aro, uzoq-uzoqlardagi osmondan, o‘zidan zaifgina yog‘du taratib, go‘yo boshqa gunohkorlar sezmasin uchun ehtiyotkorona bir maromda, o‘rgimchak tolasi tushib kelayotgan edi.

Kandata quvonchdan qarsak chalib yubordi. Bu tolaga ilinib olsa bas, asta-sekin yuqoriga ko‘tarilaveradi. Qarabsizki, do‘zax azobidan forig‘ bo‘lib¹ turibdi-da! Ajabmas, omadi chopib, jannatga ham tushsa. Unda hech kim hech qachon Igna tog‘ining cho‘qqisiga haydab, yana Qon ko‘liga tashlamaydi.

Shu umid yuragiga o‘t yoqib, o‘rgimchak uyasining tolasiga ikki qo‘li bilan qattiq yopishib olib, bor kuchi bilan tepaga tirmasha boshladi. Pixini yorgan² o‘g‘ri uchun bu oppa-oson ish edi.

Ammo jahannamdan jannat makonigacha ming-minglab ri³ masofa bor.

Harchand urinmasin, tog‘ tepasiga yetib olish oson bo‘lmadi. Yuqoriga tirmasha-tirmasha chiqayotgan Kandatani, ha-ha, hatto shunday pahlavonni ham charchoq yengdi. Bir nafasda osmongacha chiqolmadi. Bir muddat to‘xtab, nafas rostlashdan boshqa iloji yo‘q edi. U to‘xtab, o‘rgimchak uyasining tolasida osilgancha dam olarkan, pastga, chuqur jarlikka qaradi.

Ha, Kandataning chirmashishlari zoye ketmagan ekan. Hozirgina o‘zi azobdan qutulgan Qon ko‘li qorong‘ulik bag‘riga singib yotibdi. Jahannam tubida xira yiltirayotgan qo‘rqinchli Igna tog‘ining cho‘qqisi endi uning oyog‘i ostida. Agar yana shunday chaqqonlik bilan tirmashishda davom etsa, jahannam changalidan qutulishi aniq edi.

O‘rgimchak tolasini mahkam qisgan Kandata ko‘p yillardan so‘ng yana birinchi bor inson ovozigaga ega bo‘ldi va qah-qah otib kulganicha qichqirdi:

— Xalos bo‘ldim! Xalos bo‘ldim!

¹ forig‘ bo‘lmoq – qutulmoq

² pixini yorgan – ayyor, ustomon

³ ri – yaponlarning masofa o‘lchovi

Ammo birdan, pastda boshqa son-sanoqsiz gunohkor bandalarning ham o'rgimchak uyasining tolasiga tirmashib olganlaricha, xuddi chumolilardek saf-saf bo'lib tobora balandga o'rmalab chiqayotganliklarini ko'rdi. Bu manzaradan qo'rquv va hayratga tushgan Kandataning ko'z soqqalari o'ynab, merovlarcha¹ katta ochilgan og'zi yopilmay qoldi.

Bu nozik tola uning o'zini zo'rg'a tutib turibdi-yu, shuncha odamni qanday ko'taradi?! Tola chirt uzilsa bormi, unda o'zi ham — o'ylayapsizmi, o'zi ham! — shuncha azoblar bilan amallab ko'tarilib olganida, oyog'i osmondan bo'lib yana pastga uchadi-ya!..

U o'ylar ekan, osiy bandalar Qon ko'lining tubidan mo'r-malaxday² o'rmalab kelishar edi. Yuzlab, minglab gunohkorlar uzun zanjirdek cho'zilib, shoshganlaricha ojizgina yog'du sochayotgan o'rgimchak uyasining tolasini bo'ylab chiqishardi.

Tezroq, tezroq biror tadbir qo'llashi kerak, bo'lmasa, hozir tola uziladi-yu, jahannam qa'riga uchadi.

Shunda Kandata bor ovozi bilan hayqirib yubordi:

— Hoy osiylar! Bu tola meniki! Sizlarga kim ijozat berdi? Qani, tezda pastga tushinglar! Pastga tushinglar!

Ammo, o'sha soniyada nima bo'ldi deng?!

Shuncha vaqt bus-butun, hech bir shikastsiz turgan o'rgimchak uyasining tolasini aynan o'sha Kandata ilinib turgan joyidan chirt etib uzildi! U oh-voh qilishga ham ulgurmay, chirpirak bo'lib, shamoldek g'uvillab pastga, qorong'ulik tubiga uchib ketdi.

Faqat o'rgimchak uyasi tolasining bir kichik bo'lagigina, jahannamning yulduzsiz, oysiz osmonida ojiz shu'la taratib osilib turardi.

¹ merovlarcha – anqaygancha

² mo'r-malaxday – ko'plashib, yopirilib

Budda Nilufar hovuzining chetida turib, nimalar bo‘layotganini boshdan-oyoq kuzatdi. Kandata xuddi uloqtirilgan toshdek, Qon ko‘lining tubiga cho‘kkanida Buddaning yuzi ma’yus tortib, yana o‘z sayrida davom etdi.

Kandataning yuragiga mehr-shafqat tuyg‘usi yot edi. U qanday qilib bo‘lsa ham faqat o‘zim jahannamdan qutulib qolay, degan edi. Shunga yarasha jazosini oldi: do‘zax girdobiga itqitib yuborildi. Budda uchun bu ayanchli va ezgin manzara edi.

Nilufar ko‘lidagi nilufarlar esa bularning bariga beparvo edilar. Ularning marvariddek oppoq kosachalari Buddaning poyida ohista chayqalardi.

Buddaning har bir odimi bilan nilufarlarning gulkosalaridan chor atrofga zarif va muattar bo‘y taralardi.

Jannatda vaqt peshinga yaqinlashib qolgan edi.

(Rus tilidan Dilshod Nurulloh tarjimasi)

KITOB HAQIDA XITOB!

Kitob — insoniyat kashf etgan eng buyuk mo‘jizalardan biri!

Gutenberg janobi oliylari, avvallari yagona nusxada yaratilgan bu g‘ayrioddiy mo‘jizalarni birvarakayiga ko‘p nusxada chop etishni yo‘lga qo‘ygandan keyin ham, u o‘z sehrini, jozibasini, ohangrabosini yo‘qotmadi, aksincha ommaviylashdi, manfaati, ma’rifati, ma’naviyati ko‘proq tegadigan bo‘ldi, insoniyatni ulkan taraqqiyot sari boshladi, taraqqiyotni jadallashtirdi, ruhiyat olamida, ezgulik gulshanida inqilob yasadi!

Aslida “Kitob”, arab tilidagi “maktub” so‘zidan olingan. Qur’oni karim ham Olloh taoloning o‘z bandalariga yuborgan maktubi bo‘lgani

uchun, muqaddas Kitob — har birimizga vahiy qilib yuborilgan hukmlar, topshiriqlar, yo‘llanmalar, dasturlar majmuasi jamlangan – maktublardir.

Shuningdek, har bir shoir, har bir yozuvchi yoki har bir mutafakkir olim kitob yozar ekan, undagi har bir asar, xuddi har birimizga bittalab yozib jo‘natilgan maktublarga o‘xshaydi. Aytaylik, Ahmad Yassaviy hazratlarining har bir she’ri, o‘qisangiz, hozirgina sizga, har birimizga maxsus jo‘natilgan maktubga o‘xshaydi.

Yoinki, hazrat Alisher Navoiyning ko‘nglingiz mushtoq bo‘lib kutayotgan mujdalariga o‘xshaydi.

Yoinki, buyuk bobomiz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani har birimizga atab yozilgan ma’naviy noma, ma’rifiy vasiyatnomadir! Keng qamrovdagi olamshumul xatdir! U siyosatdonlarga siyosatdan, adabiyotchilarga adabiyotdan, ma’naviyatchilarga ma’naviyatdan, tarbiyachilarga odob-axloqdan, tilshunoslarga til fanidan, tarixchilarga tarixdan, oddiy o‘qituvchilarga esa, bu dunyoning barcha ko‘rinishlari, tovlanishlari, go‘zalliklari-yu, mudhish ishlari haqida ta’lim beruvchi, yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab beruvchi maktubdir.

Bu kitoblar butun bir xalqqa, butun bir davrga, butun-butun avlodlarga yuborilgan maktubdir!

Shaxsan men, Yassaviy, Navoiy, Qodiriy hazratlarining kitoblaridagi so‘z o‘yinlaridan, so‘zlarning billurday tovlanishidan, mavjlanib oqqan daryo suvining zebolanib kelishidan, yurakni zavqu-shavqqa to‘ldirib quvontirishidan, hayrat nash’asiga solishidan lol qolaman. Ongimga, tafakkurimga amru-farmon olaman! Har bir jumladan so‘ng buyuklar dahosiga ta’zim qilaman!

Agar, kitob haqidagi mavzumizga chuqurroq yondashib, buni “O‘tkan kunlar” timsolida batafsilroq to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘z tug‘ilib o‘sgan yurti, Vatani, millati mustamlakachilar qo‘lida qolgan, azobuqubatda ohu-faryod ko‘tarayotgan mash‘um lahzalarda bir o‘zbek ziyolisi, bir o‘zbek yozuvchisi aytishi, o‘z munosabatini bildirishi, tili bilan, dili bilan, dini bilan e‘tirozini izhor qilishi, shart bo‘lgan jarayonda, hamma gapni, hamma isyonni, barcha norozilik bandlarini, qarshilik istehkomlarini ulkan mahorat bilan, yorug‘ iste’dod, ulkan qalb, buyuk tafakkur bilan ushbu kitob orqali batafsil aytib va bizga vasiyatnoma sifatida maktub qoldirganiga shohid bo‘lamiz!

Bugungi kunda, internet qanchalik buyuk kashfiyot ekanligini anglab borayotgan odamlar, kitobning ommaviylashuvi, bir paytlar mana shunday katta shov-shuvlarga sabab bo‘lganini yaqqolroq anglamoqdalar. Ammo, yaxshi bilish kerakki, internetning ham, televideniyaning ham, radioning ham, teatrning ham otasi – bobokaloni kitobdir!

Kitob — shunday mo‘jiza ekanki, u chiqqan cho‘qqiga, u egallagan maqomga, oliy rutbaga har qanday kashfiyot chiqa olmaydi! Teatr paydo bo‘ldi, odamlar kitob o‘qimasdan, osongina tomosha qilib qo‘ya qolamiz deyishdi. Lekin, teatr bergan zavq, teatr bergan shukuh, ma‘naviy xazina kitob o‘rnini bosa olmadi. Gazeta chiqdi, radio chiqdi. Lekin ular ham inson qalbidagi ma‘naviy chanqoqni qondirolmadi.

Televideniye ommaviylashib ketdi. Lekin odamlar mujda izlab yana kitobga qaytishdi. Kino chiqdi. Hamma o‘zini kinoga urdi. Lekin, anglab yetishdiki, olaylik birgina “O‘tkan kunlar” romani yuz serialli kino qilinsa ham, ushbu kitob yaratgan olamni yarata olmas ekan. Xuddi, arava otdan oldinga o‘tib keta olmaganiday, kino ham kitobdan oldinga o‘tib keta olmas ekan. Internet chiqdi, hamma o‘zini internetga

urdi, xuddi yangi urf chiqqanda hamma o‘zini shu urfga urgandek. Va amin bo‘lishdiki, internet oddiy axborot quroli, taraqqiyotning ilg‘or mevasi va kitob orqali yaratilgan kashfiyotlarning birigina ekan, xolos. Va, odamlar yanada chuqurroq anglashdiki, teatr ham, kino ham, internet ham kitobning raqobatchilari emas, ular bari kitob tuqqan farzand, kitobning bolalari, nabiralari, evaralari, chevaralari ekan, xolos. Ular bari, shu kitob degan buyuk bobodan tarqalgan urug‘ aymoqlar, qavmu-qarindoshlar, tomiri tutashgan tug‘ishganlar ekan, xolos. Kitob degan ulkan xazinadan chiqqan javohirlar, duru gavharlar, oltin-u kumushlar ekan, xolos.

Yaxshi kitobni o‘qish, sevgiligingizning yuziga qarab o‘tirishday maroqli, odamning yuragi huzurlanadi, ongiga quvvat kirib, tafakkuri oziq oladi, dunyoqarashi o‘sadi!

Ayniqsa bu kitob siz sevgan, siz orzuqib kutgan, siz yillar davomida intiqlik bilan yuzlangan va sizning kelgusi hayotingizda ulkan o‘zgarishlar yasaydigan, bir umr hamrohingizga, sirdoshingizga, dardkashingizga aylanib qoladigan kitob bo‘lsa, bu kitob sizning bu hayotda topgan eng katta baxtingiz, omadingiz, saodatingizdir! Agar men bu dunyodan kitob o‘qimay ketganimda, gung, kar va ko‘r bo‘lib ketgan bo‘lar edim. Har bir hayotni sevuvchi inson, kitob bilan o‘z umrini, hayotini, kelajagini kitoblardagi ma’naviy javohirlar, duru-gavharlar bilan bezatishi, ziynatlashi kerak, deb bilaman.

Kitobsiz kechgan umr, bo‘m-bo‘sh, quruq va bema’nodir! Bizni qurib yotgan daraxtlar, yonayotgan uylar, ayovsiz qirg‘inlar, jaholat olovidagi urushlar, qonxo‘rliklar qanchalik vahimaga solsa, ongimizning ma’rifatsizligi, qalbimizning ma’naviyatsizligi, kitob o‘qimagan kunlarimizning ko‘pligi shuncha vahimaga solishi kerak!

Bizni uyimizda billur qandillar, shoyi gilamlar, gijinglagan mashinalar yo‘qligi xavotirga solmasligi kerak, uyimizda kitob javonining yo‘qligi, buyuklarimizning kitobi yo‘qligi, o‘zimiz ulardan bahra olmayotganimiz, bolalarimiz kitob o‘qimayotganligi vahimaga solishi kerak.

Hayotimiz qisqa va juda tez o‘tayotganligidan tashvishga tushmasligimiz kerak, bema’ni o‘tayotganidan, hayot mazmunini, yashashdan maqsadimiz nima ekanligini bilmay o‘tayotganimizdan azoblanishimiz, o‘rtanishimiz kerak va mudhish chig‘iridan chiqish yo‘llarini axtarishimiz kerak.

Hayotga nega kelganimiz, yashashning oliy maqsadi nima, odam bu yorug‘ dunyoga kelsa, nima qilsa baxtli, saodatli va yuksak ehtiromga loyiq bo‘la olishining hammasiga eng to‘g‘ri javob Kitobda bor! Bularning barini to‘rt tarafga olazarak qarab emas, Kitobga qarab topish mumkin!

Buyuk fransuz shoiri Stefan Mallarme: “Aslini olganda, odamzot birgina go‘zal kitobning dunyoga kelishi uchun yashaydi, – degan edi. Shuningdek, odamzot birgina buyuk kitobning borligi uchun ham butun hayotini bag‘ishlab yashasa arziydi!

Shuningdek, har bir kunimiz, har soatimiz, zamonamizning har bir daqiqasi yaratilishi lozim bo‘lgan buyuk kitobdir!

Shu bilan birga, bizning vazifamiz o‘sha buyuk Kitobni yaratmoq va zamondoshlarimizga, kelayotgan avlodlarga, asrlarga yo‘llamoqdir! Toki, kelajak avlodlar ham biz yaratgan Kitoblarni, qalb qo‘rimiz, jon tomirimizda oqqan qon bilan bitgan maktublarni maroq bilan o‘qisinlar, bahra olsinlar!”

Muhammad Ismoil

MUNDARIJA

1-mavzu	O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN Vatan tuyg‘usi Respublika baynalmilal madaniyat markazi <i>Orfoepiya qoidalari</i>	4
2-mavzu	O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI O‘zbek tili tarixidan Til va yozuv taraqqiyoti <i>O‘zbek tilining imlo qoidalari</i>	14
3-mavzu	MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI O‘zbek xalqining an‘analari <i>O‘zbek tilining imlo qoidalari</i>	24
4-mavzu	VATAN VA VATANPARVARLIK To‘maris afsonasi Shiroq afsonasi Ma‘rifatparvar jadidlar <i>O‘zbek tilida so‘z yasalishi</i>	32
5-mavzu	TARIX VA ZAMONAMIZ Buyuk Ipak yo‘li <i>O‘zbek tilining leksik qatlamlari</i>	44
6-mavzu	ULUG‘ AJDODLARIMIZ Sharq akademiyalari Muhammad Muso al Xorazmiy Ahmad al Farg‘oniy Abu Ali ibn Sino Mirzo Ulug‘bek <i>O‘zbek tilida sinonimlar</i>	55
7-mavzu	ADABIYOT – MA‘NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA Qadimgi adabiy yodgorliklar Badiiy adabiyot – san‘atning bir turi <i>Frazeologik birliklar</i>	67
8-mavzu	KITOB MUTOLAASI Bilimlar xazinasi Mutolaa haqida <i>Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so‘zlar</i>	76

9-mavzu	ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI Eng qadimgi kutubxonalar Ma’rifat o‘chog‘i <i>Nutq uslublari. Badiiy uslub.</i>	90
10-mavzu	SAN’AT VA MA’NAVIYAT San’at turlari Temuriylar davrida san’at <i>Esse</i>	98
11-mavzu	MUZEYLAR – O‘TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO‘PRIK Xotira maydoni Xalqaro muzeylar kuni Jahonning mashhur muzeylari <i>So‘zlashuv uslubi. Shevaga xos so‘zlar.</i>	105
12-mavzu	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI “To‘rtinchi hokimiyat” <i>Publitsistik uslub</i>	114
13-mavzu	INTERNET HAYOTIMIZDA Internet haqida o‘ylar Internet tarixidan <i>Onlayn muloqot xususiyatlari</i>	125
14-mavzu	KELAJAK BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA Qanday qilib xotirani kuchaytirmoq kerak (Umberto Eko maktubi) Nima uchun umrbod o‘qish kerak? <i>Ilmiy uslub</i>	133
15-mavzu	ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM Ta’lim va taraqqiyot Mashhur ilm dargohlari <i>Konspekt</i>	143
16-mavzu	O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM Mamlakatimizning oily ta’lim muassasalari <i>Referat</i>	153
17-mavzu	ILM SARI YO‘L Fan taraqqiyoti Fanlar akademiyasi <i>Sohaviy terminlar va soha lug‘atlari</i>	160

18-mavzu	XXI ASRDA INNOVATSIYALAR Kelajakshunoslar anjumani Hayotimizni o‘zgartirib yuborgan buyumlar <i>Ilmiy-texnikaviy leksika</i>	170
19-mavzu	HUQUQIY MADANIYAT “Kuch – adolatda” Huquq tarixidan <i>Huquqiy terminologiya</i>	176
20-mavzu	IQTISOD VA HAYOT Iqtisod tarixidan Zamonaviy iqtisodiyot <i>Iqtisodiy terminologiya</i>	186
21-mavzu	O‘ZBEKISTON VA JAHON O‘zbekiston va jahon hamjamiyati <i>Ijtimoiy-siyosiy leksika</i> Diplomatiya qoidalari <i>Rasmiy-diplomatik uslub</i>	195
22-mavzu	DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI Ekologik tanglik Ichimlik suvi tanqisligi Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi Ommaviy madaniyat nima? <i>Taqriz</i>	205
23-mavzu	TABIAT VA INSON “Qizil kitob” Orol fojiasi <i>Tezis</i>	223
24-mavzu	INSON VA SALOMATLIK Salomatligimiz o‘z qo‘limizda “Oq ajal” <i>Ilmiy maqola</i>	232
25-mavzu	IQTIDOR VA MEHNAT Albert Eynshteyn <i>Intervyu</i>	242
26-mavzu	YETUK MUTAXASSIS Mutaxassisning kompetentligi Ilmlilik va madaniyatlilik <i>Reportaj</i>	251

<i>27-mavzu</i>	ISH YURITISH TILI VA USLUBI Hujjatlar tarixidan Hujjat – ish yuritishning asosi Hujjat aylanishi	266
<i>28-mavzu</i>	HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari Hujjat rekvizitlari	272
<i>29-mavzu</i>	TASHKILY HUJJATLAR Shartnoma Nizom Yo‘riqnoma	278
<i>30-mavzu</i>	FARMOYISH HUJJATLARI Buyruq Farmoyish Ko‘rsatma	283
<i>31-mavzu</i>	MA’LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI Tarjimayi hol	287
<i>32-mavzu</i>	Bildirishnoma Tavsifnoma	291
<i>33-mavzu</i>	Ishonchnoma Tilxat	296
<i>34-mavzu</i>	Tushuntirish xati Dalolatnoma	302
<i>35-mavzu</i>	Ma’lumotnoma Hisobot	305
<i>36-mavzu</i>	Majlis bayoni Majlis bayonidan ko‘chirma	314
<i>37-mavzu</i>	XIZMAT YOZISHMALARI Xizmat xatlarining turlari	317
	MUTOLAA	322

ASILOVA GULSHAN ASADOVNA

O‘ZBEK TILI

**Oliy ta’lim bakalavriat yo‘nalishlari rus guruhlari uchun
DARSLIK**

Muharrir: Axmadjon Babajanov

Dizayner: Madina Ismailova

Texnik muharrir: Izzatilla Hayrullayev

Sahifalovchi: Abduqodir Yuldashev

“Yosh kuch” nashriyoti
Toshkent shahar, Sodiqov-13.
Nashriyot litsenziyasi Ai № 001. 20.07.2018-yil.

Terishga 03.08.2018 yilda berildi.
Bosishga 23.08.2018 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Ofset usulda chop etildi.
Buyurtma № 48. Bosma tabog‘i 27,25. Adadi 500 ta.

MCHJ “Turon Ptint” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Shayhontohur tumani,
Ipakchi ko‘chasi, 258-uy.

ISBN 978-9943-5472-5-4



9 789943 547254